

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Ro'yxatga olindi	“TASDIQLAYMAN”
№ _____ “ ” _____ 2014-yil	Buxoro davlat universiteti o'quv ishlari bo'yicha prorektor D.Q.DURDIYEV _____ “ ” _____ 2014-yil

O'ZBEK FILOLOGIYASI KAFEDRASI

TURKIY XALQLAR ADABIYOTI TARIXI
fanidan

MA`RUZALAR MATNI

Тузувчи: ф.ф.н., доц. Бекова Н.

Buxoro – 2014

1-mavzu. Turkiy xalqlarning qadimiy adabiy yodgorliklari.

Reja:

- 1.»Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi» fanining predmeti va vazifasi.
- 2.Barcha turk xalqlariga tegishli bo'lgan qadimgi folklor asarlari.
- 3.«Alpomish», «Manas», «Go'ro'g'li» kabi dostonlarning umumturkiy xususiyatlari.
- 4.Qadimgi yozma yodgorliklar haqida.
- 5.X-XII asrlar adabiy yodgorliklari.

Tayanch so'z va iboralar:

«Turkiy xalqlar adabiyoti tarixi» fanini o'rganishdan asosiy maqsad, ularning o'rtasidagi aloqani mustahkamlash ekanligi. Barcha turkiy xalqlarga tegishli adabiyotlar. «Yaratilish dostoni». Alp er To'nga haqida doston. «Manas», «Alpomish», «Go'ro'g'li» kabi dostonlardagi mushtaraklik. «O'g'iznoma» haqida, Turkiy-runik yozuvlar, «Devoni lug'otit turk», «Qutadg'u bilig», «Hibbatul haqoyiq» asarlari haqida.

Mamlakatimizda istiqlool tufayli turk ellari adabiyotini yaxlit o'rganish imkoniyatiga ega bo'ldik. Ma'lumki, kelib chiqishi bir – biriga yaqin, qarindosh bo'lgan xalqlarning tarixi, madaniyati, rivojlanishi bir ildizga borib taqaladi. Bu xalqlarning urf – odatlarida, rasm – rusmlarida, xalq og'zaki ijodida bir – biriga o'xshash holatlar juda ko'p ko'zga tashlanadi. Albatta, tarixiy taraqqiyot tufayli, keyinroq ayrim farqlar ham vujudga kelgan. Jumladan, biz o'rganayotgan turk ellari adabiyoti ham xuddi shunday tarixiy taraqqiyotni boshidan kechirgan. XX asr boshlarida ota – bobolari bir bo'lgan turk qavmlarini birlashtirish, ularning aloqalarini mustahkamlash uchun ko'p harakatlar bo'ldi. Lekin bu harakatlar turli reaksiyon kuchlar tomonidan qarshiliklarga uchradi. Bu kuchlar turkiy xalqlarning o'rtalariga nizolar solishga harakat qildi, turk qavmlarini birlashishga chorlagan ziyolilarni «panturkistlar», «ashaddiy millatchilar» deb aybladilar. Jumladan, jadid yozuvchilaridan bo'lgan Fitrat, Cholpon, Qodiriy singari buyuk ijodkorlarni xuddi shu ayblar bilan yo'q qildilar. Tarixda «Stalin repressiyasi» deb nomlangan 1937 yildagi qatog'onning eng og'ir dahshatlarini turk qavmlari o'z boshidan o'tkazdi. Turkiy qavmlarning birlashishiga to'sqinlik qiladigan juda ko'p faktorlar mavjud. Bular, birinchidan, mayda millatlarni mustamlaka qilib olish uchun intilayotgan imperialistik davlatlar siyosati bo'lsa, ikkinchidan, turkiy qavmlarning o'zidagi ichki ziddiyatlardir. Bular jaholatda qolgan, xudbin, uzoqni ko'ra bilmaydigan siyosatdonlardir. Ayniqsa, sobiq SHo'ro hukumati davrida turkiy qavmlarning ko'pchiligi mustamlaka holatida edi. Hammaga ayonki, mustamlakachi mamlakatlar qardosh xalqlarning birlashishiga doimo to'sqinlik qilib kelgan. Yurtimiz istiqloлга erishgach, ana shunday to'siqlar o'z – o'zidan yo'qoldi. Endi bu kelib chiqishi bir – biriga yaqin bo'lgan xalqlar o'rtasida tinch – totuvlik, iqtisodiy – siyosiy va madaniy aloqalarni mustahkamlash imkoniyati tug'ildi.

Ma'lumki, turkiy qavmlar deganda biz o'zbek, qazoq, qirg'iz, turkman, qoraqalpoq, uyg'ur, totor, boshqird, chuvash, ozarboyjon, qorachoy, turk, gagauz, qo'miq, balqar kabi o'ttizga yaqin millatlarni ko'zda tutishimiz kerak. Bu millatlar esa Evro–Osiyo materigining kattagina qismida joylashgan hududlarda hayot kechiradi. Ana shu qarindosh xalqlarning adabiyotini bir butun holda yaxlit o'rganish, ularning ijtimoiy – ma'naviy hayotini yaqindan anglashga yordam beradi. Yuqorida ko'rsatilgan xalqlarning eng qadimgi adabiy – madaniy yodgorligiga e'tibor bersangiz, ularda bir–biriga o'xshash asarlarning variantlariga duch kelasiz. Masalan, “Go'ro'g'li” turkumidagi dostonlarning usmonli turklarda, ozarbayjon, turkman va o'zbeklarda bir qancha variantlari uchraydi. “Alpomish”, “Manas”, “Dada Qurqut” kabi dostonlar haqida ham shuni aytish mumkin. Bunday holatni biz faqat doston janridagi asarlar misolida emas, balki xalq og'zaki ijodining boshqa janrlarida ham ko'plab uchratishimiz mumkin. Masalan, Nasriddin afandi haqidagi latifalar turk, ozarboyjon, turkman, o'zbek xalq ijodida ko'plab uchraydi. Qadimda kuylangan turli marosim va mehnat qo'shiqlari, maqollar va ertaklar haqida ham shunday holat ko'zga tashlanadi.

Dunyodagi qariyb barcha xalqlar, o'zlarining kelib chiqishi tarixi haqida turli afsona va rivoyatlar, naqlar to'qigan. Turk qavmlari haqida ham bunday rivoyat va afsonalar ko'plab uchraydi. Qadimda yozilgan ayrim tarixiy kitoblarda turk xalqlarining kelib chiqishini diniy afsonalarga bog'laydi. Ya'ni butun insoniyat tarixi Nuh payg'ambarning to'rt o'g'lidan tarqalgan avlodlardan boshlanadi. Bu afsonaga ko'ra turk qavmlari Nuhning Yofas nomli o'g'lining avlodidir. Bu albatta afsona. Lekin hozirgi kundagi ilmiy tadqiqotlar xulosasiga ko'ra turk qavmlarining asl vatani Oltoy bo'lgani, tarixiy taraqqiyot tufayli u erdagi xalqlarning turli tomonga tarqagani haqida gipotezalar mavjud. «Yaratilish dostoni» nomli asarda ham turk ellarining kelib chiqishi haqida shu xildagi gaplar keltirilgan. Eng qadimgi turk dostonlaridan biri “Alp er To'nga” nomli dostonidir. Bu doston qahramoni Alp er To'nga tarixiy shaxs bo'lib, ayrim tarixiy ma'lumotlarga qaraganda eramizdan oldingi VII asrlarda yashagan. Bu shaxs haqida ko'plab asarlarda ma'lumot beriladi. Jumladan, Mahmud Koshg'ariy o'z asarida Alp er To'nganing forscha nomi Afrosiyob deb ta'kidlab o'tgan. Firdavsiyning «Shohnoma» asarida ham Afrosiyob Turonning podshosi bo'lganligi, uning mard, jasur va tadbirkor podshoh bo'lganligi haqida ma'lumotlar beriladi. Umuman, Alp er To'nga haqida Sharq adabiyotida ko'plab asarlar yozilgan. Mahmud Koshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” kitobida Alp er To'nga haqida yozilgan dostonidan ko'plab parchalar keltirilgan. Bularda Alp er To'nganing qahramonliklari, Turon tuprog'ini chet el bosqinchilaridan himoya qilishi, Eron bilan olib borgan janglari hikoya qilinadi.

Qadimgi totemistik xarakteridagi manbalarning ayrimlarida turklarning bo'riga sig'inganini, bo'rini o'zining ajdodi deb bilgani haqida ma'lumotlar berilgan. Bu afsonada hikoya qilinishicha, dushmanlar bilan tengsiz jangda halok bo'lgan turk urug'idan bitta o'g'il bola tirik qoladi. U bola ham qattiq yarador bo'lgan. Bir ona bo'ri uni g'orga olib borib tarbiyalaydi. Ana shu bola voyaga

etgach, undan o'nta o'g'il bola tug'iladi, bular o'nta turk urug'ining asoschilari bo'ladi. Qadimga turk urug'idan bo'lgan Ashina qabilasining bayrog'ida bo'ri kallasi tasviri bo'lgan.

Turkiy xalqlarning kelib chiqishi bo'yicha "Alan Quva" to'g'risidagi afsona ham diqqatga sazovordir. Bunda Alan Quva nomli ayol turklarning eng katta onasi sifatida tasvirlangan. Bunda aytilishicha, Alan Quva juda aqlli, tadbirkor, mehribon ayol sifatida tasvirlangan. Mazkur afsonada barcha turk qavmlari Alan Quva farzandlari deyilgan. Qadimgi turkiy xalqlarning umumiy yodgorligi bo'lgan "O'g'iznoma", "Dada Qurqut" kabi dostonlar ham mavjud. Bu dostonlarda aks ettirilgan voqealarning ko'pchiligi miloddan oldingi davrlarda bo'lib o'tgan. Bizga grek tarixchilarining asarlaridan etib kelgan "To'maris", "SHiroq" nomli afsonalar ham barcha turkiy xalqlarning madaniy yodgorligi bo'lib hisoblanadi. Bundan tashqari, qadimiy turkiy xalqlar Eron tili guruhiga mansub xalqlar bilan yonma-yon yashagan. Tarixiy taraqqiyot natijasida ular bilan qo'shib, aralashib ketgan turkiy qavmlar ham bor. Bu holat ko'proq o'zbeklarda ko'zga tashlanadi. Qadimgi Xorazm hududida paydo bo'lgan zardushtiylik dini bilan bog'liq bo'lgan afsona va rivoyatlar ham bevosita turkiy xalqlarning qadimgi o'tmishiga aloqadordir. Ayniqsa, bu dinning muqaddas kitobi bo'lgan "Avesto"dan bizgacha etib kelgan parchalar madaniyatimiz tarixi juda boy va rang – barang bo'lganidan darak beradi. Zarina, Rustam, Siyovush haqidagi afsonalar ham turkiy xalqlar orasida keng tarqalgan. Qadimgi qipchoqlarning ham o'ziga xos madaniyati va folklori bo'lgan. Bu borada ham hozir katta tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Evro–Osiyo materigining juda katta hududida ko'chmanchi chorvador bo'lib yashagan qadimgi qipchoq madaniyati hozirgacha fanga noma'lum bo'lib keldi. Shuning uchun uning ko'plab obidalari o'z tadqiqotchilarini kutib yotibdi. Bu sohada I.Stebleva, N.Gumilyov, Adjumurod kabi olimlarning dastlabki ilmiy kitoblar e'lon qilindi.

Xullas, qadimgi turk madaniyati juda boy va rang – barang bo'lib, u barcha turkiy millatlar madaniyati tarixiga bevosita taalluqlidir. Bularni bir butun holda qiyosiy o'rganish turk ellari madaniyati aloqasini mustahkamlaydi va bir – biriga yaqinlashtiradi.

Umumjahon tsivilizatsiyasini yaratishda, uni rivojlantirishda turkiy xalqlarning roli juda ham kattadir. Evropada yashovchi xalqlarga temirdan foydalanishni dastlab o'rgatgan ham turkiylar bo'lib hisoblanadi. Hozirgi paytdagi olib borilayotgan ilmiy - arxeologik tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, turkiy xalqlar eramizdan oldingi davrlarda ham o'z yozuvlariga ega bo'lgan. Sibirdan topilgan temir plastinkaga bitilgan yozuvlar qadimgi davrga taalluqli ekanligi isbotlandi. Yoki Kichik Osiyodan topilgan qadimgi yozuvlarning ham turk tilida bitilgani isbotlangan. Eng qadimgi yozuv hisoblangan shumer yozuvida bitilgan "Gilgamish" dostoni "Alpomish" dostonining qadimgi varianti deb faraz qilinmoqda. Bunga o'xshash misollar keyingi yillarda ham juda ko'plab e'lon qilinmoqda.

Hozirgacha bizga eng qadimgi yodgorlik sifatida Urxun – Enisey bitiklari o'rgatilar edi. Haqiqatan ham, ushbu bitiklar bizgacha to'liq etib kelgan yagona

yodgorlik hisoblanadi. Mazkur bitiklar XVIII asr oxirlari va XIX asr boshlarida Urxun va Enisey daryolari sohillaridan topilgan bo'lib, ular V-VII asrlarda yashagan turkiy xalqlarga taalluqlidir. Ular turk runiy yozuvlari deb ham yuritiladi.

Ma'lumki, V-VII asrlarda Markaziy Osiyoda turk hoqonliklari hukmron bo'lgan. Bu hoqonliklarning boshliqlaridan bo'lgan Bilga hoqon va uning ukasi Qulteginlar turkiy xalqlarni birlashtirish uchun katta ishlarni amalga oshirgan. Ana shu turk hoqonlarining qabr toshlariga yozilgan bitiklar bizgacha to'liq etib kelgan. Bu yozuvlarni rus va chet el olimlari o'qish uchun qariyb 100 yil vaqt sarf qildi. Nihoyat bu sirli yozuvni daniyalik olim V.Tomsen birinchi bo'lib o'qishga muvaffaq bo'ldi. Bu yozuvlarda turkiy xalqlarning davlat qurishdagi olib borgan kurashlari hikoya qilingan. Jumladan, turk ellarining o'z mustaqilligi uchun Xitoy bosqinchilariga qarshi va ularning o'zaro bir –birlari bilan olib borgan urushlari tasvirlangan. Bu bitiklarda kuchli davlat qurish uchun, albatta, qardosh xalqlar birlashishi kerakligi uqtirilgan. Bu bitiklarning tarixiy asar ekanligini aytish bilan birga, uning badiiy asar ekanligini ham ta'kidlab o'tishimiz kerak. Eltarish xon o'g'illari Bilga hoqon va Kulteginlarning sarkardalik faoliyati, ularning yurt ozodligi uchun olib borgan kurashlari bugungi kunimiz uchun ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Chunki bu sarkardalar turkiy xalqlarning istiqloli va mustaqilligi uchun kurash olib bordi. Mustaqillik uchun kurash masalasi esa hozirgi turkiy xalqlarning ham eng dolzarb masalalaridan biridir. Demak, Urxun –Enisey bitiklarida tasvirlangan voqealar bugungi zamondoshlarimizga ham muhim tarbiya vositasi bo'lib xizmat qiladi. Masalan, Tunyuquq bitiklarida shunday so'zlar yozilgan: “Turk xalqi boshboshdoqlikka, o'zibo'larchilikka, beparvolikka yo'l qo'ydi... O'zining xoni bilan birga bo'lmadi. Tabg'achga taslim bo'lganligi uchun, tangri o'l degan shekilli, turk xalqi o'ldi, yo'q bo'ldi, tugadi. Turk sir xalqi erida birorta ham urug' qolmadi”.

Ko'rinib turibdiki, turk qavmlarinig ajralib ketishi natijasida ularning boshiga katta fojialar tushgan. Shundan keyin Bilga hoqon, Kultegin va Tunyuquqlar boshchiligidagi ozodlik harakati tufayli yana turk davlati qaddini tikladi. Sharqiy Turkistonda topilgan “Ta'birnoma” nomli asar ham Urxun – Enisey yozuvida bo'lib, u qog'ozga bitilgan edi. Bu yodgorlikning ham tarixiy – badiiy qimmati nihoyatda kattadir.

Arablar islom dinini turkiy xalqlar orasiga VIII asrdan boshlab tarqata boshlagan. Kavkaz va O'rta Osiyodagi turkiy xalqlarga islom dini juda katta kurashlar, urushlar bilan majburiy ravishda o'tkazildi. Keyinchalik esa ko'pgina turk elatlari bu dinni ixtiyoriy ravishda qabul qildi. Hozirgi turkiy xalqlarning ko'pchiligi islom diniga e'tiqod qiladi. CHuvash, gagauz kabi turkiy xalqlar esa xristian diniga; yoqut, oltoy kabi turkiy xalqlar esa budda diniga e'tiqod qilishadi.

Turk ellaridan etishib chiqqan sarkardalar ham tarixda juda mashhur bo'lganlar. Ular haqida ko'plab tarixiy hujjatlar bizgacha etib kelgan. Ayniqsa, turkiy xalqlar davlat qurishda, imperiyalar barpo etishda dunyoda etakchi o'rinda turadi. Faqat XIX asr oxiri va XX asrlarga kelib, turkiy xalqlar barpo etgan imperiyalar parchalanib ketdi. Buning sabablaridan biri, ular o'rtasidagi

inoqlikning yo'qligi, bir – biri bilan olib borgan nizolar va urushlar bo'ldi. Sharqda arablar istilosi bir oz susaygach, uning o'rniga dastlab Samoniylar dinastiyasi davlat tepasiga keldi. Keyinchalik esa Qoraxoniylar, Saljuqiylar, G'aznaviylar va Xorazmshohlar kabi turkiy saltanatlar vujudga kelgan edi. Bularning qariyb barchasi turkiy qavmlardan chiqqan, tarixda mashhur bo'lgan hukmdorlardan edi. Ana shular tuzgan davlatlar qariyb ming yillardan buyon yashab, davom etib kelmoqda.

X-XII asrlarda yozilgan M.Qoshg'ariyning “Devoni lug'atit turk”, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig”, Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul haqoyiq” kabi asarlari butun turkiy xalqlarning umumiy adabiy merosi bo'lib hisoblanadi. Ma'lumki, Mahmud Koshg'ariyning “Devoni lug'atit turk” asari faqat lug'at, ya'ni so'zlarining arabcha izohli tarjimasidan iborat bo'lib qolmasdan, balki u arablargacha bo'lgan davrdagi adabiyot namunalarini o'zida jamlab kelgan ajoyib badiiy asar ham bo'lib hisoblanadi. Chunki unda xalq og'zaki ijodiga oid turli maqollar, hikmatli so'zlar, qo'shiqlar, iboralar, dostonlardan parchalar ko'plab keltirilgan. Olti mingga yaqin turkcha so'zlarga arabcha izohlar berilgan. Ko'pgina turkiy qabila va urug'larning tarixi, etnografiyasi, ijtimoiy – iqtisodiy ahvoli va boshqa tomonlari haqida ham bu kitobda ma'lumotlar beriladi. Ushbu jihatdan bu asar o'z davrining qomusiy asari darajasiga ko'tarilgan. Jahon ilmi va madaniyati tarixida bu xildagi asarlarning dastlabki namunalari sifatida “Devoni lug'atit turk” asari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Chunki bu davrgacha jahon tarixida hech kim tillarni bir – biriga qiyoslab o'rganmagan edi. M.Koshg'ariy bu asarni yozishda juda katta material to'plagan. Sharqiy Turkistondan Kaspiy dengizi bo'ylarigacha bo'lgan hududda yashayotgan turk qavmlarining tilini tekshirdi. Asar 1076-1077 yillarda yozilgan bo'lib, keyinchalik u uch kitob hajmida chop etildi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg'u bilig” nomli asari ham turkiy tilda yozilgan birinchi badiiy doston bo'lib, u didaktik, ya'ni pand – nasihat xarakteridagi asardir. Yusuf Xos Hojib “Qutadg'u bilig” asarini 1069-1070 yillarda yozib tugatgan, uni qoraxoniylardan bo'lgan Tabg'ach Bug'roxonga bag'ishlagan. Asar aruz vaznining masnaviy shaklida yozilgan bo'lib, 73 bobni tashkil etadi. Bunda ijtimoiy hayotning ko'p tomonlari qalamga olingan. Jumladan, ilm-hunar egallash, til o'rganish va so'zlashish odobi, hokimiyat va hukmdorlar to'g'risida, odob va axloq, ma'rifat to'g'risida bahs yuritiladi. Asarda Kuntug'di, Oyto'ldi, Ugdulmish, Uzg'urmish kabi ramziy obrazlar vositasida muallif o'z dunyoqarashlarini ifoda etadi. “Qutadg'u bilig”da turkiy xalqlarning XI asrdagi tili yaqqol sezilib turadi. Unda arabcha va forscha so'zlar nisbatan oz uchraydi. Bu kitob tez orada katta shuhrat qozondi. Uni “Turkiy Shohnoma” ham deb atay boshladi. Ahmad Yugnakiyning “Hibbatul haqoyiq” nomli didaktik asari ham umumturkiy xalqlarga tegishli deb qabul qilingan. Kitobning avtori va yaratilgan yili haqida ma'lumotlar nihoyatda kam berilgan. Asarning til xususiyatlaridan kelib chiqib, uni XII-XIII asrlar o'rtasida yaratilgan deb xulosa chiqarish mumkin. Bu kitobda ham odob – axloq, ilm – ma'rifat masalalari ko'tarilib chiqilgan. Shunisi xarakterliki, mazkur asarda din va shariat masalalariga tasavvuf falsafasi nuqtai nazaridan yondoshilgan. Shu boisdan

bo'lsa kerak Alisher Navoiy "Nasoyimul muhabbat" nomli kitobida Ahmad Yugnakiyni mutasavvuf shoirlar qatoriga qo'shadi.

Umumturkiy adabiyotlardan yana biri sifatida "O'g'iznoma" eposini ko'rsatish mumkin. Bu asarda turkiy xalqlarning kelib chiqish tarixi har bir urug'ning shajaralari ko'rsatilgan. Asarda ko'plab she'riy parchalar ham keltirilgan. O'g'izxonning tug'ilishi bilan bog'liq bo'lgan rivoyatlar, uning davlatni boshqarish, el-yurt obodonchiligi, turkiy xalqlarning mustaqilligi, baxti uchun olib borgan kurashlari tasvirlangan.

Biz bu erda qadimgi turk eposlaridan ayrimlari haqida qisqacha to'xtalib o'tdik, xolos. Shuning o'zi ham turk ellari qadimdan juda yuqori darajadagi madaniyatga ega bo'lganligidan darak beradi. Bularni jamlab, jahonga ko'rsatadigan vaqt keldi. Yana shuni ham ta'kidlash kerakki, ko'pgina turk olimlari va yozuvchilari o'z asarlarini arab va fors tillarida yaratgan. Bu soha ham chuqur tadqiqotlar olib borishni taqoza etadi.

Adabiyotlar

1. Алькаева Л. Бабаев А. Турецкая литература. Москва, 1967.
2. Turkiya disindoki turk edebiyati antologisi, Ankara, 1998.
3. Исмоил Порлатир, Янги турк адабиёти, «Жаҳон адабиёти» журналы, 1998, 3-сон.
4. Памятники древне-тюркского письменности, Москва-Ленинград, 1951.
5. Радий Фиш. Жалолиддин Румий. Тарихий-биографик роман. Т., 1986.

2-mavzu. Usmonli turk adabiyoti.

Reja:

1. Usmonli turk xalqining og'zaki ijodi.
2. Turk adabiyotining ilk yozma yodgorliklari.
3. Turk tasavvuf adabiyoti.
4. XVII-XIX asrlar turk adabiyoti.
5. Realistik turk adabiyotining shakllanishi.

Tayanch so'z va iboralar: Folklor, «O'g'iznoma», «Go'ro'g'li», Jaloliddin Rumiyning masnaviylari. Turk hajviy adabiyoti. Turk tasavvuf adabiyoti. Romantizm ko'rinishlari. Realistik adabiyotning paydo bo'lishi. Publitsistika. Dramaturgiya. Badiiy prozaning shakllanishi. «Tanzimat adabiyoti». Yangi adabiy janrlar.

Usmonli turk xalqi turkiy qavmlarning ichida aholi jihatidan eng ko'pi va eng rivojlangani bo'lib hisoblanadi. Bu qavm o'z mustaqilligi va erki uchun asrlar davomida kurashib, murakkab tarixiy davrni boshidan kechirgan. Saljuqlarning Kichik Osiyoga yurishi munosabati bilan hozirgi turk davlatiga asos solina boshlandi. Bu davlat XI-XIV asrlarda imperiya sifatida shakllandi. Usmonli turklar nomi bilan mashhur bo'lgan bu davlat uzoq asrlar Kichik Osiyoda va uning atrofidagi hududlarda hukmronlik qildi.

Turkiya aholisining 90 foizini turklar tashkil qiladi. Bulardan tashqari, turk millatiga mansub kishilar Bolqonda, Kiprda, Evropa mamlakatlarida va boshqa joylarda ham ko'plab yashaydi. Ana shu turklar adabiyoti juda qadimdan boshlangan. U boy an'anaga ega bo'lib, janr jihatidan ham rang-barangdir. Turk halq og'zaki ijodida juda ko'plab qo'shiqlar, ertaklar, afsona va rivoyatlar mavjud. Eng qadimgi turk xalqi dostonlaridan biri «Yaratilish dostoni» bo'lib, unda insoniyatning yaratilishi, dastlabki turk ajdodlari haqida qiziqarli rivoyatlar berilgan. Ayniqsa, «O'g'iznoma» nomli dostonda qahramonlik motivlari ko'tarinki ruhda kuylangan. Bu doston bir qancha bo'limlardan iboratdir. Go'ro'g'li obrazi qatnashgan bir qancha dostonlar tsikli ham mavjud bo'lib, ular boshqa turkiy xalqlar adabiyotidagi shu tipdagi dostonlar bilan hamohangdir.

«Dada Qo'rqut» haqidagi doston ham turk xalqi folklorining eng baquvvat asarlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Bulardan tashqari turk xalq og'zaki ijodida ko'plab turli mavzulardagi mavsum-marosim, mehnat qo'shiqlari, ertaklar, latifalar va hikoyatlar uchraydi. Nasriddin Afandi nomi bilan mashhur bo'lgan latifalar dastlab turk xalqi og'zaki ijodida paydo bo'lgan.

Turklarning ham dastlabki yozma adabiyoti arab va fors tillarida yaratilgan. Chunki XI-XIV asrlarda Turkiyada saljuqlar saltanati davrida arab tili din va fan tili, fors tili esa saroy poeziyasi tili rolini o'ynar edi. Keyinchalik turk tilida ilk badiiy asarlar yaratila boshladi. Eng birinchi Turk yozuvchilaridan biri sifatida Jaloliddin Rumiyni (1207 - 1273) ko'rsatish mumkin.

Ota-bobolari asli Xorazmlik turkiy qabilalardan bo'lgan. Jaloliddin Rumi Sharq klassik adabiyotining ulug' siymolaridan biridir. Hofiz SHeroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi buyuk zotlar Jaloliddin Rumiya e'tiqod qilganlar va o'zlariga ustoz deb bilganlar.

SHoir 1207 yilda Balx shahrida tavallud topgan. Uning otasi Muhammad Bahoiddin Valad o'z davrining mashhur so'fisi, va'xoni bo'lgan. Qandaydir sabablar bilan u Balxdan Bag'dodga ko'chib ketadi, keyin esa Turkiyaning bir qancha shaharlarida yashaydi. Shu davrdagi Turk sultoni Aloiddin Kaykubod Jaloliddinning otasini Kunyo shahriga taklif qiladi. Saljuq sultonlarining bosh shahri Kunyoda ilm-ma'rifat ahllari to'plangan edi. Bahoiddin Valad shu erda madrasalarda dars berdi, va'zlar o'qidi. U juda mashhur bo'lib ketdi, uning o'qigan va'zlariga hatto Sulton Kaykubodning o'zi ham ko'pincha ishtirok etardi 1231 yili Alouddin Valad vafot etgach, uning o'rniga o'g'li Jaloliddin bosh mudarris etib tayinlandi.

Jaloliddin otasidan o'rgangan bilimlarini ishga solib, uning ishlarini davom ettirdi. Otasining mashhur shogirdi Burxoniddin Termizdan Kunyoga keladi. Uning maslahati bilan Jaloliddin Rumi 1233 yilda o'z bilimlarini yanada takomillashtirish uchun Xalabga boradi va o'z zamonasining mashhur olimi Muxiddin Ibn al-Arabiy bilan tanishadi. Bu erda u to'rt yilcha tasavvuf va fikx ilmidan saboqlar oladi. U Kunyoga qaytib kelib, yana bosh mudarris vazifasida ishladi. Uning shuhrati butun musulmon olamiga yoyilib bordi. 1244 yil Jaloliddin Rumi hayotida katta voqea yuz berdi. Kunyoga Shamsiddin Tabriziy degan darvish keldi. Bu inson o'z zamonining mashhur so'fiylaridan bo'lib,

tasavvuf ilmi sirlarini juda chuqur tushungan. Jaloliddin shu kishi bilan tanishib, u bilan umrbod yaqin do'st va maslakdosh bo'lib qoldi.

U Shams Tabriziy bilan tanishgach, uning ilhom bulog'ining ko'zi ochildi. U endi dilidagi fikrlarini she'riy yo'lda izhor qila boshladi. 54 ming misradan iborat «Devoni kabir» to'plamini yaratdi. Jaloliddin Rumiyo'z shogirdlariga ruhoniylar tushunchalarni musiqa va raqs vositasida egallash yo'lini o'rgatdi. Shoir yashagan davrdan to bugungi kunlargacha Turkiyada Jaloliddin Rumiyning «raqsi samo'»si ibodat usullaridan biri sifatida davom etib kelmoqda.

Jaloliddin Rumiyo'lti jildlik «Masnaviyo» kitobini Fariddin Attorning «Mantiquat tayr» kitobidan ilhomlanib yozgan. Bu kitob 25700 baytdan iborat bo'lib, xalq orasida «Fors tilidagi qur'on» deb juda yuqori baholanadi.

Ma'lumki, Ahmad Yassaviyo «Hikmat» devoniga kirgan she'rlarining ko'pchiligi «Qur'on» va «Hadis»lardagi ilohiy ma'nolarni sodda va tushunarli qilib turkiy tilda bayon etgan bo'lsa, ikkinchi bir turk Jaloliddin Rumiyning «Masnaviyo» si ana shu vazifani forsiy tilda bajardi. «Masnaviyo» asari ko'plab rivoyatlar asosida yozilgan, har bir rivoyatda biron-bir ibratli voqea hikoya qilinadi va bu rivoyatlar o'quvchining ongiga ta'sir qiladigan, uzoq vaqtlar saqlanib qoladigan xususiyatlarga ega. «Podsho va kanizak haqidagi rivoyat», «Baqqol va uning to'tisi haqidagi rivoyat», «Xalifa va Layli haqida hikoyat», «Uch yo'lovchi haqida hikoya», «Eshak va darvishlar haqida rivoyat» lar yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. Bulardan tashqari, Mavlono Jaloliddin yana ko'plab ruboiylar yozgan. Uning ruboiylari ham nihoyatda yuqori mahorat va katta ilhom mevasining mahsuli ekanligi bilan ajralib turadi. Shoirning «Fih-mofih», «Makotib», «Ma'jolisi sa'ba» singari asarlari ham bor. J.Rumiyning qabri Kunyo shahrida bo'lib, bu er butun musulmonlarning ziyoratgohidir.

Jaloliddin Rumiyo'ijodida tasavvuf ruhida yozilgan masnaviylar katta qismni tashkil etadi. Bular fors tilida yozilgan bo'lsa-da, turk tasavvuf adabiyotining shakllanishiga asos bo'ldi. Shoirning turk tilida yozilgan turli mavzudagi she'rlari ham anchaginadir. Jaloliddin Rumiyo'boshlab bergan an'analarni uning o'g'li Sulton Valid davom ettirdi. 1301 yilda uning turk tilida yozgan birinchi she'rlar to'plami chop etildi. Keyinchalik Yunus Emro va Oshiq Posholarning tasavvuf ruhida yozilgan she'rlari paydo bo'ldi. Ayniqsa, Oshiq Poshoning «Darveshnoma » asari turk adabiyotining rivojlanishiga katta ta'sir qildi.

Xo'ja Nasriddin (1208 - 1284)nomi bilan bog'liq bo'lgan, latifalar turkiy xalqlar ichida juda ko'p tarqalgan. U Nasriddin Afandi, Nasriddin xo'ja, Mullo Nasriddin kabi nomlar bilan mashhurdir. Ma'lumki, Nasriddin nomli shoir Turkiyada XSH asrlarda yashagan. Ayrim aniqlangan ma'lumotlarga qaraganda Xo'ja Nasriddin 1208-1284 yillarda yashagan va hayotining asosiy qismini Markaziy Onado'lidagi Oq shaharda o'tkazgan tarixiy shaxsdir. Xo'ja Nasriddinning o'zi ham talantli, dona ijodkor bo'lgan. Bu adib keyinchalik xalq tomonidan yana-da dona, zukko donishmand kishi sifatiga aylantirilgan.

Nasriddin Afandi latifalari turli mavzuda yaratilgan. Unda asosan kulgi etakchilik qiladi. Lekin bu kulgi oddiy emas, balki hammani o'ylatadigan, hayot

haqida chuqur mulohazaga chorlaydigan kulgidir. Masalan, latifalardan birida Nasriddin Afandi bolalarga yong'oq tarqatayotib: Sizlarga buni teng bo'laymi Yoki xudo berganday bo'laymi deb so'raydi. Bolalar bir ovozdan «Xudo berganday» debdi. Shunda Xo'ja Nasriddin yong'oqni ba'zilarga bir hovuch, ba'zilarga to'rt-beshta yong'oq beradi. Ayrimlariga esa umuman hech narsa bermaydi va Xudoning bergani shunday bo'ladi deb tushuntiradi.

-Ko'rayapsizlarmi, bekning o'n suruv qo'yi bor, xo'janing og'il to'la moli, Muhammadning bitta sigiri, Ahmadning esa yolg'izgina echkisi bor, Valining esa hech vaqosi yo'q.

Bu latifada kulgi bilan birga jamiyatdagi tengsizlik qoralanmoqda. Oddiy mehnatkash, kambag'al kishilarga achinish hisi sezilib turadi.

Ayrim latifalarida esa beozor kulgi ifodalanadi. Bunga «Oyimning yuzidan o'pdi», «Nega xotiningga kalish olib bermading» nomli latifalarni misol qilib keltirish mumkin.

Yozuvchi Aziz Nesin «Xo'ja Nasriddin haqida tadqiqot» maqolasida shunday fikrni bayon qiladi: «Xo'ja Nasriddinning latifalari uni yaratgan xalq ahvolini aks ettiruvchi, o'sha davrni, jamiyatni tasvirlovchi eng yaxshi asarlardir. Sirakuza hukmdori Dionisos Aflotundan Afinaning qonun qoidalarini qaysi kitobdan o'rgangan ma'qul, deb so'raganda, buyuk faylasuf unga Aristafan komediyalarini o'qishni maslaxat berdi.

Biz ham Turklada XSH asr Saljuqiylar davri ila tanishmoqchi bo'lganlarga Xo'ja Nasriddin latifalarini o'rganishni tavsiya qilamiz.

Nasriddin Xo'ja mo'g'ullar istilosi avj olgan bir davrda yashadi. Shuning uchun uning ijodida mo'g'ullar tomonidan mag'lub bo'lgan xalqning amalga oshirib bo'lmaydigan isyonkor orzulari hajv yo'li bilan ifodalangan. Yozuvchi bunday og'ir shariotda o'z latifalari bilan xalqning yuragini bo'shatib olishga, ularni ovuntirishga harakat qildi Saljuqiylar davlati zaiflashib, chiriyotgan bir paytda Xo'ja Nasriddin hajviyalari yangi kuchlarning paydo bo'lishiga, ularning rivojlanishiga dalda berdi. Yozuvchi latifalarining muhim jihati shundaki, ular xalq orasidagi nuqsonlarni, chirkin jamiyat odamlarining ko'rqqoligini, ikki yuzlamachiligini, soxtakorligini qattiq tanqid qilgandi. Biz Xo'ja Nasriddin latifalarida turk xalqining o'z ayblari ustidan o'zlari kulganligini, o'zlari o'zlariga tanbeh berganligini ko'ramiz. Mug'ullar zulmiga qarshi kurashda Xo'ja Nasriddinning zamondoshlari bo'lgan Jaloliddin Rumiy, Yunus Emrolar tasavvuf yo'lini tanlagandi. Ular tasavvuf zulmdan qutilishning birdan-bir yo'li deb tushunganlar va xalq orasidan juda ko'p tarafdorlar orttirganlar. Lekin tasavvuf zulmga qarshi norozilik tuyg'usini kuchaytirgani bilan, unga qarshi kurasholmas edi. Bu vazifani hajviya bajarar edi. Hajviya kurash tig'ini zolimlarga qaratgan yagona vosita edi. Xuddi shunday isyonkor hajviyalar Xo'ja Nasriddin nomi bilan bog'liq bo'lib, ular butun turk dunyosiga keng tarqaldi»¹.

Yunus Emro (1240 - 1320) Turk tasavvuf adabiyotining eng dong'i ketgan vakillaridan bo'lib, Ahmad Yassaviy izdoshlaridan biri sanaladi. Shoirning tug'ilgan joyi va qaerga ko'milganligi haqida aniq ma'lumot yo'q. U XSH asr

¹ «Жахон адабиёти» журналі. 1998 йил. Феврал 148 – бет.

oxiri va XV asr boshlarida yashab o'tgan. Ayrim rivoyatlarga qaraganda uch mingga yaqin she'r yozgan. Shundan mingga yaqini bizgacha etib kelgan. (Mingtasini osmonda farishtalar o'qiydi, mingtasini suvda baliqlar o'qiydi, mingtasini esa erda odamlar o'qiydi, degan rivoyat ham bor).

Tasavvuf ruhi shoir she'rlarining jon-joniga singib ketgan. U insonni ulug'lashni eng muqaddas va oliy vazifa deb tushindi. Taniqli olim Ibrohim Haqqulov shoir Yunus Emro haqida shunday deydi:

«Yunus Emro – Sir va Hayolot, Ishq va Ilohiyot shoiri. Ijodiyotining ziyosi va shukuhi ilohiy Ruh. Uning so'z hamda tasvirlari zoti mutloq madhiga yo'naltirilgan».¹

Haqiqatan ham, shoir she'rlarining aksariyat qismi Olloh va inson o'rtasidagi munosabatlar haqida fikr yuritiladi. Sabr-qanoatli bo'lish, nafsni jilovlash kabilar Yunus Emro ijodining etakchi g'oyalaridir. Shoir tasavvufning to'rt bosqichiga alohida –alohida she'rlar bag'ishlagan.

Hayot va o'lim haqida fikr yuritib, inson ruhining abadiy ekanligini ta'kidlaydi. U inson o'limini xursandchilik bilan kutub olish kerak, chunki u boqiy dunyoga, haqning visoliga qadam qo'yadi, degan fikrlarni aytadi. Lekin haqqa etish uchun inson ko'p zaxmat chekish kerak ekanligini o'qtiradi. Shuning uchun u ko'pgina she'rlarida nafs balosini engib o'tish uchun insonga katta iroda kerak ekanligi haqida gapiradi.

SHoir ba'zi she'rlarida xalqqa murojaat qilib, «tavbaga kel, tovbaga» deb xitob qiladi. Qalandarlik, darveshlik tariqatini ulug'lab, bu tariqatdagi kishilarni xudo oldida gunohlardan forig' bandalar deb ta'kidlaydi. O'zlikdan kechish, o'zni tamoman unutish, ishq yo'lida jismni butunlay qurbon qilish shoir lirik qahramonining asosiy fazilatidir. Shuning uchun «Ishqing oldi mandin mani» kabi misralar bitadi. Butun olamni, tabiatdagi barcha narsalarni allohning mahsuli deb tushunadi. Inson ham shu tabiatning bir bo'lagi, unga aralashib, qorishib ketadi. Shoir:

Goh esaman ellar kabi,
Goh shoshaman yo'llar kabi,
Goh toshaman sellar kabi,
Kel, ko'r mani ishq nayladi, -

deganida o'zini tabiat xodisalari bilan singishib, birlashib ketganini ta'kidlaydi. Xullas, shoir she'riyati asrlar davomida xalqning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda katta xizmat qilib kelmoqda.

XIV – XV asrlarda romantik yo'nalishdagi turk adabiyoti paydo bo'ldi. Yirik hajmli dostonlarda qahramonlik, ishqiy-sarguzasht kabi mavzular kuylanadi. Bularga Ahmadiyning «Iskandarnoma», Yusuf Sinan Shayxiyning «Xusrav va Shirin» dostonlarini ko'rsatish mumkin. Bu asarlar Nizomi Ganjaviyning «Xamsa» asari ta'sirida yozilgan edi. Bu davrda Ahmad Posho,

¹ Хаккулов И. Абадият фарзандлари. Тошкент, «Ёш гвардия», 1990 йил 94 – бет.

Najotiy, Mahmud Boki, Mehri Xotun singari ijodkorlarning ham ko'plab asarlari turk adabiyotining taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

Sulton Boyazid Yildirim Amir Temur tomonidan mag'lubiyatga uchragunga qadar Turkiya Jahonning eng qudratli davlatlaridan biri bo'lgan, hatto Evropadagi bir qancha davlatlarni bosib ham olgan. Shuning uchun Sulton Boyazidning yaqin kelajakda Evropaning birdan-bir hukmdori bo'lib qolishi hech gap emas edi.

XIV-XV asrlarda Turkiya jahonning eng katta ilm-fan madaniyat markazlaridan bo'lgan. Bu davrda ko'pgina mashhur olimlar, fan, madaniyat arboblari Turkiyada to'plangan. Ayniqsa Sulton Boyazid P- davrida Markaziy Osiyolik ko'pgina olimlar Turkiyada panoh topgan.

A.Navoiy ana shu Sulton Boyazid II-ga o'z g'azallarini yuborib turgan. O'sha davrdagi Turkiyaning mashhur shoiri Ahmad Posho Navoiy g'azallariga nazira bog'lagan. Navoiy g'azallariga tatabbu bog'lash turk she'riyatining mavqeini oshirdi, fors klassiklari ta'siridan qutilishga yordam berdi.

XV asrning mashhur lirik shoirlaridan biri Ahmad Posho Edirrada tug'ilgan. Uning otasi Sulton saroyida Qozi askar lavozimida ishlagan. Ahmad Posho yoshligida madrasalarda o'qib yaxshi ma'lumotlar olgan. Bursa shahridagi madrasalarda dars bergan, keyinchalik qozi lavozimida ishlagani ma'lum. Ahmad Posho xalq orasida ancha obro'ga ega bo'lib, aqlli, farosatli, bilimdon kishi sifatida taniladi. U Sulton Maxmud II fotihning ham nazariga tushib, saroyga taklif qilinadi va shoxzodlar murabbiysi etib tayinlanadi. Oradan bir oz o'tgach, u saltanatda vazir lavozimi darajasiga ko'tarildi. Ammo uning dushmanlari turli tuhmatlar qilib, shoirni zindonga tashlatadi. U zindonda o'zining mashhur asari «Karam qasidasi»ni yozadi. Bu asar shohga etib boradi. Nihoyatda katta mahorat bilan yozilgan bu kasida shohga manzur bo'ladi va Ahmad Poshoni zindondan ozod qiladi. 1481 yili ma'rifatparvar shoh Boyazid P Ahmad Poshoni Bursa viloyatiga bek etib tayinlaydi.

Ahmad Posho XU asr turk adabiyotiga aruz vaznining keng qo'llanishiga ham sababchi bo'ldi. Shu bilan birga usmonli turk adabiyotini boshqa turkiy qavmlar adabiyoti bilan aloqasini mustaxkamlashga ham xizmat qiladi.

Taniqli adabiyotshunos olim Naim Karimov o'zining «Alisher Navoiy va Ahmad Posho» (O'AS gazetasi 2002 yil, 31 iyun) nomli maqolasida qo'yidagi fikrlarni bayon etgan: «Ahmad Posho ijodi ikki tadrijiy bosqichdan iborat. Agar etti minorali qal'a zindoniga tashlanguniga qadar bo'lgan vaqtda fors shoirlari, ayniqsa, Xofizga taqlidan she'rlar yozgan va turkiy sheriyatga forsiy sheriyatning rangin jozibasini olib kirgan bo'lsa, «Bursa davri» deb atalgan ikkinchi bosqichida shoir Navoiyning maftunkor lirikasi bilan tanishadi va shu omil uning yangi ijodiy parvozi uchun xayotbaxsh zamin bo'lib xizmat etdi. Ahmad Posho ijodining gullab – yashnashi xuddi shu davrda ro'y berdi».

1480-1481 yillari Alisher Navoiy o'zining eng sara g'azallaridan 33 tasini Sulton Boyazid II ga tuxfa sifatida yuboradi. Sulton o'z saroyi shoirlarining eng talantlisi bo'lgan Ahmad Poshoga Navoiy g'azallariga javob yozishni buyuradi. Albatta bu juda katta, mas'uliyatli ish edi. Uning yozgan g'azallari Navoiy

darajasida bo'lmasa-da, har holda shu sababli o'zining shoirlik mahoratini oshirishga katta maktab vazifasini o'tadi. Masalan, Alisher Navoiyning «Ul parivashkim, bo'libman zoru sargardon anga» misralari bilan boshlanuvchi g'azaliga Ahmad Posho qo'yidagicha javob yozgan:

Ne qamardur bu ki o'lmish zulfi mushk-afshon anga,
Necha rayhondur xati kim qolmisham hayron anga.
Nomani shavqum ne nav ul oyga etgay, chunki men
El otin o'qir hasaddin yozmadim unvon anga
So'zda ushshoqi muxayyir ayla dersan Ahmado,
O'yla bulbul o'lmaga qo'yin kerak bo'ston anga.

Xullas, Ahmad Posho turk she'riyatini yangi pog'onaga ko'targan ijodkor sifatida tarixda mashhurdir. Uning ko'plab she'rlari turkiy xalqlar adabiyotining go'zal namunalari bo'lib qoladi. Ahmad Posho 1496 yili vafot etgan. Uning adabiy merosidan ko'pgina asarlar jahonning ko'pgina tillariga tarjima qilingan.

XVII asr turk adabiyotida hajviy asarlarning ko'payishi ko'zga tashlanadi. Ijtimoiy hayotdagi illatlarni fosh qilish, oddiy mehnatkashlar manfaatini himoya qilish bu davr turk adabiyotining asosiy belgilaridan biri edi. Yusufning «Hayriya» nomli dostonida dinni niqob qilib olgan jaholatparast ruhoniylar, poraxo'r qozilar va boshqa kimsalar qattiq tanqid qilindi. Oloviddin Sobit va Ahmed Nedimlar xalq ohanglari yo'lida ko'pgina she'rlar ijod qildi. Bu shoirlar ijodida turk poeziyasida yangi she'riy shakllar paydo bo'ldi. Bulardan biri .Sharqi» deb atalib, u turk xalq og'zaki ijodidagi she'riy shakllarga yaqin edi.

XVIII asrda turk tasavvuf she'riyati yana qaytadan jonlandi. Bunga misol qilib Shayx G'olibning ijodini ko'rsatish mumkin. Uning «Go'zallik va sevgi» nomli dostoni tasavvuf falsafasi ruhida yozilgan ajoyib asarlardan biridir.

Yangi turk she'riyati. XUSH asr oxiri XIX asr boshlarida turk ziyolisi G'arb ilm-fani va texnikasini o'rganishga kirishdi. Shu bilan birga frantsuz madaniy hayotini, ayniqsa frantsuz inqilobini tayyorlagan ma'rifatparvarlar ijodidan saboq ola boshladi. G'arb bilan diplomatik aloqalar kuchaydi. Harbiy maktablar ochilishi natijasida maorifda ham o'zgarishlar yuz berdi. G'arb mamlakatlaridagi oliy o'quv yurtlarida ko'plab turk talabalari o'qishdi. G'arb ziyolilarining Turkiyaga ko'plab tashrif buyurishi, frantsuz tilining keng yoyilishi mamlakat ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotida katta o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ayniqsa G'arb teatr va musiqa san'atining Turkiyaga kirib kelishi, xatto buning hukumat tomonidan ham qo'llab-quvvatlanishi katta ijtimoiy-madaniy hodisa edi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Tanzimat farmoni (1939 yil 3 noyabr) amal qila boshladi. Bunga ko'ra ijtimoiy xayotda haqiqat, adolat, qonun, tenglik, ozodlik kabi shiorlar, tushunchalar ko'tarilib chiqildi. Adabiyot ham Tanzimat harakatining ruhiga mos mavzularni yoritib boshladi. Shuning uchun bu davr adabiyoti «Tanzimat adabiyoti» deb yuritilib, uning asosiy maqsadi xalq ongida burilish yasash, uni ziyo va ma'rifat bilan qurollantirish edi. Bu adabiyotning Shinosiy, Ziyo Posha, Nomiq Kamol singari vakillarining asarlarida siyosiy va ijtimoiy voqealar etakchi g'oya ekanligining sababi ana shunda edi.

Asrlar davomida dunyoga ko'ngil ko'zi bilan qaragan turk she'ri endi aql va tafakkur yo'liga o'tayotgan edi. Eski «devon she'riyati» qanchalik go'zal tashbehtar bilan bezalmasin, u hozirgi davrning talablariga to'liq javob berolmasdi. Nomiq Kamol o'zining «Bahori donish» nomli asarining so'z boshida shunday fikrlarni bildirgan edi:

«Devonlarda bag'ri dog'li lolalardan, yoqasi yirtiq gullardan, falakka o'xshash nilufarlardan, qilchalik bellardan, ilon kabi sochlardan, sarv daraxtiday (baxaybat) bo'ylardan, o'q kabi kipriklardan, xanjar kabi g'amzalardan, daryo-daryo qonli yoshlardan, dunyoni yoqar darajadagi otashli ohlardan, ustiga paxta yopishgan jirkanch yaralardan, seyrboz qalamlardan, botmon-botmon sharob ichuvchi sarxushlardan, jinnixonalardan qochganda ko'chalarda kezib, baqirib ko'kragiga urib yuruvchi oshiqlardan, bir dilbarning sochiga taroq bo'lgan parcha-parcha ko'ngillardan voz kechilmaydi».

Albatta eski turk she'riyatini bu tarzda mubolag'ali kinoya bilan baholash o'zlarining yozgan she'rlarini xalqqa yaxshi ko'rsatish uchun qilingan harakat edi.

«Tanzimat adabiyoti» ning Rashonzoda Ekrem, Abdulhaq Xomit singari vakillari adabiyotni haqiqiy san'at bilan yaqinlashtirish g'oyasini ko'tarib chiqdilar. Ular adabiyotning birinchi vazifasi go'zallikni ko'rsatishdir deb ta'kidlab, tabiatni bitmas-tuganmas she'r manbai deb bildi.

Nomiq Kamolning «Bahori donish», Ziyosho'ning «Harobot», Abdulhaq Xomitning «Maqbar», «Akram», «Zamzama» Nojining «Otashpora» asarlari mashhur bo'ldi. «Sarvati Funun» jurnali atrofida bir adabiy to'garak tashkil etildi. Tovfiq Fikrat, Ahmad Ehsan, Xolid Ziyosho kabi taniqli adiblar ana shu jurnalda yozuvchi sifatida shakllandilar.

Tovfiq Fikratning «Xasta Cho'juq» manzumasi katta baxslarga sabab bo'ldi. She'rda ajal changalida qovurilayotgan kasal bola va uning onasining ruhiyatlari berilgan. Bu she'r g'arb adabiyoti an'analari ruhida yozilgan edi. Shundan keyin jurnal simvolizm, dekadentchilik, dadaizm singari oqimlar haqida maqolalar e'lon qildi. Janob SHaxobiddin nomli shoir birinchi bo'lib sonetlar yozib, ularda qandaydir xayoliy sevgini emas, balki chin insoniy ishqni kuyladi. Bu esa turk she'riyatida katta yangilik edi.

«**Tanzimat adabiyoti**» deb nom olgan davr Turkiyada 1839 yildan 1870 yillargacha davom etgan. Turk xalqining bu adabiyoti asosan ma'rifatparvarlik adabiyoti edi. Shaxs va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar xotin-qizlar ozodligi, antiklerikal muammolar bu adabiyotning asosiy mavzularidan edi. Bu davrda Evropa adabiyotining bir qancha namunalari Jan Jak Russo, Volter, La Martin, Molerning asarlari turk tiliga tarjima qilindi. Bu davr turk adabiyoti publitsistika, dramaturgiya, badiiy nasrning shakllanish davrini o'z boshidan kechirdi. Turk ma'rifatparvarlik adabiyotining yirik vakillaridan biri sifatida Ibrohim SHinosini ko'rsatish mumkin. U frantsuz adabiyotining yirik bilimdonlaridan biri sifatida frantsuz adabiyotining ko'pgina namunalarini turk tiliga tarjima qilgan. Ayniqsa, uning «Shoirning uylanishi» nomli komediyasi juda mashhur bo'ldi. Bu davrda yashagan Nomik Kamol esa ko'pgina vatanparvarlik va ijtimoiy-maishiy

temalardagi pesalarning avtori sifatida mashhur bo'ldi. Uning romanlari esa turk adabiyotida tarixiy roman janrining rivojlanishiga va shakllanishiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Bu davrda turk folklori asarlarini to'plab, ularni nashr etishga ham katta e'tibor berildi.

Shamsiddin Somi ham bu davrda yirik dramaturg sifatida tanildi. Talantli yozuvchi Axed Midxat esa turk adabiyotida novella janrining asoschisi sifatida tanildi. U G'arbiy Evropa adabiyotidagi novella janrining go'zal namunalari tarjima qildi va ularning ilg'or an'analarini o'z ijodida qo'lladi. Bu yozuvchilar XIX asrning o'rtalariga kelib yangi turk adabiy tilining shakllanishiga katta hissalarini qo'shdi. Natijada turk adabiy tili asta-sekinlik bilan arab va fors tillaridan olingan ko'plab atama va iboralardan tozalanib, oddiy xalq so'zlashadigan tilga yaqinlashib bordi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib turk poeziyasida katta o'zgarishlar ro'y berdi. Abdulhaq Homid, Redjonzoda Ekrem singari novator shoirlar etishib chiqdi. Bular poeziyasida yangi ritmlar va shakllar, lirik qahramonning yangi tiplari paydo bo'ldi, inson ichki kechinmalari tasviri poeziyaning asosiy ob'ekti bo'lib qoldi.

XIX asrning 70-80 yillarida ijtimoiy hayotda reaksiya hukm surdi. Adabiyotning rivojlanishiga to'sqinlik qiluvchi tsenzura kuchaydi, ko'pgina ijodkorlar hibsga olindi. Nomik Kamolga o'xshash yozuvchilar surgunda vafot etdi. Natijada ko'pgina shoirlar ijodida tushkunlik, umidsizlik ko'zga tashlana boshladi. O'sha davrda Turkiyada nashr qilingan adabiy-badiiy jurnal «Servati Funun»ning atrofiga ko'pgina progressiv turk yozuvchilari to'plandilar. Tovfiq Fikrat ana shu to'daning boshliqlaridan biri edi. Bu yozuvchilar o'z asarlarida oddiy, mehnatkash xalqning dardu g'amlarini tasvirladi. Ular mavjud tuzumga e'tiroz bildirib, asarlar yoza boshladi. Xalil Ziy o'z Ushoklagil esa turk adabiyoti tarixida birinchi realistik, Evropa adabiyotidagi novellalarga o'xshash hikoyalar yaratdi. Husayn Rahim Gyurpelar, Mehmed Rauf singari ijodkorlar o'z asarlarida yangi mavzularga murojaat qilib, o'zlari yashayotgan sotsial tuzumning illatlarini fosh qildi.

1908 yildagi «Yosh turklar» inqilobidan keyin adabiyotda turli oqimlar paydo bo'ldi, bularning o'rtasida mafkuraviy kurash davom etdi. Ana shu kurashlarda turk adabiyotida realistik metod g'olib chiqdi. Natijada realistik tendentsiya turk adabiyotining etakchi metodiga aylandi. Bu davrda ayniqsa hikoyalar juda ko'p yozildi. Rofiq Xalid Qaray, Aka Gyunduz, Umar Sayfiddin singari ijodkorlar o'z asarlarida qishloq kishilarining hayotini yoritishga kirishdi. Ayniqsa, Umar Sayfiddinning bu mavzuga bag'ishlab yozgan satirik novellalari keyingi turk realistik prozasining rivojiga katta ta'sir ko'rsatdi. Yana shuni ham ta'kidlash lozimki, Umar Sayfiddin, Xolida Edem Adivar singari ijodkorlar turk dunyosining ozodligi va ularni birlashtirish masalalarini ham o'z asarlarida ko'tarib chiqdi. Adivarning «Yangi Turon» romanida aynan shu masala aks ettirilgan.

XX asr boshlarida turk poeziyasiga Evropa simvolistlarining ta'siri katta bo'ldi. Bu davr turk poeziyasida milliy o'zini anglash mavzusida ko'plab asarlar

yaratildi. Yahyo Kamol Bayotli, Ahmed Hoshim, Ahmed Hofiz CHamlibel singari shoirlar she`riyatda yangi motivlar, yangi she`riy shakllarda bayon etildi. Poeziyada barmoq vazni asosan etakchilik qildi. Shoir Mehmed Emin YUrdakulning she`rlari ayniqsa xalq og`zaki ijodiga juda yaqin edi.

Xullas, turk klassik adabiyoti ancha murakkab yo`lni bosib o`tdi. Ming yillik adabiy merosga ega bo`lgan bu adabiyotning ajoyib an`analari mavjud. Unda Sharq adabiyotining ta`siri kuchli seziladi. XIX asrdan boshlab esa Turk adabiyotida Evropa adabiyotining ta`siri sezila boshladi.

Adabiyotlar

1. Алькаева Л. Бабаев А. Турецкая литература. Москва, 1967.
2. Turkiya disindoki turk edebiyati antolojisi, Ankara, 1998.
3. Исмоил Порлатир, Янги турк адабиёти, «Жахон адабиёти» журналы, 1998, 3-сон.
4. Памятники древне-тюркского письменности, Москва-Ленинград, 1951.
5. Радий Фиш. Жалолиддин Румий. Тарихий-биографик роман. Т., 1986.

3-mavzu. Hozirgi zamon turk adabiyoti

Reja:

1. XX asr Turkiyadagi tarixiy muhit.
2. 20-30 yillar turk adabiyoti.
3. 40-60 yillar turk adabiyoti.
4. Hozirgi zamon turk adabiyotining vakillari.
5. Keyingi yillar turk adabiyotining xususiyatlari.

**Tayanch so`z va iboralar:** Yangi turk adabiyotining xususiyatlari, sarbast she`rlar. Ijtimoiy-siyosiy voqealarning adabiyotda asosiy mavzuga aylanishi. Turk modern adabiyoti. Sabaxittin Ali, Aziz Nesin, Nozim Hikmat, Qora Osmon o`g`li kabilarning ijodiy faoliyati. R.N.Guntekin ijodidagi o`ziga xosliklar. Erk va demokratiya uchun yozilgan asarlar.

XX asrda Turkiya o`z boshidan juda katta tarixiy voqealarni kechirdi. Ikki jahon urushida ham aktiv ishtirok etgan Turkiyaning ijtimoiy-siyosiy ahvolidan tub o`zgarishlar bo`ldi. Qadimdan davom etib kelgan Usmon imperiyasi XX asr boshlariga kelib barham topdi. Birinchi jahon urushidan keyin Turkiya imperialistik davlatlar tomonidan okupatsiya qilindi. Taraqqiyparvar kuchlardan bo`lgan Kamol Otaturk boshchiligidagi bir guruh ofitserlar Turkiya ozodligi uchun kurash boshladi. Ularni Turk xalqi qo`llab quvvatladi. Natijada ular Turk Xalq Respublikasini bunyod etdi. O`lkada yangi davr boshlandi. Ana shu tarixiy voqealar bu davr turk adabiyotining asosiy tasvirlash ob`ekti bo`lib xizmat qildi. Turkiya tuprog`ini bosqinchilardan ozod etish, erk va demokratiya uchun kurashni aks ettirgan asarlar ko`paydi. Ayniqsa, 1923 yilda Turkiya Respublikasi

deb e`lon qilingach, adabiyotda milliy ozodlik mavzuida asarlar yozish yanada kuchaydi.

Adivarning «Qonli ko`ylak» romani va milliy ozodlik haqida yozgan hikoyalari, Qora Osmon o`g`lining «Sodom va Gammara», «Begona», Rashid Nuri Guntekinning «Ko`m-ko`k tun», «Bir oqshom fojeasi» kabi romanlari 20-yillar turk adabiyotining eng ko`zga ko`ringan asarlari bo`ldi. Bu asarlarda asosan yakka qahramonlar sarguzashtlari hikoya qilingan. Ular Turk xalqi birligi uchun kurashdilar, ma`rifatparvarlik va madaniy inqilobni amalga oshirsa, qishloqda yashovchi turk aholisining ham ahvolini tubdan o`zgartirish mumkin, deb hisobladilar. Boshqa bir guruh turk yozuvchilari esa ijtimoiy hayotdagi turli illatlarni, jumladan, amaldorlarning oddiy xalqqa o`tkazayotgan zulmini, ishsizlik sabablarini, jamiyatda avj olib borayotgan poraxo`rlik va tovlamachilik kabi illatlarni ayovsiz tanqid qiladi. Demokratik yozuvchilardan Sabaxitdin Ali, Sadri Ertem, Suad Darvesh, Said Foik kabilar turk adabiyotida tanqidiy realizmning rivojlashishiga katta hissa qo`shdilar.

30-yillar turk adabiyotida qishloq xo`jalik mavzusi etakchilik qildi. Badiiy adabiyotda dehqonlar hayoti, ularning orzu-istaklari turli tipik obrazlarda aks ettirildi. Sadri Ertemning «CHarx to`xtagan payt» romanida oddiy turk mehnatkashlarining og`ir hayoti, ularning o`z haq-huquqlari uchun kurashi tasvirlangan. 30-yillarda turk adabiyotida xotin-qizlar ozodligi mavzusi ham ko`proq tilga olina boshlandi. Shu bilan birga turk ishchilar sinfi va ziyolilarning jamiyatdagi o`rni haqida ham ko`plab asarlar yozildi. Bu davr ayniqsa turk hikoyachiligining (novella) taraqqiyoti ko`zga yaqqol tashlandi. Ayniqsa talantli yozuvchi Sabohattin Ali bu davrda sermahsul ijod qildi.

Sabaxittin Ali 1906 yilda Bolgariyada tug`ilgan. Otasi turk zobitlaridan bo`lgan. Yoshligida yaxshi bilim oldi. Istanbul va Berlin kabi shaharlarda o`qidi. U Germaniyada o`qigan paytda gitlerchilar hokimiyatni qo`lga kiritish uchun intilayotgan edi. Sabaxittin Ali turk millatini haqorat qilgan bir nemis ofitserini kaltaklagani uchun Germaniyadan chiqarib yuboriladi. Keyin u Turkiyaning ko`p joylarida o`qituvchilik qildi, gazeta redaksiyalarida ishladi. Yozuvchi mashhur satirik Aziz Nesin bilan birgalikda ijodiy hamkorlik qilib, «Marko Posha» nomli satirik gazeta chiqardi. Bu gazetada mavjud siyosiy tuzumning illatlarini fosh qilib, qator maqolalar chiqardi. Natijada, gazeta hukumat ma`murlari tomonidan yopib qo`yildi. Sabaxittin Ali turk ma`murlarini tanqid qilib yozgan asarlari uchun bir necha marta qamoqxonalarda ham o`tirib chiqdi. Uni 1948 yili o`rmonda o`ldirib ketishdi. Yozuvchidan ko`plab ajoyib hikoyalar, qissa va romanlar, dramatik asarlar meros bo`lib qoldi.

30-yillar turk poeziyasining etakchi shoirlaridan biri Nozim Hikmat bo`ldi. U turk she`riyatining uzoq asrlardan buyon davom etib kelayotgan an`anasini buzib, o`ziga xos yangi yo`ldan bordi. Shoir turk poeziyasida birinchi bo`lib erkin vaznda ijod qila boshladi. Bu vaznda qofiya va hijolar o`lchamiga ko`p ham e`tibor bermasdan, asosiy maqsad fikrni aniq, hammaga tushunarli qilib berish kerak. She`rda intonatsiya asosiy o`rinni egallash lozim. N. Hikmat shu sohadagi faoliyati bilan turk she`riyatida yangi yo`nalishga asos soldi. U novator shoir

sifatida adabiyot tarixida qoldi. Uning an`analari faqat turk adabiyotiga emas, balki butun turkiy tildagi xalqlar adabiyotiga ham samarali ta`sir qildi. Shu jumladan, ko`plab o`zbek shoirlari ham N. Hikmatni o`z ustozlari deb biladilar. Shoirning «Inson manzaralari» nomli she`riy to`plami talantli shoir Rauf Parfi tomonidan o`zbek tiliga tarjima qilingan.

Rashod Nuri Guntekin. XX asr Turk adabiyotining yirik namoyondasi Guntekin o`z asarlari bilan faqat Turkiyadagina emas, balki dunyoning boshqa mamlakatlarida ham mashhurdir. U 1892 yili Istanbul shahrida harbiy vrach oilasida tug`ilgan. Istanbul universitetining adabiyot fakultetini tugatib, chet ellarda o`qishini davom ettirdi.

Maktablarda o`qituvchi va xalq maorif nozirligida nazoratchi vazifalarida ishladi. 1939 yili Turkiya Buyuk millat majlisiga deputat qilib saylangan, umrining so`nggi yillarida Turkiyaning YUNESKO dagi vakili lavozimida faoliyat ko`rsatgan 1995 yilda Londonda 64 yoshida vafot etadi. Guntekinning 24 jildidan iborat kulliyoti bosilib chiqqan. Yozuvchining 19 ta romani, ko`plab pesalari va hikoyalari mavjud.

Rashod Nurining «Tamg`a», «Choliqushi» «Xazonrezi», «Yashil kecha» romanlari o`zbek tiliga tarjima qilingan. Adibning «Hiylai shar`iy», «Halola» singari dramatik asarlari ham o`zbek kitobxonlarga tanish. Guntekin asarlari betakrorligi va o`ziga xosligi bilan ajralib turadi. Yozuvchining «Yashil kecha», «Tegirmon», «Tamg`a», «Xozonrezgi» asrlarida turk mehnatkashlarining og`ir turmushi, ayollarning ijtimoiy tengsizligi o`zining realistik ifodasini topgan. Bu asarlarda jamiyatning olg`a ketishiga to`siq bo`lgan turli illatlar fosh qilingan. «Xudoning mehmoni», «Xanjar», «Hiylai SHar`iy» kabi asarlarida esa dinni niqob qilib olib, o`z manfaatini ko`zlaydigan munofiq ruhoniylar tanqid qilingan. Adibning «Labdan yurakka», «Oqshom quyoshi», «Ayol kushandasi», «Achinish», «Tog`olcha butalari», «Osmon», «Eski kasallik» kabi baquvvat romanlari ham mashhur. Ayniqsa uning «Choliqushi» romani juda ko`p chet tillarga tarjima qilingan. Romanda ziyoli oiladan chiqqan Farida ismli qizning qismatini tasvirlash asosiy syujet liniyasi qilib olingan. Ana shu obraz tasviri o`zi yashagan ijtimoiy tuzumning turli xolatlari bilan bog`lab beriladi. Natijada roman voqealari bizni Turkiyaning Birinchi Jahon urushi va undan keyingi davrlardagi tarixining badiiy kartinasi bilan bevosita tanishtiradi. Erk va ozodlikka intilayotgan turk ayolining turli illatlarga, jaxolatga qarshi kurashi nihoyatda zo`r mahorat bilan berilgan. Asarda Nizomiddin, Fotima, Xusayn, Kamron, Xayrullobiy singari obrazlar ishtirok etadi. Bularning har biri o`ziga xos ijtimoiy xarakterlarga ega bo`lgan tipik obrazlardir.

Xullas, ushbu asar yozuvchi ijodidagi eng baquvvat romanlardan biri bo`lib hisoblanadi.

Ikkinchi jahon urushi arafasi va urush davrida turk poeziyasida milliy shovinistik ruhdagi she`rlar ko`paya boshladi. Chunki Turkiya dastlab fashistlar Germaniyasi bilan ittifoq bo`lib, boshqa davlatlarga qarshi urush olib bordi. Shuning uchun turk adabiyotida ham milliy shovinistik xarakterdagi asarlar etakchilik qildi. 1944 yil Turkiya fashistlar Germaniyasi bilan aloqani uzib, unga

qarshi kurashayotgan davlatlar tarafiga o'tdi. Keyin Turk adabiyotida antifashist yozuvchilar paydo bo'ldi. Sabaxittin Ali xuddi shunday antifashist yozuvchilardan biri edi. Uning «Ichimizdagi iblis» nomli romanida fashistlarning oliy irq haqidagi g'oyalari qattiq tanqid qilingan. Ma'lumki, bunday g'oyalar Turkiyada ham keng tarqalgan edi. Ular Gitlarning oliy irq haqidagi g'oyalarini Turkiyaga ham tadbiq qilmoqchi bo'ldilar. Turk millatini boshqa millatlardan yuqori qo'yib, kuchli jamiyat qurish uchun kurash olib bordilar. Sabaxittin Alining «Ichimizdagi iblis» romani mana shu voqealar haqida hikoya qiladi. Asarda ikki turk oilasining faoliyati tasvirlangan: biri Istanbul shahrida yashovchi Emina xola oilasi bo'lsa, ikkinchisi qishloqda yashovchi bir turk oilasi edi. Yozuvchi bu ikki oila faoliyati orqali butun turk xalqining bu davrdagi hayotini, ruhiy dunyosini ko'rsatib berdi. Sabaxittin Ali bu kitobdan tashqari «Tog'lar shamoli» nomli she'riy to'plamini, uchta hikoyalar to'plamini («Tegirmon», «Arava», «Tovush») «Kuyujakalik Yusuf» kabi romanlarini ham yozgan. Urush davri turk poeziyasida ham antifashistik g'oyalar aks ettirilgan she'rlar ko'p yozilgan bo'lib, ular to hozirgi davrgacha o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Urushdan keyingi yillarda turk adabiyotida vatanparvarlik, xalqparvarlik motivlari ko'proq o'rin egalladi. Endi adabiyotning asosiy tasvirlash ob'ekti ishchilar, dehqonlar, hunarmandlar hayoti bo'lib qoldi. Mahmud Maqolning «Qishloq o'qituvchisining maktublari», «Bizning qishloq» kabi romanlarida shahardan qishloqqa borib ishlagan ziyolilar obrazi yaratildi. Ana shu mavzu Yashar Kamolning «Temirchi», Urxun Xoncherli o'g'lining «Qorong'u dunyo», Fakir Boyqurtning «Ilonlar o'chi» kabi romanlarida ham yoritilgan.

Milliy ozodlik harakati aks ettirilgan asarlardan biri sifatida Nozim Hikmatning «Ozodlik kurashi haqida doston» asarini ko'rsatish mumkin. Bu asar turmada yozilgan bo'lib, unda turk xalqining erki va ozodligi uchun kurashayotgan kishilar obrazi yoritilgan. Ma'lumki, Nozim Hikmat(1902-1963) dunyoga mashhur shoir va jamoat arbobidir. U o'z xalqining erk va ozodligi uchun kurash olib bordi. Shu bois umrining 17 yilini qamoqxonalarda o'tkazdi, o'z vatanidan uzoqda, musofirlikda yashadi. N.Hikmat turk adabiyotida katta o'zgarishlar yasagan shoir. Uning sarbast va erkin vazndagi she'rlari XX asr o'zbek she'riyatining yuksalishiga ham katta hissa bo'lib qo'shildi. N.Hikmatning «65lar», «Inson manzaralari» she'riy asarlari, «Surur» romani, «Bir sevgi afsonasi», «Turkiya haqida hikoya», «Unutilgan odam», «Domakl qilichi» singari dramatik asarlari o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. Nozim Hikmatning she'riyati asosan sarbast vaznida bo'lib, u ko'pgina shoirlarga ijodiy maktab vazifasini o'tadi. Bu she'riyat haqida shoirning vatandoshi Sadri Ertem shunday deydi: «Uning misralari erkinlikdan boshqa qonunlarni bilmaydilar. Uning she'rlaridagi harflargina emas, hatto har bir nuqta ham elektr qo'ng'irog'i tugmasidek ovoz chiqaradi. Til sohasida esa N.Hikmat hech kim qilolmagan ishni qildi. U poeziya tilini demokratlashtirish shiorini olg'a surgan shoirdir. N.Hikmat-yangilikning mujassam timsoli demakdir».

Haqiqatdan ham, shoirning ijodidagi yangiliklar keyinchalik ko'pgina ijodkorlarga ilg'or an'anaga aylandi. Bu an'ananing nafaqat turkiy xalqlar adabiyotiga, balki rus she'riyatiga ham ta'siri katta bo'lganini adabiyotshunos olimlar ta'kidlamogda. Nozim Hikmatning milliy ozodlik haqidagi ijodi an'analarini talantli turk shoirlari Kamol Tohir, Salim Xo'jag'iyoz singarilar davom ettirdilar.

Ijtimoiy hayotda demokratiya uchun kurashning faollashuvi dramaturgiya janrining rivojlanishiga ham ta'sir qildi. 60-yillardan boshlab Altan Chetin, Rafik Erdo'ran, Aziz Nesin kabi yozuvchilarning bir qancha pesalari e'lon qilindi. Ayniqsa, Xoldun Tunarning .Shobon vatan himoyachisi», «Keshanlik Ali haqida qissa» kabi dramalari katta shuhrat qozondi. Bu asarlarda G'arb va Sharq adabiyoti an'analari uyg'unlashib ketgan edi.

60-70 yillar turk poeziyasi taraqqiyotiga Fozil Doglaradja, Behget Netjatgil, Rifat Ilgiz, Ziyosmon Sabo, Badri Rahmi Ayb o'g'li kabilar katta hissa qo'shdi. Talantli yozuvchi Ilhon Berk Turkiyada modern adabiyotning yirik vakili edi. Ayniqsa bu davrda O'rxon Veli, Melix Shavkat O'nday kabi shoirlar turk adabiyotida yangi bir oqimga asos soldi. Yangi davr adabiyoti yangi poetik shakllarni taqozo etardi. Shuning uchun bu ijodkorlar zamonaviy G'arb adabiyotining an'analariga murojaat qilib, modern she'riyat shakllarini o'z ijodlarida qo'lladi. Bu turk she'riyatida yangilik edi. Qisqa va ixchamgina she'rlarda katta ijtimoiy voqealar haqida fikr yuritiladi. O'rxon Veli «Adabiyot xalq ommasining fikri, orzu-umidi bo'lmog'ini istardim. Yangi adabiyot keng xalq ommasiga murojaat qilmog'i darkor. Chunki, dunyoda hali ko'pchilik och, yalang'och, qashshoq. Shunday ekan, yangi adabiyot xalq adabiyoti bo'lib, xalqning hayotini, ular oldidagi muhim masalalarni ifoda qilsin», degan edi. O'rxon Veli, Melix O'nday va O'qto'y Rifatlar birgalikda 1941 yilda adabiy manifest va uch shoirning she'rlaridan tashkil topgan «G'aroyib» nomli kitobni nashr ettirdi. Bu poetik hamkorlik keyinchalik «Uch ayoq» nomi bilan shuhrat qazondi. Ular turk she'riyatining an'anaviy uslublarini rad qilib, kundalik hayot muammolariga, oddiy kishilarning ruxiyati tasviriga ko'proq e'tiborni qaratmoqdilar. Bu shoirlar turk xalq og'zaki ijodidan, oddiy xalqning so'zlashuv tilidan unumli foydalandilar. Haqiqatan ham, bu davr turk she'riyatining taniqli vakillari Fozil Hyusnyu Dog'larja, O'qto'y Rifat, Nevzat Ustyun, Rifat Ilgaz kabi shoirlar ijodida ijtimoiy voqealik falsafiy mushohada qilingan holatlar ko'p uchraydi. Bu asarlarda oddiy turk mehnatkashining og'ir hayoti, ochlik, qo'shshoqlik, ishsizlik kabilarning ular xayotiga doimo xavf solib turgani haqida fikr yuritiladi. Kichik-kichik hajmli she'rlarda ironiya orqali siyosiy tuzumdagi illatlar qoralanadi. Masalan, Shavkat O'nday she'rlarida hajviy ohang, piching, kesatiq kuchli sezilib turadi. Uning «Serdaromad uy» nomli she'rda turli tovlamachiliklar orqali oddiy odamlarning hisobiga boyib ketayotgan kimsalarning kirdikorlari qattiq fosh qilingan.

Kecha ikki qavat edi

Bugun uch qavat

Ertaga to'rt qavat

Indin besh qavat
Sanoqsiz daromad
Sanoqsiz qavat
O'smoqda janoblar o'smoqda
YUksalmoqda bizning mamlakat

She`rdagi so'zlarning takrorlanib kelishi, undagi yashiringan fikrni yana-da bo`rttirib ko`rsatish uchun xizmat qilmoqda.

Bundan tashqari ham, mamlakatdagi ijtimoiy tuzumni tanqid qilgan turli modernistik yozuvchilar paydo bo'ldi. Vedat Tyuralining «O'z o'zim bilan yolg'iz», Erdal Uzning «Sen yaradorsan», Xo'ja G'iyosning «Bahs» romanlari o'z davridagi mavjud ijtimoiy tuzumga qarshi e'tiroz sifatida yozildi. Kamol Bilbashar Akmach, Aziz Nesin asarlarida jamiyatdagi ishsizlik, diniy ekstremizm singari illatlar qattiq tanqid qilindi.

Ma'lumki, Aziz Nesin faqat Sharq adabiyotida emas, balki butun dunyo adabiyotidagi noyob iste'dod egalaridan biridir. Uning asarlari juda ko'p chet tillariga tarjima qilingan. O'zbek tiliga ham yozuvchining «Musht ketdi», «Hushtak afandi», «Futbol qiroli», «G'aroyib bolalar» kabi kitoblari va bir qancha hikoyalari tarjima qilingan. Yozuvchining asli ismi Mahmud Nusrat bo'lib, Aziz Nesin uning taxallusidir. U turk adabiyotiga, ayniqsa, uning hajviyasining yuksalishiga katta hissa qo'shdi.

Aziz Nesin 1915 yil Istanbul yaqinidagi qixloqda tug'ilgan. Otasi kambag'al dehqon bo'lgani uchun, unga yaxshi bilim beradigan maktablarda o'qitilmadi. U harbiy maktabga kirib, ofitser bo'lib etishadi. Lekin bu soha uni qiziqitmas edi. U adabiyotga havas qo'ydi, dastlab she'rlar yoza boshladi, keyinroq feleton va turli mavzularda hikoyalar bilan gazetalarga chiqib turdi. Yozuvchi «Tong», «Vatan», «Oqshom» kabi gazetalarida ishladi. Mashhur yozuvchi Sabaxittin Ali bilan «Marko Posho» haftaligini chiqardi. Lekin bu nashrda amaldorlar tanqid qilingani uchun hukumat tomonidan katta jarima solinib, yopib qo'yildi. Aziz Nesin, ayniqsa, hajviy hikoyalari bilan katta shuhrat qozondi. Bolalar dunyoqarashiga xos samimiy ruhda yozilgan «Futbol qiroli», «G'aroyib bolalar» kabi asarlari butun dunyoga mashhur bo'ldi. Yozuvchining «Demokratiya shunqori» hajviy hikoyasida bevosita turk davlat tuzumi, uning tsenzurasi qattiq tanqid qilingan. Asarda bir yosh muxbir turli yolg'onlarni yozdi. Eshak qo'zi tug'di, ayollar qurbaqa tug'di, osmondan baliq yog'di kabi xabarlar bilan dong taratdi. Lekin bir kuni u xalq dardini, ya'ni rost gapni yozgani uchun, politsiya uni qamab qo'ydi.

«Dahshatli tush» hikoyasida yozuvchi tushida xorijdagi bir anjumanga tushib qoladi. Undan mamlakat haqida so'raydi. U haqiqatni aytgisi keladi, ammo qo'rqadi. Keyin u qip-qizil yolg'onni gapiradi. Soxta, sun'iy gaplar bilan yurtini to'q, obod, erkin qilib ko'rsatadi. Chunki bu jamiyatda haqiqatni aytsangiz, sizni jinoyatchi sifatida qamaydi. Yaxshisi yolg'onchi bo'lish kerak, yolg'on uchun jazo yo'q. Yaxshi yolg'on gapirsang, mukofat ham beradi. «Xotin kishi bo'lganimda», «Keyin xursand bo'lasiz», «Ming marta shukur» kabi xajviyalari ham katta mahorat bilan yozilgan.

Hozirgi turk adabiyotining dong'ini dunyoga taratayotgan Mustaf o Sepitchi, Emine Ishansu, Sevinch Chokum, Mustaf o Qutlu, Xakim ug'li Ismoil, Urxon Pamuk, Kurshat Bashar kabilarni ko'rsatish mumkin.

Atigi 36 yil umr ko'rgan Umar Sayfiddin ham XX asr turk adabiyotining faxri bo'lib xisoblanadi. Uning 136 xikoyadan tashkil topgan to'plami hozir ham turk o'quvchilarining eng sevimli kitobi bo'lib qolgan. Umar Sayfiddin adabiyotning ijtimoiy vazifasi haqida shunday degan edi: "Adabiyotga faqat san'at deb qarashlariga men mutlaqo qarshiman. Yozuvchining burchi inson qalbida yovuzlikka qarshi nafrat tuyg'usini o'yg'otish, uni xar hil pastkashliklardan asrashdir".

Xullas, hozirgi turk adabiyoti ezgulik uchun xizmat qilmoqda. Bu adabiyot turli badiiy janrlarda va rang-barang mavzularda yuksalib bormoqda.

Adabiyotlar

1. Алькаева Л. Бабаев А. Турецкая литература. Краткий очерк. -Москва, 1967г.
2. Turk dili. Dil va edebiyot dergisi 1. Sayi (Nisan 1996).
3. Махмед Эмин Юрдакул. Эй, турк ўйғон. «Жаҳон адабиёти».
4. Н. Ҳикмат. Шеърлар ва поэма. Т., 1982.
5. Жалолиддин Румий. Маънавий-маснавий. Тошкент, 2002.
6. Нозим Ҳикмат. Қон гапирмас. Роман. Тошкент.1987.
7. Р.Н.Гунтекин. Чолиқуши. Роман. Тошкент 2001.
8. Азиз Несин. Фаройиб болалар. Роман ва ҳикоялар. Тошкент, 1988 йил.
9. Радий Фиш. Жалолиддин Румий. Тарихий-биографик роман. Тошкент, 1986.
10. Ҳозирги замон турк шеърляти. Тошкент 1980.
11. Турк халкининг буюк фарзанди Отатурк. Тарихий-биографик очерк Тошкет, 1998.

4-mavzu. Jaloliddin Rumiyning hayoti va ijodi. Yunus Emro ijodi.

Reja:

1. Jaloliddin Rumiyning hayoti va ijodi.
2. Jaloddin Rumi y asarlari.
3. Turk tasavvuf adabiyoti.
4. Yunus Emro haqida ma'lumotlar.
5. Yunus Emro ijodi.

Tayanch so'z va iboralar: Jaloliddin Rumiyning masnaviylari. Turk hajviy adabiyoti. Turk tasavvuf adabiyoti. Yunus Emro.

Ota-bobolari asli Xorazmlik turkiy qabilalardan bo'lgan. Jaloliddin Rumiylar Sharq klassik adabiyotining ulug' siymolaridan biridir. Hofiz SHeroziy, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy kabi buyuk zotlar Jaloliddin Rumiylarga e'tiqod qilganlar va o'zlariga ustoz deb bilganlar.

SHoir 1207 yilda Balx shahrida tavallud topgan. Uning otasi Muhammad Bahoiddin Valad o'z davrining mashhur so'fisi, va'xoni bo'lgan. Qandaydir sabablar bilan u Balxdan Bag'dodga ko'chib ketadi, keyin esa Turkiyaning bir qancha shaharlarida yashaydi. Shu davrdagi Turk sultoni Aloiddin Kaykubod Jaloliddinning otasini Kunyo shahriga taklif qiladi. Saljuq sultonlarining bosh shahri Kunyoda ilm-ma'rifat ahllari to'plangan edi. Bahoiddin Valad shu erda madrasalarda dars berdi, va'zlar o'qidi. U juda mashhur bo'lib ketdi, uning o'qigan va'zlariga hatto Sulton Kaykubodning o'zi ham ko'pincha ishtirok etardi 1231 yili Alouddin Valad vafot etgach, uning o'rniga o'g'li Jaloliddin bosh mudarris etib tayinlandi.

Jaloliddin otasidan o'rgangan bilimlarini ishga solib, uning ishlarini davom ettirdi. Otasining mashhur shogirdi Burxoniddin Termizdan Kunyoga keladi. Uning maslahati bilan Jaloliddin Rumiylar 1233 yilda o'z bilimlarini yanada takomillashtirish uchun Xalabga boradi va o'z zamonasining mashhur olimi Muxiddin Ibn al-Arabiy bilan tanishadi. Bu erda u to'rt yilcha tasavvuf va fikr ilmidan saboqlar oladi. U Kunyoga qaytib kelib, yana bosh mudarris vazifasida ishladi. Uning shuhrati butun musulmon olamiga yoyilib bordi. 1244 yil Jaloliddin Rumiylar hayotida katta voqea yuz berdi. Kunyoga Shamsiddin Tabriziy degan darvish keldi. Bu inson o'z zamonining mashhur so'fiylaridan bo'lib, tasavvuf ilmi sirlarini juda chuqur tushungan. Jaloliddin shu kishi bilan tanishib, u bilan umrbod yaqin do'st va maslakdosh bo'lib qoldi.

U Shams Tabriziy bilan tanishgach, uning ilhom bulog'ining ko'zi ochildi. U endi dilidagi fikrlarini she'riy yo'lda izhor qila boshladi. 54 ming misradan iborat «Devoni kabir» to'plamini yaratdi. Jaloliddin Rumiylar o'z shogirdlariga ruhoniylar tushunchalarni musiqa va raqs vositasida egallash yo'lini o'rgatdi. SHoir yashagan davrdan to bugungi kunlargaacha Turkiyada Jaloliddin Rumiylarning «raqsi samo'»si ibodat usullaridan biri sifatida davom etib kelmoqda.

Jaloliddin Rumiylar olti jildlik «Masnaviylar» kitobini Fariddin Attorning «Mantiqut tayr» kitobidan ilhomlanib yozgan. Bu kitob 25700 baytdan iborat bo'lib, xalq orasida «Fors tilidagi qur'on» deb juda yuqori baholanadi.

Ma'lumki, Ahmad Yassaviylar « Hikmat» devoniga kirgan she'rlarining ko'pchiligi «Qur'on» va «Hadis»lardagi ilohiy ma'nolarni sodda va tushunarli qilib turkiy tilda bayon etgan bo'lsa, ikkinchi bir turk Jaloliddin Rumiylarning «Masnaviylar» si ana shu vazifani forsiy tilda bajardi. «Masnaviylar» asari ko'plab rivoyatlar asosida yozilgan, har bir rivoyatda biron-bir ibratli voqea hikoya qilinadi va bu rivoyatlar o'quvchining ongiga ta'sir qiladigan, uzoq vaqtlar saqlanib qoladigan xususiyatlarga ega. «Podsho va kanizak haqidagi rivoyat», «Baqqol va uning to'tisi haqidagi rivoyat», «Xalifa va Layli haqida hikoyat», «Uch yo'lovchi haqida hikoya», «Eshak va darvishlar haqida rivoyat» lar yuqoridagi fikrimizga dalil bo'la oladi. Bulardan tashqari, Mavlono Jaloliddin

yana ko'plab ruboiylar yozgan. Uning ruboiylari ham nihoyatda yuqori mahorat va katta ilhom mevasining mahsuli ekanligi bilan ajralib turadi. Shoirning «Fih-mofih», «Makotib», «Ma'jolisi sa'ba» singari asarlari ham bor. J.Rumiyning qabri Kunyo shahrida bo'lib, bu er butun musulmonlarning ziyoratgohidir.

Jaloliddin Rumi ijodida tasavvuf ruhida yozilgan masnaviylar katta qismni tashkil etadi. Bular fors tilida yozilgan bo'lsa-da, turk tasavvuf adabiyotining shakllanishiga asos bo'ldi. Shoirning turk tilida yozilgan turli mavzudagi she'rlari ham anchaginadir. Jaloliddin Rumi boshlab bergan an'analarni uning o'g'li Sulton Valid davom ettirdi. 1301 yilda uning turk tilida yozgan birinchi she'rlar to'plami chop etildi. Keyinchalik Yunus Emro va Oshiq Posholarning tasavvuf ruhida yozilgan she'rlari paydo bo'ldi. Ayniqsa, Oshiq Poshoning «Darveshnoma» asari turk adabiyotining rivojlanishiga katta ta'sir qildi.

Xo'ja Nasriddin (1208 - 1284) nomi bilan bog'liq bo'lgan, latifalar turkiy xalqlar ichida juda ko'p tarqalgan. U Nasriddin Afandi, Nasriddin xo'ja, Mullo Nasriddin kabi nomlar bilan mashhurdir. Ma'lumki, Nasriddin nomli shoir Turkiyada XSH asrlarda yashagan. Ayrim aniqlangan ma'lumotlarga qaraganda Xo'ja Nasriddin 1208-1284 yillarda yashagan va hayotining asosiy qismini Markaziy Onado'lidagi Oq shaharda o'tkazgan tarixiy shaxsdir. Xo'ja Nasriddinning o'zi ham talantli, dona ijodkor bo'lgan. Bu adib keyinchalik xalq tomonidan yana-da dona, zukko donishmand kishi sifatiga aylantirilgan.

Nasriddin Afandi latifalari turli mavzuda yaratilgan. Unda asosan kulgi etakchilik qiladi. Lekin bu kulgi oddiy emas, balki hammani o'ylatadigan, hayot haqida chuqur mulohazaga chorlaydigan kulgidir. Masalan, latifalardan birida Nasriddin Afandi bolalarga yong'oq tarqatayotib: Sizlarga buni teng bo'laymi Yoki xudo berganday bo'laymi deb so'raydi. Bolalar bir ovozdan «Xudo berganday» debdi. Shunda Xo'ja Nasriddin yong'oqni ba'zilarga bir hovuch, ba'zilarga to'rt-beshta yong'oq beradi. Ayrimlariga esa umuman hech narsa bermaydi va Xudoning bergani shunday bo'ladi deb tushuntiradi.

-Ko'rayapsizlarmi, bekning o'n suruv qo'yi bor, xo'janing og'il to'la moli, Muhammadning bitta sigiri, Ahmadning esa yolg'izgina echkisi bor, Valining esa hech vaqosi yo'q.

Bu latifada kulgi bilan birga jamiyatdagi tengsizlik qoralanmoqda. Oddiy mehnatkash, kambag'al kishilarga achinish hisi sezilib turadi.

Ayrim latifalarida esa beozor kulgi ifodalanadi. Bunga «Oyimning yuzidan o'pdi», «Nega xotiningga kalish olib bermading» nomli latifalarni misol qilib keltirish mumkin.

YOzuvchi Aziz Nesin «Xo'ja Nasriddin haqida tadqiqot» maqolasida shunday fikrni bayon qiladi: «Xo'ja Nasriddinning latifalari uni yaratgan xalq ahvolini aks ettiruvchi, o'sha davrni, jamiyatni tasvirlovchi eng yaxshi asarlardir. Sirakuza hukmdori Dionisos Aflotundan Afinaning qonun qoidalarini qaysi kitobdan o'rgangan ma'qul, deb so'raganda, buyuk faylasuf unga Aristafan komediyalarini o'qishni maslaxat berdi.

Biz ham Turklada XSH asr Saljuqiylar davri ila tanishmoqchi bo'lganlarga Xo'ja Nasriddin latifalarini o'rganishni tavsiya qilamiz.

Nasriddin Xo'ja mo'g'ullar istilosi avj olgan bir davrda yashadi. Shuning uchun uning ijodida mo'g'ullar tomonidan mag'lub bo'lgan xalqning amalga oshirib bo'lmaydigan isyonkor orzulari hajv yo'li bilan ifodalangan. Yozuvchi bunday og'ir shariotda o'z latifalari bilan xalqning yuragini bo'shatib olishga, ularni ovuntirishga harakat qildi Saljuqiylar davlati zaiflashib, chiriyotgan bir paytda Xo'ja Nasriddin hajviyalari yangi kuchlarning paydo bo'lishiga, ularning rivojlanishiga dalda berdi. Yozuvchi latifalarining muhim jihati shundaki, ular xalq orasidagi nuqsonlarni, chirkin jamiyat odamlarining ko'rqqoqligini, ikki yuzlamachiligini, soxtakorligini qattiq tanqid qilgandi. Biz Xo'ja Nasriddin latifalarida turk xalqining o'z ayblari ustidan o'zlari kulganligini, o'zlari o'zlariga tanbeh berganligini ko'ramiz. Mug'ullar zulmiga qarshi kurashda Xo'ja Nasriddining zamondoshlari bo'lgan Jaloliddin Rumiy, Yunus Emrolar tasavvuf yo'lini tanlagandi. Ular tasavvuf zulmdan qutilishning birdan-bir yo'li deb tushunganlar va xalq orasidan juda ko'p tarafdorlar orttirganlar. Lekin tasavvuf zulmga qarshi norozilik tuyg'usini kuchaytirgani bilan, unga qarshi kurasholmas edi. Bu vazifani hajviya bajarar edi. Hajviya kurash tig'ini zolimlarga qaratgan yagona vosita edi. Xuddi shunday isyonkor hajviyalar Xo'ja Nasriddin nomi bilan bog'liq bo'lib, ular butun turk dunyosiga keng tarqaldi»¹.

Yunus Emro (1240 - 1320) Turk tasavvuf adabiyotining eng dong'i ketgan vakillaridan bo'lib, Ahmad Yassaviy izdoshlaridan biri sanaladi. Shoirning tug'ilgan joyi va qaerga ko'milganligi haqida aniq ma'lumot yo'q. U XSH asr oxiri va XV asr boshlarida yashab o'tgan. Ayrim rivoyatlarga qaraganda uch mingga yaqin she'r yozgan. Shundan mingga yaqini bizgacha etib kelgan. (Mingtasini osmonda farishtalar o'qiydi, mingtasini suvda baliqlar o'qiydi, mingtasini esa erda odamlar o'qiydi, degan rivoyat ham bor).

Tasavvuf ruhi shoir she'rlarining jon-joniga singib ketgan. U insonni ulug'lashni eng muqaddas va oliy vazifa deb tushindi. Taniqli olim Ibrohim Haqqulov shoir Yunus Emro haqida shunday deydi:

«Yunus Emro – Sir va Hayolot, Ishq va Ilohiyot shoiri. Ijodiyotining ziyosi va shukhi ilohiy Ruh. Uning so'z hamda tasvirlari zoti mutloq madhiga yo'naltirilgan».¹

Haqiqatan ham, shoir she'rlarining aksariyat qismi Olloh va inson o'rtasidagi munosabatlar haqida fikr yuritiladi. Sabr-qanoatli bo'lish, nafsni jilovlash kabilar Yunus Emro ijodining etakchi g'oyalaridir. Shoir tasavvufning to'rt bosqichiga alohida –alohida she'rlar bag'ishlagan.

Hayot va o'lim haqida fikr yuritib, inson ruhining abadiy ekanligini ta'kidlaydi. U inson o'limini xursandchilik bilan kutub olish kerak, chunki u boqiy dunyoga, haqning visoliga qadam qo'yadi, degan fikrlarni aytadi. Lekin haqqa etish uchun inson ko'p zaxmat chekish kerak ekanligini o'qtiradi. Shuning

¹ «Жаҳон адабиёти» журнали. 1998 йил. Феврал 148 – бет.

¹ Ҳаққулов И. Абодият фарзандлари. Тошкент, «Ёш гвардия», 1990 йил 94 – бет.

uchun u ko'pgina she'rlarida nafs balosini engib o'tish uchun insonga katta iroda kerak ekanligi haqida gapiradi.

SHoir ba'zi she'rlarida xalqqa murojaat qilib, «tavgaga kel, tovgaga» deb xitob qiladi. Qalandarlik, darveshlik tariqatini ulug'lab, bu tariqatdagi kishilarni xudo oldida gunohlardan forig' bandalar deb ta'kidlaydi. O'zlikdan kechish, o'zni tamoman unutish, ishq yo'lida jismni butunlay qurbon qilish shoir lirik qahramonining asosiy fazilatidir. Shuning uchun «Ishqing oldi mandin mani» kabi misralar bitadi. Butun olamni, tabiatdagi barcha narsalarni allohning mahsuli deb tushunadi. Inson ham shu tabiatning bir bo'lagi, unga aralashib, qorishib ketadi. Shoir:

Goh esaman ellar kabi,
Goh shoshaman yo'llar kabi,
Goh toshaman sellar kabi,
Kel, ko'r mani ishq nayladi, -

deganida o'zini tabiat xodisalari bilan singishib, birlashib ketganini ta'kidlaydi. Xullas, shoir she'riyati asrlar davomida xalqning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishda katta xizmat qilib kelmoqda.

Adabiyotlar

- 1.Алькаева Л. Бабаев А. Турецкая литература. Москва,1967.
2. Turkiya disindoki turk edebiyati antolojisi, Ankara, 1998.
3. Исмоил Порлатир, Янги турк адабиёти, «Жаҳон адабиёти» журналы, 1998, 3-сон.
4. Памятники древне-тюркского письменности, Москва-Ленинград, 1951.
5. Радий Фиш. Жалолиддин Румий. Тарихий-биографик роман. Т.,1986.

5-mavzu. Ozarbayjon adabiyoti

Reja:

1. Ozarbayjon folklori.
2. Ozarbayjon realistik adabiyotining shakllanishi.

Tayanch so'z va iboralar: “Go'ro'g'li”, “Kitobi dada Qurqut”. Janubiy Ozarbayjon adabiyoti. Shervoniy, Nizomiy Ganjaviy. “Xamsa”. Panteistik oqim. Muhammad Fuzuliy. “Layli va Majnun”. Adabiy an'analar.

Kavkaz xalqlari orasida ozarbayjonlar o'zlarining eng qadimgi boy madaniyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Ozarbayjon xalq og'zaki ijodi asarlari janr jihatidan rang – barang bo'lib, u nihoyatda ko'plab mavzularda yaratilgan. Ko'pgina xalq dostonlari, ertaklari o'zbek folklori bilan tematik tomondan o'xshashdir. Masalan, “Ko'r o'g'li”, “Oshiq g'arib”, “SHox Ismoil”, “Asli va Karam” kabi dostonlarning izlarini o'zbek folklaridan ham topish

mumkin. Melik – Mamed, Kal Ahmad sarguzashtlarini hikoya qiluvchi latifalar esa Nasriddin Afandi va Aldar Ko'sa, latifalariga hamohangdir. "Kitobi dada Qurqut" eposi taxminan 7-8 asrlarda yaratilgan bo'lib, u 12 qissadan iborat. Hozir ana shu syujetlar asosida bir qancha muzikali dramalar yaratilgan. Bularda qadimgi o'g'iz - turkiy qabilalarining o'z mustaqilligi uchun olib borgan kurashi tasvirlangan.

Ozarbayjon adabiyoti bilan o'zbek adabiyoti orasidagi ko'pgina an'analar bir-biriga o'xshash bo'lib, ularning aloqalari uzoq asrlarga borib taqaladi. Masalan, A.Navoiy o'z "Xamsa"sini yaratishda Nizomiydan o'rgangan, unga ergashib yozgan bo'lsa, mashhur Ozarbayjon shoiri Fuzuliy esa Navoiydən o'rganib "Layli va Majnun" asarini yozgan. Bu an'analar bugungi kunda ham faol davom etib kelmoqda. Biz Ozarbayjon adabiyotini o'rganganda faqat Shimoliy Ozarbayjonni emas, balki Janubiy Ozarbayjon adabiyotining ham diqqatga sazovor tomonlarini ta'kidlab o'tishimiz lozim.

Ma'lumki, turli tarixiy voqealar tufayli ozarbayjon xalqi ikki davlat territoriyasida yashashga to'g'ri kelgan. 15 millionga yaqin ozarbayjonlar Shimoliy Eronda yashaydi. Ularning ham boy adabiyoti bor. Ozor o'g'li, Madina Gulgun, Akima Billuriy, Fitrat kabi ijodkorlar Eron Ozarbayjonining ko'zga ko'ringan vakillaridir.

VII-VIII asrlarda arab tili, IX asrdan boshlab esa fors tili davlat tili bo'lganligi sababli ko'pgina ozarbayjon ijodkorlari o'z asarlarini arab va fors tillarida yozgan. Tarixda o'tgan mashhur Ismoil YAssor, Ahmad Tabriziy, Xatib Tabriziy, Shervoniy, Nizomiy Ganjaviy kabi ozarbayjonlik ijodkorlarning asarlari arab va fors tillarida yaratilgan. M.Fuzuliy, M.Oxundov singari ijodkorlar asarlarining ham kattagina qismi fors tilida yozilgandir.

XI-XII asrlarda Ozarbayjonda arablar istilosi susayib, mahalliy feodal davlatlar vujudga keldi. Ana shu davrda feodal saroy adabiyoti rivojlandi. Abul Ula Ganjaviy, shoir va astronom Falakiy – Shervoniy, shoira Maxseti Ganjaviylar ko'plab g'azal va ruboiylar yaratdi.

Ma'lumki, ozarboyjon adabiyotiyoti turkiy xalqlar adabiyoti ichida eng boy, eng rivojlangan adabiyot sanaladi. XSH asrgacha ko'pgina ozarboyjon ijodkorlari o'z asarlarini arab va fors tillarida yozgan. Bu adabiyotning shakllanishida folklor asarlari bilan bir qatorda arab va fors tilidagi adabiyotning kuchli ta'siri bo'lganligi ham shundandir.

Ilk ozarboyjon yozuvchilaridan biri Gatran Tabriziy bo'lib, u Ganja va Tabriz hukmdorlarining saroy shoiri bo'lgan. Uning ko'plab qasidaları va «Qobusnoma» asari bizgacha etib kelgan.

Abul-ul Ganjaviyni esa .Shoirlar podshosi» deb atagan. Bu shoir XI asr oxiri XII asr boshlarida yashagan. U nihoyatda bilimdon kishi bo'lib, o'z zamonidagi falakiyot, falsafa, riyozat kabi ilmlarni ham mukammal bilgan va ko'p ijodkorlarga ustozlik qilgan. Muhammad Falaki SHirvoniyni shoh Manuchehrga bag'ishlangan ko'plab qasidaları bor. XII asrda yashagan shoira Mexseti Ganjaviy esa ajoyib musiqalar yaratib, katta shuhrat qozongan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Mexseti shohning o'g'li Amir Ahmadni sevgan va u

haqda ishqiy doston yozgan. Shoiraning yozgan ruboiylarini esa Umar Xayyom ruboiylari bilan tenglashtiradi.

Bu davrda yashagan Afzaliddin Haqqoniy esa SHervon shohga ko'plab qasidalar yozgan, keyinchalik o'sha tuzum va jaholatni tanqid qilib yozgan asarlari uchun ta'qib ostiga olingan. U vatanidan uzoqlarga ketib, umr bo'yi boshqa mamalakatlarda yashashga majbur bo'lgan. Uning "Tuhfatul Iroqayin", "Madain qasri" kabi asarlari bor.

Ozarbayjon adabiyotining yirik klassigi Nizomiy Ganjaviy esa yoshlikdan matematika va astronomiyaga juda qiziqqan va shu soha bo'yicha bilimlar olgan. U arab va fors tillarini mukammal bilgan. Bu davrda Ozarbayjonda SHirvon Tohir sulolasi hukmronlik qilar edi. Ular shoirni o'z saroylariga taklif qildi, lekin Nizomiy bu taklifni rad qilib, erkin ijod qilishni ma'qul ko'rdi. U o'z asarlarini fors tilida yozdi, chunki bu til o'sha paytda Ozarbayjonda davlat tili hisoblanar edi. Ganjaviyning o'z ona tilida ijod qilolmaganidan afsuslanib yozgan she'rlari ham bor.

Shoirning ijodi lirik she'rlar yozish bilan boshlanadi. Bu she'rlarning ko'pchiligi intim mavzudagi g'azallar edi. Masalan, uning "Qaydaki sen bor, qamar nadorkor, Kimgaki sen yor, shakar na darkor" matla'i bilan boshlanuvchi g'azali shoir hayotligi paytidayoq hofizlar tomonidan qo'shiq qilib aytilgan degan ma'lumotlar bor. Shoir lirik she'rlarida ham o'z zamonasidan shikoyat qilib, uni "adolatsiz jamiyat" deb ataydi, adolatli shohni orzu qiladi. Nizomiy Ganjaviy lirikaning turli janrlarida ijod qilgan, u ko'plab ruboiy, qit'a, qasidalar ham yozgan. Lekin shoirni dunyoga tanitgan, uning "Xamsa" asari bo'ldi. Nizomiy besh dostonidan iborat, "Panj ganj" asarini yozib, Sharq adabiyotida birinchi bo'lib, "Xamsa"chilikka asos soldi. O'ttiz ming misraga yaqin she'rni o'z ichiga olgan bu asar qisqa vaqt ichida yozildi. Va shoirning shuhratini olamga yoydi. Birinchi doston "Mahzanul asror" deb atalib, u falsafiy didaktik asardir. Bu 20 ta bob va kichik xotimadan iborat. Bu asarda o'sha davrning ijtimoiy – siyosiy, axloqiy – ta'limiy masalalar haqida fikr yuritiladi. Kichik-kichik hikmatli hikoyalar, shoir aforizmlari bu asarda ko'plab keltirilgan. Bu hikoyatlar fikrni tasdiqlash Yoki yakunlash uchun qo'llanilgan. Masalan, davlat boshliqlarini adolatga chaqiruvchi Anushervon haqidagi hikoyat xarakterlidir. Anushervon ayonlari bilan bir xaroba qishloqdan o'tayotib ikki boyqush tovushini eshitadi. Shoh ularning nima deb so'rayotganini qush tilini biluvchi dono vaziridan so'raydi. Shunda vazir deydi: "Bu boyqushlardan biri o'z qizini ikkinchisiga bermoqchi bo'lib, buning evaziga ana shu qishloqqa o'xshagan xarobalar talab qilayotir. U bo'lsa, podshohimiz Anushervon omon bo'lsa, bunday xaroba qishloqlar juda ko'payadi, istaganingcha olasan deyapti». Bundan xulosa chiqargan shoh zulm qilmaslikka, mamlakatni adolat bilan idora qilishga ahd qilibdi. Dostonda ana shunday didaktik hikoyatlar juda ko'plab uchraydi. Ikkinchi doston «Xisrav va Shirin» deb ataladi. Bunda Eron shohi Xisrav bilan arman malikasi SHirin o'rtasidagi muhabbat tasvirlanadi. Xisravni qattiq sevgan SHirin, uni to'g'ri yo'lga boshlaydi, adolatli bo'lishga undaydi. Dostonda Farhod obrazi SHirinni qattiq sevib qolgan oddiy, mehnatkash yigit sifatida berilgan. U ariq

qazish va qasr qurilishida mehnat mo'jizalarini ko'rsatadi. Lekin SHirin uni hurmat qilsa–da, sevolmasligini aytadi. Xisravni o'g'li SHeruya o'ldiradi. Keyin SHirin ham Xisrav qabriga borib o'zini-o'zi o'ldiradi.

Nizomiy Ganjaviy “Layli va Majnun” nomli asarida arab xalq afsonasini birinchi bo'lib yozma adabiyotga kiritib, ishq haqida ajoyib doston yaratdi. Bunda inson huquqlarining o'rta asrlarda qanday taxqirlagani ko'rsatib berilgan. To'rtinchi doston “Haft paykar” deb atalib, bu hikoya ichida hikoya usulida yozilgan. Shoh Bahrom etti mamlakat podshoxlarining etti qiziga uylangan. Ularga ettita qasr qurdirgan. Xaftani etti kuni etti go'zaldan sevgi, sadoqat, mardlik kabi mavzularda etti hikoya eshitadi. Keyin shoh Bahrom donishmand cho'pondan o'z vaziri Rost-Ravshanning sotqin va zolim ekanligini bilib qoladi. Uni zindonband etib, u qamatgan mahbuslarni ozod qiladi. Etti mahbusning hikoyasini tinglagan Bahrom xatolariga tushunib, mamlakatni adolat bilan idora qiladi. Lekin yana Bahromning bazm, sarguzashtlari boshlanib, o'zi fojiali halok bo'ladi.

Beshinchi doston “Iskandarnoma”da Nizomiy adolatparvar podshoh obrazini yaratdi. Iskandar dunyoni kezib Shimol tomonda bir mamlakatga borib qoladi. Bu mamlakatda hamma teng, o'g'rilik yo'q, kasal kishilar ham yo'q, birov-birovdan xavfsiramaydi, butun xalq inoq yashaydi. Iskandar buni ko'rib hayron qoladi va shunday mamlakatni avval ko'rganimda dunyo kezib yurmasdim, deydi. Nizomiy Ganjaviy “Xamsa”si, umuman, uning ijodi butun Sharq adabiyotining rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ma'lumki, XIII asrda mo'g'ul bosqinchilarining istilosi tufayli mamlakatda tushkunlik yuz berdi. Natijada diniy – mistik adabiyot shakllana boshladi. Panteistik oqimga mansub bo'lgan shoirlardan Zulfiqor Shervoniy, Shams Tabriziy, Mahmud SHabustariylar mavjud ijtimoiy tuzumdan narozilik kayfiyatlarini diniy-mistik qobiqqa o'rab ifodaladilar. Shoir Imommiddin Nasimiyning ijodi o'sha paytda mavjud bo'lgan diniy-siyosiy tashkilot – xurufiy'larga yaqin turar edi. U hatto shariat qonun-qoidalariga qarshi she'rlar yozdi, insonning aql-idrokini ulug'ladi. U “Inson o'z aqli tufayli xudolik darajasiga ko'tarilishi mumkin”, degan g'oyani olg'a surdi.

XI–XU asrlarda Ozarboyjon tilidagi adabiyotning shakllanish va taraqqiyot davri bo'ldi. Imoniddin Nasimiy, Ahmad Burxoniddin singari shoirlar o'z asarlari bilan Ozarboyjon adabiyotining SHuhratni dunyoga taratdi.

Ma'lumki, bu davrda Xurufiylik oqimi mavjud bo'lib, bu o'ziga xos tasavvufning bir yo'nalishi edi. Nasimiy ana shu xurufiylik oqimining yirik vakili sifatida erk va ozodlik haqida asarlar yaratgan. Shu asarlari uchun u hukmdorlar tomonidan dahshatli jazoga duchor bo'lib o'ldiriladi.

Burxoniddin Axmadning esa she'rlari sevgi, botirlik, jasorat va vatanparvarlik ruhida yozilgan. Uning ijodida «tuyuq» she'rlar ham ko'p uchraydi. Bu she'riy shakl faqat turkiy she'riyatga xos bo'lib, shoir uning go'zal namunalarini yaratgan.

Ozarboyjon adabiyotining o'rta asrdagi taraqqiyotiga Shoh Ismoilning ham katta hissasi bor. U Ozarboyjon xalqi tarixida katta burilish yasagan davlat arbobi

bo'lib hisoblanadi. U tarqab ketgan Ozarboyjon davlatini birlashtirdi. Ozarboyjon tilida davlat ishlari olib borish uchun farmon chiqardi. O'z davlatining poytaxti qilib Tabrizni tikladi. Bu davrda Tabriz Sharqda madaniyat, ilm-fan markaziga aylandi. Ozarboyjon xalqining milliy o'zligini anglash ana shu shoh Ismoil hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Mashhur musavvir Komoliddin Behzod ham SHoh Ismoil rahnamoligida bir necha yil ijod qildi. Bu shoh «Xaton» taxallusi bilan she'rlar yozardi. Uning ko'pgina intim mavzudagi lirik she'rlari va dostonlari bizgacha etib kelgan. U she'rlarida mardlik, jasorat, vatanparvarlik kabi mavzularni kuyladi. Uning «Nasihatnoma» kitobi o'sha davr Ozarboyjon didaktik poeziyasining eng go'zal namunasi edi. Shoirning yana «Dahnoma» nomli dostoni ham mashhurdir. Bu kitoblar sodda, xalq so'zlashuv uslubiga yaqin, shu bilan birga toza va shirali tilda ijod qilingan edi.

XVI-XVII asrlarda Ozarbayjonda turk sultonlari hukmronlik qildi. Bu davr ozarbayjon adabiyotida ijtimoiy voqealarga munosabatning kuchayganligi ko'zga tashlanadi. Ayniqsa, Vidodiy bilan Voqif kabi shoirlar ijodida bu holat ko'proq seziladi. Voqelikni haqqoniy aks ettirish, xalq orzu – umidlariga yaqinlik hamda she'ni nihoyatda sodda va xalqchil uslubda yozish, bu ikki shoir ijodining fazilatlaridan biri edi.

Vidodiy hayotda juda qiynalib yashadi, u mavjud siyosiy tuzum bilan kelisholmadi. Shuning uchun uning asarlarida hasrat va nadomat motivlari etakchi o'rinda turadi. Shoirning “Turnalar”, “Yig'laysan” kabi asarlari va Voqifga yuborgan she'riy maktublarida bu ayniqsa ko'zga yaqqol tashlanadi.

Mehnatkash oilada tug'ilib voyaga etgan, o'z aql – idroki bilan vazirlik darajasiga ko'tarilgan Mullo Panoh o'g'li Voqif ijodida esa asosan hayotbaxsh ruh hukmron edi. Shoir hayot go'zalligini madh etib, inson shu dunyoda ham baxtli yashash mumkin deb, o'sha davrdagi tushkinlik kayfiyatidagi she'riyatga qarshi bordi.

Mullo Panoh Voqif Ozarbayjonning Qozoq rayonidagi Saloqli qishlog'ida tug'ilgan. Yoshligida o'z davrining mashhur olimlaridan dars olgan. Keyinchalik uning oilasi SHusha shahriga ko'chib borgan. Voqif bu erda o'qituvchilik qilgan, tez orada uning mashhur shoir bilimdon va donishmand kishi ekanligi SHusha xoni Ibrohimbekka etadi. Uni saroyga ishga taklif qiladi. Shoir Ibrohimbek saltanatida bosh vazir darajasigacha ishlashga muvaffaq bo'ladi. Tarixiy voqialar va urushlar tufayli Ibrohimbek SHushani tashlab ketadi. Uning o'rnini egallagan amakivachchasi Muhammadbek Javonshir Voqifni o'g'li Aliog'a bilan birga dorga osib qatl etadi.

Voqif Ozarbayjon adabiyotida romantik poeziyadan realistik poeziyaga o'tgan birinchi ijodkordir. Uning she'rlarining ko'pchiligi sodda, xalq ruhiga yaqin barmoq vaznida yozildi. Ular mazmun jihatidan ham xalq qo'shiqlariga yaqin turadi. U oddiy mehnatkash xalqning og'ir ahvoli haqida yozdi. Voholanki, bu davr ozarbayjon shoirlarining ko'pchiligi ishq – muhabbat temasida asarlar yozar edi. Voqif esa ana shu qotib qolgan an'ana qobig'idan birinchi bo'lib chiqqan shoirlardandir.

Bayram keldi, naylashimni bilmayman
Bizing uyda to'liq juvol ham yo'qdir.
Don ham, yog' ham allaqachon tugovdi,
Etni-ku ko'rmaymiz, mo'tol ham yo'qdir.
Bizning bu dunyoda na molimiz bor
Va na uyda sahibjamolimiz bor.
Voqif, chiranmaki, kamolimiz bor,
Xudoga shukurki, kamol ham yo'qdir.

Ko'rinib turibdiki, shoir mehnatkash xalqning og'ir ahvolini tasvirlab, o'zini ham ular bilan bir qatorda hisoblayapti. Shoirning "Boq", "Ko'rmadim" nomli she'rlarida ham adolatsiz zamondan shikoyat motivlari ko'zga tashlanib turadi. Voqif g'azallarida asosan Sharq g'azalchilik an'anasi davom ettirilgan. Ishq – muhabbat mavzuidagi g'azallar asosiy o'rinni egallaydi. Shoir bu g'azallarida dunyoviy ishqni ko'proq kuylaydi.

Seviklim, bu nazokatda gulu ra'nodan ortiqsan
Sanobar, sarvi shamshod, to'biyi zebodan ortiqsan.
Qoshing toqin qo'yib, mehrobga men qilmadim sajda
Ki sen yuz martaba ul ka'bayi ulyodan ortiqsan
Menam Voqifmanu – Farhod ila Majnundan a'loman,
Agar sensan - o'shal Shirin ila Laylodan ortiqsan.

Shoirning ushbu she'ri ham klassik traditsion janrda yozilgan. Unda qofiya, radif va vaznlar ma'lum tartib – qoidalarga rioya qilingan. Lekin g'azalda ma'shuqa sifatlari hatto Ka'badan yuz marta ortiqsan deb tavsiflanyapti. Bu o'sha davrda katta jasorat edi. Bunday so'zlarni musulmon dunyosidagi shoirlar kamdan – kam ishlatgan. Bu she'rlar qandaydir tomoni bilan o'zbek xalqining isyonkor shoiri Mashrab she'rlariga o'xshash jihatlari bor. Shoirning "O'lmaram", "Kelmadi", "Yig'laram" kabi g'azallarida ham o'ziga xos original tashbehtar ishlatilganligini ko'ramiz.

XIX asrda Ozarbayjon Rossiyaga qo'shildi. Bundan keyin ijtimoiy hayotda ham, adabiyotda ham katta o'zgarishlar bo'ldi. Ozarbayjon ma'rifatparvarlik adabiyoti shakllana boshladi. Abbasquli Boqixonov, Mirzo Shofiy Vozeh, Ismoilbek singari ijodkorlar Ozarbayjon adabiyotida birinchilardan bo'lib realistik dostonlar va novellalar ijod qildi. Bu ma'rifatparvarlar orasida eng buyugi Mirzo Fatali Oxundov bo'lib hisoblanar edi. U Tiflis shahrida rus – totar gimnaziyasida o'qidi. Rus progressiv adabiyoti bilan yaqindan tanishdi. ozarbayjon xalqining qoloq bo'lib qolishiga asosan savodsizlik sababchi deb bildi. Shuning uchun Oxundov lotin grafikasi asosida ozarbayjon alfavitini ishlab chiqdi. U birinchi bo'lib ozarbayjon dramaturgiyasiga va teatriga asos soldi. U jaholatni, hukmron tuzumdagi illatlarni tanqid qilib "Mullo Ibrohim Halil kimyogar", "Xasis kishining sarguzashti", "Tabiatshunos Muse Jardon" singari komediyalarini yaratdi. Bu asarlar A. Griboedovning "Aqlilik balosi" asariga

o'xshash tarzda yozilgan. Oxundov bu asarlarini 1850-1852 yillarda yozdi. Shu bilan birga Oxundov talantli shoir ham edi. U rus she'riyatidan o'rganib, uni Sharq poetikasining go'zal an'analari bilan boyitgan lirik asarlar ijod qildi. Pushkin obrazi yaratilgan «Sharq poemasi» asari o'ta mahorat bilan yozilgan. U birinchi bo'lib Ozarbayjon adabiyotida «Aldangan yulduzlar» nomli povest yozdi. Yozuvchining bu asari folklor asarlari asosida yozilgan. Adibning maktub formasida yozgan «Hind shahzodasi Kamol – ud Davlaning Eron shahzodasi Jamol – ud Davlaga yozgan uch maktubi va undan olgan javobi» nomli falsafiy traktati ham katta ahamiyatga ega. Bu bilan M. Oxundov rus revolyutsion demokratlari yo'lidan borayotganini isbotladi. Bu asarlari bilan M.F.Oxundov Ozarbayjon adabiyotida realistik prozaning shakllanishiga ham asos soldi.

Ozarbayjon demokratik adabiyotining taraqqiyotiga salmoqli hissa qo'shgan shoirlardan biri Saidazim Shervoniy edi. U lirikada Fuzuliy an'alarini davom ettirgan bo'lsa, satirada M.Oxundovga ergashdi. Uning ma'rifatparvarlikni targ'ib etuvchi an'anaviy asarlari mavjud. Bu davr Ozarbayjon adabiyotida Xurshidbonu, Notavon, Hayronxonum kabi shoirlar ijodi ham katta ahamiyatga ega. Bu shoirlar Fuzuliy, Voqif kabilarning an'alarini yangi zamonda davom ettirib, Ozarbayjon poeziyasining yuksalishiga katta hissalarini qo'shdi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Ozarbayjonda teatr san'ati rivojlandi. Boku va boshqa bir qator shaharlarda yangi –yangi teatrlar tashkil etildi. Bu esa dramaturgiyaning rivojlanishiga sabab bo'ldi. Natijada Natafbek Vezirov, Narimon Narimonov, Asadbek Axverdov kabi dramaturglar etishib chiqdi.

N.Vezirov «Yomg'irdan qochib selga», «Faqat nomigina qoldi», «Nima eksang, shuni o'rasan» kabi dramalarida ijtimoiy tuzumdagi turli illatlarni fosh qildi. Xotin – qizlar ozodligi mavzusini ko'tarib chiqdi. Vezirov «Faxriddinning sho'ri» pesasida zolim boy qo'lida ezilgan bechora mehnatkash kambag'al kishilarning fojiali hayotini tasvirlaydi. «Pahlavonlar» nomli pesasida esa neft ishlab chiqarish bilan bog'liq turli tovlamachiliklar, adolatsizliklar ustidan kuladi. Bu davrda yaratilgan Axverdovning «Xonavayron qilingan uya», «Baxtsiz yigit», J.Mamatqulizodaning «O'liklar» nomli pesalari ham katta shuhrat qozondi. Bu pesalarda Ozarbayjonda kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining shakllanishiga doir voqealar o'z aksini topdi.

Bu davrda Jafar Mamatqulizoda rahbarligida «Mullo Nasriddin» nomli satirik jurnali chiqa boshladi. Bu jurnal faqat Ozarbayjonda emas, balki butun turkiy xalqlar orasida juda mashhur bo'ldi. J.Mamatqulizoda o'z davridagi turli illat va nuqsonlarni kichik va ixcham satirik hikoyalarda aks ettirdi. U N.V.Gogolning an'alarini o'zlashtirib, o'z davri adabiy jarayonining yirik hajvchisi darajasiga ko'tarildi. U ko'pgina satirik hikoyalarda o'ta makkor, tovlamachi siyosiy hukmdorlarni, o'z manfaati yo'lida dini va imonini ham sotgan ruhoniylarni tanqid qildi. Aliakbar Sobir esa ozarbayjon adabiyotida satirik g'azallarning etuk ijodkori sifatida tanildi.

Xullas, Ozarbayjon klassik adabiyoti juda qadimgi va boy tarixga ega. Ozar xalqini butun olamga tanitgan buyuk allomalar ijodi turk dunyosining faxri bo'lib hisoblanadi.

1905-1907 yillar Rossiyada hukumatga qarshi katta qo'zg'olonlar bo'lib o'tdi. Bu qo'zg'olonlar Rossiyaning mustamlaka o'lkalarida milliy ozodlik ko'rinishida bo'ldi. Jumladan, Kavkaz orti respublikalarida ham mavjud tuzumga qarshi ko'plab g'alayonlar bo'lib o'tdi. Ana shu ijtimoiy hodisalar bu xalqlarning adabiyotida o'z aksini topdi.

Bu davr Ozarbayjon adabiyotida realistik oqim shakllanib, uning vakillari ijtimoiy hayotdagi voqealarni to'g'ri, haqqoniy aks ettirishga intildi. Shu bilan birga, bu davrda romantik yo'nalishdagi yozuvchilar ham mavjud edi. Ular milliy burjuaziya mamlakatni taraqqiyot yo'liga olib chiqadi, deb ishonar edi. Xalq ommasini esa to'polonchi, olomon sifatida tushunar edi. Shuning uchun ularning asarlarida endi shakllanib kelayotgan burjuaziya sinfi vakillari ijobiy qahramon sifatida namoyon bo'ldi. Bu davrda romantik oqimning Muhammad Xodiy, Abbas Sixat, Husayn Jovid singari vakillari o'zlarining ko'plab ma'rifiy asarlari bilan mashhur bo'ldi. Ayniqsa, M.Xodiyning asarlarida o'sha davrning katta ijtimoiy voqealari lirik yo'nalishda aks ettirilganligi bilan ajralib turadi. Uning "Alvoxii intiboh, yohud insonlarning tarixiy fojialari" nomli falsafiy dostoni juda mashhur bo'lgan. Bu asar o'zining g'oyaviy badiiy va chuqur falsafiy mushohadalari bilan Ozarbayjon adabiyotining noyob durdonalaridan hisoblanadi. Shoirning "Hayot sadolari" nomli dostoni o'zbek tiliga R.Parfi va Abdurahmon Vodiliylar tomonidan tarjima qilingan.

Hayotning saslari go'shimda ko'p faryod shaklinda,

Bu insonlar ki qardoshdir va lekin yot shaklinda,

Bu tuproq qonli avloqdir, bashar sayyod shaklinda,

Adovat doimo bordir, muhabbat mot shaklinda,

Bu dunyo eskidandir sahnai bedod shaklinda,

Jahon boshdin oyoq maydoni motamzod shaklinda,

Faraxlar hibs bo'lmish xuznlar ozod shaklinda,

Musibatlar, balolar, g'ussalar obod shaklinda

YUraklar g'am o'ti-la har zamon barbod shaklinda,

Boqishlar ko'lkali, yuzlar butun noshod shaklinda

Bu motamgohni kim ko'rmish sururobod shaklinda.

Bu davrda Pushkin va Lermontovning ko'plab romantik asarlari Ozarbayjon tiliga tarjima qilindi. Ozarbayjonning romantik yozuvchilarining yaratgan asarlari XX asr ozarbayjon adabiyotida yangi avlodning yuzaga kelishiga katta ta'sir qildi. Ja'far SHaboli, Samad Vurg'un, Marvarid Dilbozi singari talantli yozuvchilar dastlab shu romantik maktab ta'sirida tarbiyalanib asarlar yozgan edi.

Ozarboyjon adabiyoti taraqqiyotiga Nadjabbek Vezirov (1854-1926) ham katta hissa qo'shgan. Bu ma'rifatparvar shoir Moskvada o'qib, o'z davrining bilimdan savodli kishisi bo'lib etishdi. N.Vezerov Ozarbojon teatrining

shakllanishiga asosiy hissa qo'shgan san'atkordir. U M.F.Oxundovning an'analarini yangi zamonda davom ettirib, jaholatga, qoloqlikka, yaramas urf-odatlariga qarshi kurash olib bordi. Uning «YOmg'irdan qochib selga», «Faxridinning sho'ri», «Faqat nomigina qoldi», «Nima eksang, shuni o'rasan», «Pahlavonlar» kabi dramalarida ozarboyjon xalqining olg'a ketishiga to'siq bo'lgan illatlar fosh qilingan. Masalan «Faxriddinning sho'ri» pesasida yosh yigit Faxriddin katta boy oiladan chiqqan. U o'qib, mehnat qilib ziyoli kishi bo'lib etishadi. Xalqni orqaga sudrayotgan jaholatni o'z atrofida qilarga tushintirmay xunob bo'ladi. «Zamonamiz qahramonlari» pesasida esa har xil tovlamachilar, neftni sotuvchi birjadagi qalloblar qattiq tanqid qilingan. Uning «Yangi eraning tug'ilishi» nomli dramasi XX asr boshlaridagi tarixiy voqealarga munosabat bildirilgan.

Husayn Jovid 1882-1945 XX asr Ozarboyjon adabiyotining yorqin siymolaridan biridir. U Naxchevan shahrida tug'ildi. Dastlab Tabrizda madrasada o'qidi. Keyin Stambul universitetida adabiyot bo'limini tamomladi. Naxchevan, Ganja, Tiflisdagi o'qituvchilik qildi. 1915 yildan Boku shahrida yashadi. 1926 yilda sog'ligi yomonlashgani tufayli davolanish uchun Germaniyaga boradi va bu erda bir qancha vaqt yashaydi. Stalin qatag'oni yillarida yozuvchiga «millatchi» deb ayb qo'yiladi. 1937 yil qamoqqa olinadi va 1945 yil ana shu qamoqxonada vafot etadi.

Husayn Jovid dramaturgiya janrida muvaffaqiyatli ijod etdi. Uning «Knyaz», «Payg'ambar», «Shayx San'on», «Xayyom», «O'pqn», «Amir Temur», «Iblis» nomli dramatik asarlari butun dunyoga mashhur bo'lgan. «Amir Temur» dramasi o'zbek tiliga ham tarjima qilingan. Asarda Temurning Boyazid bilan olib borgan urushi hikoya qilingan. Bunda G'arbning ayyor diplomatiyasi ikki qondosh xalqni bir-biri bilan urishtirib qo'ygani hikoya qilingan. O'sha vaqtda Butun dunyoning katta qismi turk hukmdorlari qo'li ostida edi. Bu hukmdorlarning biri Turk sulmoni Eldirim Boyazid, ikkinchisi Amir Temur edi. Asarda ana shular o'rtasidagi jang va uning oqibatlari haqida fikr yuritiladi.

Asr boshidagi tarixiy voqealar o'sib 1917 yilgi to'ntarishga olib keldi. Ozarbayjonda 1918 yilda milliy burjuaziya respublikasi tuzildi. Lekin bu respublika bolsheviklar tomonidan 1920 yilda ag'darib tashlandi va Sovet hokimiyati tarkibiga kiruvchi Ozarbayjon respublikasi tuzildi. Rossiya imperiyasining zulmidan qutulgan ozarbayjon xalqi bolsheviklarning zulmi ostida 1991 yilgacha yashab keldi. Ana shu davrdagi ozarbayjon adabiyotida Samad Vurg'un, Sulaymon Rustam, Mamad Rahim, Mirzo Ibrohimov kabi talantli yozuvchilar etishib chiqdi.

Samad Vurg'un Ozarbayjonning Qozoq rayonida tug'ilgan. Yusuf Samad o'g'li Vekilov (Vurg'un-adabiy taxallusi "oshiq" degan ma'noni bildiradi) Boku va Moskva oliy o'quv yurtlarida o'qigan. Shu yillardan boshlab uning «Shoirlik qasami», «Fonar», «Ko'ngil daftari», «Tong qo'shig'i» kabi to'plamlari nashr qilindi. S.Vurg'un XX asr ozarbayjon adabiyotining klassik shoiri edi. Afsuski, uning ko'pgina asarlari kommunistik mafkura ta'sirida yozilgan. Lekin shoir shunday asarlarida ham yuksak badiiy mahorat cho'qqisiga ko'tarildi. U bir

qancha poemalar yozdi. Shoirning bu dostonlarida ozarbayjon klassik dostonlari anʼanalari bilan Gʻarbiy Evropa adabiyoti anʼanalari uygʻunlashib ketgan. “Yigirma oltilar”, “Kolxozchi xotin Basti haqida qissa”, “Moʻgʻon”, “Zanjining orzulari” kabi dostonlari oʻz davrida juda mashhur boʻlgan.

S.Vurgʻun siyosiy lirika sohasida ham barakali ijod qilgan. Uning “Dunyo xaritasi” turkumiga kiruvchi sheʼrlarida ezilgan millatlarning taqdiri, ularning bosqinchi imperialistik davlatlarga qarshi kurashi oʻz ifodasini topgan.

Samad Vurgʻun isteʼdodli dramaturg sifatida ham barakali ijod qildi. Uning tarixiy mavzudagi “Voqif” tragediyasi ayniqsa mahorat bilan yozilgan. Bu asar Uygʻun bilan I.Sultonning “Alisher Navoiy” nomli dramasiga oʻxshashdir. Dramaturg “Voqif” tragediyasida XVIII asr ozarbayjon xalqi hayotidagi ijtimoiy – siyosiy voqealarni asar kompozitsiyasiga ustalik bilan joylashtirgan. Bu voqealar maʼrifatparvar shoir Voqif biografiyasi tasviri bilan uygʻunlashib ketgan. Shoir taqdiri, ijodi bu asarda xalq taqdiri bilan bogʻliq tarzda tasvirlangan. Yozuvchining “Farhod va SHirin” dramasi Nizomiy “Xamsa”sidagi shu nomli doston asosida yozilgan boʻlsa, “Xonlar” dramasi esa zamonaviy mavzuda yozilgan. Xonlar Bokudagi ishchilar sinfining yirik vakili sifatida tasvirlangan. U ozarbayjon xalqining CHor Rossiyasi mustamlakachilaridan va ekspluatatorlar zulmidan ozod qilinishi uchun kurashgan qahramon obrazidir. Qisqasi, S.Vurgʻun ijodi XX asr ozarbayjon adabiyotida katta oʻrin egallaydi. U qisqagina umri davomida yozib qoldirgan asarlari ozarbayjon xalqi qalbida abadiy qoladi.

Ozarbayjon adabiyotida sotsialistik realizm metodi hukmron boʻlsa-da, koʻpgina baquvvat asarlar yaratildi. Ayniqsa, sheʼriyat 20-30 yillarda etakchi janrga aylandi. Klassik poeziyada koʻpgina intim tuygʻularni kuylagan ozarbayjon sheʼriyati bu davrda siyosiy-ijtimoiy mavzularga koʻp eʼtibor berdi. Siyosiy lirikaning goʻzal namunalari vujudga keldi. Sulaymon Rustamning “Ikki sohil” sheʼriy turkumlari, Rasul Rizoning “Chapay”, “Germaniya” kabi asarlari bunga misol boʻlishi mumkin.

Oʻttizinchi yillarda ozarbayjon adabiyotida poema janrining taraqqiyoti koʻzga tashlanadi. Davrdagi boʻlayotgan voqealarni his-hayajon bilan kengroq va kattaroq hajmda tasvirlash zarurati tugʻildi. Natijada Mamat Rahimning “Sayat Navo” kabi dostonlari yaratildi. Urush yillari ozarbayjon adabiyotida jangavor lirikada asarlar yozish kuchaydi. S.Vurgʻun va R.Rizolarning bu davrdagi jangavor sheʼrlari davlat mukofotlari bilan taqdirlandi.

Urush davri va undan keyingi davrlar ozarbayjon adabiyotida prozaik asarlar yozish ham kuchayib bordi. Bir qator tarixiy mavzudagi asarlar yaratildi. M.Urdubodiyning “Tumanli Tabriz”, A.Abulxasanning “Buzulayotgan dunyo”, Mirjalolning “Shamo”, «Yosh yigit manifesti» kabi romanlari shular jumlasidandir. M.Husaynning “Sahar” nomli romanida 26 Baku komissarlarining hayoti tasvirlangan. Ayniqsa, bunda mashhur erk kurashchisi A.Azizbekovning obrazi mukammal yaratilgan.

Zamonaviy mavzuda esa, M.Husaynning “Absheron”, “Qora qoyalar”, Mirzo Ibrohimovning “Buyuk tayanch”, Valievning “Gulshan”, S.Rahmonning “Ulug’ kunlar” kabi roman va povestlari yaratildi.

M.Husaynning “Absheron” romanida ozarbayjon ishchilari sinfining hayoti aks ettirilgan. Neft ishlab chiqarishda jonbozlik ko’rsatgan Tohir, Usta Ramazon, Qudrat va Lola kabi qahramonlar taqdiri berilgan.

Ozarbayjon adabiyotida chet el mavzusi Mirzo Ibrohimovning “Shunday kun keladi” romanida katta mahorat bilan yoritilgan. Eronda yashovchi ozarbayjonlar hayotidan olib yozilgan bu asarda ozarbayjon millatining yagona bir davlatga birlashishi haqida gap boradi. Chunki Eronda yashovchi ozarbayjonlar ko’p yillardan buyon Shimoliy Ozarbayjon bilan birlashish uchun kurash olib bormoqda. Yozuvchi shunday kun albatta kelishini o’z asarida badiiy obrazlar vositasida ko’rsatib berishga harakat qilgan.

Saidbeylining “Notanish qirg’oqlar” povestida esa yugoslav va italyan partizanlariga rahbarlik qilgan, nemis-fashistlarga qarshi kurashgan ozarbayjonlik yigit M.Husaynzodaning qahramonliklari, jasorati tasvirlanadi.

Yosh yozuvchilardan bo’lgan Bayram Bayramov «Yaproqlar», Iso Husayinov “Tong yulduzi”, Manaf Ibrohimov “Er osti sirlari” kabi romanlarini keyingi yillarda e’lon qildi. Bu asarlar hozirgi ozarbayjon adabiyotining katta yutuqlari sifatida tan olinmoqda.

Dramaturgiya sohasida ham anchagina yutuqlar qo’lga kiritilgan Bu sohada mashhur dramaturg Jafar Jabarlining yaratgan asarlari katta ahamiyat kasb etdi. Uning “1905 yilda”, “Sevil”, «Yashar», “Olmos” kabi asarlari ozarbayjon dramaturgiyasining rivojiga katta hissa qo’shdi.

S.Vurg’unning “Voqif” tarixiy dramasida XVIII asrdagi tarixiy voqealar mashhur shoir Voqif obrazi vositasida aks ettirilgan. M.Husaynning “Javonsher”, S.Rustamning “Qochoq Nabi”, E.Madxonlining «Sharq tongi” kabi asarlari ham tarixiy mavzuda yozilib, o’zlarining yuksak badiiyligi va mazmundorligi bilan ajralib turadi. Xojibekovning “Arshin mol olon” muzikali dramasi ham ko’p tillarga tarjima qilingan.

60-70 yillar ozarbayjon adabiyotida ko’pgina talantli ijodkorlar faoliyat ko’rsatdi. Bu davrda R.Rizoning “Kunlar va tunlar”, “Tanholik intihosi” she’riy to’plamlari, Nasimiyga bag’ishlangan “So’nggi kecha”, Ikkinchi Jahon urushi voqealari aks etgan “Ming to’rt yuz o’n sakkiz” dostonlari ozarbayjon she’riyatining so’nggi yillaridagi katta yutug’i bo’ldi.

Prozada Ismoil Shixlining “Sertashvish Ko’ra”, Husayn Abboszodaning “General”, Anorning “Odamoxun”, A.Askerovning “Ol yanoq”, Elchinning “Bir uchrashuv hangomasi” nomli roman va qissalari yozildi.

Anor 1938 yilda mashhur shoir Rasul Rizoning oilasida tug’ilgan. Onasi Nigor Rafibeyli ham mashhur shoira edi.

Anor keyingi yillar Ozarboyjon adabiyotining yirik vakili sifatida ko'plab baquvvat asarlar ijod qilmoqda. Uning «Besh qavatli uyning oltinchi qavati» nomli asarida hozirgi zamondoshlarimizning ruhiy dunyosi katta mahorat bilan chizib burilgan. Asarda Zuar bosh qahramon. U Taxmina ismli ayolni jonidan ham ortiq yaxshi ko'radi. Taxmina ham Zuarni sevadi. Shuning uchun u oilasini buzib, Zuar bilan yashaydi. Lekin hayotning turli intrigalari va Zuardagi asossiz rashklar natijasida ular ajralishadi. Zuarni otasi qo'shni qiz Farangizga uylantiradi. Ana shundan keyin jurnalist bo'lib ishlab yurgan Taxmina vafot etadi. Zuar Taxminaning o'limiga hech ishonmaydi, baribir bir kuni uni uchrataman deb o'ylab yuradi. Bir kuni ko'chada Taxminani ko'radi, u esa Zuardan qochib trolleybusga chiqadi. Uning orqasidan yugurib ketgan Zuarga Taxmina trolleybus oynasidan avvalgidek qo'l siltaydi. Zuar trolleybusni kuzatib boraveradi, u qiz esa trolleybusdan tushib besh qavatli uyga kiradi. Uning orqasidan borgan Zuar qizning besh qavatli uyning oltinchi qavatiga chiqib ko'zdan g'oyib bo'lganini ko'radi. Liftida esa oltinchi qavatning tugmachasi ham yo'q edi. Bu bilan yozuvchi Tahminaning ruhi osmonga chiqib ketdi demoqchi bo'ladi. Asarda katta falsafiy fikrlar berilgan. «Dantening yubileyi» nomli qissada esa hozirgi davrning dolzarb muammolariga munosabat bildiriladi. Asarda talantli aktyor Fayzullaning savodsiz, madaniyatsiz va xudbin rejissyor Siyovush tomonidan tahqirlanishi hikoya qilinadi. Bu bilan adib dono, bilimdon kishilar bugungi kunda ham boshi kulfatdan chiqmayotganligini aytmoqchi bo'lgan. Fayzulla oq ko'ngil sodda, o'z kasbini nihoyatda sevadi, qancha qiyinchilik bo'lsa chidaydi. U hatto o'zi ishlayotgan teatrga ham kassadan bilek sotib olib kiradi. Bir kuni xotinini ham teatrga taklif qiladi. Lekin unga teatrdan bilek bermaydi. Shunda Siyovushning yugurdaklaridan biri Majid uni axmoq qilib, bundan bir hafta oldin o'tib ketgan Italyan shoiri Dantening 700 yillik yubileyiga berilgan taklifnomani beradi. Fayzulla xotini bilan u erga borib aldanganini biladi. Shunda ham u Majidga qarshi gapirmaydi. Fayzullaning o'g'li Eldor ham talantli yoshlardan. Lekin o'z yurtida o'qishga kiraolmaydi, chunki o'qishga kirish ham pul bilan bo'ladi. Shuning uchun u Moskvaga borib o'qishini orzu qiladi. Uning sevgan qizi Ra'no ham bu yigit kambag'alligi uchun boshqa badavlat yigitga turmushga chiqib ketadi.

Xullas, bu qissada Anor jamiyatdagi ildiz otib ketgan poraxo'rlik, tovlamachilik, oshna-og'aynigarchilik kabi illatlarni tanqid qilgan.

Dramaturgiya sohasida esa Maqsud Ibrohimbekovning «Qasos», Anorning «Shahar tobistoni», Baxtiyor Vahobzodaning «Yong'indan so'ng» kabi pesalari katta shuhrat qozondi.

O'zbek va ozarbayjon adabiy aloqalari tarixi uzoq o'tmishdan boshlanadi. Keyingi yillarda bu aloqa yanada mustahkamlandi. Ozarbayjon adabiyotining ko'pgina asarlari o'zbek tiliga tarjima qilinmoqda.

Adabiyotlar

1. Ариф М. Азербайжанская литература. Москва. 1979 йил.

2. С.Вурғун. Танланган асарлар. Тошкент. 1965 йил.
3. М.Ҳусайн. “Апшерон” роман. Тошкент. 1973 йил.
4. М.Иброҳимов. “Шундай кун келади” роман. Тошкент. 1975 йил.

6-mavzu. Nizomiy Ganjaviyning hayoti va ijodi. «Xamsa». Muhammad Fuzuliyning hayoti va ijod.

Reja:

1. Nizomiy Ganjaviy hayoti va ijodi.
2. Nizomiy – “Xamsa” asoschisi.
3. Fuzuliyning hayoti va ijodi.
4. Fuzuliy she`riyati.

Tayanch soʻz va iboralar: Nizomiy Ganjaviy. “Xamsa”. Panteistik oqim. Muhammad Fuzuliy. “Layli va Majnun”. Adabiy an`analar.

Ozərbayjon adabiyotining yirik klassigi Nizomiy Ganjaviy esa yoshlikdan matematika va astronomiyaga juda qiziqqan va shu soha boʻyicha bilimlar olgan. U arab va fors tillarini mukammal bilgan. Bu davrda Ozarbayjonda SHirvon Tohir sulolasi hukmronlik qilar edi. Ular shoirni oʻz saroylariga taklif qildi, lekin Nizomiy bu taklifni rad qilib, erkin ijod qilishni ma`qul koʻrdi. U oʻz asarlarini fors tilida yozdi, chunki bu til oʻsha paytda Ozarbayjonda davlat tili hisoblanar edi. Ganjaviyning oʻz ona tilida ijod qilolmaganidan afsuslanib yozgan she`rlari ham bor.

SHoirning ijodi lirik she`rlar yozish bilan boshlanadi. Bu she`rlarning koʻpchiligi intim mavzudagi gʻazallar edi. Masalan, uning “Qaydaki sen bor, qamar nadorkor, Kimgaki sen yor, shakar na darkor” matlaʼi bilan boshlanuvchi gʻazali shoir hayotligi paytidayoq hofizlar tomonidan qoʻshiq qilib aytilgan degan ma`lumotlar bor. Shoir lirik she`rlarida ham oʻz zamonasidan shikoyat qilib, uni “adolatsiz jamiyat” deb ataydi, adolatli shohni orzu qiladi. Nizomiy Ganjaviy lirikaning turli janrlarida ijod qilgan, u koʻplab ruboiy, qitʼa, qasidalar ham yozgan. Lekin shoirni dunyoga tanitgan, uning “Xamsa” asari boʻldi. Nizomiy besh dostonidan iborat, “Panj ganj” asarini yozib, Sharq adabiyotida birinchi boʻlib, “Xamsa”chilikka asos soldi. Oʻttiz ming misraga yaqin she`rni oʻz ichiga olgan bu asar qisqa vaqt ichida yozildi. Va shoirning shuhratini olamga yoydi. Birinchi doston “Mahzanul asror” deb atalib, u falsafiy didaktik asardir. Bu 20 ta bob va kichik xotimadan iborat. Bu asarda oʻsha davrning ijtimoiy – siyosiy, axloqiy – taʼlimiy masalalar haqida fikr yuritiladi. Kichik-kichik hikmatli hikoyalar, shoir aforizmlari bu asarda koʻplab keltirilgan. Bu hikoyatlar fikrni tasdiqlash Yoki yakunlash uchun qoʻllanilgan. Masalan, davlat boshliqlarini adolatga chaqiruvchi Anushervon haqidagi hikoyat xarakterlidir. Anushervon ayonlari bilan bir xaroba qishloqdan oʻtayotib ikki boyqush tovushini eshitadi. Shoh ularning nima deb soʻrayotganini qush tilini biluvchi dono vaziridan soʻraydi. Shunda vazir deydi: “Bu boyqushlardan biri oʻz qizini ikkinchisiga bermoqchi boʻlib, buning evaziga ana shu qishloqqa oʻxshagan xarobalar talab

qilayotir. U bo'lsa, podshohimiz Anushervon omon bo'lsa, bunday xaroba qishloqlar juda ko'payadi, istaganingcha olasan deyapti». Bundan xulosa chiqargan shoh zulm qilmaslikka, mamlakatni adolat bilan idora qilishga ahd qilibdi. Dostonda ana shunday didaktik hikoyatlar juda ko'plab uchraydi. Ikkinchi doston «Xisrav va Shirin» deb ataladi. Bunda Eron shohi Xisrav bilan arman malikasi Shirin o'rtasidagi muhabbat tasvirlanadi. Xisravni qattiq sevgan SHirin, uni to'g'ri yo'lga boshlaydi, adolatli bo'lishga undaydi. Dostonda Farhod obrazi SHirinni qattiq sevib qolgan oddiy, mehnatkash yigit sifatida berilgan. U ariq qazish va qasr qurilishida mehnat mo'jizalarini ko'rsatadi. Lekin SHirin uni hurmat qilsa-da, sevolmasligini aytadi. Xisravni o'g'li SHERuya o'ldiradi. Keyin SHirin ham Xisrav qabriga borib o'zini-o'zi o'ldiradi.

Nizomiy Ganjaviy "Layli va Majnun" nomli asarida arab xalq afsonasini birinchi bo'lib yozma adabiyotga kiritib, ishq haqida ajoyib doston yaratdi. Bunda inson huquqlarining o'rta asrlarda qanday taxqirlangani ko'rsatib berilgan. To'rtinchi doston "Haft paykar" deb atalib, bu hikoya ichida hikoya usulida yozilgan. Shoh Bahrom etti mamlakat podshoxlarining etti qiziga uylangan. Ularga ettita qasr qurdirgan. Xaftani etti kuni etti go'zaldan sevgi, sadoqat, mardlik kabi mavzularda etti hikoya eshitadi. Keyin shoh Bahrom donishmand cho'pondan o'z vaziri Rost-Ravshanning sotqin va zolim ekanligini bilib qoladi. Uni zindonband etib, u qamatgan mahbuslarni ozod qiladi. Etti mahbusning hikoyasini tinglagan Bahrom xatolariga tushunib, mamlakatni adolat bilan idora qiladi. Lekin yana Bahromning bazm, sarguzashtlari boshlanib, o'zi fojiali halok bo'ladi.

Beshinchi doston "Iskandarnoma"da Nizomiy adolatparvar podshoh obrazini yaratdi. Iskandar dunyoni kezib Shimol tomonda bir mamlakatga borib qoladi. Bu mamlakatda hamma teng, o'g'rilik yo'q, kasal kishilar ham yo'q, birov-birovdan xavfsiramaydi, butun xalq inoq yashaydi. Iskandar buni ko'rib hayron qoladi va shunday mamlakatni avval ko'rganimda dunyo kezib yurmasdim, deydi. Nizomiy Ganjaviy "Xamsa"si, umuman, uning ijodi butun Sharq adabiyotining rivoji uchun katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Ma'lumki, XIII asrda mo'g'ul bosqinchilarining istilosi tufayli mamlakatda tushkunlik yuz berdi. Natijada diniy – mistik adabiyot shakllana boshladi. Panteistik oqimga mansub bo'lgan shoirlardan Zulfiqor Shervoniy, SHams Tabriziy, Mahmud SHabustariylar mavjud ijtimoiy tuzumdan narozilik kayfiyatlarini diniy-mistik qobiqqa o'rab ifodaladilar. Shoir Imommiddin Nasimiyning ijodi o'sha paytda mavjud bo'lgan diniy-siyosiy tashkilot – xurufiy'larga yaqin turar edi. U hatto shariat qonun-qoidalariga qarshi she'rlar yozdi, insonning aql-idrokini ulug'ladi. U "Inson o'z aqli tufayli xudolik darajasiga ko'tarilishi mumkin", degan g'oyani olg'a surdi.

XI-XIV asrlarda Ozarboyjon tilidagi adabiyotning shakllanish va taraqqiyot davri bo'ldi. Imoniddin Nasimiy, Ahmad Burxoniddin singari shoirlar o'z asarlari bilan Ozarboyjon adabiyotining SHuhratni dunyoga taratdi.

Ma'lumki, bu davrda Xurufiylik oqimi mavjud bo'lib, bu o'ziga xos tasavvufning bir yo'nalishi edi. Nasimiy ana shu xurufiylik oqimining yirik vakili

sifatida erk va ozodlik haqida asarlar yaratgan. Shu asarlari uchun u hukmdorlar tomonidan dahshatli jazoga duchor bo'lib o'ldiriladi.

Burxoniddin Axmadning esa she'rlari sevgi, botirlik, jasorat va vatanparvarlik ruhida yozilgan. Uning ijodida «tuyuq» she'rlar ham ko'p uchraydi. Bu she'riy shakl faqat turkiy she'riyatga xos bo'lib, shoir uning go'zal namunalari yaratgan.

Ozarboyjon adabiyotining o'rta asrdagi taraqqiyotiga SHoh Ismoilning ham katta hissasi bor. U Ozarboyjon xalqi tarixida katta burilish yasagan davlat arbobi bo'lib hisoblanadi. U tarqab ketgan Ozarboyjon davlatini birlashtirdi. Ozarboyjon tilida davlat ishlari olib borish uchun farmon chiqardi. O'z davlatining poytaxti qilib Tabrizni tikladi. Bu davrda Tabriz Sharqda madaniyat, ilm-fan markaziga aylandi. Ozarboyjon xalqining milliy o'zligini anglash ana shu shoh Ismoil hukmronligi davriga to'g'ri keladi. Mashhur musavvir Komoliddin Behzod ham Shoh Ismoil rahnamoligida bir necha yil ijod qildi. Bu shoh «Xaton» taxallusi bilan she'rlar yozardi. Uning ko'pgina intim mavzudagi lirik she'rlari va dostonlari bizgacha etib kelgan. U she'rlarida mardlik, jasorat, vatanparvarlik kabi mavzularni kuyladi. Uning «Nasihatnoma» kitobi o'sha davr Ozarboyjon didaktik poeziyasining eng go'zal namunasi edi. Shoirning yana «Dahnoma» nomli dostoni ham mashhurdir. Bu kitoblar sodda, xalq so'zlashuv uslubiga yaqin, shu bilan birga toza va shirali tilda ijod qilingan edi.

XVI asrning birinchi yarmida ijod qilgan shoir Muhammad Fuzuliy Ozarbayjon poeziyasining cho'qqisi deb hisoblanadi. Fuzuliy ijodi o'zbek kitobxonlari uchun ham azaldan tanish. Bu shoir asarlari xuddi o'zbek shoirlari Navoiy, Bobur asarlaridek o'rganilgan. Fuzuliyxonliklar o'zbeklar o'rtasida doimo bo'lib turgan. Fuzuliy juda ajoyib g'azallari, oshiqona his-tuyg'ularga boy "Layli va majnun" dostoni, o'z davri ijtimoiy voqealarga munosabat bildirib yozgan «Shikoyatnoma», "Bangu boda", "Anisul qalb", "Matla'ul e'tiqod" kabi o'nlab asarlari bilan Sharq adabiyotida katta shuhrat qozondi.

Shoir 1498 yili Iroqning Karbalo shahrida tug'ilgan. Uning otasi Ozarbayjondan Iroqqa ko'chib borgan. Fuzuliy yoshligida yaxshi bilim oldi. U Bog'dod madrasalaridan birida tahsil oldi. Domlalaridan birining qiziga uylanib, bir o'g'il ko'radi. Shoirning bu o'g'li ham Fazliy nomi bilan ijod qilib, taniqli shoir bo'lgan. Fuzuliy yoshligidan she'rlar yozgan. U tabiat ko'rinishlarini inson ruhi bilan uyg'unlashtirib tasvirlovchi shoir sifatida mashhurdir.

Uning "Falaklar yondi ohimdan, murodim shami yonmasmu", «Shifoiiy vasi qadri hajr ila bemor o'landan so'r», "G'amzasin sevdin, ko'ngil, joning kerakmasmu sanga" kabi o'nlab she'rlari o'zbek xalqining qalbidan chuqur joy olib, qo'shiqlar bo'lib aytilib kelmoqda. Fuzuliy ijodiga Navoiy va Lutfiylarning katta ta'siri bor. Shoir devonida ikkita muxammasning bittasi Lutfiyning g'azaliga bitilgan. Fuzuliyning ishq haqidagi she'rlarida ijtimoiy hodisalarga munosabat mohirona singdirib yuborilgan.

Muhabbat lazzatidin bexabardir zohidu g'ofil
Fuzuliy ishq zavqin ishq zavqi vor o'landin so'r.

Fuzuliyda tasavvufona sheʼrlar ham anchaginadir. U ilohiy ishq haqida otashnafas sheʼrlar yozadi, favqulodda goʻzal tashbehlar topadi.

Tarki mayu mahbub edariz jannat uchun,
SHarh aylaki, jannatda na vor voiz?

Yoki:

Mahshar kuni quram deram ul sarvi qomati,
Gar anda ham koʻrinmasa, kel qur qiyomati.

Shoir oʻz jamiyatidan narozilik kayfiyatlarini ayniqsa, “Layli va Majnun” dostonida koʻproq namoyon qiladi. Bu asar haqida mashhur tanqidchi olim T.Jalilov shunday yozadi: “Men “Layli va Majnun”larni qayta-qayta oʻqidim. Shunda Nizomiy dahosiga qoyil qoldim. X.Dehlaviyning bulbuldek sayrashiga ofarin dedim; Navoiyning Majnuniga motam tutib yigʻladim; Fuzuliyga kelganda hayrat mayidan mast boʻldim. Insof bilan aytganda, Fuzuliy “Layli va Majnun”i barcha “Layli va Majnun”larning gultojidir”.

Oʻzbek shoirlari Fuzuliydan koʻp oʻrgandi. Unga ergashib sheʼrlar yozdi. Masalan, Mashrabning quyidagi gʻazali bunga misol boʻla oladi.

Ne savdolar bosha solding, bu savdolar tuganmozmu?
Ki band etding oyoqlarni, yana bandlar yozilmazmu?

Fuzuliy ijodidan hozirgi zamon oʻzbek sheʼriyatining vakillari ham ijodiy foydalanmoqda.

Adabiyotlar

1. Ариф М. Азербейджанская литература. Москва. 1979 йил.
2. Маллаев Н. Низомий Ганжавий. Тошкент. 1966 йил. (“Ўзбек адабиёти тарихи” китобида)
3. Фалаклар ёнди оҳимдан... “Жаҳон адабиёти” журнали. 1997 йил. 3-сон.
4. Т.Жалолов. Хамса талқинлари. Тошкент. 1961 йил.

7-mavzu. Qozoq adabiyoti

Reja:

1. Qozoq xalqi tarixi haqida.
2. Xalq ogʻzaki ijodi namunalari.
3. Qozoq demokratik adabiyoti.
4. Abay Qunonboev ijodi.

Tayanch iboralar: “Qiz jibek”, “Suluv shash”, dostonlari. “Isatay Taymanov” dostoni, Suyunboy baxshi. XIX asr yozma adabiyoti, Abay Qunonboev asarlari. Ibray Oltinsarin ijodi.

Qozoq xalqi boy madaniy merosga ega bo'lib, ayniqsa uning xalq og'zaki ijodi juda rivojlangan. Tarixda asosan charvochilik bilan shug'ullangan qozoqlarda yozma adabiyot nisbatan keyingi asrlarda paydo bo'ldi. Bu adabiyotning paydo bo'lishida, shakllanishida qozoq xalqi folklorining roli katta bo'ldi. Qozoq oqinlari kuylagan o'lanlar, dostonlar mavzusi rang-barang bo'lib, ularda xalqning tarixi, turmushi badiiy o'z aksini topgan. Qo'blandi botir, Erjarg'in va Qambar botir kabi xalq qahromonlarining sarguzashtlarini kuylovchi asarlar, tadbirkor va dono Aldarko'sa haqidagi latifalar, turli marosim qo'shiqlari, ertaklar qozoq folklorining asosini tashkil etadi.

Qo'blandi botir haqidagi dostonlarning ko'plab variantlari mavjud. Bu epos qozoq xalqining bebaho madaniy merosi hisoblanadi. Bu eposning variantlari Qrim-tatar va qoraqalpoq kabi turkiy xalqlar og'zaki ijodida ham uchraydi. Qo'blandi botir haqidagi dostonni V.V.Radlov, I.Oltinsarin, S.Sayfulin singari mashxur kishilar xalq oqinlaridan yozib olgan. Ana shulardan eng mukammal varianti Marabay Kulbaev va Merganbay degan oqinlardan yozib olingan variantlardir.

Bu eposda Qo'blandi botirning o'z yurtini chet ellik bosqinchilardan himoya qilishdagi jasoratlari kuylanadi. Hikoya qilinishicha, Qoraqipchoq urug' boshliqlaridan biri To'xtaboyning uzoq vaqtlar farzandi bo'lmaydi. U Xudodan farzand so'rab iltijo qilgandan keyin, uning Onalik degan xotini bir o'g'il va bir qiz tug'adi. O'g'liga Qo'blandi, qiziga Qaldirg'och deb ism qo'yadi.

Qo'blandi botir yoshligidan baquvvat bo'lib o'sadi. Olti yoshida u katta qahramonliklar ko'rsatib, qizilboshlarning zo'r paxlovonini engadi. U o'n ikkita xonning o'g'illari ustidan g'olib keladi. Qizil boshlar podshohi Ko'ktimxonning Ko'rtka nomli go'zal qizini musobaqada yutib chiqib unga uylanadi. Ko'rtka juda aqlli ayol bo'lib, Qo'blandi botir doimo u bilan maslahatlashib ish qiladi. Ko'rtka Qo'blandiga ot tanlaganda yilqidagi bug'oz biyani ol deb maslahat beradi. Keyin undan tug'ilgan taychoq Qo'blandi botirning mashhur oti Toyburil bo'lib etishadi.

Qizilboshlar xoni xujum qilib, ko'p vayronagarchiliklar keltiradi. Qozoqlarning Qirli va Sirli degan shaharlarini bosib olib, xalqini qul kilib olib ketadi. Ana shu xalqni ozod qilishda Qo'blandi botir ajoyib qahramonliklar ko'rsatadi. U Qoraman, Oqko'zi, Qorako'zi, Qo'shdavlat kabi botirlar bilan birgalikda qizilboshlarni engadi, xalqni ozod qiladi.

Qo'blandi botir Qoraman botir taklifi bilan qalmoqlar xoni Ko'biktiga qarshi jang qiladi. Lekin bu jangda qalmoqlar hiyla ishlatib Ko'blandi va Qoramanni asirga oladi. Ularni choxga tashlaydi. Ko'biktixonning qizi Qorlig'a Qo'blandi botirni sevib qoladi va ularga zindondan qochib ketishiga yordam beradi. O'zi ham bular bilan birga qochadi. Chunki bu qizning onasi asli musulmon bo'lib, yoshligida qalmoq xoni olib qochib ketgan bo'ladi. U o'layatgan paytda qiziga albatta musulmon yigitiga turmushga chiqishini vasiyat qilgan edi. Bularga Kubiktixon etib oladi. Ko'blandi Qarlig'a yordami bilan Ko'biktixonni o'ldiradi. Dostonning ayrim variantlarida Ko'blandi choxda etti yil yotdi deyilsa, ba'zilarida esa o'n olti yil deyiladi. Ko'blandi botir choxda yotgan

payt qalmoqlar xoni o'z o'g'li Birshimboyni qozoqlarga dushman bo'lgan Alshagirxonga yuboradi. Bular ikkalasi birlashib, himoyasiz qolgan Qo'blandi botir urug'ini bosib oladi. Keyin Ko'blandi botir Alshagirxonni engib, yurtini ozod qiladi. Ko'blandi botirning xotini Ko'rtka o'g'illi bo'ladi. Unga Begimboy deb ism qo'yadi. Bu ham otasidek mashhur qahramon bo'lib etishadi, o'z urug'ini xalqini dushmanlardan himoya qilishda katta jasoratlar ko'rsatadi. Eposda diniy rivoyatlarga ham katta e'tibor berilgan. Ko'blandi botirni doimo Qirg chiltanlar qo'llab yuradi. Uning boshida bir oq bulut doimo soya solib yuradi. U ba'zan xudoni unutgan paytlar muvaffaqiyatsizlikka uchraydi. Qolmoq xoniga asirga tushishda ham xuddi shunday bo'lgan edi. Shunga qarab, bu epos qozoqlar musulmonlikni qabul qilgandan keyin to'qilgan bo'lishi mumkin. Yoki bu diniy rivoyatlarni keyingi davr baxshilari qo'shgan bo'lishi ham mumkin. Eposdagi ko'plab voqealar bizga o'zbek dostoni «Alpomish»ni eslatadi. Bu esa bu ikki xalqning qadimgi ildizlari bir joyga borib taqalishidan dalolat beradi.

«Er Targ'in» eposini esa taniqli olim N.Ilminskiy Marabay baxshi tilidan 1862 yilda yozib olgan. Eposda hikoya qilinishicha qadim zamonda qirg'iz urug'idan bo'lgan Targ'in botir o'z qabiladoshlaridan birini o'ldirib, Qrim xoni Oqchaxonning yurtiga qochib ketadi va uning xizmatiga kiradi. Xon o'z dushmanlari Olalay va Bulalay xonlarga qarshi jang qiladi. Bu jangda Targ'in botirning ko'rsatgan katta qahramonliklari tufayli Oqchaxon g'olib keladi. Shundan keyin xon qizi Oqyunus Targ'in botirni sevib qoladi. Lekin otasi qizini xon urug'idan bo'lmagani uchun unga berishga rozi bo'lmaydi. Keyin Targ'in Oqyunus bilan qochib ketadi. Xon ularni kim quvib etsa, qizni o'sha oladi deb aytadi. Ko'p yigitlar ularga etib olishga harakat qiladi. Lekin yo'lda ularning barchasi qaytib ketadi, chunki Targ'inni ular hurmat qilar edi. Faqat bir keksa botir jangchi Qartixo'ja ularga etib oladi. Qoidaga ko'ra birinchi o'qni etib olgan odam otish kerak. Keksas jangchi ataylab Targ'in botirga o'qni tegdirmay otadi. Buni sezgan botir xon qizini tashlab, yolg'iz ketishga rozi bo'ladi. Lekin keksa jangchi bilan Oqyunus bir-biri bilan o'lan aytishadi. Bunda Oqyunus yutib chiqadi. Keyin Qartixo'ja bu ikki yoshga omad tilab, o'z yurtiga qaytib ketadi. Keyin Targ'in botir Xonzodaxonning xizmatiga kirib, ularning qalmiq bosqinchilaridan himoya qiladi. U daraxtdan yiqilib o'mirtqasi chiqib ketadi. Uzoq vaqtlar kasal bo'lib yotadi. Ana shu kasallik paytida uning do'st-dushmani bilinadi. Xalqning shunday botiridan hech kim xabar olmay qo'yadi. U achchiqlanib joyidan keskin harakat bilan turadi, ana shunda chiqib ketgan o'mirtqa suyaklari o'z joyiga tushadi. U yana qahramonliklar ko'rsatadi. Ikki o'g'illi bo'ladi. Kichik o'g'li besh viloyatning xoni bo'ladi. U Oqyunus bilan tinch-totuv uzoq yillar yashab dunyodan o'tadi. Eposda qozoq xalqining etnografiyasiga oid ko'plab ma'lumotlar keltirilgan. Xalq qo'shiqlari, maqollarari ko'plab qo'llangan.

Er-Targ'in botir haqida Qrim xalq og'zaki ijodida ham ko'p rivoyatlar bor. Ularning birida Targ'in Mamayxonning yaqin do'sti bo'lgani. Botirak degan polvon bilan jang qilib yarador bo'lgani, keyin Mamayxon Botirakni o'ldirib uning boshini yorug' dunyoda oxirgi nafasini olayotgan do'sti

Targ'inning oyog'i ostiga tashlagani, shundan keyin Er-Targ'in bu dunyodan rozi bo'lib ko'z yumgani hikoya qilinadi.

Tarixdan ma'lumki, qozoq xalqi bilan kalmiqlar o'rtasida ko'p janglar bo'lgan. Ko'chmanchi charvodor bo'lib, tarqoq yashagan qozoq ovullariga kalmiqlar doimo bosqinchilik yurishlari qilib turgan. Qozoqlar birlashib, ularga qarshi jang qilishga o'sha paytdagi tarixiy muhit imkoniyat bermagan. Shuning uchun qozoq folklorida ana shu doimo xavf solib turgan dushmanga nisbatan afsonaviy botirlar obrazi ko'plab uchraydi. Xalq o'zini himoya qiladigan shunday botirlarni orzu qiladi. Er Targ'in eposida ham ana shu g'oya etakchilik qiladi.

«Qambar-botir» dostoni ham qozoq folklorida keng tarqalgan asarlardan biri. 1898 yilda «To'qson uyli tobir» nomi bilan Qozonda bosilib chiqqan. Mukammal variantlaridan biri ma'rifatparvar A.Divaev tomonidan 1922 yilda Toshkentda nashr etilgan.

Dostonda hikoya qilinishicha, No'g'ayli urug'idan bo'lgan Azimboy degan kishining olti o'g'li va Nozim nomli bir qizi bo'ladi. Azimboy ana shu qizi kimni yaxshi ko'rsa, o'shanga beraman deb no'g'ayli urug'i va o'zbeklarning o'n ikki urug'idan mashhur kishilarni mehmonga chaqiradi. Lekin chaqirilganlarning birortasi Nozimga yoqmaydi. Qiz bir vaqtlar ovda asrlonni o'ldirgan Qambar-botirni yaxshi ko'radi. Lekin Qambar-botirni Azimboy chaqirmagan edi. Bir kuni qizning ovulidan o'tayotgan Qambarni Nozim ko'rib, uni o'z o'toviga taklif qiladi. Lekin Qambar xalq ko'rsa uyat bo'ladi deb, qizning taklifini rad etadi. Buni sezib qolgan qizning akalari Kambar-botirni o'ldirmoqchi bo'ladi. Lekin qizning kichkina akasi Olchi O'roz ularni bu yo'ldan qaytaradi. Nozimning go'zalligini eshitgan Qalmoq xoni Maxtumxon Qulmambet degan kishini qizga sovchi qilib yuboradi.

Olchi O'roz bundan achchiqlanib, sovchining quloq, burnini kesib qaytaradi. Bundan Maxtumxon nihoyatda achchiqlanib butun No'g'ayli urug'ini kirib tashlamoqchi bo'ladi. Bundan xabar topgan Azimboy Qambarni yordamga chaqiradi. Qambar botir Qolmoq xoni Maxtumxon bilan yakkama – yakka jang qilib, uni o'ldiradi. Keyin qolmoqlar no'g'ayli urug'iga urush e'lon qiladi. Bu urushda Kambar botir, Olchi O'roz va qozoqlar tarafga o'tgan Qulmambet qolmoqlarga qarshi kurashda katta jasoratlar ko'rsatadi. Dushmanning ko'pi o'lib, qolganlari qochib ketadi. Kambar botir Nozimga uylanib, uni o'z yurtiga olib ketadi. Eposning qisqacha mazmuni shundan iborat.

Asarda to'qson uyli urug'ini himoya qilib, ularni tinch-osoyishta hayot kechirish uchun dushmanlarga qarshi kurashgan Kambar-botir obrazi juda yorqin aks ettirilgan. Boshqa dostonlardagi kabi bu dostonda ham xalq o'z orzu-umidlarini mard, jasur yigitlar obrazi orqali ko'rsatadi. Chunki bu asarda qaysi xalqning yigitlari mard, jasur, aqlli bo'lsa, uni hech qanday dushman zabt etomaydi, el-yurt tinch, osoyishta va baxtli yashaydi degan g'oya hukmron. Asrlar davomida qolmoqlar zulmidan ezilib kelgan qozoq xalqi o'z og'zaki ijodida Kambar-botir singari mard, jasur yigitlarning tug'ilib, xalqni ozod qilishni orzu qilib kelgan.

Qozoq folkloridagi «Alpomish» dostonida ham xuddi ana shu mavzu etakchilik qiladi. Alpomish ham o'z xalqini dushmandan himoya qiladi. O'tda yonmas, qilich o'tmas, suvda cho'kmas kabi botirlar haqida xalq orzu qilgan Alpomish siymosidagi qahramon ana shunday xususiyatlarga ega bo'lgan. Alpomish ko'ng'irot urug'idan, u Boysunda voyaga etgan, otasi Boyburi, sevgilisi Shekti urug'idan bo'lgan Sariboyning qizi Gulbarchin. Dostonning o'zbekcha variantida esa Boybo'ri va Boysarilar aka-ukalardir. Qozoq xalqidagi urf-odatga binoan esa bir urug'ning yigiti shu urug'ning qiziga uylanmaydi. Shuning uchun Alpomishning sevgilisi boshqa urug'dan qilib berilgan bo'lishi kerak.

«Alpomish» eposining tadqiqodchilaridan biri V.Jirmunskiy bu asarning paydo bo'lish davrida hali turkiy xalqlar millatlarga ajralmagan edi deb ta'kidlaydi. Haqiqatan ham, «Alpomish» eposi eng qadimgi epos. O'zbekistonda uning ming yillik yubileyining nishonlanishi ham shundan dalolat beradi. Bizningcha bu eposning «yoshi» bundan ham uzoqroq bo'lishi kerak.

Alpomish yovuz kuchlarga qarshi kurashuvchi qahramon sifatida tasvirlangan. Negaki, u o'z urug'idan bo'lgan zolim Ultonni, Qalmoq xalqini ham ezib yotgan Toychaxonni o'ldirib, shu xalqlarga tinch-osoyishta hayot kechirishga imkoniyat yaratadi, qalmoq polvonlari bilan jang qiladi. Lekin ularning ichida mard, jasur Qorajonni o'ziga qiyomatlik do'st qilib oladi. Shuning uchun Alpomishni qalmoqlarga qarshi kurashdi, degan fikr bir yoqlamali. Alpomish yovuz kuchlarga qarshi kurashgan qahramon obrazi sifatida mashhurdir.

Qozoq xalqining «Qo'zi-ko'rpesht va Boyan suluv» nomli eposini dastlab V.V.Radlov to'liq yozib olgan va uni 1870 yilda nashr etgan. Keyinchalik ham bu asarning tanqidiy teksti M.Avezov va S.Muqanov singari adiblar tomonidan atroflicha tahlil qilinib, bir necha marta nashr etilgan. 1939 yili talantli yozuvchi G'.Musrepov ushbu doston mazmuni asosida to'rt pardalik drama yozdi. Bu asar asosida kino ham suratga olingan. Asar bir necha chet tillariga ham tarjima qilingan.

«Qo'zi ko'rpesht va Boyan suluv» dostonida Qo'zi va Boyan o'rtasidagi muhabbat kuylanadi. Qizning otasi Qoraboy etim va kambag'al yigit Qo'ziga qizini bermaydi. U o'z qavmi bilan boshqa tomonlarga ko'chib ketadi. Qoraboy o'ta ketgan xasis, shafqatsiz bo'lib, faqat o'z qo'ylari va yilqilarining sonini ko'paytirishni o'ylaydi. Hatto o'z farzandining taqdirini ham shu mollarga bog'laydi. Uning mirzalaridan biri Qodar ham o'ta ketgan razil, sotqin kimsa. Qoraboy Boyan suluvni Qodarga bermoqchi bo'ladi. Lekin qiz bunga turmushga chiqishga rozi emas. Shundan keyin u qizni izlab kelgan Qo'zi ko'rpeshtni halol kurashda eng olishiga ko'zi etmagach, uxlab yotgan joyida uni otib o'ldiradi. Keyin Boyan suluv ham o'ladi. Qodarni quduqqga tashlab o'ldirtiradi. Asar oxirida bosh qahramonlar fojiali halok bo'ladi. Qo'zi ko'rpesht va Boyan suluvlarning qabridan qizil gullar o'sib chiqadi. Ularning o'rtasidan qora tikan o'sib chiqadi. Xalq buni Qodarning yovuz ruxi deb ataydi. Bu asar syujeti

qandaydir tarafi bilan «Toxir va Zuxro» xaqidagi o'zbek dostonidagi voqialarga o'xshab ketadi.

Bu asar qozoq xalq og'zaki ijodida juda mashhur bo'lgan liro-epik doston bo'lib, shu asar asosida muzikali dramalar yaratilgan. Qo'zi-ko'rpesh va Boyan suluvlarning samimiy, pokiza muhabbati asrlar davomida o'quvchilarga ibrat bo'lib kelmoqda.

«Qiz Jibek» dostoni ham liro-epik dostonlardan bo'lib, xalq orasida ancha mashhurdir. Bu asarda ikki yoshning o'rtasidagi chin muhabbatga o'sha davrdagi ko'pgina yaramas urf-odatlarining to'siq bo'lganligi tasvirlangan. Go'zal va oqila qiz Jibek To'lagan degan yigitni sevadi. Lekin yigitning otasi Bozorboy bular o'rtasidagi muhabbatga to'siq bo'ladi. To'lagan otasining qarshiligiga qaramay qizni izlab, uning yurtiga ketadi. Yo'lda esa uni Bekejon boshliq o'g'rilar orqasidan otib o'ldiradilar. Bekejon ham Jibekni olmoqchi bo'lib sovchi qo'ydirgan va rad javobini olgan edi. Qolmoq xoni Qo'ren Jibekni zo'rlik bilan o'ziga xotin qilmoqchi bo'lib, uning yurtiga qo'shin tortib keladi. Lekin tadbirkor va oqila qiz Jibek aytishuvda Qo'renni engadi. Bir hiyla bilan uning uchqur otini olib, sevgilisining yurtiga qochib ketadi, chunki To'legan agar men seni baxtli qilolmay o'lib ketsam, ukam Sonsizboyga tegasan deb vasiyat qilgan edi. Musulmon bo'lmagan qalmoq xoni, Qo'renga xotin bo'lishdan ko'ra, qiz ana shu vasiyatni bajarishni afzal ko'radi.

Ko'pgina dostonlarda sevgilisi vafotidan keyin qizlar o'zlarini o'ldiradilar. Bu asarda esa oqila qiz Jibek ana shu an'anaga qarshi borib sevgan yigiti vasiyatini bajarishga ahd qiladi. Haqiqatan ham, hayotda bu ko'p uchraydigan hodisa. Ko'pchilik turkiy xalqlardagi, jumladan, qozoqlardagi urf-odatlarga ko'ra ham akasining bevasini ukasiga qaratishlar ko'p bo'lgan. O'sha tarixiy sharoit shuni taqozo etgan. Bu asar finalining ham shunday yakunlanishi uning hayotiyligini ta'minlagan.

Qozoq xalq og'zaki ijodida tarixiy dostonlar ham anchagina uchraydi. Yozma adabiyotning nisbatan keyinroq shakllanishi ham tarixiy dostonlarning ko'plab yaratilishiga sabab bo'lgan. Qozoq xalqining chet el bosqinchilariga va o'zining zolim xonlariga qarshi olib borgan kurashi bu dostonlarning asosiy syujetini tashkil etadi. Ana shunday dostonlardan biri «Beket haqidagi afsonadir». Beket haqidagi rivoyat XIX asrga taalluqli. Beket tarixiy shaxs bo'lib 1822 yilda tug'ilgan.

Ma'lumki, Isotay va Maxambet qo'zg'olonlari bostirilgach, xalqning bosqinchi ruslarga nafrati yanada kuchayib bordi. 1852-53 yillarda Eset va Beket boshchiligida zulmga qarshi qo'zg'olon ko'tarildi. 400 jangchiga ega bo'lgan Beket jangda o'zlaridan ancha ko'p bo'lgan sulton Aristinni engadi va sultonning o'zini o'ldiradi. Keyin sulton Boymag'ambet isyonchilar bilan sulh tuzishni bahona qilib hiyla ishlatadi. Sulx tuzish uchun kelgan Beket va Ernazarni tutib olib Sibirga surgun qiladi. Eset isyonni davom ettiradi, lekin ko'p o'tmay oq podsho tomonidan gunohi o'tilishi sharti bilan kurashni to'xtadi. Ana shu xalq qo'zg'oloni 1858 yilgacha davom etdi. Isyonchilar boshliqlari haqida qo'shiqlar, dostonlar to'qilgan. Bizgacha «Botir Beket haqida qo'shiq» degan

doston etib kelgan. Bunda Beketning jangi maydonida qanday jasoratlar, qahramonliklar ko'rsatgan, o'z qo'li bilan dushman jangchilarining boshlig'i Aristinni o'ldirgani yuqori pardalarda kuylangan.

«Isotay va Maxambet» dostonida, qozoq xalqining 1836 yilda zulmga qarshi qo'zg'oloni haqida hikoya qilingan. Doston muallifi Ig'ilman SHorekov isyonchilarning boshliqlari Isatay va Maxambetning jasoratlari bilan birga, yana ko'plab xalq qahramonlarining obrazlarini ham tasvirlagan. Masalan, Jangirxon isyonni bostirish uchun Qorovulxo'ja Bobojon o'g'li degan qo'mondoniga topshiradi. U ko'p kuch to'plab isyonchilardan Tani botir va Qoldiboy botirni asirga oladi. Qoldiboy isyonchilar boshlig'i Isatoy yashiringan joyni qancha qiynoqqa solsada, aytmaydi va dushmanni xuddi qadimgi .Shiroq» afsonasidagidek aldab, boshqa tomonga olib boradi. Bular haqiqatda bo'lib o'tgan tarixiy voqealar bo'lib, Chor Rossiyasi arxivlari hujjatlari ham buni tasdiqlaydi.

Oqin bu qo'zg'olonning asosiy sababini xalqning mol boqadigan yaylovlarining bir tomondan ruslar bosib olganini, qolganini esa o'zlarining xonlari, sultonlari egallab olgani va xalqning boshiga ko'plab og'ir soliqlar solinganida deb ko'rsatadi. U Jangirxonning mamlakatni o'ta ayyorlik bilan boshqarayotganini misollar bilan ko'rsatadi.

Jangirxon bobosi Abulxayrxondan qolgan vasiyatga binoan davlatni boshqarishda juda ulkan kuch bo'lgan yolg'ondan foydalandi. Uning «Yana xalqqa turli va`dalar berib, miyasini chalg'itib tur. Ulardan nafratlansang ham, lekin o'zingni juda mehribon qilib ko'rsatishga harakat qil. Natijada ular seni mehribon yurtboshi, otamiz deb atasin. Iloji boricha ularning orasiga dushmanlik urug'ini sep, ular bir-birini ko'rolmay urush-janjol qilib tursun. Sen esa ulardan ustalik bilan foydalan. Sen hech vaqt xalqni birlashtirma, ularni turli tomonga tarqatib yubor, ular faqat oilasini boqishni o'ylasin. Agar ular birlashib, senga qarshi kurashsa tamom bo'ldim deyaver, uni to'xtatadigan hech qanday kuch yo'q. Boshqa sultonlardan ham yordam olganingda buni bajarolmaysan. Bunday paytda ko'ch-qo'raningni olib boshqa davlatga qochib ketishingga to'g'ri keladi», degan nasihatlarini eslaydi.

Tengsiz janglarning birida qo'zg'olonchilar boshlig'i Isatay vafot etadi. Shundan keyin uning safdoshlari turli tomonlarga tarqalib ketadi. Isatoyning eng yaqin do'sti Maxambet botir esa Xivaga yaqin joyga kelib yashirinadi.

Qozoq xalq og'zaki ijodida xalq oqinlari, jirovlari katta rol o'ynagan. Buxor Jirov, Nisanboy, Do'sxo'ja Maxambet O'temisov, Halilboy Mambetov singari mashhur oqinlar ko'plab asarlarini o'zlari ham ijod qilishgan. Masalan, Maxambet O'temisovning "Isatay Taymanov" dostonida xalq qo'zg'olonchilarining boshlig'i, ozodlik va mustaqillik uchun kurashda qahromanlarcha holok bo'lgan Taymanov obrazi tasvirlangan.

Qozoqlarda xalq baxshilarining bir-biri bilan aytishuvi musobaqalarga aylangan. Ana shu aytishuvlarda ularning talanti, mahorati aniqlanadi. Mashhur oqin Birjon Sol bilan oqinalardan Soraning aytishuvi Yoki Suyunboy baxshi bilan Ko'nekeyning aytishuvlari xalq orasida keng tarqalgan. Bu aytishuvlar hech

qanday tayyorgarliksiz, eksproment (badiha) tarzida o'tkazilar edi. Baxshilar qancha tez va qiziqarli qilib she'r to'qisa, o'shanga qarab baxolangan.

Hasan Qayg'u haqidagi rivoyatlar qoraqalpoq, no'g'ay, qirg'iz va qozoq kabi turkiy xalqlar folklorida ham uchraydi. Ularda tasvirlanishicha, bu oqin butun umrini xalq baxt-saodati uchun, uning tinchligi uchun bag'ishlagan. U o'z el-yurtining kelajagi uchun doimo bezovta bo'lib qayg'urib yashagan. SHuning uchun ham uning nomiga «Qayg'u» laqabi ham qo'shib aytiladi. U o'zining Jelmoya tuyasi bilan yurti kechib yuradi, qozoqlarga yaxshi yaylovlar izlab Xitoy, Kashg'ar, Qo'qon, Xiva, Buxoro, Eron kabi joylarda bo'ladi. Rossiyaning chegarasigacha bo'lgan joylardan el yurti uchun ma'qul joylar izlagan degan rivoyatlar bor. Uning yashagan davrini XV-XVI asrlar deb taxmin qilinadi. U birinchi qozoq oqinlaridan bo'lib, Hasan Jirov nomi bilan ham mashhur bo'lgan. Ma'lumki, jirovlar folklor bilan yozma adabiyot o'rtasida ko'prik vazifasini o'tagan. Ular qozoq yozma adabiyotining shakllanishiga juda katta hissa qo'shgan.

Hasan Qayg'u Jonibek xon davrida yashagan, u ayrim she'rlarida Jonibekka nasihat qilib, turkiy xalqlarni birlashtirib, inoq bo'lib yashasang, hech qanday dushman senga teginolmaydi deydi. Shoirning «Nega bilmaysan», «Qayli, qayli zomonlar», «Ey xon, men senga aytsam», «Xo'sh, omon bo'l, Jonibek, endi meni ko'rmaysan» kabi ko'shiqlari juda mashhur bo'lib, hozirgacha o'zining badiiy qimmatini yo'qotgani yo'q. XU-XU1 asrlar qozoq xalqi tarixini biz Hasan Qayg'u va u bilan zamondosh bo'lgan jirovlarning asarlari orqali bilib olamiz.

XUSH asr qozoq xalqi tarixida katta o'zgarishlar bo'lib, uning territoriyasiga bir tomondan jungarlar va xitoylar, ikkinchi tomondan ruslar bostirib keldi. Qozoq urug'larining o'zaro urushlari ham xalqning tinkasini quritib yubordi. Bu davrda xon Ablay markazlashgan davlat qurishga harakat qildi. Rossiya asta-sekin qozoqlarning kattagina territoriyasini bosib ola boshladi. Ana shu voqialar qozoq okinlarining etakchi mavzusiga aylandi. Mashhur oqin Buxor Qalkamonov ijodida ham ana shu o'zgarishlar o'z aksini topgan.

Buxor jirov Qalkamanov (1693-1787) qozoqlarning Arg'in urug'idan bo'lib, Qalkaman botirning o'g'lidir. Buxor Jirov ham katta urug' boshliqlaridan biri bo'lib, Ablayxonning eng ishonchli biylaridan bo'lgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda xon Ablay doimo Buxor Jirovdan maslahat olib turgan. Bu oqin o'sha davrdagi davlat siyosatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning «Ey Ablay», «Qaerga ketayapsiz, kareylar», «Bu dunyoda hech narsa abadiy emas», «Istagim», «Galdek-seren bilan urush», «Qarilik haqida» kabi ko'plab she'rlari etib kelgan.

Masalan, u «Ablay» nomli she'rda xonni ruslarga qarshi katta jangga tayorlanayotganini qoralaydi. Bu jangda ko'p begunoh qonlar to'kiladi, yaxshisi ruslar bilan kelishish kerak degan taklif kiritadi. Xon Buxor jirovning gapiga kirib ruslar bilan tinchlik shartnomasini tuzadi.

Shu bilan birga, Buxor Jirov xalqni qanday qilib bo'ysindirish kerakligi haqida xonga maslahatlar beradi. Ablay tomonidan quvg'in qilingan Karey urug'iga murojaat qilib, xonning buyrug'ini so'zsiz bajarish kerak degan fikrlarni

aytadi. Buxor Jirov sheʼrlarida ham, siyosiy faoliyatida ham qozoq xalqi urugʻlarini birlashtirishga harakat qilgan. Ablayxon boshchiligida markazlashgan, kuchli qozoq davlati qurish uchun Buxor Jirov «Istagim» sheʼrida xalqqa murojaat qiladi. 1723-1744 yillarda jungarlarning bostirib kelishi qozoq davlatining tarqalib ketish xavfini tugʻdirdi. Ana shunday qaltis vaziyatda xon Ablay Buxor Jirov maslahati bilan juda toʻgʻri siyosat olib borib, qozoq davlatchiligini saqlab qolishga muvaffaq boʻldi.

SHoirning «Qariliq haqida» sheʼrida inson hayoti haqida koʻpgina falsafiy fikrlar bayon etilgan. Yoshlik va keksalik, xayot va oʻlim, ezgulik va yovuzlik haqida hikmatli fikrlar yuritiladi. Buxor Jirovning koʻpgina asarlari bizgacha etib kelmagan. Etib kelgan ozgina sheʼrlaridan maʼlumki, u juda talantli, falsafiy shoir boʻlgan. Bu sheʼrlar badiiy tomondan ham yuksak darajada yaratilgan.

Maxambet Oʻtimisov (1804-1846) qozoq xalqining talantli isyonkor shoirlaridan biridir. Maʼlumki, 1836-1937 yillarda qozoq xalqining juda katta qoʻzgʻolonlari boʻlib, xalq zulmga bosqinchilarga qarshi koʻtariladi. Ana shu qoʻzgʻolonga rahbarlikni Isatay Taymonov boshqargan. Mashhur oqin Maxambet Oʻtimisov ana shu Isatoy botirning eng yaqin yordamchisi, safdoshi boʻlgan. Maxambetning sheʼrlarida ona-vatanga va xalqiga muhabbat birinchi oʻrinda turadi. Shoirning «Nima yaxshiroq», «Bundan menga nima foyda», «Isyonga chorlov» kabi sheʼrlarida bu yaqqol koʻzga tashlanadi.

Uning koʻpgina sheʼrlari Isatoy Taymonovga bagʻishlangan boʻlib, bularda qoʻzgʻolonchilarning koʻrsatgan qahramonliklari va jasoratlari kuylangan. Ayniqsa Isatoy botirning el-yurt baxti uchun koʻrsatgan jonbozliklari koʻtarinki ruxda tasvirlangan. Bular shoirning «Isatay jangi», «Qahramon», «Lochinim», «Isatoy vasiyati», «Yomgʻirli kun» kabi sheʼrlarida oʻz aksini topgan. Qoʻzgʻolon bostirilgach, Maxambet biroz vaqt yashirinib yuradi. Lekin u xoin va sotqinlar tomonidan oʻldiriladi. Shoir hammasi boʻlib 42 yil yashadi. Ana shu davrda u qozoq xalqi tarixida oʻchmas qahramon boʻlib qoldi. Shoir haqida «Isatoy va Maxambet» nomli doston ham yaratilgan.

Bu davrda Sherniyaz oqin va Almajon Azamatova kabi shoirlar ham yashab oʻtgan. Sherniyaz qozoq xalqining eng sevimli shoirlaridan biridir. U ham Isatay boshchiligidagi qoʻzgʻolonda qatnashgan. Isyon bostirilgach esa Maxambet shoir bilan birgalikda yashirinib yurgan. Keyin oʻzi Boymuhammad xonga borib gunohini kechirishni soʻraydi. Xon Sherniyozni saroyiga ishga oladi. Xon uchun ana shunday, uni maqtaydigan oqin kerak edi. Sherniyaz Isatoy haqida, Boymuhammadxon haqida qoʻshiqlar, dostonlar toʻqigan. Uning «Qozibiy va Alen toʻraga», «Termalar», «Hayot haqida» sheʼrlari bizgacha etib kelgan.

Almajon Azamatova qozoq ayollari ichidan chiqqan mashhur shoira boʻlib, uning «Etim» degan dostoni bizga meros boʻlib qolgan. Bu dostonda qozoq xalqining XIX asrning birinchi yarmidagi ogʻir hayoti, oʻz baxti va haq-huquqi uchun olib borgan kurashlari aks ettirilgan. Shoiraning bu dostoni avtobiografik asar boʻlib, asosan oʻz boshidan oʻtgan voqealar hikoya qilinadi.

Oʻzining zoʻr ijrochilik mahorati bilan shuxrat topgan oqinlardan biri Janbul Jaboev edi. U mashhur Suyunboy baxshining shogirdi boʻlgan. U ogʻzaki

ijod namunalaridan ko'plarini yoddan aytib, shu bilan birga o'zi ham ko'plab asarlar ijod qilgan. Uning "Kambag'alning sho'ri", «Sholtaboyga», "Mirzabek volostining boshlig'iga", "Qodirboyning iti" nomli asarlari xalq orasida katta shuxrat topgan.

XIX asrining ikkinchi yarmidagi qozoq adabiyotiga talantli shoirlar kirib keldi. Bu davr qozoq adabiyotida ikkita oqim ko'zga tashlanadi. Birinchisi, realistik ma'rifatparvarlik oqimi bo'lsa, ikkinchisi diniy-ma'rifiy yo'nalishdir.

Diniy – ma'rifiy oqim vakillari bo'lgan Shortanbay, Abubakir, Numon kabi shoirlar ijodida o'zlari yashayotgan davrdan, siyosiy tuzimdan norozilik motivlari ko'proq ko'zga tashlanadi. Ular qadimgi qozoq xalqi urf-odatlarini, an'analarining unutilib borayotganligidan bezovta bo'lib she'rlar yozdi. Zamondan norozilik, adolatsiz tuzumga nafrat, nadomat motivlari ular asarlarining etakchi g'oyalari edi. Bu davrda Qozog'istonning barcha xududlari Rossiyaga qo'shib olindi. Qozoqlar eriga ko'plab ruslar ko'chib keltirildi. 1868 yilda Rus imperiyasining Orenburg va G'arbiy Sibir guberniyalarining cho'l zonalarini mustahkamlash haqidagi maxsus formoni e'lon qilindi. Bu farmonga muvofiq butun qozoq yurtini boshqarish ruslar qo'liga o'tdi. Qozoqlarning xon va sultonlari davlatni boshqarish huquqidan amalda maxrum qilindi. Mamlakatda ruslashtirish siyosati olib borildi. Ana shu o'zgarishlar ko'pgina qozoq ziyolilarining tushkinlikka tushishiga sabab bo'ldi. Qadimgi feodal aristokratiyaning roli pasayishi, yangi kapitalistik munosabatlarning shakllanishi bu davr qozoq adabiyotida o'z aksini topdi. Shuning uchun Abubakir shoir o'z she'rlarida mamlakatni past tabaqadan bo'lgan qullar va kofirlar boshqarmoqda. Bular yurti vayronaga aylantiradi, chet elliklarga tolon-taroj qilish imkoniyatini ochib beradi. Chunki bularning qonida yurti boshqarish qobiliyati yo'q, deb asarlar yozdi. Kishilarni qozoq milliy urf-odatlarini, Islom dinini qadrlashga, ularga rioya qilishga chaqirdi. Bu davr qozoq adabiyotidagi realistik ma'rifatparvarlik oqimi vakillari Ibray Oltinsarin, Abay Kunonboev, Cho'qon Valixonovlar ijodida esa demokratik tamoyillar, yangiliklarni targ'ib qilish, Evropa madaniyatiga xayrixoxlik seziladi.

Qozoq xalqining ana shu boy og'zaki ijodi, uning yozma adabiyotining shakllanishiga katta ta'sir qildi. Qozoq klassik adabiyotining asoschilari Cho'qon Valixanov, Ibray Oltinsarin, Abay Qononboevlar ijodi qozoq xalqi og'zaki ijodi bilan yozma adabiyotining o'rtasida ko'prik vazifasini o'tadi. Bu shoirlar bir tomondan, mashhur oqin bo'lgan, ikkinchi tomondan esa buyuk ma'rifatparvarlar edi. Ular demokratik yo'nalishdagi qozoq adabiyotining asoschilari edi. XIX asrning boshlarida qozoq cho'llarining bir qismining Rossiyaga qo'shib olinishi natijasida xalq hayotida muhim o'zgarishlar sodir bo'ldi. Progressiv dunyoqarashdagi fikrlarga ega bo'lgan rus intelligentsiyasining ta'siri natijasida mahalliy qozoq ziyolilari ham shakllana boshladi.

Cho'qon Valixanov (Muhammad Xanafi) (1835 – 1865) qozoq xonlaridan bo'lgan Ablayning avlodiga mansubdir, uning otasi Chingiz qozoq sultonlarining boshlig'i bo'lgan. Cho'qon Ko'kchatov viloyatining Qo'shmurin degan joyida tug'ilgan. Dastlab musulmoncha maktabda, keyin 1847 yilda Omsk

shahridagi kadetlar korpusiga o'qishga kiradi. 1853 yilda kadet korpusini muddatdan oldin muvaffaqiyatli bitirib, rus armiyasida ofitser bo'lib xizmat qiladi.

U tarix, geografiya, etnografiya fanlarini mustaqil ravishda chuqur o'rgandi. 1856 yilda ruslar tashkil qilgan ekspeditsiyada qatnashib, qirg'iz xalqi urf-odatlarini, folklorini yozib oldi. Cho'qon «Manas» eposining mazmunini qadimgi qo'shiqlarni, afsona va rivoyatlarni birinchi bo'lib yozib oldi. Qirg'iz xalqining o'sha davrdagi iqtisodiy ahvolini, maishiy turmushini atroflicha o'rgandi.

1956 yil Cho'qon Valixonov rus davlatining Kuljadagi savdo ishlari bo'yicha vakili bo'lib tayinlanadi. U shu ulkaning etnografiyasini o'rgandi. U harbiy ishlardan voz kechib, Sharq xalqlari tarixi, adabiyoti, etnografiyasi bilan shug'ullandi. U 1957 yilda Rossiya geografik jamiyatining haqiqiy a'zosi qilib saylanadi. 1858 yilda u Qo'shqarni tekshirish uchun tuzilgan ekspeditsiyaga boshliq bo'ldi. Olti oy ichida uyg'ur tilini urganib, shu ulkaning tarixi, geografiyasi, etnografiyasi bo'yicha juda katta material to'pladi, ko'plab eski Sharq qo'lyozma kitoblarni Peterburgga olib keldi.

1860 yilda Cho'qon Rossiya Harbiy ministrligi topshirig'i bilan Buxoro va Issiqko'lning geografik kartasini tuzdi va «Oltisharning holati haqida» nomli kitobini nashrga tayyorladi. U Mashhur yozuvchi M.Dostaevskiy bilan do'stlashdi. 1961 yilda kasalligi tufayli Peterburgdan ketib, o'z yurtida ma'rifatni yoyishga harakat qildi. U «Qirg'izlarda shamanchilik ildizlari», «Qozoq, qirg'izlar shajarasi», «Katta qirg'iz-qaysoq o'rdasi afsona va rivoyatlari» kabi maqolalarini yozdi.

1864 yilda Cho'qon Valixonov general Chernyaevning harbiy ekspeditsiyalarida ishtirok etdi. Avliyo otaning, Toshkentning ruslar tomonidan bosib olinishidagi xunrezliklardan norozi bo'lib, bu ekspeditsiyani tark etadi. Cho'qon Valixanovning ilmiy faoliyatidan ruslar O'rta Osiyoni bosib olish uchun foydalanganini, uning o'zi tasavvur ham qilmas edi. U juda qisqa, bor yo'g'i 30 yilcha umr ko'rdi, xolos. Lekin ana shu qisqa umrida qilgan ishlari bilan qozoq xalqi tarixida talantli olim, iste'dodli yozuvchi, buyuk ma'rifatparvar sifatida mashhur bo'lib qoldi.

Yana bir qozoq ma'rifatparvari Ibray Oltinsarin (1841 - 1889) Kustanay viloyatida tug'ilib voyaga etdi. U Orenburg shahrida ochilgan rus-qozoq maktabida o'qidi. Ma'lum muddat kotiblik qildi, keyin esa o'qituvchilik kasbini tanladi. Ibray eski maktablarning talabga javob bermay qo'yganligini bilib, o'zi yangi maktablar ochdi, ularga yangi darsliklar yozdi. U butun ilmini, kuch-qobiliyatini qozoq xalqini savodli, ongli qilishga bag'ishlagan ma'rifatparvar insondir. Ibray Oltinsarin ruslarning ilg'or maorif sistemasidan foydalanib, uni qozoq maktablariga birinchi bo'lib tadbqiq etdi. 1864 yili yangi qozoq maktabi ochib, unda o'zi o'qituvchilik qildi. Bu maktab juda yaxshi natijalar berganidan I.Oltinsarinning nomi tezda butun qozoq eliga tanildi. 1887 yilda Irg'izda qozoq qizlari uchun birinchi internat-maktab ochib qozoq xalqi tarixida birinchi bo'lib ayollar uchun maorif masalasini ko'tarib chiqdi.

Ibray Oltinsarin «Qozoq xrestomatiyasi» nomli kitob yozib, unda yosh bolalar dunyoqarashiga mos ko'plab engil she'rlar, hikoyalar to'plangan edi. Bunga rus va jahon adabiyoti namunalarida ham asarlar kiritilgan edi. «O'rmakchi, chumoli va qaldirg'och» nomli hikoyada mehnat kishini baxtli qilishini, yalqovlik esa insonni tubanlikka etaklashini obrazli qilib tushuntirib berdi. Uning «Saxiy Xotamtoy» hikoyasida esa halol mehnat qilib, non topish kishining eng yaxshi fazilati deb xulosa keltiriladi. Bu Navoiyning «Xotamtoy hikoyati»dan ta'sirlanib yozilgani bilinib turibti. Uning «Dono qiz» nomli hikoyasida otasi podshoning g'azabiga uchrab qo'li kestirilayotgan paytda, podshoga iltijo qilib, otam o'rniga mening qo'limni kesinglar, chunki u bizning oilamizning yagona boquvchisi, degan qizning taqdiri hikoya qilinadi.

Bulardan tashqari «Ona va o'g'il», «Hasan va Husan», «Og'riqdan ham, og'ir qayg'u» kabi hikoyalari ham ahloqiy-tarbiyaviy mavzuda yaratilgan edi. U bolalarga atab ko'plab asarlar yozdi va chet el adabiyotidan ham anchagina asarlarni tarjima qildi. Yozuvchining «Qipchoq Saidqul» nomli hikoyasida ham o'troqlashib borayotgan qozoqlarning hayotida mehnatning roli haqida gap boradi. Ibray Oltinsarinning yana bir xizmati, u qozoq poeziyasida she'riy yo'lda yozilgan masallar janriga asos soldi. Bunda u rus yozuvchisi I. Krilov an'analaridan foydalandi. . Shoirining «Yoz», «Daryo», «Yoz kelmoqda» nomli she'rlari peyzaj lirikasining go'zal namunalari bo'lib hisoblanadi. U siyosiy va didaktik xarakterdagi she'rlar yozib, bu sohada ham birinchilardan bo'ldi.

Xullas, I.Oltinsarin o'z ijodi bilan qozoq adabiyotida realistik metodning shakllanishiga katta hissa qo'shdi.

XIX asr qozoq adabiyotining, umuman, qozoq klassik adabiyotining eng yirik arbobi Abay Qo'nanboev (1845-1904) hisoblanadi. Abay ijodi qozoq adabiyotining cho'qqisidir. Qozoq xalqi Abay yaratgan asarlar orqali birinchi bo'lib dunyoning falsafiy fikrlari bilan tanishishga muyassar bo'ldi. Shoir ijodi Sharq va G'arb adabiyotining sintezlashgan holatidagi novator adabiyotdir. U qozoq adabiyotining asoschisi bo'lish bilan birga, qozoq adabiy tilining ham asoschisidir. O'zbek adabiyotida Navoiy, Turkman adabiyotida Mahtumquli Ozarboyjon adabiyotida Fuzuliy qanday rol o'ynagan bo'lsa, qozoq adabiyotida Abay ham xuddi shunday rol o'ynadi. Abay qozoq poeziyasini yangi realistik yo'nalishga boshlagan novator shoirdir. Shoir ijodining an'anasi sifatida keyinchalik qozoq adabiyotida tanqidiy realizm tomir otdi. Abay buyuk demokrat va ma'rifatpar shoir sifatida o'z davrining ilg'or g'oyalarini asarlarida targ'ib etdi. Abay ijodiy faoliyati haqida juda ko'plab ilmiy ishlar qilingan. M. Avezov «Abay», «Abay yo'li» nomli to'rt tomli roman epopeyasini yozdi. Qozoq adabiyotshunosligida maxsus «Abayshunoslik» bo'limi paydo bo'ldi. Bularning barchasi buyuk shoir ijodining qozoq xalqi madaniyati tarixida nechog'li rol o'ynaganidan dalolat beradi.

Abay Semipalatinsk viloyatida shu o'lkaning og'a-sultoni biy Qunonboy oilasida tug'ilib voyaga etdi. Uni yoshligida eski musulmon maktabida va madrasada o'qitdi. Keyin uch yil rus maktabida o'qidi. Qattiqqo'l otasi uni o'z o'rniga tayyorlash maqsadida davlatni boshqarish ishlariga tortdi. Lekin Abayda

bunday ishlarni bajarishga umuman havas yo'q edi. U mustaqil o'qib bilim oldi, rus tilini o'rgandi. Semipalatinskka surgun bo'lib kelgan rus progressiv ziyolilari bilan yaqin munosabatda bo'ldi.

Abay she'rlari xalqni g'aflat uyqusidan uyg'otishga, o'z haq-huquqini himoya qilishga da'vat etardi. U jamiyatdagi illatlarning ildiziga bolta urib, ularning qaerga borib taqalishini ko'rsatib berdi. Xalqning o'z huquqini tanishi esa amaldorlarga hech ham yoqmaydi. Shuning uchun Abayni bir tomondan rus akkupantlari, ikkinchi tomondan maxalliy feodal amaldorlar siquv ostiga oldi. Uning uylarini bir necha marta tintuv qildi, turli tuhmatlar uyushtirdi.

Abay she'riyati rangba-rang va turli mavzularda yozilgan. Qozoq xalqi og'zaki ijodidagi o'lanlar, aytishuvlar bilan hamohangdir. Uning muhabbat lirikasi Sharq she'riyatining go'zal namunalaridan ta'sirlanib yozilganday tuyulsa-da, unda halqchilik va dardchilik kuchli ko'zga tashlanadi. Olti va sakkiz qatorlik qisqa va mazmunli go'zal she'rlarda shoir o'quvchiga ta'sir qiladigan, uning his- tuyg'usini qo'zg'atadigan fikrlarni bayon etadi. . Shoirning bunday she'rlarida rus, umuman, Evropa she'riyatining an'analarini sezamiz. «Jim-jim ko'nglim, jim ko'nglim» degan misralar bilan boshlanuvchi she'rlari esa qandaydir tomoni bilan Sharq tasavvuf she'riyati an'analarini eslatadi. Chunki bu she'rda shoir insonning ko'ngli, nafi nimalarni tilamaydi. Uni jilovlash lozim, aks holda insonni xarob qiladi, degan fikrlarni aytadi. Abay she'riyati sinchiklab tahlil qilinsa, unda Ahmad Yassaviy she'riyatining an'analari ham anchagina ekanligiga iqrar bo'lamiz. Shoir «Ey muhabbat», «Yigitlar», «Ko'zimning qorasi», «Sho'rli qozog'im», «Ilm urgan» kabi she'rlarida ishq, vatan, ma'rifat mavzularini targ'ib qildi.

Ma'lumki, Abay serqirra ijodkor bo'lib, uning adabiy merosida bir qancha dostonlar ham mavjud. U «Iskandar» «Ma'sud», «Azim afsonasi», «Vadim» kabi dostonlar ham yozgan. U «Ma'sud» nomli dostonida «Ming bir kecha» ertagidagi afsonalarga murojaat qildi. Asar voqialari Bog'dod va uning atrofida bo'lib o'tadi. Dostonda Ma'sud nomli halol va pokiza yigitning bir qariya cholni qaroqchilardan himoya qilib mardlik va jasorati ko'rsatgani, buning evaziga qariya unga pul taklif qilganda, u rad etib bu ishni savob uchun, odamgarchilik uchun qilganini aytadi. Ma'sudni qariya yaxshi tilaklar bilan duo qiladi. Xalqdagi «oltin olma, duo ol» degan maqolga rioya qilgan Ma'sud keyinchalik adolatli shoh bo'lib etishadi. Aslida bu duo qilgan qariya Xo'jai Xidir edi.

Dostonda ana shu rivoyat asosiy mavzu qilib olinib, Abay uni o'z zamoniga moslab o'zgartirishlar kiritgan. Ma'sud qandaydir arab yigiti emas, balki o'quvchi ko'z oldida oddiy, mard, qozoq yigitiday gavdalanadi. Shoir o'z gumanistik g'oyalarini shu tarzda targ'ib qildi.

Uning «Azim afsonasi» nomli dostoni ham «Ming bir kecha» syujetidan olingan. Ertakdagi «Hasan zargar qissasi» shoir tomonidan o'zlashtirilib, Hasan ismi o'rniga Azim nomi berilgan. Bunda ezgulik bilan yovuzlik, haqiqat bilan yolg'on, ma'rifat bilan jaholat o'rtasidagi konfliktlar ko'rsatilgan. Yovuz chol yosh yigit Azimni jodu qilib, boshiga ko'p kulfatlar soladi. Azimdagi oq

ko'ngillik, mardlik, to'g'rilik barcha yovuz kuchlar ustidan g'olib kelishiga yordam beradi. Asar tugallanmay qolgan.

Ma'lumki, Iskandar Zulqarnayn haqida Sharq adabiyotida juda ko'plab asarlar yaratilgan. Nizomiy, Xisrav Dehlaviy, Navoiylarning Iskandar haqidagi dostonlari bunga misol bo'la oladi. Shoir Abay ham ana shu an'analarni davom ettirib, «Iskandar» nomli doston yozgan.

Lekin Abay bu dostonida Iskandarni maqtamasdan, uni tanqid qilish yo'lidan bordi. Asarda Filip o'g'li Iskandarning qo'shni mamlakatlarni bosib olgani bilan qanoatlanmay, katta qo'shin to'plab butun dunyoni bosib olish uchun harakat qilgani, biroq oqibatda bu ishning uddasidan chiqmagani hikoya qilinadi. Iskandar o'z qo'shini bilan jazirama cho'lni kesib o'tib, bir toqqa duch keladi. Tog'ning darasiga kirishda katta oltin darvoza unga to'siq bo'ladi. U qancha urinmasin bu darvozani buzib, narigi tomonga o'tolmaydi. Iskandarning jahli chiqib, darvozani och, men butun dunyo hukmdori Iskandar bo'laman, deydi. Darvoza ortidan esa, bu xudoga olib boriladigan yo'ldagi darvoza, senga esa mumkin emas, degan sado keladi va Iskandarga darvoza ortidan suyak tashlaydi. Bu suyak juda og'ir edi. Uni hech narsa ko'tara olmaydi. Bu sirning ma'nosini Iskandarning ustoz Aristotel echadi. U tarozi pallasining bo'sh qismiga bir qisim tuproq tashlaganda, suyak turgan pallasi yuqoriga ko'tarilib ketadi. Abay insondagi ochko'zlikni, dunyoga to'ymaslikni tanqid qilib, uni bir qism tuproq to'ydiradi, degan naql bilan dostonni tugallaydi. Ana shu Iskandar hayotidan olingan bir lavha juda katta tarbiyaviy ahamiyatga ega. Bu ham buyuk shoir Abayning ko'p qirrali olmos iste'dodidan xabar beradi.

Abay qozoq adabiyotida prozaning rivojlanishiga ham munosib hissa qo'shdi. U o'zining mashhur «nasihatlar»ini nasriy yo'lda yozdi. Bu asar Abay ijodida alohida o'rin tutadi. Buni shoirning o'ziga xos falsafiy traktatlari deb atash mumkin. Bunda donishmand shoirning hayot haqida, qozoq xalqi va uning turmushi to'g'risidagi qarashlari ifodalangan. Inson hayotining turli tomonlariga oid voqealar haqida mushohada yuritiladi. Masalan, kitobni qanday mutolaa qilishdan tortib, insonning bu dunyoda yashashdan maqsadi, xalqlarning ahvoligacha ma'lumot beradi.

Abay ko'pgina asarlarni qozoq tiliga tarjima qildi. u rus adabiyotidan A.S.Pushkinning «Evgeniy Onegin» she'riy romanidan parchalar, M.Yu.Lermontovning 26 she'rini, I.A.Krilovning 20ta masalini qozoq tiliga ag'daradi. U Lermontovning «Xanjar», «Elkan», «Terek tuhfasi» kabi she'rlarini «Demon» poemasiidan parchalarni juda mahorat bilan sodda, tushunarli tilda tarjima qildi. «Evgeniy Onegin»ni esa Abay erkin tarjima qilib, uning mazmunini qaytadan qozoqlarga tushunarli qilib berdi. Bu Sharq adabiyotidagi nazira bog'lash usuliga yaqin turadi. Abay bu tarjimasi bilan o'z Oneginini, o'z Tatyanasini yaratdi. Qozoq oqinlari Tatyananing sevgi iztiroblariga to'la bo'lgan Oneginga maktubini xalq o'rtasida o'lan singari kuylab yurgan. Abay o'z tarjimalari bilan XIX asrdagi buyuk rus adabiyotini o'z xalqi orasida targ'ib qiladi.

Abayning o'g'illari Mag'avi va Oqilbeklar ham otasining yo'lidan borib bir qancha asarlar yaratib, qozoq adabiyotining rivojlanishiga o'z hissalarini qo'shgan.

Abayning lirik she'rlari turli mavzularda yozilgan. Lekin ularning ko'pchiligini ilm-hunar o'rganishga, savodli bo'lishga chorlovchi ma'rifatparvarlik ruhidagi she'rlar tashkil etadi. Bu fikrlarimizni shoirning quyidagi misralari ham isbotlaydi.

Yoshlikda bilim izlab yugurmadim
Hayron bo'ldim, biroq yuz o'girmadim,
Ulg'ayganda qarasam, qo'lim quruq,
Kechikib qo'l cho'zdimu, ulgurolmadim
Izlasam, bo'larmidim shunchalik xor?

Abayning muhabbat lirikasi ham samimiy va jozibali misralarda bitilgan. U halq qo'shiqlariga yaqin, sodda va ravon misralarda yozilgan.

Berdim salom, qalamqosh
Senga qurbon mol ham bosh.
Seni o'ylab tunu kun,
Oqar ko'zdan qaynoq yosh.

Asil odam aynimas
Ishq o'tidan qayrilmas,
Ko'rsam ham, ko'rmasam ham,
Ko'ngil andan ayrilmas.

Abay qozoq she'riyatida birinchi bo'lib, realistik doston janrini olib kirdi. Uning "Iskandar" va "Mas'ud" nomli dostonlarida zamondoshlarini hayojonga solib turgan ko'pgina muammo va masalalarni ko'tarib chiqdi. U odob-ahloq ma'naviyat va ma'rifat haqida doimo qayg'urib yozdi. Ma'rifatli zamonni qanday qurish yo'llarin axtardi, adolatli tuzumda yashaydigan jamiyatni orzu qildi.

Abay Qozoq prozasining rivojlanishiga ham o'zining katta hissasini qo'shdi. Uning "Nasixat" nomli asari kichik-kichik didaktik hikoyatlardan ibrorat. Ularda Abayning ilg'or ijtimoiy-siyosiy qarashlari va falsafiy mushohadalari o'z aksini topgan. Abay ijodiga rus adabiyotining ta'siri katta bo'ldi. Shoir Pushkinning "Evgeniy Onegen" romanidan ayrim boblarni qozoq tiliga tarjima qildi. Bu esa qozoq adabiyotida chet tilidan qilingan birinchi tarjima edi. Abay rus imperiyasining bosqinchilik siyosatini qoraladi va unga qarshi o'z asarlarida fikrlar bildirdi. Lekin ikkinchi tomondan progressiv Rossiya ham bor ekanligini ta'kidlab, undan ibrat olish, qozoq xalqini jaholatdan qutqaradi deb bildi.

Abay O'rta Osiyoda yashovchi turkiy xalqlari ichida o'zbeklarni ma'naviyat va ma'rifat tomondan ilg'or xalq deb bilib, o'z yurtdoshlariga ibrat qilib

ko'rsatdi. Shu bilan birga o'zbeklarning iqtisod sohasidagi yutuqlaridan ham o'rnak olish kerakligini uqtirdi.

Shunday qilib, qozoq ma'rifatparvorlari Cho'qon Valixanov, Ibrat Oltinsarin va Abay Qo'nanboevlar ijodi qozoq yozma adabiyotining shakllanishiga katta hissa bo'lib qo'shildi. Bu yozma adabiyot realistik san'at yo'nalishida vujudga keldi va XX asr qozoq adabiyotining rivojlanishiga poydevor bo'lib xizmat qildi.

Adabiyotlar

1. Қаратоев М. “Казакская литература” . Москва. 1980.
2. Абай Қўнанбоев. Асарлар. Т., 1980.
3. Ч.Айтматов, М.Шаханов. Чўққида қолган овчининг оҳизори. Т., 1999.
4. С.Сайфуллин. Машаққатли йўл. Т., 1984.
5. М.Авезов. Абай. Роман. Т., 1968.

8-mavzu. XX asr qozoq adabiyoti

Reja:

1. Asr boshidagi tarixiy sharoit.
2. Qozoq realistik adabiyoti shakllanishi.
3. Qozoq adabiyoti prozasi.
4. Qozoq dramaturgiyasining rivojlanishi.
5. Qozoq adabiyoti vakillari haqida.

Tayanch so'z va iboralar: “Alash o'rda” tashkiloti. J.Jaboev ijodi. Qozoq prozasi. Roman va qissalar. Dramatik asarlar. Qozoq prozasi an'analari. M.Avezov, S.Muqonov, M.Shaxanov.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida Qozog'istonda sanoat va savdo kapitali rivojlanishi natijasida mahalliy burjuaziya shakllandi. Bu esa adabiyotda ham burjuaziya mafkurasiga mos asarlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Oktyabr inqilobi, grajdanlar urushi, er islohoti kabi o'zgarishlar, bolsheviklarning hokimiyat tepasiga kelib yurgizgan siyosatlari uzoq vaqtlar XX asr qozoq adabiyotining asosiy mavzulariga aylanib qoldi. Lekin qozoq ijodkorlari doimo adolat uchun, haqiqatning g'alaba qilishi uchun asarlar yozishdan chekinmadilar. Asr boshida qozoq adabiyoti rivojiga yozuvchilardan I.Kubeev, S.Turaygurov, S.Donitaev, I.Jonsugurov, S.Sayfullinlarning ijodi katta hissa bo'lib qo'shildi.

XX asr boshlarida qozoq adabiyotida jadidchilikning roli katta bo'ldi. Ayniqsa, tatarlarda chiqadigan gazeta va jurnallar, tatar tilida nashr qilingan kitoblar qozoq adabiyotining rivojlanishiga ta'sir qildi. Qozoqlarda ham “Oyqon” nomli jurnal va bir qancha gazetalar tashkil etildi. “Alash o'rda” tashkiloti tuzilib, bu tashkilot a'zolari Qozog'iston mustaqilligi uchun kurash olib bordi. Bu davr

qozoq adabiyotida turkiy xalqlarni birlashtirish, dunyoda yagona “Buyuk turon” davlatini tuzish g’oyalari ham keng yoritildi. Ozodlikka erishish uchun dastlab xalq ongli, savodli bo’lishi kerak, ongsiz, sovodsiz xalq bilan hech narsa qilib bo’lmasligini bilgan ilg’or qozoq ziyolilari, avval maktablarni isloh qilish kerak, degan takliflar bilan chiqdi. Shuning uchun bu davr qozoq adabiyotida ma’rifatni targ’ib qilish etakchi o’rinda turdi. Isfandiyor Ko’baev, Turayg’urov, Donentoev, Muxtor Mag’ovin, Mustafa Cho’qae v kabi ma’rifatparvar qozoq vatanparvarlari o’z asarlarida erk, ozodlik uchun kurashayotgan qahramonlar obrazini yaratdi. Ular taraqqiyot uchun to’siq bo’layotgan turli illatlarga, jaholatga qarshi kurash olib bordi.

XX asr boshida Turkistonda eng ilg’or ziyolilardan biri Mustafo CHo’kaev (1890 - 1942) edi. U Oqmachit shaxrida tug’ilgan. Turkistonning eng savodli, fikri teran kishisi sifatida Rossiya Davlat Dumasining deputati bo’lib, mahalliy xalq haq huquqlarini ana shu yuqori minbarda turib himoya qilgan. 1917 yilda Orenburgda Umumqozoq Kongressini tuzishda ishtirok etdi. Shu yili dekabr oyida esa Turkiston Muxtoriyatini tashkil qildi. Dastlab Muxtoriyatning raisi qilib “Alash o’rda” partiyasi raxbarilaridan biri Tinishboev saylandi. Bir xaftadan keyin uning o’rniga Mustafo Cho’qae v tayinlanadi. Bu Muxtoriyat uch oylar chamasi faoliyat ko’rsatdi. Bolsheviklar turli nayranglar bilan uni tarqatib yubordi. Muxtoriyat Qo’qon shahrida demokratik asosda qurilgan edi. Unda 54 kishilik xalq kengashining 36 tasi maxalliy millat, 18 tasi evropalik edi. Lekin bu Muxtoriyatni uzoq vaqtlar “Millatchi va panturkistlar to’dasi” deb ayb qo’yib qoralab keldi. Qo’qon militsiyasi boshlig’i Ergash kichik otryad bilan Muxtoriyatni himoya qildi. Lekin Qizil Armiya shafqatsiz terrorni amalga oshirdi, arman dashnoqlariga erk berib, tinch axolini talash uchun tashladi. Bu armanilar guyoki, turklar va ozorbayjonlardan azob chekkanligi uchun boshqa turk qavmlaridan o’ch oldi. “O’shanda Qo’qonning o’zida o’n mingdan ortiq odam o’ldirildi. Qirg’in shu bilan tugagani yo’q. 1918 yilning birinchi yarmida Marg’ilonda 7000, namanganda 2000, Andijonda 6000, Bo’z qo’rg’onda 4500 odam o’ldirildi. Shu jarayonda 180 qishloqqa o’t qo’yildi. Minglab oilalar xonavayron bo’lib, boshponasiz qoldi.

Mustafa Cho’qay bu xunrezliklarning barchasining aybdori deb bolsheviklarni bildi va chet elga chiqib ketdi. U 20 yildan ko’proq Parij, Berlin, Turkiya kabi joylarda yashadi. Lekin doimo Turkiston ozodligi uchun kurash olib bordi. U chet ellarda “Ulug’ Turkiston”, “Svobodnyy Turkiston”, “Birlik tuvi” kabi gazetalarini chiqardi. Bu gazetalarda Turkiston xalqining ozodligiga bag’ishlangan maqolalar bosilib chiqib turdi. Bulardan tashqari, M.CHo’qae v ingliz, frantsuz, nemis, polyak tillarida Turkiston ozodligiga bag’ishlangan ko’plab risolalar chiqargan. Ayniqsa uning “Turkiston sho’rolar hukumati davrida” nomli kitobi juda mashhur bo’lgan. Ikkinchi jahon urushi davrida M.CHo’qae v nemislarga asir tushgan Turkistonliklarni o’limdan saqlab qolish maqsadida “Turkiston legioni”ni tuzdi. Nemis kontslagerlarida azob chekayotgan yurtdoshlarini bir joyga to’pladi. Ana shu davrda sil kasalligini yuktirib, o’zi ham 1942 yil Berlinda vafot etdi.

Iskandar Kubaev qozoq ma`rifatparvari I.Oltinsarin ochgan maktabda o`qib savodini chiqardi. Keyin ko`proq mustaqil bilim olishga intilib, nihoyat o`z davrining etuk ziyolilaridan biri bo`ldi. U o`z ijodini badiiy tarjimalardan boshlagan. 1910 yilda rus masalchisi I.Krilovning ko`pgina asarlarini qozoq tiliga o`girdi. 1912 yilda I.Ko`baev “Namunali o`quvchi” nomli majmuasini nashr ettirdi. Bunga folklordan olingan va o`zining ijodidan ko`plab asarlarni kiritdi.

YOzuvchining mashhur asarlaridan biri “Qolin” romanidir. Bunda eski, yaramas urf-odatlar tanqid qilingan. Romanda Turlig`ul nomli oltmish yoshar chol yosh qiz Gayshaga uylanmoqchi bo`ladi. Bu nikohga qizning otasi xasis, ochko`z Itboy ham rozi. Lekin qizning sevgan yigiti Kojas qizni nikoh kechasi olib qochib ketadi. Keyin ko`p janjallar, urushlardan keyin qiz o`z sevgan yigiti Kojas bilan turmush qurishga muvaffaq bo`ladi. Adibning «Ushalgan orzu» nomli qissasi avtobiografik janrda yozilgan. U o`zining pedagogik va yozuvchilik faoliyati haqida hikoya qiladi. Bu kitobning ham o`quvchilar uchun ibratli tomonlari juda ko`p.

Yana bir qozoq ma`rifatparvari Sultonmaxmud Turayg`urov (1893-1920) qisqa umri davomida adabiyot tarixida o`chmas iz qoldirdi. U Semipalitinsk uezdiga qarashli Bayanaul degan joyda tug`ilgan. Dastlab madrasada, keyin mustaqil o`qib bilim oldi. 1914 yilda “Oyqon” nomli jurnalda uning “O`quvchi o`ylari”, “Qo`msash” kabi she`rlari e`lon qilindi. Keyinchalik shoirning “Sarsonlikdagi hayot”, “Kambag`al” nomli dostonlari nashr etildi. Bu asarlarda shoir adolatli tuzum haqida e`tiborga loyiq fikrlar aytdi. Uning “Go`zal qiz Qamar” nomli romanida xotin-qizlar ozodligi, ularning haq-huquqlarining paymol qilingani to`g`risida yozdi. Bu kitob 20- yillar qozoq adabiyotining katta yutuqlaridan biri bo`lib qoldi. Asarda go`zal qiz Qamarni Nurum nomli cholga zo`rlik bilan turmushga chiqarmoqchi bo`ladi. Qizning otasi Umarni kaltaklab, qizni zo`rlik bilan Nurumning uyiga olib ketadi. Unga qizning sevgilisi Ahmad ham yordam berishdan o`jiz. Qiz Nurumning uyida, o`zini zaharlab o`ldiradi.

Turayg`irov Abay poeziyasi an`analarini yangi davrda davom ettirdi. U Abay poeziyasini, xuddi payg`ambarning yurak qoni bilan yozilgan qur`on suralariga tenglashtirgan edi.

Qozoq ma`rifatparvar adiblaridan Sobit Donentaev (1894-1933). Povlodar uzedida tug`ilgan. Eski maktab va madrasalarda o`qib savodini chiqargan. 1913 yilda “Oyqon” jurnalida birinchi she`ri chiqdi. 1915 yil Ufada birinchi to`plami “Mayda-chuyda” (“melochi”) nomi bilan e`lon qilindi. Bu ma`lum darajada hajviy she`rlardan tuzilgan bo`lib, bularda turli illatlarni tanqid qilgan. Uning “Oxirgi so`z”, “Davir kimniki” kabi she`rlarida ham ijtimoiy tengsizlik haqida gap boradi. “Bo`zto`rgay” nomli asarida shoir o`z xalqining milliy urf – odatlari haqida yozadi. Bo`zto`rg`ay haqiqat izlab turli vaxshiy kushlarga boradi. Burgut, kalxat, lochin kabi kushlar bilan uchrashadi. Bu qaysidir tarafi bilan buyuk Navoiyning “Lisonut tayr” nomli dostoni personajlariga o`xshab ketadi. Donentaevning “To`ng`iz va olibsotar”, “Baykenning ko`z yoshlari” nomli asarlarida ham jamiyatdagi turli illatlar ustida kulgan va o`quvchilarni ularga qarshi kurashga chorlagan.

Saken Sayfullin (1894-1934) Qozoqistonning Jezqazgan viloyatida tug'ilgan. Eski maktabda o'qib savodini chiqardi, keyin rus-tuzem maktablarida, seminariyalarda bilim oldi. S.Sayfullin yoshligida Qozog'istonda tuzilgan «Birlik» tashkilotining faol a'zosi edi. Bu tashkilotning oldiga qo'ygan asosiy vazifasi qozoq halqini asriy qullikdan ozod qilish edi. Ana shu tashkilot 1910 yilda S.Sayfullinning birinchi she'rlar to'plami, «O'tgan kunlar»ni Qozon shahrida chop etishga yordam qildi. Keyinchalik uning «Asov tulpor», «Do'mbira», «Turmush to'lqinlari» kabi she'riy to'plamlari; «Ko'kchatov», «CHo'loq oqquyruq», «Ayrilgan oqqushlar» kabi dostonlari bosilib chiqdi. Shoirning bu asarlarida mehnatkash xalq xayoti, uning ozodlik uchun olib borgan kurashlari ko'rsatilgan. Albatta shoir o'zi yashayotgan davrdagi tarixiy muxitni chuqur anglab ololmagan edi.

Shuning uchun uning ayrim she'rlarida qozoq xalqiga yolg'on erk va mustaqillik va'da qilgan bolsheviklar madhiya qilingan. Uning «Baxt yo'lida» «Qizil shunqorlar» dramatik asarlari ham 1920 yillarda yozilgan. Bu asar qozoq adabiyotida dramatik janrning shakllanishiga katta ta'sir qildi. Asarda Terlikboy o'g'lini mardikorlikka yubormaslik uchun yosh qizi Muslimani Volost boshlig'i qari chol Nukerboyga xotinlikka bermoqchi bo'ladi. Lekin qizning akasi o'qimishli, ziyoli Ermek singlisini bu dahshatdan qutqaradi. Uni sevgan yigiti Birjon bilan qochirib yuboradi. Ana shunda fevral burjua revolyutsiyasi bo'lib, podsho hukumati ag'darib tashlanadi. Asarda o'z manfaati uchun yosh qizini qari cholga bergan ota obrazi qoralanadi. Volost boshliqlarining haddan tashqari tovlamachi, poraxo'r bo'lganliklari tanqid qilinadi. Yozuvchining «Tor yo'l, tayg'oq kechuv» nomli memuar romani ham katta mahorat bilan yozilgan. Yozuvchining «Oysha», «Er qazuvchilar», «Mevalar» nomli qissalarida ham asr boshidagi qozoq xalqining hayoti ko'rsatilgan. Yozuvchining «Qizil shunqorlar» dramasi o'zbek sahnalarida ham qo'yilgan.

Yozuvchining «Ko'kchatov» dostonida ko'plab afsona va rivoyatlar berilgan. «Buraboy» nomli rivoyatda ikki o'rkachli tuya hech odamlarga tutqich bermaydi. Bu hayvon ozodlikni yaxshi ko'rib doim tog'larda yashirilib yuradi. Bu bizga Amerika yozuvchisi Ernest Seton-Tompsonning «YOvvoyi yo'rg'a» asarini eslatadi. Ablayxonning o'g'li katta otryad bilan tuyani tutib olmoqchi bo'ladi. Lekin u Tuyaning tiriklayin qo'lga tushmasligiga ko'zi etib uni otib tashlaydi. Shundan keyin tuya katta ko'k toshga aylanib qoladi.

Yoki boshqa bir rivoyatda qolmoqlardan asir olingan go'zal qizni olmoqchi bo'lganlarga shart qo'yiladi. Bu shartga binoan qiz oq ro'molchasini uzoqqa ilib qo'yadi. Kim uni urib tushirsa, qiz unga turmushga chiqishga rozi bo'ladi. Lekin hech kimning o'qi bu nishonga etmaydi. Unga majbur qilib uylanmoqchi bo'lganda qiz rumolchasi bilan birga toshga aylanib qoladi. Bu joyni hozir ham «o'q etmas» deb atashar ekan. Umuman, doston Ko'kchatov haqidagi ana shunday rivoyatlarning ko'pchiligini o'zida qamrab olgan. Bu rivoyatlarning axloqiy-tarbiyaviy ahamiyati juda kattadir.

Saken Sayfullin o'zining ijtimoiy faoliyati bilan ham qozoq xalqining madaniyati tarixiga katta hissa qo'shdi. U bir qancha gazeta va jurnallarda

muxarrir bo'lib ishladi. Qozog'iston Maorif vazirligida faoliyat ko'rsatib, mamlakatda maorifni tashkillashtirishda katta ishlarni amalga oshirdi.

Xullas, Sayfullin o'z ijodiy faoliyati bilan yangi qozoq adabiyoti asoschilaridan biri bo'lib tarixda qoldi.

Bu davrda poeziya etakchi janr bo'lib, unda J.Jaboev, Toir SHaroqov, Sobit Muqanov, Abdulla Tojiboev, G'ali O'rmonovlarning yaratgan poetik asarlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. 30-40 yillarga kelib esa qozoq adabiyotida dostonchilikning rivojlanganligi ko'zga tashlanadi.

S.Muqanovning "Oq ayiq", "Kolxoz ovulining bir kuni", Toir SHarokovning "Po'lat quyuvchi", "Oqim", "Cho'lda o'rmon shovullaydi", Abdulla Tojiboevning "Qurmong'oz", "Bolalik", "Jambul" kabi dostonlarida o'z davrining muhim masalalari badiiy tahlil qilinadi. Bular ichida A.Tojiboevning "Jambul" dostoni ayniqsa zo'r ilhom va mahorat bilan yozilgan. Bu biografik dostonda Jambul hayoti, u yashagan davr voqealari bilan bog'lab berilgan. Ma'lumki, Jambul yuz yoshdan oshib vafot etgan. Ana shu davrda ko'plab tarixiy voqealarning guvohi bo'ldi. Jambul doimo o'z xalqining ravnaqi uchun qayg'urgan san'atkor edi. U Rus imperiyasining bosqinchilik siyosatini qoraladi. Romanovlar dinastiyasining uch yuz yilligi nishonlanayotgan paytda, Jambulga bu voqeaga bag'ishlab she'r yozish topshirilgan. Jambul esa bundan hazar qilishini aytib, u taklifni rad qiladi. Shundan keyin politsiya Jambulni qattiq jazolaydi. Asarda ana shu voqealar mahorat bilan tasvirlangan.

Urush va undan keyingi davr qozoq adabiyotida yangi talantli yozuvchilar etishib chiqdi. Bu davrda asosan, she'riyat etakchilik qildi. Urushdan keyingi yillar qozoq adabiyotida bir qancha dostonlar yaratildi. Bu dostonlarning ko'pchiligi zamonaviy mavzuda bo'lib, zamondoshlar obrazi aks ettirilgan edi. J.Moldag'aliyevning "Musa Jalil" nomli dostoni buyuk tatar shoiri Musa Jalilning porloq xotirasiga bag'ishlangan bo'lsa, G.Qairbekovning "Ibray Olbinsarin" poemasi esa buyuk qozoq ma'rifatparvar shoiri hayotiga bag'ishlangan edi.

Urushdan keyingi yillar qozoq adabiyotida prozada asarlar yaratish etakchi o'ringa ko'tarildi. Bu davrda yirik qozoq prozaik yozuvchilari etishib chiqdi. I.Ko'beev, M.Avezov, S.Muqanov, G'.Musrepov, G'.Mustafin singari yozuvchilar ijodi bunga misol bo'ladi. S.Muqanov o'z ijodini she'r bilan boshlagan bo'lsa-da, keyinchalik nasriy asarlar ham yoza boshladi. Uning "Temirtas", "Bo'tako'z", "Hayot maktabi" va "Polvon cho'loq" kabi povest va romanlari juda mashhur bo'ldi. Yozuvchining "Temirtas" romani Qozog'istondagi er islohoti voqealariga bag'ishlangan. Bunda Sog'indiq, Qo'zibek, Murodbek va Temirtas kabi obrazlar qozoq ovulidagi yangi hayot tarafdorlari sifatida tasvirlangan. Lekin bosh qahramon asarda voqealarga aktiv ishtirok etmay, ko'pincha kuzatuvchi sifatida tasvirlangan. Bu adibning birinchi romani bo'lganligi uchun bir qator kamchiliklarga yo'l qo'yilgan edi. Jumaladan, qahramonlar xarakterini tasvirlashda izchillikning yo'qligi, romanning tili g'aliz ishlanganligi kabi nuqsonlar bor edi.

Adib ikkinchi romani "Bo'tako'z" ustida o'n besh yil ishladi. Unda 1914-20 yillardagi tarixiy voqealar tasvirlangan edi. Birinchi Jahon urushi Oktyabr

inqilobi, Grajdandar urushi, davridagi ijtimoiy-tarixiy voqialar tasviri Asqar, Bo'tako'z, Temirbek, Boltabek, Kuznetsov, Bulatov kabi obrazlar vositasida berilgan. Oddiy qishloq qizi Bo'tako'z va maktab o'qituvchisi Asqar Do'sanov bu kitobning bosh qahramonlaridir. Bular Kulakov, Itboy, Koshkin singari salbiy qahramonlarga qarshi qo'yiladi. Asar finalida bu kurash ijobiy qahramonlar g'alabasi bilan tugaydi.

S.Muqanov ijodida turli mavzularga murojaat qilgan. "Polvon cho'loq" nomli povestida 1916 yilgi xalq qo'zg'olonlarini asosiy material qilib olgan. Qo'zg'olonchilar boshlig'i Nurmag'ambet ("Cho'loq polvon" laqabli) podshox hukumatiga qarshi xalqni kurashga boshlaydi. Lekin yozuvchi bu qahramonga ko'plab sifatlarni og'zaki ijod dostonlaridagi qahramonlarga o'xshatib bergani uchun ishonarsiz chiqqan. Bosh qahramon maishatparast, uzoqni ko'ra olmaydigan kishi sifatida taassurot tug'diradi.

S.Muqanovning eng yaxshi asarlaridan biri "Hayot maktabi" deb ataladi. Bu avtobiografik roman shaklida yozilgan asardir. Romanning kompozitsiya tuzulishi ham o'ziga xos bo'lib, u kichik-kichik mustaqil hikoyatlardan iborat. Lekin bu hikoyatlar mazmunan bir-biri bilan uzviy bog'langan. Romanga asosiy material qilib XX asr boshlaridagi qozoq xalqining hayoti olingan. Podachi bola Sobit, batrak Muqan Sobitning akasi Mustafo, o'qituvchi Mullag'ozi G'aybullar oqinlar asarning asosiy obrazlaridir.

Atoqli qozoq adibi Muxtor Avezovning nomi ham juda mashhurdir. Uning ijodi ham asosan 20-yillarda boshlanib, dastlab dramatik asarlar yozgan. "Enlik kebek", "Qora ko'z", "Xon kene" singari pesalarida yozuvchi qozoq xalqi hayotining muhim qirralarini tanlab oldi.

Muxtor Avezov qozoq adabiyotining XX asrdagi eng yirik figurasi. Uning ijodi rang-barang bo'lib, turli janrlarda asar yaratgan. Dastlabki dramasi «Enlik-kebek» 1917 yilda yozilgan. Bu asar qozoq teatrlarining shakllanishiga asos bo'ldi desak adashmaymiz. O'sha yili hali hayot bo'lgan Abayning xotini Aygirimning o'tovida bu asar birinchi marta sahnaga qo'yilgan. Asarda Enlik nomli qiz bilan Kebek nomli yigitning otashin muhabbati kuylangan. Bu asarni qozoqlarning «Romeo va Juletta» si deb ataydi. Ikki yoshning bir-biriga etishishi uchun chekkan izzatlar, ularga to'sqinlik qilgan yaramas urf-odatlar juda ta'sirli ifodalangan. Asar voqialari bosh qahramonlarning fojiali o'limi bilan tugasa ham, unda qandaydir xayot baxsh umid hukmron.

Keyinchalik Avezov "Tungi sarin", "Abay" nomli dramalar yozib, qozoq dramaturgiyasi va milliy teatrlarining rivojlanishiga muhim hissa qo'shdi. Urush davri va undan keyingi yillarda Muxtor Avezov "Sinov soatlarida", «Yalang'och qilich», "Nomus gvardiyasi", "Olma bog'ida" singari o'nlab g'oyaviy-badiiy jihatdan etuk dramatik asarlar yaratdi. M.Avezov prozaga dramaturgiya orqali kirib keldi. Uning "Izlar", "Burgutli ovchi", "Elkama elka" singari dastlabki nasriy asarlari ham ancha muvaffaqiyatli chiqqan.

M.Avezov to'rt tomdan iborat Abay to'g'risidagi roman-epopeya yaratdi. Bu nafaqat qozoq adabiyotida, balki jahon adabiyotidagi tarixiy-biografik romanlarning eng yaxshi namunalari sanaladi. Bu asarni yaratish jarayonida

yozuvchi ko'plab tarixiy hujjatlarni ko'rib chiqdi. Abay nomi bilan bog'liq xalq orasidagi rivoyatlarni o'rgandi. Natijada dastlab "Abay" nomli pesa yaratildi. Abay haqida ko'plab ilmiy-publitsistik maqolalar e'lon qilindi. Keyinchalik "Abay" va "Abay yo'li" kabi romanlar vujudga keldi. "Abay" tarixiy-biografik romandir. Unda bir tomondan qozoq ma'rifatparvari Abayning hayoti tasvirlangan bo'lsa, ikkinchi tomondan XIX asrdagi qozoq xalqining ijtimoiy hayoti, o'sha davrdagi siyosiy tuzum, tarixiy voqealar tasvirlangan. Asarda bir-biriga o'xshamaydigan har qaysisi alohida bir tabaqa va guruh vakili bo'lgan obrazlar berilgan. Abayning otasi Qunonboy, onasi Uljon, buvisi Zere kampir, akasi Takejon, turmush o'rtog'i Aygerim, do'sti Erbo'l, advokat Andreev singarilarning har biri o'ziga xos xarakterlarga ega.

Qozoq adabiyotining yirik vakillaridan biri G'abiddin Mustafinning "Qarag'anda" romani ham katta shuhrat topgan asarlardan biridir. Bunda Qozoq ishchilar sinfining shakllanishi va rivojlanishi badiiy obrazlarda ishonarli qilib tasvirlangan. Qarag'andada ko'mir konining ochilishi, u erda yashayotgan xalqning ongini o'zgartirib yubordi. Yangi shaharlar bunyod bo'la boshladi. Kechagi qozoq cho'pon yigitlarining ilg'or shaxtiyor bo'lib etishgani tasvirlangan.

Yozuvchining "SHig'onak Bersiev" nomli romanida qozoq intelligentsiyasi obrazi yaratilgan bo'lsa, "Millioner" nomli romanida esa Qozog'istonda kolxoz tuzumining o'rnatilishi haqida gap boradi. Bu roman bizga Oybekning "Oltin vodiya shabbodalar" romanini eslatadi. G'abiddin Mustafin keyingi yillarda Qozog'istondagi fuqorolar urushi yillarida bo'lgan voqealar tasviriga bag'ishlangan "Dovuldan so'ng" nomli asarini yozib, anchagina maqtovlarga sazovar bo'ldi.

Yozuvchi G'abit Musrepov o'zinnig "Qozoq soldati" romani bilan juda mashhur bo'ldi. Bu Tvardovskiyninng mashhur "Vasiliy Tyorkin" asariga o'xshatma tarzda yozilgan. Bunda urushdan oldingi va urush davri qozoq qishloqlarida bo'lib o'tgan voqealar, frontdagi dahshatli to'qnashuvlar oddiy qozoq yigiti hayotini tasvirash jarayonida ochila boradi. "Uyg'ongan o'lka" romanida esa Qozog'iston cho'llarining qazilma boyliklarga mo'l ekanligi va bu sohada o'zgarishlar tasvirlangan.

Yozuvchining «Kiron qush qo'shig'i» hikoyasi jahon hikoyachiligining eng yaxshi namunalari bilan yonma-yon turadi. Negaki, bunda ozodlikka, erkka intilgan burgut obrazi orqali insonning ozodlik haqidagi eng muqaddas tuyg'ulari ifodalangan.

Erjon ovchining Kiron qushi butun atrofga dongi ketgan. U ovga chiqqanda doim katta o'lja bilan qaytadi. Qanchadan-qancha kakliklar, quyonlar, tulkilarni ovlamadi, deysiz. Kunlardan bir kun tulkinining terisini archiyotgan Erjonga qarab, qafasda turgan burgutning avzoyi buziladi, Buni tajribali ovchi Erjon darhol payqagan edi, lekin unchalik e'tibor qilmagan edi. Hikoyada burgutdagi o'zgarish qo'yidagicha tasvirlangan.

«Burgutda esa rostakam o'zgarish sodir bo'lgan edi. U uchishni istardi, u – bepoyon dalalarda kezishni istardi, u osmonni istardi. Burgut qanotlari bilan taxta

qo'noqni shart-shurt urib, uni bu erda ushlab turgan kayish bandlarni cho'yan tumshug'i bilan cho'qib, yulib-yulib tashlardi. Uning qalbidagi ozodlik sog'inchi, ozodlik qo'shig'i, osmon qo'shig'i butun jismini o'rtab, tobora ulg'ayib boraradi».

SHundan ikki kun o'tgach, Erjon ovga chiqadi. Butalar orasidan sakrab chiqqan quyonga burgutni qo'yib yuboradi. Burgut esa quyonga e'tibor ham bermasdan tobora yuqorilab ketaverdi. Ovchi uni qancha chaqirmasin, u qayrilib ham qaramadi. Burgut ko'k uzra ko'zdan g'oyib bo'ldi. Hikoyaning ikkinchi qismida burgutning o'z qavmi orasidagi hayoti ham juda qiziqarli qilib tasvirlangan. Burgutlarning nasl qoldirish haqidagi hikoyalari va asar yakunida kekxa burgutning yosh burgutchalarga bergan o'git-nasihatlar barchasi falsafiy teran ma'nolarda ifodalangan.

«O'zlaringiz osmonda, o'ylaringiz tubanda yurgandan, o'zlaringiz tubanda o'ylaringiz osmonda yursin, chirog'im. Yuksaklik nima-yu, tubanlik degan nima? SHunda tushunasizlar». Ana shu parchaning o'zida qanchadan-qancha ma'no borligi ham bu hikoyaning katta mahorat bilan yozilganligidan darak beradi.

XX asr qozoq adabiyotining yirik vakillaridan Anvar Olimjonov «O'tror tangasi», «Yashil tog'lar», «Quyosh sari borayotgan karvon» kabi qissalarni yozib o'quvchilar orasida ancha mashhur bo'ldi. Ayniqsa uning «Mahambet nayzasi» nomli tarixiy romani qozoq adabiyotidagi eng yaxshi tarixiy romanlardan biri sifatida baholangan. Bu asarda tarixiy shaxs Mahambet oqinning xalq ozodligi uchun olib borgan kurashi tarixiy voqialar vositasida juda ishonarli tarzda tasvirlangan. Mahambetning Xiva xoni bilan olib borgan muzokoralari, uning nihoyatda aqlli, sermulafoza kishi ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari kitobda qozoqlarda o'rta juz xonligining tashkil topishidagi tarixiy voqialar ham qiziqarli tarzda aks ettirilgan. Pavel – 1-ning qozoq xalqiga nisbatan olib borgan siyosati, uning urug'lar o'rtasida kelishmovchilikdan foydalanib qozoq erlarini asta-sekinlik bilan egallab borishi, xon Bekey, Xon Jangir kabilarning o'z xalqiga o'tkazgan zolimliklari bu asarda haqqoniy tasvirlab berilgan.

XX asr taniqli qozoq yozuvchisi Dukenboy Do'sjanovning ijodi hikoyalar yozish bilan boshlangan. Adibning «O'tror», «Forobiy» nomli tarixiy qissalari ancha muvaffaqiyat qozongan.

Uning «Ipak yo'li» romanida qozoq xalqining tarixiga murojaat qilingan. Mug'ul bosqinchilarining dashti qipchoqni zabt etishi, ularga qarshi kurishgan qozoq vatanparvarlarining obrazi berilgan. Qadimgi Ipak yo'lidagi savdo karvonlari va turli xalqlarning vakillari obrazlari juda yaxshi berilgan.

O'tror hokimi Ilonchiq Qodirjon obrazi aqlli, tadbirkor davlat arbobi sifatida gavdalanadi. U oxirgi nafasigacha qalani himoya qilib mug'ul bosqinchilariga qarshi kurashdi. Juda ko'p sonli mug'ul lashkarlariga uzoq vaqt qarshilik ko'rsatdi. Oshaqboy, Qipchoqboy, Barchinoy kabilarning mug'ul bosqinchilariga qarshi kurashi ham juda ishonarli berilgan kitobda xalq xayotidan olingan lavhalar juda yaxshi chiqqan. Xalqning turli urf-odatlar, bayramlari, milliy sport o'yinlari, tabobati kabilari haqida ham ma'lumot olamiz.

Qipchoqlarning qadimgi davlatining bosh shaharlaridan biri O'torning Chingiziylar tomonidan qamal qilinishi, shahar himoyasidagi xalqning jasorat va qahramonliklari turli xarakterlar orqali berilgan.

Xorazmshohning xotasi, Temur Malikning elchini o'ldirishi, 450 ga yaqin sovdogarlarning qatl etilishi, keyin mug'ullarning urush e'lon qilishi tarixiy faktidir. Yozuvchi ana shu tarixiy voqialarni badiiy haqiqatga aylantira olgan.

O'tror kutubxonasi tasviri, Hisomitdin, Pirmuxammad, Ismoil kabi olimlar obrazi ham durust berilgan. Kitob sho'rolar davrida yozilganligi uchun bo'lsa kerak, avtorning Rus davlatiga xayrixohligi sezilib turadi. Rus sovdogarlarning bilimdon, adolatparvar qilib tasvirlanishi, Ilonchiq Qodirxonning rus davlati bilan aloqa bog'lash uchun harakatlari bunga misol bo'la oladi. Kitob qozoq xalqining qadimda chet el bosqinchilariga qarshi kurashini, qahramonliklarini aks ettirib bergan.

Ilyos Esenberlinning «Ko'chmanchilar» nomli roman- epopeyasi ham tarixiy asar bo'lib, u uch katta qismdan iborat. Asarda Chingizxon davridan tortib to X1X asrgacha bo'lgan tarixiy voqialarga munosabat bildirilgan.

Albatta asarda tarixiy faktlarni ba'zan buzib ko'rsatilgan joylariga ham duch kelamiz. Masalan, Abulxayron va uning nevaralari SHayboniyxonga nisbatan qo'yilgan ayblarning ko'pchiligi asossizdir. Bularga qaramasdan adib juda ko'plab tarixiy shaxslar haqida to'g'ri fikrlar aytgan. Qo'qon xonlari bilan Qozoq xonlari o'rtasidagi munosabatlar to'g'ri yoritilgan. Xalq oqinlaridan Hasan Qayg'u, Buxor Jirovlarning obrazlari ham durust chiqqan.

Keyingi yillarda qozoq adabiyotida Jadid yozuvchilarining asarlari ham qayta nashr qilinmoqda. Ana shulardan biri Muxtor Mag'avin bo'lib, u o'z asarlarida turkiy xalqlarni birlashtirishga harakat qilgan.

So'ngi yillarda qozoq adabiyotiga bir qator talantli yozuvchilar ijod qilmoqda.

Adabiyotlar

1. Жалабоев Б. Очерки истории казакской дореволюционной литературы. Алма-ата. 1958.
2. Қаратаев М. Казакская литература. Москва. 1960.
3. Фозилов Н. Мухтор оға. “Жаҳон адабиёти” журнали. 2001. 6-сон
4. Авезов М. “Абай” ва “Абай йўли” романлари. Т., 1964 й.
5. Муканов С. “Қозоқ солдати” қисса. Т., 1968 й.
6. Ў.Сулаймонов. Аргумоқлар. Тошкент, 1976 й.

9-mavzu. Kirgiz adabiyoti

Reja:

1. Qirg'iz xalqi tarixi haqida.
2. Qirg'iz xalq og'zaki ijodi.
3. “Manas” eposi haqida.
4. Qirg'iz yozma adabiyotining shakllanishi.
5. XX asr qirg'iz adabiyoti.

Tayanch soʻz va iboralar: Xalq tarixi va adabiyoti, ertak, qoʻshiq, dostonlar, “Manas” eposi, manaschi baxshilar, Semetey, Seytek, Toʻxtagʻul Sotilgʻanov. Yozma adabiyot, roman, drama “Ken suv”; “Temir” romanlari, T. Abdulmoʻminov dramalari.

Qirgʻiz xalqi nomi tarixiy manbalarda koʻp uchraydi. Hatto eramizdan oldingi davrga mansub yodgorliklarda ham “qirgʻiz xalqi” degan nomga duch kelamiz. Ular asosan chorvachilik bilan shugʻullanib, koʻchmanchilik hayotini uzoq asrlar boshidan kechirdi. Qirgʻiz halqi koʻp asrlar davomida chet el bosqinchilarining zulmi ostida boʻldi. Markaziy Osiyo hududiga bostirib kelgan arablar, moʻgʻullar, qoraxitoylar, qirgʻiz xalqini koʻp yillar ekspluatatsiya qildi. Keyinchalik qirgʻizlar Qoʻqon xonlarining zulmini boshidan kechirdi. XIX asrda esa qirgʻizlar Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olindi.

Qirgʻiz xalqi yozuvga ancha kech, yaʼni 1924 yili ega boʻldi. Tarixiy taraqqiyot tufayli XX asrda qirgʻizlar oʻz davlatiga ega boʻldi.

Qirgʻiz adabiyotining tarixi asosan xalq ogʻzaki ijodi asarlaridan iborat. Turli mavzulardagi ertaklar, qoʻshiqlar va dostonlarda qirgʻiz xalqining xayoti ularning orzu umidlari aks ettirilgan. Hajviy va yumoristik mazmundagi latifalar Koʻsa va Kal obrazlari orqali berilgan. Aldar Koʻsa haqidagi ertaklarda gʻoyaviy oʻtkir problemalar koʻtarib chiqilgan. “Koʻrman ek”, “Ertobildi”, “Ertushtik”, “Jonil Mirzo” kabi xalq qahramonlik dostonlari juda mashhurdir. Qirgʻiz xalqining butun dunyoga mashhur boʻlgan dostonlaridan biri, shubhasiz, “Manas” eposidir. Bu asarda xalqning koʻp asrlik tarixi, ularning chet el bosqinchilar zulmiga qarshi erk va ozodlik uchun olib borgan kurashi aks ettirilgan. Bu sheʼriy asarning hajmi nihoyatda katta boʻlib, 500 ming baytni tashkil etadi. U uch katta qismdan iborat. Birinchi qismda Manasning qahramonliklari hikoya qilinadi. Ikkinchi qismda esa Manasning oʻgʻli Semetey, uchinchi qismda uning nabirasi Seytekning hayoti, sarguzashtlari hikoya qilinadi. “Manas” eposi oʻz ichiga koʻpgina dostonlarning qamrab oladi. Bunda Manasning el-yurt ozodligi uchun koʻrsatgan qahramonliklari mahorat bilan tasvirlangan. U qirgʻiz elini Afgʻon va Qalmoq bosqinchilaridan saqlab qoldi. U Fargʻonaga kelib bobodehqondan dehqonchilikni oʻrganadi. U turli oʻlkalardan kelgan polvonlarning koʻpchiligi bilan doʻstlashadi. Umuman, Manas xalqining porloq kelajagi uchun, baxt-saodati uchun kurashgan qahramon sifatida tasvirlangan. Eposning Semetey va Seytek hayotiga bagʻishlangan qismlarida koʻproq ishq-muhabbat va hayotiy-maishiy mavzularga eʼtibor berilgan.

Qirgʻiz baxshilarining koʻpchiligi manaschi-baxshilar boʻlib, ular faqat shu dostonni kuylaydilar. Manasning qalmoq xoni yuborgan Alvasti Kojart Alp, Kuchku, Joloy kabi pahlavonlar ustidan erishgan gʻalabalari ayniqsa koʻtarinki ruhda kuylangan.

Maʼlumki, yaqinda Qirgʻizistonda “Manas” eposining 1000 yilligi nishonlandi. Eposning koʻpgina variantlari yozib olindi. Albatta, har bir manaschi-baxshi bu eposning aytishda oʻzidan ham biron-bir yangilik qoʻshib,

unga ijobiy yondashadi. Shuning uchun dostonning ayrim variantlarida Manas boshqa yurtlarni bosib oluvchi, ularga qirg'in keltiruvchi zolim sarkarda sifatida ham tasvirlanadi. Ayrim variantlarida esa Manas xalqparvar, adolatli inson sifatida tasvirlangan.

Yozuvchi Ch.Aytmatovning yozishicha Sayoqboy Qoralaev degan baxshi "Manas" eposidan bir million misrani yoddan bilgan. Xullas, "Manas" eposi xajm jihatidan dunyodagi eng katta eposdir. Unda qirg'iz xalqining tarixi, geografik o'rni, madaniyati, urf-odatlar haqida keng ma'lumotlar bor. Bunday katta xajmdagi eposni butun xalq yaratgan. Dastlab irmoq sifatida paydo bo'lgan bu epos, bizning bugungi kunimizga kelib katta dengizga aylandi. (Ch.Aytmatov) Bu asarda realistik, romantik, fantastik, simvolistik badiiy tasvirlash usullaridan keng foydalanilgan.

XIX asr o'rtalarida Qirg'iziston Rossiyaga qo'shib olingach, uning adabiyotida ham ayrim o'zgarishlar bo'ldi. Arab yozuvini egallagan ba'zi qirg'iz oqinlarining yozma shakldagi asarlari paydo bo'ldi. Shulardan biri To'g'aloq Mo'ldo (asli nomi Boyimbet Abdurahmonov) xalq ertaklari va qo'shiqlarini qayta ishlab "Jonbaxti", "Kemchintoy", "Eshak va bulbul" singari original xajviy dostonlar yozdi.

O'rta hol dehqon oilasida tug'ilib voyaga etgan To'g'aloq Mo'ldo (Baimbet Abduraxmanov) yoshligida eski maktabda o'qib savodini chiqardi. Lekin u xalq oqinlaridan ko'p o'rgandi. Qirg'iz xalqining boy folklori an'analari ruxida tarbiyalandi. Ayniqsa Musaka degan oqin yosh shoirga juda ko'p xalq og'zaki ijodidagi qo'shiqlarni va qo'biz chalishni o'rgatgan edi. U «Bo'z yigit», «Qiz Jibek» «Bayan suluv» singari dostonlarni yodlab, ularni qo'biz jo'rligida xalq o'rtasida kuylab yuradi. Shuningdek, shoir ko'plab xalq qo'shiqlarini, termalarini va o'zi to'qigan she'rlarni ham kuyga solib, tez orada mashhur oqin darajasiga ko'tarildi.

U rus tili va alfavitini mustaqil o'rganib olib, bu tilda yaratilgan asarlarni o'qiy boshladi. To'g'aloq Mo'ldo qirg'iz adabiyoti tarixida birinchi bo'lib masallar ijod qilgan. Uning «Turna bilan Tulki», «Bo'ri va tulki», «Bedana va tulki» kabi masallari rus yozuvchisi Krilov ta'sirida yozilib, ularning tarbiyaviy tomondan ahamiyati buyuk edi.

To'g'aloq Mo'ldoning xotin-qizlar ozodligi mavzusida yozgan asarlari ham anchaginadir. Mustabid tuzumda inson erkinligi, huquqining paymol qilingani shoirning «Sotilgan qiz armoni», «CHolga tekkan qiz armoni» kabi bir qancha she'rlarida afsus va nadomat bilan ifodalanadi. U ma'rifatparvarlik haqida ham bir talay asarlar yaratgan ijodkordir.

SHoirning «Olatov» nomli dostonida Ona-yurtning tabiati o'zgacha mehr bilan kuylanadi. Tiniq suvlari, qorli cho'qqilari, yashil vodiylari shoir qalamida yanada boshqacha ko'rk bilan jilvalanadi. Shoirning «Er va uning bolalari» nomli dostoni ham juda mashhur bo'lgan. Bu dostonida Erni butun mavjudotni o'z bag'riga oluvchi ona deb ataydi. Shunday ekan Unga xuddi onaga bo'lgan munosabatda o'ta mehribonlik bilan yondashmoq lozim deydi. To'g'aloq Mo'ldo «Otgantong va Suyganboy», «Nasixat» kabi poemalarida inson erki, uning

ozodligini, hurriyatni ko'tarib chiqdi. Xotin – qizlarning erkaklar bilan teng huquqligi haqidagi masalani, u qirg'iz adabiyotida birinchilardan bo'lib o'rta tashladi. Uning 200 bosma taboqqa yaqin qo'l yozma asarlari to'plangan. Bular qirg'iz adabiyotining yuksalishiga, taraqqiyotiga katta hissa bo'lib qo'shilmoqda.

Xalq baxshilaridan biri To'xtagul Sotilg'anov xam qirg'iz yozma adabiyotining shakllanishiga katta hissa qo'shdi. U yoshligini qattiq qiyinchiliklarda o'tkazdi. Andijonda Dukchi eshon boshchiligida ko'tarilgan xalq qo'zg'olonida ishtirok etgani uchun sakkiz yil Sibirda surgunda bo'ldi. T.Sotilg'anov ana shu og'ir xayotiga asosiy sababchilar rus imperiyasi va mahalliy amaldorlar deb bildi. U "Eshon xalfa", "Besh qobon" singari she'rlarida mahalliy amaldorlarning, nafs o'pqqon ruxoniylarning yaramas kirdikorlarini fosh qildi.

Etim-esir xolsizni
Savalading, besh to'ng'iz
Odam o'rnida yo'qsilni
Sanamading, besh to'ng'iz
Eb-ichishdan boshqani
Tan olmading, besh to'ng'iz

Shoirning surgunda va undan keyingi davrlarda yozgan "Alvido, xalqim", "Surgunda", "Tog' burguti", "Sog'inish", "Uch xo'ja" singari she'rlari ham katta g'oyaviy badiiy qimmatga ega.

20 – yillar qirg'iz adabiyotida turli janrlarda dastlabki badiiy asarlar yozildi. Chunki 1925 yilda Qirg'iziston respublikasi tashkil etildi. Shu yili «Erkin tov» nomli birinchi qirg'iz tilida gazeta chiqa boshladi. Shu gazeta tevaragida qirg'iz adabiyotining vakillari to'planishib, yangi adabiy muhit tashkil etdi.

To'xtagul Sotilganov, To'g'aloq Mo'lda, Ali To'qimboev singari shoirlarning she'rlari shu gazetada bosilib chiqar edi. 20 – yillar qirg'iz adabiyoti vakillarining ko'pchiligi xalq oqinlari edi. Ular ijodi og'zaki adabiyot bilan yozma adabiyot o'rtasida ko'pri vazifasini o'tadi.

Qirg'iz adabiyotida ma'rifatparvarlik g'oyalarini targ'ib qilgan Mo'lda Qilich, Arstonbek, K.Tinishtoev kabi jadid yozuvchilarining ham o'rni juda katta bo'ldi. Bular ijodida qirg'iz xalqining milliy urf-odatlarini, o'zligini anglash masalalari ko'tarib chiqildi. Lekin bu ijodkorlar sobiq ittifoq davrida «millatchilar» deb qoralangan, faqat Qirg'iston o'z mustaqilligini qo'lga olgach, bular ijodi yana o'rganila boshladi.

20 – yillar qirg'iz dramaturgiyasining shakllanish davri bo'ldi. 1924 yil Bishkek pedagogika texnikumida dramatik to'garak tashkil etildi, 1926 yilda esa teatr studiyasi tashkil etildi. N. Eleninning «Mulla Nasriddin» pesasi birinchi qirg'iz dramasi. Bu folklor asosida yozilgan drama edi. M. Tokoboev keyinchalik «Qayg'uli Kakey» nomli dramasi tarixiy mavzuda yozdi. Bunda nochor qolgan kambag'al qirg'iz dehqonining boshiga tushgan turli og'ir kulfatlar tasvirlanadi. Asarda Moldiboy ismli kambag'al kishi CHoyubek degan qari boyga qarzini to'lash uchun qizi Kakeyni berishga majbur bo'ladi. Asar

oxirida qizning sevgan yigiti Umrqul do'sti Qosim bilan boyni o'ldirib, qizni olib qochib ketadi.

Qosimali Jontashev «Cho'ponlar», «Qorasoch» kabi dramalarni yozdi. Bu asarlar ham zamonaviy mavzuda bo'lib, ularda xotin-qizlar ozodligi, inson erki kabi masalalar ko'tarilib chiqilgan edi. Shu yillar Qirg'iz prozasining ilk namunalari e'lon qilina boshlaydi. 1927 yilda Qosimali Boyaminov «Ajdard» qissasi e'lon qilindi, gazeta va jurnallarda ko'plab fel'eton, ocherk, hikoyalari chiqib turdi. Bular realistik qirg'iz prozasining shakllanishiga ma'lum darajada xizmat qildi. Birinchi qirg'iz romanlari «Kanibek» (K. Jontoshev), «Ken Su» (T. Siddiqbekov) 30-yillarda yozilgan.

XX asr boshlarida qirg'iz ziyolilaridan Mo'lda Qilich «Zilzila» va «Qirg'izlarning qisqacha tarixi» nomli asarlarida qirg'iz xalqining tarixiga oid ko'p voqealarni aks ettirdi. Lekin bu asarlar sovet davrida «zararli asar» deb e'lon qilinib, ularni o'qish man etildi. XX asr qirg'iz yozma adabiyotining shakllanish davri bo'ldi. Asrimizning 20-30 yillaridan boshlab prozaik va dramatik asarlar paydo bo'la boshladi. K. Boyaminovning qirg'iz xotin-qizlar o'tmishiga bag'ishlangan «Hojar» povesti, M.Tokaboevning «Kakey», K. Jontoshevning «Qora soch», «Olim va Mariya» pesalari qirg'iz realistik adabiyotining dastlabki namunalaridan edi. 30 yillarda qirg'iz adabiyotiga T.Siddiqbekov, A.Osmonov, T.Umedaliev, A.To'xtamishov kabi yosh ijodkorlar kirib keldi. T. Umedalievning «Oysuluv», A.Uosmonovning «Toluboy» dostonlari o'sha davrdagi voqealar tasviriga bag'ishlangan edi. Dastlabki qirg'iz dramatik asarlarining ko'pchiligi tarixiy mavzularga bag'ishlangan edi. 1916 yilgi mardikorlikka olishga qarshi ko'tarilgan qo'zg'olon aks etgan A.To'qimboevning «Qonli yillar», M.Eliboevning «Uzoq yo'l», J.Turusbekovning «Momot emas, xayot» asarlari yozildi. Tug'ilboy Siddiqbekovning «Manas va Almambet», A.To'qimboevning «Manas», Q.Jontoshevning «Qurmonbek», J.Boqonboevning «Oltin qiz» asarlari ham o'tmish mavzusida yozilgan edi.

30-yillar qirg'iz adabiyotida eng sermahsul yillar bo'ldi. Chunki bu davrda avval qirg'iz adabiyotida bo'lmagan prozaik va dramatik asarlar paydo bo'ldi. Tug'ilboy Siddiqbekov «Ken suv» va «Temir» romanlari bilan qirg'iz adabiyotida romanchilikka asos soldi. Bu asarlarda sotsialistik mafkurani targ'ib qilish kuchli bo'lsa-da, 20-30 yillar Qirg'izistondagi ijtimoiy-siyosiy voqealarni yoritib bergan.

Urush va undan keyingi yillar qirg'iz adabiyoti sobiq SSSRdagi barcha xalqlar adabiyoti singari rivojlanish bosqichini o'tadi. «Vulgar sotsialogizm», «Konfliktsizlik nazariyasi» singari zararli oqimlarning qirg'iz adabiyoti rivojiga ham salbiy ta'siri borligini sezamiz.

Urushdan keyingi yillar qirg'iz adabiyotida tinchilik, do'stlik, mehnat temasida ko'plab she'rlar yaratildi. A.To'qimboevning «Jangchi-paxtakor», «O'z ko'zim bilan ko'rganim», T.Umedalievning «Oq oltin qo'shig'i», «Cho'pon haqida qissa», Q.Malikboevning «Qodir aka» kabi dostonlari bu davr qirg'iz poeziyasining go'zal namunalaridan edi.

A.To'qimboev qirg'iz yozma adabiyotining beshigini tebratgan ijodkorlardan biridir. Uning biriinchi she'ri "Erkin tog'" nomli gazetada 1924 yili e'lon qilingan. Birinchi she'rlar to'plami 1927 yilda Toshkentda nashr etilgan. Keyinchalik uning "Tutqin Marat", "Etim" nomli dostonlari nashr etilgan. Bu asarlarida shoir o'z boshidan o'tkazgan qiyin turmushning badiiy kartinasini ishonarli qilib chizib bergan. "Akay Mergan", «Yo'l ertaklari» nomli hikoyalar to'plamlari ham qirg'iz adabiyotida kichik prozaning rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lgan. Uning «Yarador yurak» povesti ham o'z zamondoshlarining murakkab hayotini aks ettirgan. 50 – yillarda uning "Xitoydagi uchrashuv", "O'z ko'zim bilan" poemalari e'lon qilindi.

Yozuvchi "o'z ko'zim bilan" nomli dostonida Nurboy nomli qirg'iz cho'ponining ongidagi o'zgarishlarning ilm, fan taraqqiyot tufayli qanday yuz berganini tasvirlagan. "Bolalik davrimizda" nomli asar avtobiografik povest bo'lib, unda adibning Toshkentda o'qigan davrlaridagi voqealar tasvirlangan. A.To'kimboev "O'rmon hokimi", "Qasos" kabi dramatik asarlar ham yozgan.

Urushdan keyingi yillar qirg'iz she'riyatiga R.SHukurbekov, S.Eraliev, S. Jusuev, M.Jong'oziev kabi yoshlar kirib keldi. Proza sahasida esa Ch.Aytmatov, N.Boytemirovlarning ijodi juda mashhur bo'ldi.

1945 yilda yozilgan T.Siddiqbekovning "Zamonamiz kishilari" romani Davlat mukofotiga sazovor bo'ldi. Issiq ko'l vodiysida tug'ilgan. To'g'ilbeyning yozuvchi bo'lib etishishida onasining roli katta bo'lgan. Uning birinchi she'rlar to'plami «Kurash» 1933 yilda e'lon qilindi. Keyinchalik uning «Botirlar», «Oqin bulbul» singari she'riy to'plamlari nashr etildi. U bir qancha hikoyalar, qissalar ham ijod qilgan. Ayniqsa bolalarga atab yozilgan «Tog' bolalari» qissasi ko'pgina tillarga tarjima bo'lgan.

Yozuvchi bir qancha romanlarning ham muallifidir. Uning «Ken suv» romani 30- yillarda yozilgan bo'lib, qirg'iz qishloqlarida yuz bergan o'garishlarni o'zida aks ettirgan. Keyinchalik bu asar qayta ishlanib «Tog'lar orasida» nomi bilan nashr etildi. Asar qahramonlari Sapparbay, Soke, Iymanboy, Saodat, Qalpoqboy kabilarning hayot yo'lini ko'rsatish bilan qirg'iz xalqining sobiq Ittifoq davridagi hayoti aks ettirilgan. Albatta yozuvchi o'z davrining odami sifatida bitta xalqni bir-biriga qarama-qarshi qilib qo'ygan kommunistlar ideologiyasini ham targ'ib qildi. Lekin shunga qaramasdan, bu davr qirg'iz xalqi hayotining realistik kartinasi romanda to'g'ri ko'rsatilgan. «Temir» romani esa adib tomonidan 1939-40 yillarda yozilgan. Bu «Ken suv» romanining mantiqiy davomi sifatida ko'zga tashlanadi. Bosh qahramon Temir irodasi mustahkam, qiladigan ishini avvaldan puxta, pishiq rejalab oladi. Romandagi salbiy obraz Bo'riboy nihoyatda ayyor, zolim va yovuz kishi sifatida berilgan. U o'z maqsadiga erishish uchun hech narsadan qaytmaydi. Temir ana shu Bo'riboy bilan konfliktda yutib chiqadi.

Yozuvchining «Zamonamiz kishilari» romani urush davrida yozilgan. Asarda Issiq ko'l vodiysida yashayotgan qirg'iz xalqi hayoti tasvirlangan. Charg'in, Akiya, Batish, Dmitriy, Gulnor kabilar zamonamiz kishilari obrazi sifatida namoyon bo'ladi.

Xullas, T. Sidiqbekov qirg'iz adabiyoti, xususan, romanchiligini rivojlantirishda katta ijodiy yutuqlarni qo'lga kiritdi.

N.Boytemirov urush yillaridagi voqealarga bag'ishlab "Azamat" nomli qissa yozdi. Bu qissa uchuvchilarning urush yillarida ko'rsatgan jasoratlariga bag'ishlangan. Uning "So'nggi patron" nomli romani ham shu mavzuda yozilgan. Yozuvchining "Saltanat", «Yulduzxon» kabi romanlarida urushdan keyingi qirg'iz qishloqlaridagi voqealar aks ettirilgan. Bu asarlar mazmunini tashkil etuvchi voqealar bizga H.Olimjonning "Zaynab va Omon" poemasini eslatadi. Chunki Yulduzxon ham Zaynab singari etim qiz. Uni tarbiyalagan Totibek eskilik qoldig'idan qutulmagan, Yulduzni o'qishga qo'ymaydi. Yulduz mehnati bilan kolxozda obro' topadi. Totibek uni turmushga bermoqchi bo'lganda, qiz sevgan yigiti bor ekanligini aytadi. Xullas, voqealar shu tarzda rivojlanib, oxir oqibatda Yulduzxon boshliq yoshlar jaholat ustidan g'alaba qiladi. Yulduzxon asar finalida Oliy kengash deputati bo'ladi.

Keyingi yillar qirg'iz dramaturgiyasi rivojiga T.Abdumo'minov "Tor dara", "Qumloq adir", K.Malikov "Baland erda" pesalari bilan katta hissa qo'shdi. M.Boysheevning "Bahs", Ch.Aytmatovning "Momo er" kabi p'esalari o'zbek teatrlarida ham qo'yildi.

Keyingi o'n yilliklarda qirg'iz adabiyotida ko'pgina talantli yozuvchilar ijod qildi. Bu davrda T.Siddiqbekovning "Ayollar" trilogiyasi, Qosimbekovning "Singan qilich" nomli tarixiy romani o'quvchilarga manzur bo'ldi. E.Mansurovning "Oq kiyik", O.Donikeevning "Qizil qoya", SH.Beyshanalaevning "Omonat" povestlari ham yaxshi asarlar deb tan olindi.

A.To'xtamishovning "Oltin tog'" she'riy romani, S.Jusuevning "Suqlanish" kabi dostonlari; O.Sultonov, SH.Abduhaliqov J.Sodiqovlarning she'riy to'plamlari keyingi yillar qirg'iz poeziyasining ko'zga ko'ringan asarlari sanaladi.

Dramaturgiyada T.Abdimo'minov "Kechirilmas gunohlar", B.Jakiev "Ota taqdiri", M.Tojiboev "Moskvalik kelin", "Haq yo'l" kabi asarlari bilan mashhur bo'ldi.

50-yillarda adabiyotga kirib kelgan talantli shoir S. Eralievning yoshligi ikkinchi jahon urushi davriga to'g'ri keldi. U frontda janglarga qatnashib jasoratlar ko'rsatdi. Shoir vatan uchun qon to'kib jang qilish bilan birga, unga bag'ishlab ajoyib asarlar ham yaratdi. 1978 yilda shoirning «Tog'lar farzandiman» nomli she'riy to'plami o'zbek tiliga tarjima qilinib nashr etildi. Bu kitobdagi she'rlar uning ona yurtiga bo'lgan otashin muhabbatidan darak beradi. Uning «Tog' o'g'liman», «Tog'liksan», «Men qirg'izman» she'rlari xuddi Vatanga bag'ishlangan madhiyaday yangraydi. Masalan. «Men qirg'izman» she'rida quyidagi misralar fikrimizga isbot bo'ladi.

Men jarchiman,

Xabarchiman

To'lqinlanar yuragim,

SHodligimni cheki yo'q

Toshqin daryo singari

Ginasi yo'q, keki yo'q

To'xtagulning erida,
YAni qirg'iz elida
Tantanali tuy bugun
Tashvishingni qo'y bugun
Bo'z o'tovlar tikilgan
Issiq ko'lning bo'yiga
Eh, xaloyiq, xaloyiq
Bu tuy maqtovg'a loyiq.

S. Eraliev «Jonil Mirzo» nomli doston ham yozib, unda Jonil Mirzo haqidagi folklor asaridan foydalandi. Bu asar vatanparvarlikni targ'ib etuvchi asar sifatida shoir ijodida alohida ahamiyatga ega.

Quvonchbek Malikov qirg'iz adabiyotining ko'zga ko'ringan shoiri va dramaturgi, uning ilk asarlari 1928 yildan e'lon qilina boshlandi. Uning «Kuzgi dalalar», «Qonga qon», «Olatovlik qardoshlar» singari she'riy to'plamlari va dostonlari e'lon qilindi. Ayniqsa, uning «Muhabbat va do'stlik» nomli dostoni juda mashhur bo'ldi.

Quvonchbek Malikov qirg'iz teatrining yuksalishiga katta hissa qo'shdi. U birinchilardan bo'lib «Oycho'rik», «Manas» va «To'xtagul» singari operalar yaratdi. «Buyuk zamona», «Jonil Mirzo» singari dramalari ham adib ijodida yorqin asarlardan hisoblanadi. «Jonil Mirzo» dramasi folklor asosida yaratilgan. Ma'lumki, Janil ismli qiz o'z xalqining ozodligi uchun kurash olib borgan. U dushmanning mashhur botirlari bilan yakkama-yakka jangda merganlik bilan g'alaba qozongan. Qalmoq xoni Mantu uni hiyla bilan asirga olganda, butun xalq ko'tarilib, uni tutqinlikdan ozod qilgan. Ana shu syujet asarga mahorat bilan singdirilib, tomoshabinga zavq beradigan, uning ongiga ta'sir qiladigan ko'rinishlar vujudga kelgan.

Q. Boyaminov 1902 yilda Baliqchi rayonida tug'ilgan. 2 yoshida onasidan, 10 yoshida otasidan etim qolgan. Keyin etimlikning achchiq qismatini tatib turli joylarda ishladi. O'z urug'i bilan Xitoyga keldi. Ana shu bolalik davri haqida adib «Ajar», «Murot», «Voyaga etgan etim» kabi qissalar yozgan. «Ajar» qirg'iz adabiyotidagi birinchi qissa. Bunda Aytqul ismli kishining farzandlari turli kasalliklardan vafot etadi. Keyin uning xotini Fotima qizli bo'ladi, uning ismini Ajar qo'yadi. Aytqul urushda halok bo'ladi, xotini kasal bo'lib o'ladi. Ajarni bir qari cholga xotinlikka beradi, qiz uning uyidan qochib ketadi. Lekin uni tunda bo'rilar eb ketadi. Bu asarda etimlikning achchiq qismati juda ta'sirli qilib berilgan.

Yozuvchining «Issiqko'l yon bag'irlarida» nomli povesti ham ancha mashhur bo'lgan. Bunda qirg'iz xalqining ijtimoiy tuzumida turli o'zgarishlar bo'lgan paytdagi hayoti tasvirlangan. Asar syujetiga tabiat manzaralari tasviri, xalq urf-odatlar, turli afsona va rivoyatlar ham mahorat bilan singdirib yuborilgan.

Keyingi yillarda qirg'iz adabiyotida, ayniqsa uning she'riyatida iste'dodli shoirlar ijod qilmoqda. Bu shoirlarning ijodida bir tomondan xalq og'zaki ijodining an'analariga ergashish ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan,

zamonaviy Evropa adabiyotining ta'siri ham sezilib turadi. Mendi Mamazoirova, Suyarqul Turg'unboev, Abdurashid Urboev, Xo'jakeldi Kultegin, Nodirbek Alimbekov, YAdgar Salaev singarilarning she'rlari bugungi qirg'iz adabiyotini bezab turibdi.

Qirg'iz she'riyatida o'zlikni anglash, milliy urf-odatlar, qadimiy qadriyatlarni tiklash kabi mavzularda ham ko'plab she'rlar yozilmoqda. Ma'lumki, qadim qirg'iz adabiyotida baxshilarning aytishuvi ham katta rol o'ynagan. Bu baxshilar xalq to'plangan joylarda o'z ijodlarini namoyish etib, ham shoirlik, ham hofizlik san'atini egallaganlar. Ular o'z davridagi muhim voqialar haqida kuylab, katta falsafiy, teran fikrlarni bayon etishgan. Hozirgi qirg'iz she'riyatida ana shu an'analarning ham davom etayotganligi ko'zga tashlanadi.

Bulardan tashqari she'riyatning umrboqiy mavzusi sevgi va sadoqat haqida ham ko'pgina she'rlar yaratilmoqda. Masalan, Mendi Mamazoirova «Sog'inch qo'shig'i» nomli she'rida shunday misralarni yozadi:

*Oylar kunni yutar ekan yamlamay
Menchi buni goho anglab, anglamay,
Ora-sira ko'zga tushib qolaman,
CHo'ntagingda qolib ketgan tangaday*

Shoir Abdurashit Urboev yaqin o'tmish mavzusini yoritishga ko'proq urinadi. Uning «Qurbonjon dodxohning vasiyati» nomli she'ri bunga misol bo'la oladi. Ma'lumki, Qurbonjon dodxoh Turkistonda rus bosqiniga qarshi kurashgan jasur, qahramon kishi edi. U ayol bo'lishiga qaramasdan, katta qo'shin to'plab ruslarning O'rta Osiyoga kelishiga qarshi jang qildi. Abdurashit Urboevning bu she'rida Qurbonjonning el-yurtiga, umuman, turkiy xalqlarga qarata o'lim oldidagi murojaati aks ettirilgan. Bu murojaatda har qanday holatda ham Vatanni, millatni himoya qilishga da'vat etilgan. El ichida ko'plab sotqinlar ham chiqqan, ular o'zga yurtidan kelgan bosqinchilarni non va tuz bilan kutib olgan. Bu ishni ular tor manfaatlar doirasidan kelib chiqib qiladi. Dushmanlarning marhamatiga sazavor bo'lish, ular tuzgan yangi davlatdan biror mansabni egallash ilinjida millatni sotadiganlar ham xalq ichida anchagina uchraydi.

Agar yurti birlashsa, u katta kuch bo'ladi, uni engadigan, unga bardosh beradigan dushman yo'q deyiladi ushbu she'rda. Lekin hozirgi dunyoda omon qolish uchun birlashish bilan birga, xushyor, farosatli bo'lish ham talab qilinadi. Aks holda xalq boshida qora bulut aylanib, «porloq kelajak» emas, balkim qandaydir boshqa kelajak kutadi deydi shoir.

*Xushyor bo'ling, zamon boshqa, shart boshqa,
Iloj yo'qdir ot tizginin tortmasga.
Bizlar uchun mezon bo'lsin farosat,
Ishonmanglar, «Men do'st degan har kasga...»*

*Jigrlarim, elu-yurtim, farzandim,
YAqin qoldi u dunyoga safarim.
So'zlarimni uqib oling, azizlar,*

Vasiyatim, mening so'nggi gaplarim

Ko'rmay qolsam agar osmon yulduzni,
Ichmay qolsam xushbo'y, totli qimizni,
SHoshiling boz xabar bering O'ng, So'lga,
O'limim ham birlashtirsin qirg'izni...

Haqiqatdan ham, bu she'rda shoir vatandoshlarini xushyor bo'lishga, birlashishga, farosatli bo'lishga undayapti. Bu faqat qirg'iz xalqigagina emas, balki bosqinchilardan jabr ko'rgan barcha ellar uchun ham ogohlantirishday jaranglab turibdi.

Ko'pgina qirg'iz shoirlarining she'rlarida o'z yurtining shonli o'tmishi bilan, tarixda o'tgan mashhur kishilari bilan faxrlanish tuyg'usi sezilib turganining guvohi bo'lamiz. Masalan, Nodirbek Alimbekovning «YOshlari bor» nomli she'rida qirg'iz xalqining o'tmishi bilan faxrlanish tuyg'usi quyidagicha ifodalangan.

*Qirg'izning Talasi bor, Manasi bor,
Aytmatovday, Akaevday qanoti bor.
Uchishga shaylangan shu qanotni
Sindirishdan toymagan odati bor.*

Bu satrlarda faxrlanish tuyg'usi bilan birga, bitta achchiq haqiqat ham aytilyapti. Bir-birini ko'rolmaslik, baxillik, birovining muvaffaqiyatidan ikkinchisi iztirobga tushish odati barcha turkiy xalqlar ichida, oz bo'lsa-da uchraydi. Shoir ana shu salbiy xislatni armon bilan ta'kidlayapti. Lekin she'rning so'nggi misrasi «Ortida-chi, zo'r umidli yoshlari bor» degan misralar bilan tugallanib, bu esa o'quvchida kelajakka umid bilan qarashni ta'minlaydi.

N. Alimbekov boshqa xalqlarni hech ham kam ko'rmaydi, aksincha, ularning ayrim fazilatlaridan qirg'izlar o'rganishi kerak degan to'g'ri g'oyani olg'a suradi. Uning «Tungonilar» she'rida tungan xalqining nihoyatda mehnatkash xalq ekanligi ta'kidlanib, qirg'izlar ulardan o'rnak olish kerak deydi.

*Tungonilar ketmon chopib, ter to'kib,
Rizqin izlab ona erga yopishar.
Tanballikka ko'nib qolgan qirg'izlar
Toqqa qarab uyqusirab yotishar...*

Shoirning «Yahudiylar haqida» nomli she'rida ham, bu mehnatkash xalqning tejamli, aqlli, bir-biri bilan inoq ekanligi boshqa xalqlarga ham ibrat bo'lish kerak deydi.

*«Bizga o'xshash odam ekan ular ham
Qo'l-oyog'i, qoshi, boshi bor».
Ana shunday ajabtovur latifa,
YAngilishmasam, juhudlarga dahldor.*

Zamonaviy qirg'iz she'riyatida yana bir ko'zga tashlanib turgan xususiyat, bu do'stlik mavzusidir. Bu do'stlik eng birinchi navbatda Turkistonda yashab turgan xalqlar o'rtasida mustahkam bo'lish kerak, degan g'oyalar targ'ib qilinmoqda. Haqiqatdan ham qadimda yagona bo'lgan Turkiston uchta xonlikka bo'linib ketganligi uchun qariyb 150 yil ruslarga qaram bo'lib qoldi. Ruslar esa Turkistonni boshqarish ason bo'lsin deb beshga bo'lib yubordi. Ana shu beshta davlat bugungi kunda tarixiy taraqqiyot tufayli mustaqillikka erishdi. Bu bizning ota-bobolarimiz orzu qilib kelgan haqiqiy istiqlol edi. Hozirgi ming xil nayranglar o'ynab turgan dunyoda, uni yana yo'qotib qo'yish hech gap emas. Shuning uchun Turkistonning barcha xalqi yagona musht bo'lib birlashish kerak. Ana shunday bo'lsa, davlat qudratli bo'ladi. Xuddi shunday g'oyalar ko'plab zamonaviy qirg'iz shoirlarining she'rlarida yangramoqda. Bunga misol sifatida Yadgar Solaevning «Besh panja» nomli she'rini ko'rsatishimiz mumkin:

*Besh panja bor, beshov birday teng emas,
Beshov agar biriksami, sen emas,
Odamzodga sodiq xizmat qilguday,
Qudrati bor, yarim-yorti el emas!*

*Qirg'iz, qozoq, o'zbek, tojik, turkmanni
Qirgan paytda, ajdodlarim hurkkanmi?..
Besh panjaday ahil bo'lsak, biriksak,
Ko'rar edik haddi sig'ib, turtkanni!..*

*Qardoshlikning qadrin avval bilaylik,
Hamkor bo'lib, doim o'ynab-kulaylik.
To'yda suyanch, aza chog'i tobutkash
Birlashaylik, mushtum bo'lib yuraylik.*

Ana shunday qadim Turkiston xalqlarining birlashishiga da'vat boshqa turkiy xalqlar adabiyotida ham keng yoritilmoqda. Turkistonni yagona Vatan deb tushunish, uning qudrati uchun kurashish faqat ijodkorlarning emas, balki shu erda yashovchi barcha xalqlarning muqaddas burchi bo'lib hisoblanishi kerak.

Xullas, qirg'iz adabiyoti zamon bilan hamohang tarzda taraqqiy etmoqda. Mustaqillik davrida o'zbek va qirg'iz adabiy aloqalariga yangicha yondashish bo'layapdi. Mashhur yozuvchi Ch.Aytmatovning bevosita tashabbusi bilan "Issiq ko'l forumi" singari uyushmalar tuzildi. Bu uyushmalarning asosiy shiori tinchlik, xalqlar o'rtasidagi do'stlikni mustahkamlash va adolatni tiklashdan iboratdir.

Adabiyotlar

1. История киргизской литературы. М., 1970.
2. Ч.Айтматов, М.Шоханов. "Чўққида қолган овчининг оҳи-зори". Т., 1998.
3. А.Тўқимбоев. Тонг олдида. Шеърий роман. Т., 1985.

4. «Манас» эпоси. 1-китоб, Т., 1964 й.
5. С.Эралиев. Тоғлар фарзандиман. Шеърлар. Тошкент, 1978.

10-mavzu. Chingiz Aytmatov ijodi

Reja:

1. Hozirgi qirg'iz adabiyoti haqida.
2. Chingiz Aytmatov – hozirgi dunyoning ulkan adibi.
3. Chingiz Aytmatov qissalari.
4. Chingiz Aytmatovning “Asrga tatigulik kun” romani.
5. Chingiz Aytmatovning “Qiyomat” romani.

Tayanch iboralar: Chingiz Aytmatov ijtimoiy faoliyati, “Issiq ko'l forumi”, “Jamila” povesti va undagi obrazlar. “Moma Er”, “Oq kema”, ekologiya, ma'naviyat masalalari.

XX asr jahon adabiyotining yirik vakillaridan biri Ch.Aytmatov qirg'iz adabiyotining shuhratini olamga yoydi. Uning ijodi jahon adabiyotining eng yaxshi an'analari bilan qirg'iz milliy adabiyoti an'alarining qo'shiluvidan iborat bo'ldi. U yaratgan asarlar jahonning qariyb barcha tillariga tarjima qilingan. 1988 yildagi ma'lumotga qaraganda uning asarlari 40 million nusxada chop etilgan.

Ana shunday buyuk yozuvchi 1928 yili Qirg'izistonning Talas vodiysida tug'ildi. Uning otasi To'raqul Aytmatov o'z zamonasining ilg'or kishilaridan bo'lib, katta davlat arbobi va olim kishi edi. 1937 yil unga “xalq dushmani” degan ayb qo'yilib, repressiya qurboni bo'ldi. Ch.Aytmatov rus maktabida o'qidi. Keyin Jambuldagi zooveterinariya texnikumini bitirib, institutga kirdi. Qishloq xo'jalik institutining zootexnika fakultetini bitirib, ancha yillar shu mutaxassislik bo'yicha ishlagan. Lekin badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishi tufayli u Moskvadagi ikki yillik adabiyot institutida ham o'qidi. Ch.Aytmatov bir necha yillar “Pravda” gazetasining Qirg'izistondagi muxbiri va “Literaturnyy Kirgizistan” jurnalining redaktori bo'lib ishladi. Yozuvchi ijod bilan birgalikda, jamoat ishlarini ham bajarib kelmoqda. Qirg'iziston yozuvchilar uyushmasining raisi, “Inostrannaya literatura” jurnalining muharriri, Rossiyaning Lyuksemburg davlatidagi elchisi, “Issiqko'l forumi”ning boshlig'i vazifalarida ishladi. Hozirgi kunlarda “Turkiston umumiy uyimiz” deb nomlangan Markaziy Osiyo ijodkorlari tashkilotining boshlig'i sifatida faoliyat ko'satmoqda.

Ch.Aytmatovning badiiy adabiyotga bo'lgan havasi dastlab oilaviy muhitda bo'lgan. O'zining yozishicha, katta buvisi juda ko'p xalq ertaklarini bilgan ayol bo'lgan. Keyin yozuvchi bolaligida rus yozuvchilarining asarlarini ko'p o'qigan. Ch.Aytmatov ikki tilda rus va qirg'iz tillarida ijod qiluvchi yozuvchidir. Uning ijodi kichik-kichik hikoyalar yozish bilan boshlangan. Institutda o'qib yurgan kezlarda birinchi hikoyalari e'lon qilingan. Lekin yozuvchiga shuhrat keltirgan asar, uning “Jamila” nomli qissasi bo'lgan. U tez orada shuhrat qozondi. Uni

mashhur yozuvchi Lui Aragon frantsuz tiliga tarjima qildi. Tarjimaga o'zi so'z boshi yozib, uni "Muhabbat haqida yozilgan jahondagi eng ajoyib qissa" deb baholadi. Ikki yil ichida bu asar 30 ta chet tillariga tarjima qilindi. Bunday hodisa jahon adabiyoti tarixida birinchi marta sodir bo'lishi edi. Asar voqealari ikkinchi jahon urushi davrida bo'lib o'tadi. Urushdan yarador bo'lib qaytib kelgan Doniyor bilan eri urushga ketgan kelinchak Jamila o'rtasidagi muhabbat katta mahorat bilan berilgan. Otashin muhabbatga erishish uchun, juda kuchli iroda ham kerak ekanligi bu asarda o'ta ta'sirli qilib berilgan. Ishq yo'lida har qanday urf-odatlar, rasm-rusmlar ham bir pulga arzimastligi Jamila va Doniyorlar muhabbati vositasida ko'rsatib berilgan.

Ch.Aytmatov asarlarining har biri o'ziga xos original asar bo'lib dunyoga keldi. Uning kitobdan-kitobga qarab mahorati o'sib bordi. Yozuvchining "Momo Er", "Yuzma-yuz", "Birinchi muallim", "Sohil bo'ylab chopayotgan olapar", "Oq kema", "Alvido, Gulsari" kabi asarlarining har biri buyuk talantning, yuksak mahoratning mahsulidir. Yozuvchi "Momo Er", ("Somon yo'li") povestida To'lg'onoy ismli ayolning boshiga tushgan dahshatli voqealarni tasvirlaydi. Insonning boshi toshdan qattiq ekanligini, u har qanday musibatlarga chidashi uchun katta irodaga ega bo'lish kerakligi tasvirlangan. Urush tufayli eri va uch o'g'lidan ayrilgan To'lg'onoy birdan-bir suyanchig'i, farzandi o'rniga farzand bo'lib qolgan kelinidan ham ayriladi. Falak yana nimalarga qodirsan, deb nola qiladi. Lekin ko'ngli cho'kmaydi, yana hayot sari intiladi. Endi yosh go'dak nabirasini ulg'aytirish, uning yagona umidi To'lg'onoy Ona erga savol beradi, er ham tirik insonday javob beradi. Ana shu savol-javob orqali juda ulkan falsafiy muammolar haqida fikr yuritiladi. Asar oxirida To'lg'onoy quyoshga, bulutlarga, erga murojaat qilib, ulardan o'z dardini boshqalarga ham etkazinglar, deb iltijo qiladi. Shunda ular: «Yo'q, To'lg'onoy, sen aytgin, sen-insonsan, sen hammamizdan buyuk, sen hammamizdan ulug' bo'lib yaratilgan jonsan, sen aytgin, sen insonsan», deb javob beradi. Bu bilan yozuvchi insonning engilmas ruhiga, kurashchan hayotiga ishora qiladi. Bu so'zlar mashhur yozuvchi Gorkiyning "Inson mag'rur jaranglaydi" Yoki Amerika yozuvchisi Xemingueyning «Chol va dengiz» asaridagi "Insonni engib bo'lmaydi" degan fikrlariga hamohangdir.

Yozuvchining "Alvido, Gulsari" nomli qissasi ham juda mashhur bo'ldi. Qissaning bosh qahramoni Tanaboy jon taslim qilayotgan oti Gulsarining boshida turib, butun o'tgan umrini yodga oladi. Bunda bir tomondan odamlardagi mehr-oqibat yo'qolib borayotgani, ikkinchi tomondan, inson va tabiat o'rtasidagi muvozanatning buzilib borayotganligi hikoya qilinadi. Ch.Aytmatovning bu qissasida ham ekologiya masalasi, tabiatni, hayvonot dunyosini asrash, avlod-avlodlarga sog'lom va asl holida etkazish masalasi izchillik bilan qalamga olinadi. Bu ayniqsa, yozuvchining "Oq kema" ("Ertakdan so'ng") qissasida yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Qissadagi yosh bola, Mo'min chol obrazlari juda muvaffaqiyatli chiqqan. Qissa ham ana shu bobo va nabiralarning qismatiga bag'ishlangan. Asarda asosan ikkita ertak atrofida fikr yuritiladi. Biri bolaning o'zi to'qigan "Oq kema" haqida ertak bo'lsa, ikkinchisi bobosi Mo'min chol aytib

bergan “SHoxdor ona bug’u” haqidagi ertakdir. Sontosh darasidagi o’rmon qarovullari hayoti bir qarashda katta dunyodan ajralib qolgan kishilarning turmushi tasvirlangandek tuyuladi. Lekin masalaga chuqurroq e’tibor berilsa, ana shu uzoq tog’dagi uch oila qismati hozirgi dunyo qismati bilan chambarchas bog’liqdir. Bu davrdagi yutuqlaru, fojialar shu insonlar obrazi orqali mahorat bilan berilgan. Bolaning ichki dunyosi, o’y-fikrlari yozuvchi tomonidan o’ta ustakorlik bilan tasvirlangan. U “Oq kema”da hamma narsa bor, uning tashlab ketgan otasi ham, onasi ham o’sha erda yashaydi deb o’ylaydi. Lekin shu kema deb bola halok bo’ladi. Mo’minchol esa afandi fe’l kishi edi. Uning Mo’min chaqqon deyishardi. U qaerga bormasin doim xizmatda bo’lardi. Yozuvchi Mo’min xarakterini quyidagicha tasvirlaydi: “...Mo’min chaqqon bo’lib tug’ilgan. Ehtimol, uning yolg’iz ustunligi shunda ediki, u qanday o’tirdim, bilib gapirdimmi, qanday javob qildim, qanday kulimsiradim deb tashvishlanmas, birovlarining oldida obro’si to’kilishidan cho’chimasdi. Mo’min mana shu ma’noda, o’zi sezmagani holda kamdan kam uchraydigan baxtli odam edi. Ko’p odamlarni kasallik emas, o’z nazdida o’zini o’zligidan kattaroq qo’yishdek xudbinlik, alamzadalik balosi kemirib ado qiladi.(Dono, baobro’, xushro’y, buning ustiga qattiq qo’l, adolatli va jasur degan nom ham chiqarishni kim istamaydi) Mo’min esa bunday emasdi.” Qissadagi O’rozqul obrazi ham o’ziga xos. U salbiy obraz sifatida tasvirlangan bo’lsa-da, ba’zan o’quvchi uning qismatiga ham achinadi. O’rozqul farzand dog’ida kuyib o’rtanadi. Unga tabiat bir tirnoqni ham ravo ko’rmadi. U yolg’iz qolganida, ayniqsa ichib mast bo’lganida bu kemptik qismatidan nola qiladi, hech kimga bildirmay yig’laydi. U shum taqdirga achchiq qilib xotinini uradi, bolani yomon ko’radi, Mo’min cholg’a azob beradi.

“Sohil bo’ylab chopayotgan olapar” qissasida esa qayiqdagi hayot tasvirlanadi. Bunda “Oq kema” qissasi bilan mantiqiy bog’lanish bordek tuyuladi. “Sarv qomat dilbarim” nomli qissa haqida yozuvchining o’zi shunday deydi: “Sarv qomat dilbarim”da hayotni chondon murakkabligicha tasvirlashga intildim. Ayrim yoshlar bir-birlarini sevishadi, turmush qurishadi. Bir kun qarabsizki, oilalari buziladi, ajrashadi. Hozir hayotda shu toifadaga yoshlar ko’p uchraydi. Ular bir-birlarini yaxshi bilmasdan turib turmush qurishga shoshiladi-yu, sal o’tmay fe’llari to’g’ri kelmay qoladi. “Sarv qomat dilbarim”da shu o’ylarimni ifoda qilishga intildim”.

Bu qissa qahramoni Ilyos o’z muhabbati uchun kurashadi, sevganiga erishadi. Keyin tabiatan o’jar, qo’rs, orqa-oldini o’ylamay ish qiladigan Ilyos og’ir xatolarga yo’l qo’yadi. Bu xatolar tuzatib bo’lmas xatolar edi. Natijada o’z baxtidan ayriladi. Buning aybdori uning o’zi edi. U xatolariga tushunadi, afsus chekadi, lekin endi kech edi. Asardagi asosiy dramatik holatlar shundan iborat edi. Ch.Aytmatovning qissalarida bayon qilish uslubi ham o’ziga xos tarzda kechadi. Yozuvchining ko’plab qissalarida voqealar bosh qahramonlar tilidan hikoya qilinadi. Bu uslub Ch.Aytmatovning sevgan uslublaridan bo’lib, yozuvchi uni mahorat bilan qo’llaydi.

Ma'lumki, Ch.Aytmatov qissalari bilan dunyoga mashhur bo'ldi. Adabiyot sohasidagi katta halqaro mukofotlarga sazovor bo'ldi. Yozuvchi keyinroq hajman kattaroq bo'lgan roman janrida ham qalamini sinab ko'rdi. Bu janrda yaratilgan asarlar ham yozuvchiga katta shuhrat keltirdi. Demak, yozuvchiga badiiy janrlar bir vosita xolos. Eng asosiy gap uning ifoda qilish uslubi bilan bog'liqdir. Ch.Aytmatovning "Asrga tatigulik kun" nomli romani 80-yillarning boshlarida yozildi. Bu davrda ijtimoiy hayotimizda turg'unlik davri hukm surmoqda edi. Adib shu tuzumga o'z e'tirozlarini mazkur romanida ifoda etgan. Roman ko'p planli asar bo'lib, bir nechta syujet yo'nalishlariga ega. Bu syujet liniyalaridan asosan uchtasi asarning g'oyaviy mazmunini tashkil etadi. Asar qahramonlari oddiy mehnatkash kishilarning vakillari. Ular poezd yo'lidagi bir bekatning xizmatchilari. Poezdlar G'arbdan Sharqqa, Sharqdan G'arbga o'tib turadigan "Bo'ronli" degan bekatdagi to'rt-besh xizmatchilarning qismati orqali adib, juda katta hayotiy muammolarni ko'tarib chiqadi. Keksa xizmatchi Qozongapni dafn qilish marosimi bilan bog'liq voqealar tasviri asarning asosiy syujet liniyasidir. Marhumning do'sti Edigey Qozongapni ajdodlar qabristoni bo'lgan "Ona Bayit"ga dafn etish uchun xarakat qiladi. U sovxozdan traktor so'rab oladi. Lekin bu qabriston kosmodrom chegarasida bo'lib tikonli simlar bilan o'rab olingan edi. Har xil rasmiy doiralar va harbiylar marhumni ajdodlar qabristoniga dafn etishga ruxsat bermaydi. Edigey ularni manqurtlar deb ataydi. Oxiri Qozongapni boshqa joyga dafn qilishga majbur bo'ladi. Edigey ana shu dafn marosimida boshidan o'tgan barcha voqealarni eslaydi. Bu qariyb bir asrlik tarix edi. Shuning uchun asar nomi "Asrga tatigulik kun" deb atalgan. Bunda qozoq xalqining juda ko'p asrlik tarixiga ham e'tibor qaratiladi. Ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillarda ijtimoiy hayotda bo'lib o'tgan turli voqealar asarda o'z badiiy in'ikosini topgan. Qozongapning o'g'li Sobitjon hozirgi zamon manqurtlaridan, u otasini ko'mishga ham yuzaki qaraydi. Bekat atrofidagi to'g'ri kelgan joyga ko'mish kerak, deydi. Kosmodromda xizmat qilgan qozoq leytenant ham manqurt. U marhumni qabristonga ko'mishga ruxsat bermaydi. Ana shunda Edegeyninng ko'nglida yashirilib yotgan haqiqiy odamiylik, oliyjanoblik butun ulug'vorligi bilan namoyon bo'ladi. Shu voqealar davomida ona xalqi tarixidan, uning yaxshi an'alaridan ayrilish chin insoniylikni yo'qotish bilan barobar ekanligi yaqqol ochiladi. Adib manqurt haqidagi rivoyat tasviri orqali xalq tarixidan, urf-odatlaridan uzilishning dahshatini butun fojeasi bilan ko'rsatishga muvaffaq bo'ladi.

Asarda insoniyatning kelajagi ham fantastik syujet yo'nalishida beriladi. "Paretet" kosmos kemalarining boshqa olam bilan aloqasi, o'sha planetadagi hayot haqidagi fikrlar Er planetasining kelajagiga to'g'ri keladi. Hamma bir tilda gaplashadi. Kishilarning bo'ylari 230-250 sm, rangi qora mag'iz.

Ko'pgina hayvon turlari yo'qolib borayotganligi asarda Qoranor obrazi orqali berilgan. Stalin davri repressiyasi Abutolib singari vatanparvar kishilarni yo'q qilib yuborgani ham ta'sirli qilib berilgan. Bu roman ham unga katta muvaffaqiyat keltirdi.

Adibning ikkinchi romani “Qiyomat” (“Kunda”) deb nomlanadi. Bu asarning ham shuhrati keng yoyildi. Asarda butun insoniyatni bezovta qilib turgan katta global masalalar ko’tarib chiqilgan. Bu asarda ham talaygina syujet liniyalari mavjud. Insonlardagi mehr-oqibatning tugab borayotganligi haqidagi tashvishli fikrlar Bo’ston va Bozorboy obrazlari o’rtasidagi konfliktda ko’rsatiladi.

Avdiy Kallistratov bilan Kandalov o’rtasidagi kurashlar tasvirida esa hozirgi davrda juda muhim masalalardan biri bo’lgan giyohvandlik haqida fikr yuritiladi. Avdiy xuddi Iso payg’ambar singari odamlarni yomon yo’ldan qaytarmoqchi, insofga chaqirmoqchi bo’ladi va shu yo’lda o’zi ham halok bo’ladi. Asarda “Bibliya” kitobidan olingan syujetlar ham bugungi dunyomiz uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Bu mashhur yozuvchi M.Bulgakovning “Master va Margarita” kitobida ham berilgan edi. Ch.Aytmatov ham shu an’anani o’ziga xos ravishda davom ettirdi.

Akbara va Toshchaynar nomli bo’rilar obrazi orqali esa ekologiya masalalari ko’tarib chiqiladi. Tabiat va inson o’rtasidagi munosabatlarning bugungi davrimizda o’ta qaltis holga kelib qolganligi hikoya qilinadi.

Bo’ston va Bozorboy o’rtasidagi ziddiyatlar ayniqsa asarda juda qiziqarli berilgan. Bo’ston halol inson, u cho’ponlik qilib shuhrat topadi, obro’ orttiradi. Oliy Sovet deputati bo’ladi. U shu shon-shuhratlar orqasidan farovon hayot kechirishi mumkin edi. Lekin u boshqa yo’lni tanlaydi. Bo’ston majburiyatbozlik, shiorbozlik, xo’jako’rsinlikka qarshi boradi, bu yo’ldagi soxtaliklarni qoralaydi. Qog’ozdagi, matbuotdagi «Yolg’on to’kin-sochinlik va farovonlik”lardan iztirob chekadi. U tabiatning o’zgarib borayotganidan qattiq tashvishga tushadi. Bozorboy obrazi esa Bo’ston obrazining aksi, u o’z manfaati yo’lida har qanday qabihlikdan qaytmaydi. Uning uchun kayfu safo bo’lsa bas. U tabiatni, insoniy mehr-muhabbatni ham mensimaydi. U o’ta baxil shaxs. Bo’stonning yutuqlarini ko’ra olmaydi. Shuning uchun bo’ri bolalarini ataylab Bo’stonning uyi orqali olib keladi. Chunki bolalarining hidini bilgan bo’rilar kelib Bo’stonning qo’ylarini qiradi. Oxirida uning uch yashar o’g’lini olib qochadi. Bo’rini otaman degan Bo’ston o’z o’g’lini otib qo’yadi. Keyin u Bozorboyni ham otadi. Asarda tabiatga teginsang, bir kuni u seni jazolaydi, degan fikr bor. Vertolyot orqali Muyunqumda ovga chiqqanlar, kiyiklarni ayovsiz qiradi. Bunda bo’rilar ham, kiyiklar ham qo’shib birga halokatdan qochishadi. Tabiat o’z qonun-qoidalari bilan yashaydi. Unga odamning aralashuvi, uni zo’rlab o’zgartirishlar fojia bilan tugashi asarda misollar bilan isbotlangan.

Asarning “Kunda”(“Qiyomat”) deb nomlanishi ham shundan olingan. O’zbekchaga asarni I.G’afurov mahorat bilan tarjima qilgan. Ch.Aytmatov bu asarida ham qadimiy mif va afsonalardan ko’p foydalandi. Ayniqsa, diniy rivoyatlarning ko’plab keltirilishi, asar syujetining juda qiziqarli bo’lishiga xizmat qilgan.

Qirg’iz xalqining faqat qirg’iz xalqiningina emas, balki hozirgi duyomizning mutafakkir yozuvchisi Ch.Aytmatov keyingi yillarda ham ajoyib asarlar yaratmoqda. Uning «Oxir zamon nishonalari», «Chingizxonning oq

buluti» nomli asarlari yuksak darajadagi katta mahoratning mevasi sifatida vujudga kelgan. YOzuvchining har bir asari hozirgi dunyo adabiy jarayonida katta voqia sifatida tan olinadi. Ch.Aytmatov «Oxir zamon nishonalari» nomli asarida insoniyat hozirgi davrda muhim muammolar oldida chorasiz qolayotganligi, kelajakda uni nimalar kutayotganligi haqida yozilgan. Adib dahshatli fojialardan ogohlantiradi. Har bir ayol dunyoga kelajak farzandlarining baxtli bo'lishini xohlaydi. Lekin insoniyat kelajagiga nimalar taxdid solayotganini ular aniq bilishmaydi. Kitobda tasvirlanishicha esa Ona qornidagi embrion buni sezib, dunyoga kelmaslik uchun harakat qiladi. Ikki-uch oylik homila onaning peshonasiga dog' bo'lib chiqib, o'z noroziligini bildiradi. Buni kosmosdan yuborilgan zondaj nurlar orqali aniqlash mumkin. Rus olimi Nikolay Kriltsov ana shunday olamshumul kashfiyot qiladi.

Kitobning bosh qahramonlaridan biri bu olim insoniyatni qanday dahshatlar kutayotganligini oldindan ogohlantirmoqchi bo'ladi. Lekin bu ko'r olomon, uning kashfiyotlarini tan olmay, o'zini-o'zini halok qilishga majbur etadi. Asardan olingan mana bu parchaga e'tibor beraylik:

«Bo'lajak ona quyidagi musibatlar haqida o'ylamasligi mumkin emas:

- ocharchilik;
- xaroba kulbalar;
- kasalliklar, jumladan SPID;
- urushlar;
- iqtisodiy buxronlar;
- ijtimoiy qasirg'alar;
- jinoyatchilik;
- fohishabozlik;
- giyoxvandlik va narkomafiya;
- elatlararo qirg'inlar;
- irqchilik;
- ekologik, energetik halokatlar;
- yadro sinovlari;
- qora tuynuklar va hakazo va hakazo».

Bularning hammasi qo'lbola hodisa- voqialar oqibati, bularning hammasi odamlar dastidan. Odamzodning boshiga tushayotgan musibatlar avloddan-avlodga ortib bormoqda. Va bularning hammasida barchamiz ishtirokchimiz. Mana, nihoyat, Iloh bizni jahannam labida to'xtatib, Kasandra tamg'asi orqali o'zi haqida nishon bermoqda.»

Xaqiqatdan ham, dunyoda bo'layotgan ko'pgina falokatlarga insoniyatning o'zi sababchi bo'lmoqda. Uning nafs balosi tufayli er yuzida katta-katta fojialar sodir bo'lmoqda: Iqlim o'zgarmoqda, ekologik katastrofalar, qirg'in-barot urushlari avj olmoqda. Kitobda ana shunday umuminsoniy masalalar haqida fikr yuritiladi. Haqiqatdan ham, Ch.Aytmatov mutafakkir yozuvchi sifatida butun insoniyat manfaatlari nuqtai nazaridan masalaga yondashadi. Uning

asarlarining qahramonlari er yuzidagi turli millat kishilaridir. Bu kitobda ham ruslar, inglizlar, nemislar, ispanlar kabi turli millat vakillari ishtirok etadi.

Amerikalik olim Robert Bork, yosh siyosatchi Entoni YUnger va Amerika prezidentligiga o'z nomzodini qo'ygan shuxratparast, o'z manfaati yo'lida hech narsadan toymaydigan Oliver Ordoklar bu asarning asosiy ishtirokchilaridan sanaladi. YOzuvchi ana shu qahramonlar tilidan juda ko'plab global masalalarga e'tiborni tortadi. Masalan, e'tiqod qiladigan dinlar turlicha. Har bir din o'zini haqiqiy mukammal din deb hisoblaydi va boshqalardan ustun ekanligini ro'kach qiladi. Kitobda ana shu masalaga quyidagicha munosabat bildiriladi:

«Dinlar uyushmalarga birlashishsa mavjud dinlarning birontasida ham Xudo g'oyasi zaiflashmagan bo'lur edi. Aksincha, dinlar ko'pqirrali, oshkor va ustivor xususiyatga ega bo'lar, eng muhimi- ajoyib nazariyalardagina emas, balki hatti-harakatlarda ham dinlarning tub mohiyati insonparvarlik negizida qurilgan bo'lur edi.

Aslida Tangri bitta, unga e'tiqod qilish turli yo'llar bilan amalga oshiriladi, deydi asar qahramoni Bork. O'tmish avlodlardan farqli o'laroq yigirmanchi asr oxirlarida yashayotgan odam- barcha dinlar meniki va men barcha dinlarning muxlisiman, men barcha dinlarning barcha ibodatxonalariga kirib turaman va barcha ibodatxonalarda aziz ziyoratchiman deya olsin».

Kitobda ana shunday dinlarni birlashtirish g'oyasi haqida ham ba'zi fikrlar keltiriladi. Albattda bunday fikrlarga tarafdorlardan ko'ra, qarshilar ko'proq bo'lsa kerak. Lekin bag'rikenglik barcha dinlarga xos bo'lish kerak degan g'oya keyingi vaqtlarda butun dunyo bo'ylab asta-sekin kengayib bormoqda.

Xullas, Ch.Aytmatov davrimizning zabardast yozuvchisi sifatida o'zbek kitobxonlarining ham sevimli adibiga aylangan. Keyingi yillarda ham adibning bir qancha asarlari e'lon qilindi. Bu asarlari ham g'oyaviy-badiiy jihatdan etuk asarlar deb baholanmoqda. Bundan tashqari yozuvchining hozirgi dunyomizning aktual problemalariga bag'ishlangan ko'plab publitsistik maqolalari ham e'lon qilinmoqda.

Adabiyotlar

1. Ч.Айтматов, М. Шахонов. Қояда қолган овчининг охи-зори. Т., 2000.
2. Ч.Айтматов ва ўзбек адабиёти. Самарқанд. 1989
3. Ч.Айтматов. “Қиёмат”, “Асрга татигулик кун”. Романлар. Сўз боши ,М. Қўшжонов.Т.,1989.
4. Ч.Айтматов. Танланган асар. 2 томлик. Т., 1978.
5. Ч.Айтматов. Охир замон нишонлари. Тошкент, «Шарқ», 2001.

11-mavzu. Turkman adabiyoti

Reja:

1. Turkman xalqi tarixi haqida.
2. Turkman xalq og'zaki ijodi.
3. Turkman yozma adabiyotining shakllanishi.
4. XVIII asr turkman adabiyotidagi yo'nalishlar.
5. XIX asr turkman adabiyoti.

Tayanch iboralar: «Shajarai tarokima», «Go'r o'g'li» dostonlari, latifalari, Nasimiy, Burxoniddin Sevasiy, didaktik adabiyot. Andalib, Maxtumquli. Satirik lirika. XX asr Turkmanistonda tarixiy muhit, Miskin Qilich, Bayram shoir. Erk va ozodlik asarlari. Proza. Berdi Kerboboev. Realistik metod. Keyingi yillar dramaturgiyasi. Q.Quliev «Qora karvon», Safarmurod Niyozov va turkman adabiyoti.

O'rta Osiyoda yashovchi turkmanlar adabiyoti uzoq tarix va boy madaniy merosga ega. Uning madaniyatida xalq tarixi bilan bog'liq bo'lgan, folklorning roli juda kattadir. Turkman folklorida ashula, qo'shiq, ertaklar bilan birga «Yusuf va Zulayxo», «Layli va Majnun», «Shohsanam va G'arib», «Zuhra va Tohir», «Asli va Karam» kabi dostonlar O'rta Osiyoda yashovchi boshqa xalqlar og'zaki ijodida ham uchraydi. Ayniqsa, «Go'ro'g'li» turkumidagi dostonlarning ko'pchiligi o'zbek va ozarbayjon xalqlaridagi shu nomdagi dostonlarning variantlari bilan hamohangdir.

Ayniqsa, O'g'izxon haqidagi qadimgi rivoyatlar bevosita turkman xalqining ham madaniy merosi bo'lib hisoblanadi. Turk-o'g'uz qabilalariga tegishli bo'lgan bu asar asrlar davomida shakllanib epos darajasiga ko'tarilgan. Ayrim tarixiy ma'lumotlarga qaraganda 531-579 yillarda Eronda hukmronlik qilgan Anushervonning vaziri Buzrug Mehr bu eposni («Ulug'xon ota jangnomasi bitigi» nomli asarni) turk tilidan fors tiliga tarjima qilgan. Xalifa Xorun ar-Rashid (763-809) davrida esa bu kitob arab tiliga o'girilgan. Ana shu asar «O'g'iznoma»ning qadimgi varianti deb taxmin qilinadi. Asarda O'g'izxonning tatar qabilasidan bo'lgan Alp Arslon avlodiga mansubligi haqida ma'lumot beriladi. U yoshligida ona sher sutini ichib ulg'ayganligi, odamlarga qirg'in keltirayotgan vaxshiy Tepako'zni va bir shoxli devni o'ldirgani hamda boshqa qahramonliklari hikoya qilinadi.

«O'g'iznoma»ning uyg'ur yozuvida XIV asrga oid qo'lyozmasi hozir Parij milliy kutubxonasida saqlanmoqda. «O'g'iznoma» eposi turkiy xalqlarning kelib chiqishi haqida ma'lumot beruvchi eng qadimgi manbalardan hisoblanadi. Unda ibtidoiy davrga oid mifologik obrazlar ham bor. Masalan, O'g'izxon yoshligida osmondan tushgan bir pariga uylanadi va undan Kun, Oy, Yulduz nomli uch o'g'il bo'ladi. Keyin esa o'rmonda bir qizni uchratib, unga uylanadi. Undan ham Ko'k, Tog', Dengiz nomli uch o'g'il ko'radi. Keyin qo'shni davlatlarga yurish qilib, juda ko'p joylarni bosib oladi. Unga bu janglarda, ov yurishlarida go'Yoki, bir ko'k bo'ri doimo hamroh bo'larkan. Bo'ring maslahati bilan ish olib borib, katta g'alabalarni qo'lga kiritadi. O'g'iz xoqon Tibet, Hind, Suriya taraflarni ham qo'lga kiritadi. Keyin dono vaziri Ulug' Turkning maslahati bilan saltanatni

bolalariga bo'lib beradi. Bu esa go'Yoki, Chingizxonga nisbat berilgandek tuyuladi. Chunki qo'lyozma ko'chirilgan davrda Chingizxon sulolalarining mavqei juda baland edi.

Abulg'ozi Bahodirxonning «Shajarai tarokima» asarida ham turkman xalq og'zaki ijodiga oid ko'plab rivoyatlar keltirilgan. Masalan, Bug'raxon Samarqand, Buxoro va Xorazmni adolat bilan boshqaradi. Qariganda saltanatni o'rtanchi o'g'li Qo'ziteginga beradi. Bug'raxonning aqlli va uch o'g'lining onasi bo'lgan xotini vafot etadi. Ma'lum vaqt o'tgach, o'g'li g'am bosgan otasining ko'nglini olish uchun Ko'rkam nomli go'zal qizga uylantirib qo'yadi. Qizning ko'ngli esa Qo'ziteginga edi. Makkor qiz Qo'zitegingdan o'ch olish uchun, oqshom Qo'zitegin mening chodirimga keldi, deb unga tuhmat qiladi. Lekin tezda bu ayolning makkorligi fosh etilib dorga osiladi.

Turk-o'g'uz qabilalarining barchasiga taalluqli bo'lgan madaniy meroslardan yana biri «Kitobi dada Qo'rqud» nomli mashhur eposdir. Bu asar XV asrning oxirlarida Abdulloh nomli kishi tomonidan tuzilgan. Kitob mustaqil hikoyatlardan tashkil topgan 12 qissadan iboratdir. Birinchi qissada Dirsaxonning o'g'li Bug'rochxon mard va jasur bo'ladi. U otasining 40 ta navkari sotqin va qo'rquq ekanligini fosh qiladi. Ular esa Bug'rochxonni otasiga yomonlab, unga tuhmat qiladi. Bunga ishonib g'azablangan bek, o'g'lini o'limga buyuradi. O'g'lini o'limdan onasi zo'rg'a qutqarib qoladi. Oxir oqibat, ana shu navkarlar bekning o'zini ham til biriktirib, o'ldirmoqchi bo'ladilar. Oxirgi vaziyatda o'g'li otasini 40 ta navkarning tajovuzidan saqlab qoladi. Bu qissada sotqinlik va baxillik qoralanadi.

Ikkinchi qissada esa O'g'uz qabilasi boshliqlaridan biri Qozon-Solar o'z navkarlari bilan ovga chiqib ketganda, uning dushmanlari bo'lgan gyaurlar bekning uyiga hujum qilib, xotini va bola-chaqalarini asir qilib olib ketadi. Lekin uning qo'ylarini va yilqilarini olib ketolmaydi. Chunki oddiy cho'pon katta mardlik va tadbirkorlik ko'rsatib mollarni saqlab qoladi. Ovdan qaytgan Qozon-Solar dushmanlarga qarshi jangga kirib, oila a'zolarini asirlikdan ozod etadi. Bu qissalarda qadimgi bosqinchilik urushlari qoralanadi va qabila sha'nini himoya qilgan mard, jasur o'g'lonlar ta'riflanadi.

Uchinchi qissada mard, jasur yigit Bomsibayroq haqida hikoya qilinadi. Ikki bek uzoq vaqt bolali bo'lmaydi. Keyin esa ularning nolasini Tangriga etib biriga qiz, ikkinchisiga o'g'il farzand ato qiladi. Ular katta bo'lishgach, bir-birini sevadi. To'y bo'layotgan kuni dushmanlar bostirib kelib kuyovni, Bomsibayroqni, asir qilib olib ketadi. U asirlikda o'n olti yil bo'lib, qaytib keladi. Kelgan kuni uning sevgan qizini boshqaga uzatayotgan bo'ladi. Yigit qizni olib ketib o'zi uylanib oladi. Keyin esa Bayburd qal'asiga hujum qilib, qolgan asirlarni ham ozod qiladi. Bu qissadagi tasvirlangan voqealar turkiy xalqlarning ko'pgina dostonlarida ham uchraydi. Masalan, «Alpomish», «Shohsanam va g'arib», «Tohir va Zuhro» kabi dostonlarda ham shunga o'xshash epizodlar bor.

To'rtinchi qissada Qozonbekning o'g'li O'ruzbekni dushmanlar ov paytida tusatdan hujum qilib asirga oladi. Keyin Qozonbekning o'g'lini asirlikdan ozod qilish uchun olib borgan urushlari hikoya qilingan.

Beshinchi qissada Ozroyil kasal yigit Dumrulning jonini oladi. Lekin yigit Ozroyilning bu qilmishidan xudoga shikoyat qiladi. Xudo esa bu shakkok yigitga g'azab qiladi. Lekin yana rahmi kelib er yuzida agar sen uchun jonini beradigan biror bir kimsa topilsa, jonini qaytarishni shart qilib qo'yadi. Yigitning ota-onasi o'z jonlarini o'g'li uchun berishni xohlamaydilar. Yigitning xotini esa bunga rozi bo'ladi. Xudo ayolning bu mardligini ko'rib, yigitning jonini qaytaradi. Eru xotin bu dunyoda 140 yil baxtli hayot kechiradi.

Oltinchi qissada Qangli xo'jasining o'g'li Xon-To'ralining uylanishi bilan bog'liq voqealar hikoya qilinadi. Boshqa yurtdan uylangan yigitga o'sha yurtning yigitlari hujum qilgani va bu urushda Xon-To'ralining g'olib kelganligi tasvirlanadi. Ayniqsa, qizning otasi yigitga qo'ygan shartlarining bajarilishi ancha qiziqarli berilgan. Yigit sherni, qora ho'kizni va qora tuyani engib shartni bajaradi.

Ettinchi qissada Qaziliq xo'janing 15 yashar o'g'li o'g'uz urug'ining dushmanlariga qarshi olib borgan kurashi tasvirlangan.

Sakkizinchi qissada o'g'uz qabilalariga hujum bo'lganda ular boshqa joyga qochib o'tadi. Ana shu ur-surda bir chaqaloq qolib ketadi. Uni ona sher topib olib, sutidan berib ulg'aytiradi. Bu yillar o'tib yana o'sha joyga ko'chib kelganda bola yana o'z qabiladoshlarini topadi. Bolaning otasi Arusxo'ja o'z o'g'lini taniydi va unga Basad deb ism qo'yadi. Bu erlarda Tepako'z nomli bir ko'zli bahaybat vaxshiy yashaydi. Uning otasi cho'pon, onasi esa parilardan bo'lgan ekan. Bu devsfat vaxshiy juda kuchli va qo'rqinchli bo'lgan. Atrofdagi xalq har kuni unga 500 ta qo'y, 2 ta odam berib turgan. Basad ana shu qo'rqinchli devni yakkamayakka olishuvda engadi va xalqni uning zulmidan ozodlikka chiqaradi.

To'qqizinchi qissada o'g'uz qabilalarining yangi bosib olgan joylaridagi hayoti tasvirlangan. Bunda Emram nomli mard yigitning jangda o'zi yarador bo'lgan otasining o'rnini bosib, qabilasini dushmandan himoya qilganligi yozilgan. Davlat chegaralari uchun olib borilgan janglar, ya'ni o'g'uzlar va gruzinlar urushi tasvirlangan.

O'ninchi qissada esa Ushunxo'janing katta o'g'li Egrek Gyaurlar bilan jangda asirga tushadi. Uni asirdan ozod qilish uchun esa ukasi Sergak urushga ketadi va akasini asirlikdan ozod qiladi.

O'n birinchi qissada «O'g'uznoma» qahramonlaridan biri Qozon-Solarning g'aflatda qolib dushmanlar qo'liga tushgani va uning o'g'li O'g'uzxon tomonidan ozod etilgani haqidagi rivoyatlar hikoya qilingan.

O'n ikkinchi yakunlovchi qissada o'g'uz qabilalarining mansab va lavozim talashib bir-biri bilan olib borilgan janglari yozilgan. Qozon-Solarning tog'asi Aruz beklar begi lavozimini egallash uchun Qozon-Solarga hujum qiladi. Uning

yaqin yordamchisi Bamsi-Bayroqni o'ldiradi. Keyin Qozon-Solar Aruzbekka hujum qilib ularni engadi. Bu jangda Aruzbek ham vafot etadi.

Xullas, «Kitobi dada Qo'rqut»da o'g'uz-turk qabilalarining tarixi bilan bog'liq ko'plab voqealar hikoya qilingan. Bu asarning dastlabki qismlaridagi voqealar tasviridan ma'lum bo'lishicha, asar dastlab Turkistonda, ya'ni O'rta Osiyoda shakllangan. Keyingi qismlarida esa voqealar o'g'uz-turk qabilalarining yangi vatani bo'lmish Kavkaz va Kichik Osiyoda kechadi. Albatta, eposdagi barcha voqealar tarixiy bo'lib o'tgan deb bo'lmaydi. Ularning xalqning og'zaki ijodi deb tushunmoq kerak. Lekin o'g'uz-turk qabilalarining tarixi bilan bog'liq aniq voqealar tasviri ham eposda anchagina uchraydi. «Kitobi dada Qo'rqut» deb atalishining sababini ayrim tadqiqotchilar Qo'rqut degan baxshi Yoki islomgacha bo'lgan davrdagi Shamanning nomi bo'lishi mumkin deb taxmin qiladilar. Toshkentga yaqin joyda «Xorxud» degan joy nomi bilan bog'lovchilar ham bor. Nima bo'lsa-da, bu kitob turkiy xalqlarning muqaddas tarixiy eposi bo'lib, bu asrlar davomida xalqni botirlikka, jasurlikka o'z yurtini, elini or-nomuslarini dushmanlardan himoya qilishga o'rgatib kelgan.

“Chambil mamlakati hokimi Jig'alibek qarigan chog'ida hokimiyatni sevikli o'g'li Alibekka beradi. Alibekning homilador xotini farzand ko'rish oldidan vafot qiladi. Tez orada Alibek ham dunyodan o'tadi. Oradan ko'p o'tmay bir cho'pon Alibekning otasi Jig'alibekka podadagi echkilardan biri har kuni qabristonga borib, u erdagi nimaningdir bolasini emizib qaytishini xabar qiladi. Tekshirib qarasalar, Alibekning xotini qabrida bir o'g'il bolani emizib qaytar ekan. Go'rda tug'ilgan bu bolaga Go'ro'g'li deb nom qo'yadi”. Yana bir rivoyatda esa Go'ro'g'li yoshligida bobosi Jig'alibek bilan Xunxor podxosi xizmatida bo'ladilar. Podsho Jig'alibekni yomon ot tanlagani uchun ko'zini o'ydiradi. Keyin shu otni berib saroydan haydaydi. Shu ot Go'ro'g'lining mashhur tulpori G'irot edi. Shuning uchun Jig'alibekning nevarasini Ko'ro'g'li deb atashgan. Xullas, Go'ro'g'li nomi bilan bog'liq ko'pgina rivoyatlar turkman dostonchiligidan o'rin olgan. Go'ro'g'li obrazi mard, adolatli, dono xukmdor sifatida ishtirok etadi. Bu dostonning anchagina qismi nasrda yozilgan.

Yoki yana bir variantida Go'ro'g'li bobosi bilan Amudaryo bo'ylarida yashaydi. Ular bu erda ajoyib toychoqni olib tarbiyalaydi. Ana shu toychoq bir kuni yo'qolib qoladi. Bobosi uni izlab topishni Go'rug'liga buyuradi. U toychoqni izlab bir daraxtning tagida uxlab qoladi. Tushida qirq chiltanlarni ko'radi. Ularning har biri Go'ro'g'liga bir kosadan sharob beradi. Uyqudan uyg'onganda esa uning oldiga Hazrat Ali keladi va u bir tovush qilgan edi, yo'qolgan toychoq etib keladi. Hazrat Ali uni duo qilib, bir qilich beradi, bu qilich bilan har qanday dushmanni engish mumkin ekanligi aytiladi. Go'ro'g'liga 120 yil yashaysan va 72 ta tilni bilasan deb duo qiladi, lekin farzand berishni rad qiladi. (Ozarbayjon eposida esa Darbendga borib kurd qiziga uylanadi va bir o'g'il ko'radi).

Turkman eposida Go'ro'g'li tushida ko'rgan Aga YUnus va uning singlisi Gulshirin nomli go'zal parilarga uylanadi. Avaz ismli bolani Xunxor

mamlakatidan olib kelib o'g'il qilib oladi. Rayhon arab va boshqa dushmanlariga qarshi kurashadi. El-yurtini dushmanlardan hamoya qiladi. Guro'g'li 120 yil yashaydi. Bu davrga kelib uning barcha safdoshlari o'lib ketadi. Faqat Gulshirin va oti G'irot qoladi. U juda ko'p g'amga botib, umrining oxirida ham dushmanlar bilan jang qiladi va jangda mardlarcha halok bo'ladi.

Turkman latifalarida dono, tadbirkor, har qanday qiyinchiliklardan ham osongina qutulib ketadigan Kamina obrazi ham bor. Bu Afandi, Aldarko'sa, Mushfiqiy kabi obrazlarga o'xshash.

O'g'uz qabilalarining g'arbg'a yurishi va ko'plab hududlarni zabt etishi bilan turkman xalqi etnogenezisida bir qancha o'zgarishlar sodir bo'ldi. Turkman millatiga mansub aholi hozirgi Turkmaniston hududidan tashqari dunyoning boshqa joylarida ham ko'plab yashab kelmoqda. Ayniqsa, turkmanlar Afg'oniston, Ozarbayjon, Turkiya va Iroq kabi mamlakatlarda ko'plab uchraydi. Ana shu xalqning qadimgi boy madaniyatida turk va eron madaniyatining sintezlashgan holatiga duch kelamiz. Dastlab ko'plab turkman ijodkorlari o'z asarlarini fors tilida yozganlar. Masalan, XIV-XVI asrlarda yashagan Hakimiy, Anisiy, Susoniy, Bayramxon, Rahim, Nosir Saljuqiylar fors tilida ijod qilgan. XVI asrning birinchi yarmida yashagan, kelib chiqishi asli turkman bo'lgan Mirzo Barxurdor turkmanning «Mahbubul qulub» nomli axloqiy-didaktik asari turkman adabiyotida katta o'rin egallaydi. Bu Navoiy an'analarining turkman adabiyotidagi bir namunasidir. Bu asarga turkman xalqining ko'plab afsona va rivoyatlari ham kiritilgan. Masalan, bunga «Ra'no va Zebo», «Iso va cho'pon» kabi rivoyatlarni ko'rsatish mumkin. Bu kitob XIX asrda shoir Komil Xorazmiy tomondan o'zbek tiliga tarjima qilingan edi.

XIV asrda Kichik Osiyoda yashab ijod qilgan shoir Burhoniddin Ahmad Sivasiy asli turkmanistonlik bo'lgan. Bu shoirning ishqiy-intim temada yozgan lirik she'rlari va tuyuqlari bizgacha etib kelgan.

Asli ozarbayjonlik bo'lgan, lekin she'rlari turkman tiliga yaqin bo'lgan o'g'uz shevasida yozgan Said Imomiddin Nasimiyning turkman yozma adabiyotining rivojlanishiga katta hissasi bor. Ko'pgina turkman shoirlari o'z ijodlarida Nasimiyga ergashdi va uning mohoratidan o'rgandi.

Ma'lumki, Nasimiy (1369-1417) Ozarbayjonning SHamaxi shahrida hunarmand kosib oilasida tug'ilgan. Maktab va madrasalarda o'qib, shuningdek, riyozat, falakiyot kabi fanlarni ham, arab, fors tillarini ham mukammal o'zlashtirib olgan. U ozarbayjon, fors, arab tillarida ijod qildi. Nasimiy Ozarbayjonning atoqli mutafakkir shoiri Fazlulloh Naimiy (1339-1396) bilan do'stlashadi, uning ijodidan o'rganadi. U shoir hurufiylik tariqatining asoschisi edi. Nasimiy hurufiylik mazhabini qabul qiladi. Hurufiy mazhabidagi kishilar mavjud siyosiy tuzumga qarshi boradilar. Shuning uchun Fazlulloh Naimiyni Amir Temurning o'g'li Mironshoh vahshiyona tarzda qatl etishga farmon beradi. U qamoqda «Vasiyatnoma» yozib yashirin ravishda Nasimiyga etkazadi. Bu vasiyatnomaga binoan Nasimiy ustozining kichik qiziga uylanadi. Uning tariqatini davom ettirish uchun Bog'dodga ketadi. U Turkiyada ham bir necha yil yashaydi. Nasimiy inson uchun eng zarur bo'lgan erk va ozodlikni ulug'lab

she`rlar yozadi. Riyokorlikni, zulmni, adolatsizlikni esa o`z she`rlarida qattiq qoralab, reaksiyon ruhoniylarning tazyiqiga uchraydi. Keyinchalik Xalab shahrida Misr sultoni Muayidning topshirig`i bilan 1417 yilda vahshiyona qatl etiladi.

Reaksiyon ruhoniylar hur fikrli Nasimiya qarshi turli yo`llar bilan hujum qildi. Bir rivoyatda keltirilishicha, Nasimiy Antop viloyatining hukmdori bilan yaqin munosabatda bo`lgan. Uning dushmanlari buni ko`rolmay, hukmdorga turli yo`llar bilan Nasimiyni yomon ko`rsatishga harakat qilgan. Ular YOsin su`rasidan bir nusxa ko`chirib shoir kovushining charmi orasiga yashirib qo`yishgan. Hukmdor oldida Nasimiydan Qur`on su`rasini oyoq osti qilgan qanday jazoga loyiq deb so`rashgan. U esa bunday kishining terisini tiriklayin shilish kerak deb javob beradi. Unga sen o`zing haqingda o`zing fatvo berding, deb kovush orasidagi sur`asini chiqarib ko`rsatibdi va uning terisini tiriklayin shilib olishibdi. Reaksiyon ruhoniylar shoirni dinsiz, kofir deb e`lon qildi. Lekin shoirning xalq orasida obro`yi juda baland bo`lib, u butun Sharq tarixida mardlik, fidoyilik timsoli sifatida e`zozlanadi.

Hurufiylar arab alifbosidagi 32 ta harfni muqaddas hisoblab, uni dunyoning butun sirlarining ramzi va ifodasi deb biladi. Ularning fikriga ko`ra, Xudo yashirin bir xazina bo`lib, o`z borlig`ini oshkor qilmoq va o`zini tanitmoq uchun insonlarni yaratgandir, o`z borlig`ini insonda tajassum etgan. Ular nazdida xudo yuksak ma`naviy fazilatga ega bo`lgan, adolatli inson hurufiylarning rahbari Fazlulloh Naimiy qiyofasida o`z ifodasini topgan. Yuksak axloq, ma`naviy go`zallik, adolat va muqaddaslik ramzi Fazlulloh yo`lidan borish kerak. Shunda zulm, adolatsizlik, riyokorlik barbod bo`lishi mumkin, deb o`ylashadi.

Nasimiy o`z she`riyatida adolat va sadoqatni, halollik va pokizalikni olqishlaydi. Insonlarni bir-biriga mehr-muruvvatli bo`lishga undaydi. Lekin uning zamonida mehr-muruvvat, sahovat yo`qligidan noliydi.

Ey qilon da`vaki shoham, adlu insofing qani?

CHun safo ahlindan o`lding, mashrabi sofing qani?

Hayotdagi adolatsizliklar, cheksiz alam va iztiroblar, ayniqsa, amaldorlarning pastkashligi, poraxo`rligi, ikkiyuzlamachiligidan shoir nafratlanadi. Bir she`rida shoir pastkash, riyokor, o`ta ketgan poraxo`r odamning ko`pchilik ichida o`zini farishta qilib ko`rsatib, adolat va halollik to`g`risida va`z qilganidan nihoyatda g`azabga tushadi.

Falak aksga davr aylar, magar oxir zamon o`ldi.

Qafasda tutiyu qumri, chamanlarda g`urob o`ynar.

Yoki:

Bori mehnatdir jahonning, na tilarsan, ey ko`ngul,

La`nat o`lsun bu jahonga, ham jahonning borig`a.

SHoir she`riyatida ishqiy mavzu ham keng ishlangan. U mavjud borliqning, shu dunyoning go`zallarini hamma narsadan baland qo`yadi.

Hizr agar zulmatga bordi, istadi obi hayot,

Men dudog`ing chashmasida obi hayvon topmisham.

Shoir she`riyatida bu kabi go`zal misralar juda ko`plab uchraydi.

Nasimiy shu dunyodagi har bir narsada xudoning mahsulini, jamolini ko`radi. Shuning uchun u insonni haqorat qilish xudoni haqorat qilish bilan barobardir deydi. Chunki inson ruhi oxir-oqibat xudoga qo`shilib ketadi degan g`oya uning she`riyatida ham etakchi g`oya hisoblanadi. Buni shoirning quyidagi ikkilik she`ri ham isbotlaydi.

Haq taolo odam o`g`li o`zidir...

Jumla olam bilki olloh o`zidir.

XV asrda yashagan Vafoi nomli shoir ham turkman adabiyotida ancha mashhurdir. Chunki u Ahmad Yassaviy an`analarini davom ettirib, tasavvuf falsafasi g`oyalarini she`r qilib yozar edi. Bu shoir asari tasavvuf lirikasining go`zal namunasi sifatida xalq orasida mashhur bo`lgan.

XVII asrda yashagan shoir Ozodiy ham o`z ijodida tasavvuf g`oyalarini targ`ib qilgan. Uning «Va`zi Ozodiy» she`rlar to`plami meros bo`lib qolgan.

Ozodiy xalqni xonavayron qiluvchi o`zaro urushlarni qoraladi. Ayrim ma`lumotlarga qaraganda, u Gurgon hokimi Alixonga qarshi xalqni qo`zg`olonga chaqirgan. Shoir «Ozodiy» taxallusini ham bekorga qabul qilmagan. U erk va ozodlik haqida juda ko`p qo`shiq va g`azallar yozgan. Shoirning «Va`zi Ozod» nomli dostoniga olti ming misraga yaqin she`r kiritilgan. Bu kitobdagi asosiy g`oya ham inson erkiga bag`ishlangan bo`lib, unda didaktik pand-nasihatlar ham ko`p o`rin olgan. Dostonning birinchi bobi «Shohlar ta`rifi» deb yuritiladi. Bunda shoir Navoiy an`analarini davom ettirib, adolatli hukmdorlar haqida fikr yuritadi.

Turkman klassik adabiyotida didaktika, ya`ni pand-nasihat katta o`rin egallaydi. Ozodiy, Mahtumquli, Mulla Napas singari shoirlar ijodining katta qismini pand-nasihat mavzusidagi asarlardan iborat. Turkman klassik adabiyotining taraqqiy etgan davri XVIII-XIX asrlarga to`g`ri keladi. Chunki bu davrda SHoir SHabondalining «Shoh Bohrom», «Gulu Bulbul», «Xo`jamberdi» kabi dostonlari va ko`plab she`rlari, Ma`rifiyning «Sayful-muluk», «Midhol shamol», «Yusuf va Ahmad», «Davlat er» dostonlari, SHaydoiyning «Qissai Sanobar» kabi dostonlari juda mashhur bo`ladi.

Andalib ijodi turkman adabiyotining rivojida katta rol o`ynaydi. U ko`plab she`rlar va «Layli va Majnun» dostonini yozdi. Bu doston Navoiy asarining syujetini saqlasa-da, unda XVIII asr turkman xalqlarining hayotidagi voqealarni o`zida badiiy aks ettirilgan. U Navoiy asariga nisbatan ancha ixcham, ko`pgina epizodlar tushirib qoldirilgan. Lekin shunda ham doston syujetiga putur etmagan. Layli va Majnun o`rtasidagi she`riy dialoglar, g`azal va masnaviylar bu dostonda mahorat bilan yozilgan.

Shoir bundan tashqari, «Sa`d vaqqos», «Zaynul arab», «Yusuf va Zulayho», «O`g`uznoma» singari dostonlar ham yozgan. 1200 misraga yaqin lirik she`rlari etib kelgan.

Andalib turkman va o`zbek adabiyotining yirik klassigi bo`lib hisoblanadi. 1976 yilda Turkmaniston Fanlar Akademiyasining «Ilim» nashriyoti shoirning lirik she`rlarini alohida nashrdan chiqardi. Kitobga so`z boshi yozgan olim

A.Meredov Andalib haqida yangi ma'lumotlar ham bergan. U shoirning asli vatani Toshhavuz ekanligi, keyin esa Xivaga ko'chib borganligi haqida yozadi. U umrining ko'p qismini Urganchda o'tkazgan. Navoiy ijodidan o'rganib, uning 17 ta g'azaliga muxammas bog'lagan. Shoir she'riyatida mashhur o'zbek shoiri Boborahim Mashrab murabba'larining ham ta'siri yaqqol ko'zga tashlanadi.

Kecha va kunduz seni gezlarman,
Ko'chama-ko'cha seni izlarman.
Har kim yo'liqsa sendan so'zlarman,
Ko'rdim yuzingni, alhamdulilloh.

Shuni ham aytish kerakki, o'z navbatida ko'plab o'zbek shoirlari Andalib ijodidan o'rgandi, uni o'zlariga ustoz deb bildilar. Masalan, Furqat o'zining mashhur «Sayding qo'yaber sayyod» musaddasini Andalibning shu nomli asaridan ilhomlanib yozgan.

Turkman klassik adabiyotining asoschisi Ozodiyning o'g'li Maxtumquli mamlakatda Eron shohlari hukmronlik qilgan davrda yashadi. U Xivada SHerg'ozixon madrasasida ta'lim oldi. Eron qo'shinlari bilan bo'lgan janglarda asir tushib, bir necha vaqt Eronda ham bo'lgan. Maxtumqulining ijodi turkman klassik adabiyotining cho'qqisi hisoblanadi. Hayotning achchiq-chuchugini totgan shoir, ko'p safarlarda bo'ldi. Katta hayot tajribasi, o'zbek va tojik adabiyotini yaxshi o'zlashtirgani sababli, u xalqqa manzur bo'lgan ko'plab g'azallar, ruboiylar, qit'alarni Firog'iy taxallusi bilan yaratdi. Shoir ijodi juda mashhur bo'lganligining sabablaridan biri, unda tasavvuf she'riyatining an'analari mavjudligida edi. Chunki shoir she'rlarida tasavvuf falsafasi g'oyalari targ'ib qilindi. U xalq diliga yaqin bo'lgan ozodlik va erk haqida she'rlar yozdi. Masalan, "Baxt qushi", «Chaqiriq» nomli she'rlari turkman xalqini birlashishga, ularni eron bosqinchilariga qarshi kurashga chorlaydi. Shoirning ko'pgina misralari hikmat darajasiga ko'tarildi. U mehnatkash xalqning noroziligini ifodalagan "Zamonlar", "Axtaradi", "Ko'pning hayoti" kabi asarlar yaratdi. Maxtumquli she'riyatining shuhrati o'zbek kitobxonlari orasida ham keng tarqalgan. Uning ko'pgina she'rlari qo'shiq qilib aytiladi. Tanlangan asarlari bir necha marta nashr qilingin.

Maxtumquli faqat turkman adabiyotining emas, balki barcha turkiy xalqlar adabiyotining faxri hisoblanadi. Uning she'rlari Turkmanistonda qanday e'zozlansa, O'zbekistonda ham xuddi shunday qadrlidir. Shoir she'rlarida tasavvuf falsafasi ma'naviyati kuylanadi. Ayniqsa, naqshbandiylik tariqati g'oyalari Maxtumqulining har bir she'rida uchraydi. O'rta Osiyo turkiy xalqlarining ruhiga mos ohanglar, uning she'riyatini juda mashhur qilib yuborgan. Shoirning «Ko'ring», «Raygon ayladi», «Bo'lmas», «Na'masan», «O'tib boradir» kabi she'rlaridagi pand-nasihat o'quvchiga juda ta'sirli qilib berilgan. Bu she'rlardagi aytilgan fikrlar «Qur'on» va «Hadis»dagi hikmatlarning aks-sadosiday jaranglaydi.

Kimlar toju taxtda farmonlar bitib,
Kimlar saman minib, yo'llarni o'tib,

Kimlar padarini, elin xor etib,
Gunoh zindoniga botib boradir...

Maxtumquli, kimsa dashtlarda sarson,
Kimsa aylar bo'ldi zolimdek farmon,
Kimlar bu dunyoda chekadi armon,
Kimlar xandon bo'lib o'tib boradir.

Ko'rinib turibdiki, bu misralarda davr va shaxs o'rtasidagi ziddiyatlar orqali hukmdorlarni, zolimlarni insofga chaqirmoqda. Shoirning ijodida bunday mazmundagi she'rlar anchagina bo'lib, ularda oddiy turkman xalqining orzu-umidlari, o'y-xayollari, kelajak haqidagi shirin xotiralari o'z aksini topadi. Vatanparvar shoir ijodi el-yurt dardi bilan hamohang bo'ldi. Adolatli hukmdorlar, insofli boshliqlar yurtni himoya qiladi, elni turli g'alamislarga talatgani qo'ymaydi. Agar boshliqlar noinsof bo'lib, ular faqat o'z manfaatini o'ylasalar, ishi-dardi pora olib, xalqni xonavayron qilsalar qiyomat degani shu bo'ladilar.

Shohlarda qolmadi hukmi adolat,
Bir pul uchun mufti berar rivoyat,
Bil, bu ishlar nishonayi qiyomat,
Zolimlar betavba o'ta boshladi.

Maxtumqulidan sal oldinroq yashab o'tgan mashhur o'zbek shoiri Turdi Farog'iy o'zbeklar yurtidagi bosh-boshdoqchilik, parokandalik, o'zaro kelishmovchiiklarni qattiq qoralab:

Tor ko'ngullik beklar man-man demang, kenglik qiling,
To'qson ikki bari o'zbek yurtidur, tenglik qiling,
deb xalqni birlashishga, inoq, ittifoq bo'lib yashashga chaqiradi.

Bundan sal keyinroq yashagan Turkman shoiri Maxtumquli Firog'iy esa o'zining «Turkman binosi» she'rida xuddi Turdi she'riga hamohang she'r yozib turkman urug'larini birlashishga chaqiradi.

Taka, yovmut, yazir, go'klang, ahal eli bir bo'lib,
Gar qilsa bir joyga yurish, ochilar gullolasi.

Bundan shu narsa ma'lum bo'ladiki, bu davrda Markaziy Osiyoda yashayotgan turkiy millatlarda o'z-o'zini anglash tushkunlik davridan o'zini o'nglab olishga intilishga harakat kuchaya borgan.

Turkman adabiyotining XVIII asrdagi yana bir yirik vakili Qurbonali Ma'rufiy hisoblanadi. Shoir haqida uning asarlarida ayrim ma'lumotlar bor. Ana shu ma'lumotlarga qaraganda shoir Mang'ishloq, Kerki, Xiva va Urganch kabi joylarda yashagan, o'qigan. Uning she'rlaridan, dostonlaridan ma'lumki, shoir arab va fors tillarini mukammal bilgan, o'z davrining etuk ziyolilaridan bo'lgan. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda Ma'rufiy davlatning harbiy boshliqlaridan biri bo'lgan, uning urug'i «Emirat» deb nomlanishiga qaraganda shoirning avlod-ajdodlari ham yuqori tabaqa harbiylaridan bo'lgan.

Shoir «Davlatyor» nomli dostonida o'zbeklarning qo'ng'iroq urug'idan bo'lgan harbiy arbob Davlatyor haqida yozgan. Davlatyor yoshligida turkmanlar

ichida voyaga etgan. Ma`rufiy bilan yaqin do'st bo'lgan. Davlatyorning boshidan o'tgan voqealar, uning dushmanlar bilan urushda ko'rsatgan jasoratlari o'z tilidan hikoya qilingan.

Shoirning «Turg'unxo'ja» dostonida esa To'xtamishxon davrida bo'lib o'tgan voqealar, podsho saroyidagi turli intrigalar haqida hikoya qilinadi. Uning qahramonlik dostonlaridan biri «Yusuf va Ahmad» bo'lib, bunda Isfahon viloyati hokimi Bo'z o'g'lon jiyanlari Yusuf va Ahmad bilan kelishmay qoladi. Keyin jiyanlari Xorazmga o'z qavmi bilan ko'chib keladi. Xorazm xoni G'azalshoh ularni yaxshi kutib oladi, ikkovini ikki viloyatga hokim qilib qo'yadi. Lekin o'rtada turli gap etkazuvchilar bularning munosabatiga rahna soladi. Keyin shoh ularni zindonga tashlaydi. Ular etti yil zindonda yotadi va bir balo qilib, u erdan qochib chiqadi. Ular yurtiga borishadi. Xotinlari bularni o'ldi hisoblab, boshqaga turmushga chiqayotganligining ustidan chiqadi. Keyin ular xalqni yig'ib G'azalshohga hujum qilib, uni engadi. Zindonda yotgan donishmand qariya Boboqambarni ozod qiladi. Bu dostonning o'zbeklarda folklor varianti ham bor.

XVIII asr oxiri XIX asr boshlarida yashab ijod etgan turkman shoirlari Saidiy, Miskin Qilich, Zeliliy kabi shoirlar Maxtumquli an`analarini davom ettirdi.

Turkman adabiyotining XIX asrdagi yirik vakillaridan biri Mo'llanapas bo'lib, uning ijodi XIX asrning birinchi yarmiga to'g'ri keladi. Shoir ijodida xalqning chekkan og'ir turmushi, ocharchilik, kambag'allikning mashaqqatlari o'z aksini topgan. Mullanapas turkman xalqining eron bosqinchilariga qanday urush olib borganligini o'z she'rlarida mahorat bilan ko'rsatadi. Turkman poeziyasiga ijtimoiy motivlarni kiritdi, xalq qo'shiqlariga yaqin vaznda she'rlar yozdi. Dialog tarzidagi aytishuvlar ham shoir she'riyatida anchaginadir.

Mullanapasning ukasi dong'i ketgan baxshi bo'lgan. Uning repurtuarida ko'plab xalq dostonlari bo'lgan. Mullanapas ham ba`zan qo'liga soz olib, minglab misralarni kuyga solib xalq orasida kuylab yurgan.

Shoirning «Gelmisham» dostonida dunyoviy sevgining hamma narsadan ustun ekanligi aks ettirilgan. Bu lirik dostonda bir ajoyib go'zal qiz bilan Napas nomli o'smirning haqiqiy pokiza muhabbati kuylangan. Qizning jonini olish uchun samodan tushgan farishta Azroil uning go'zalligi, ma'sumaligini ko'rib, bu ishni bajarmay qaytadi. Bundan g'azablangan Xudo boshqa bir farishtani yuboradi. U ham bu ishni bajarishga ko'ngli bo'lmaydi. Keyin Xudo bu ishni bajarishga ko'plab uz noiblarini, yaqinlarini yuboradi. Lekin bularning barchasi bu ishlarni bajarishni rad qiladi. Hatto Luqmoni hakim ham bu masalada xudoning aytganini qilolmasligini bildiradi. Shundan keyin Xudoning o'zi Arshi a'lodan tushib, bu qizni ko'rib, uning husni va malohatiga qoyil qoladi. Unga uzoq umr, baxt saodat, sevgi-muxabbat baxsh etadi. Bu bilan shoir haqiqiy insoniy, pokiza muhabbatni targ'ib qiladi.

Shoirning «Bobo Ravshan» va «Zuhra va Tohir» kabi dostonlari ham katta mahorat bilan yozilgan. «Zuhro va Tohir» dostoni esa, o'zbek dostonlaridan shu nomli doston syujetiga o'xshasa-da, undan o'z originalligi bilan farqlanadi. Doston oxirida Tohir-Zuhrolar Alloh qudrati bilan tirilib, dushmanlarga qarshi kurashadi va maqsadlariga etadi. Bu bilan shoir pok dunyoviy sevgi o'lim ustidan

g'alaba qilganligini ko'rsatib berdi. Umuman shoir asarlarida optimistik ruh ustun turadi.

Shu davrda yashagan turkman shoirlaridan biri Kaminadir. U ajoyib lirik va satirik she'rlar muallifi sifatida turkman adabiyoti tarixida iz qoldirgan. Uning she'rlari xalq orasiga shu qadar singib ketdiki, natijada ular xalq og'zaki ijodiga aylanib ketdi. Kaminaning nomi Mashrab, Nasriddin Afandi nomiga o'xshab turli rivoyatlarning, latifalarning bosh qahramoniga aylanib qoldi. U xalq latifalarida tadbirkor, dono, qahramon sifatida gavdalanadi. Shoir o'z davrining turli illatlarini, poraxo'r va tovlamachi amaldorlarni, ruhoniylarni qattiq tanqid qiladi. Ma'lumki, shoirning asli ismi Muhammad Vali bo'lib, «Kamina» uning taxallusidir. Bu «kamtarlik, kambag'allik» kabi ma'nolarni anglatadi. U Buxoro va Xiva madrasalarida o'qigan, lekin yo'qchilik tufayli tahsilni oxiriga etkaza olmagan. Shoir o'z umr yo'ldoshi Qurbonbaxt vafoti munosabati bilan yozgan marsiyasida juda og'ir hayot kechirlanligini ham aytib o'tgan. Buni shoir «G'ariblik» nomli she'rida ham tasdiqlagan:

Qashshog'ligim yildan yilga avj olar,
G'aribning yuziga kim kulib boqar.
CHopishsam, bahslashsam, kurashsam yiqar,
O'ynashsam, o'yinda yutar g'ariblik.

Kamina der: bir kuni kelar shum o'lim,
Birovga to'y, bayram, birovg'a zulm.
Qayg'urma, injilma, sabr ayla ko'nglim,
Kelibdir, bir zamon o'tar g'ariblik.

SHoir turkman adabiyoti tarixida kuchli satirik shoir sifatida mashhurdir. Uning ko'plab she'rlarida o'zi yashagan davrning illatlari, adolatsiz tuzum, pastkash amaldorlar qattiq tanqid qilingan.

Kamina yaratgan asarlarning yana bir qismi ishqiy-intim xarakterga ega. Shoir bu she'rlarida o'zidan oldingi o'tgan turkman shoirlarining an'anasini davom ettirdi. Ayollardagi vafodorlik va sadoqatni kuyladi, ularni oilaning baxti, xonadonning sultoni deb atadi. Shoirning «Urgulay», «Yaxshi kelin», «Yonimga» she'rlari fikrimizning isboti bo'la oladi.

Keldi qalam qoshli yor,
Ishva bilan yonima.
Kipriklari damba-dam,
Nashtar tiqar jonima.

Men dedimki: «Jon talash,
Ko'zdan oqar qonli yosh.
Boqmading-ku, bag'ri tosh,
Xoli parishonima!»

SHoirning shunga o'xshash ko'plab she'rlariga kuy bastalanib, ular o'zbek xofizlari tomonidan ham ijro etilib kelinmoqda. Shoirning nomi bilan bog'liq

xalq orasida ko'plab latifalar ham mavjud. Bular Mashrab, Mushfiqiy haqida to'qilgan latifalar bilan bir qatorda turadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod etgan shoir Miskin Qilich 8 yil Buxoro madrasasida ta'lim olgan, fors va arab tillarini chuqur o'rgangan, o'z davrining savodli ziyolilaridan biri edi. U o'qituvchilik qildi. Turkman folkloridan ko'plab dostonlarni yoddan aytib, xalq o'rtasida baxshi sifatida ham mashhur bo'ldi.

Miskin Qilich G'oyibberdi nomli etim bolani o'z qaramog'iga olib, unga dutor chalishni, baxshilikni o'rgatdi. Ana shu yigit shoirning she'r va dostonlarini yozib qoldirgan va Turkmanistonga keng yoyilishiga sababchi bo'lgan. Miskin Qilichning «Botir Napas», «Bekzoda Qurbon» kabi asarlarida o'zaro urushlarda vafot etgan xalq qahramonlarining sarguzashtlari tasvirlangan. Shoirning «Ali» nomli dostoni ham keng tarqalgan bo'lib, unda xalq orasida o'zining jasurligi va mardligi bilan mashhur bo'lgan qahramon obrazi berilgan. Uning she'rining ko'pchiligi pand-nasihat mavzusida yozilgan. Bu she'ri bilan shoir Maxtumquli an'analarini yangi davrda davom ettirdi.

Shunday qilib, turkman klassik adabiyoti o'z milliy xususiyatlariga xos tarzda rivojlandi. Bu adabiyot namunalariga e'tibor berar ekansiz, ularda oddiy turkman xalqining og'ir va murakkab hayoti qanday kechganligining guvohi bo'lasiz.

Turkman klassik adabiyoti asarlari asosan didaktik asarlardan iborat ekanligini ko'rib o'tdik. Ma'lumki, turkman ijodkorlarining ko'pchiligi Buxora va Xiva shaharlaridagi madrasalarda o'qigan. Ular o'zbek xalqi bilan tarixda yonma-yon va aralashib yashagan. Shuning uchun turkman adabiyotida o'zbek adabiyotining an'analari salmog'i ancha kattadir. Arab alifbosining barcha turkiy xalqlarga bir bo'lganligi sababli ham o'zbek va turkman tilida yozilgan asarlar har ikki xalq vakillariga tushunarli bo'lgan. Masalan Mahtumquli asarlarini o'zbeklar o'zbekcha, turkmanlar turkmancha o'qiy bergan. Turkmaniston territoriyasida madrasalar kam bo'lganligi tufayli xalqning katta qismi savodsiz bo'lgan. Shuning uchun turkman ijodkorlari o'z asarlarini ataylab xalq og'zaki ijodi asarlariga yaqin qilib yozdilar. Ular asosan pand-nasihat, diniy-ma'rifiy mavzularda bo'lib, qo'shiq qilib aytishga mo'ljallangan asarlar edi. Turkman klassik dostonlarida ham didaktika, qahramonlik mavzulari etakchilik qiladi.

Turkmaniston Rossiyaga qo'shib olingach, ayrim joylarda rus-tuzem maktablari ochildi. 1914 yilda turkman tilida birinchi gazeta chiqa boshladi. Lekin bu yangiliklar asosan shaharda yashovchi aholi uchun qilingan edi. Vaholanki, o'sha paytda Turkmanistonning shaharlarida asosan ruslar, armanlar, tatarlar va fors tilida so'zlashuvchi xalqlarning vakillari yashardi.

Turkmanlar asosan qishloqlarda yashab, o'zlarining qadimgi ko'chmanchilik hayotini davom ettirar edi. Chor hukumati ataylab maorif sohasida mahalliy xalqning ichki ishlariga aralashmaslik siyosatini olib bordi. Shuning uchun Evropa madaniyati, ilm-fan, texnika yangiliklari turkman qishloqlariga juda sekinlik bilan kirib bordi.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida turkman adabiyotining taraqqiyotida demokratik yo'nalishdagi ijodkorlar etishib chiqdi. XX asrning boshlaridagi ijtimoiy-tarixiy voqealar turkman adiblarining ham ijodiga sezilarli ta'sir etgan edi. Bu davr adabiyotining yirik vakillariga Miskin Qilich, Bayram SHoir, Ko'rmullo, Mullo Murt, Durdi Qilichlarni ko'rsatish mumkin. Bu shoirlar ham asrlar davomida ezilib kelayotgan turkman xalqining ozodligini istar edi. Shuning uchun bular turli revolyutsiyalar va to'ntarishlarga umid ko'zi bilan qaradi. Bolsheviklarning yolg'on va dalariga ishondi. Ularga atab she'rlar yozdi. Ammo bu davr she'riyatida ham turkman shoirlari ozodlik va erkni kuylaydi. Zolim ekspluatatorlarni esa qoralab, ularga xalqning nafratini qaratishga intildilar. Durdi Qilichning "Zolimlar", "Kambag'allar", Mullo Murtning "Turkmaniston uchun azizsan", "Ozodlik" kabi asarlari shular jumlasidandir.

20-yillar turkman adabiyotida poeziya etakchi o'rinni egallagan edi. Chunki ijtimoiy hayotdagi bo'layotgan voqealarni ijodkorlar his-hayajon bilan qabul qilib, ularga darhol o'z munosabatlarini bildirar edi. Bunday paytda ijodkorlarga poeziya juda qo'l keladi. Turkman adabiyotiga yangi avlod shoirlari, yosh ijodkorlar kirib keldi. Ular turkman adabiyoti tarixida birinchi bo'lib realistik san'atni shakllantirishda ishtirok etdi. Bu davrda dastlabki Turkman prozasiga asos solindi. Berdi Kerboboev va A.Durdievlar o'zlarining birinchi hikoya va povestlari bilan proza janriga katta hissa qo'shdi. Alamishevning "Sona", B.Kerboboevning "Qizlar dunyosi", "Odatning qurboni" singari dostonlari ham klassik adabiyotdagi dostonlardan farqli o'laroq, realistik metodda yozilgan birinchi dostonlardan edi. Ana shu yillarda turkman dramaturgiyasiga ham asos solindi. Yozuvchi Ota Kavshutov "Zakaspiy fronti" pesasi bilan turkman adabiyotidagi dramaturgiya janrini boshlab berdi. 30-yillar adabiyotida ham poeziya birinchi o'rinda turdi. O.Kekilovning qishloq xo'jaligini kollektivlashtirishga bag'ishlangan "Olg'a", B.Saitakovning Turkmanistondagi fuqoralar urushini tasvirlovchi "O't ichida", R.Saidovning chet el mavzusida yozilgan "Revolyutsiya yo'lida" kabi dostonlari diqqatga sazovor asarlar bo'lib qoldi.

Bu davrda yaratilgan prozaik asarlar ham turli mavzularda yozilgan. Ayniqsa, zamonaviy temada yozilgan, eskilik va yangilik o'rtasidagi kurashni tasvirlovchi asarlar ko'proq e'lon qilindi. Og'axon Durdievning "Mered", "Er ustalari". "Baxtiyorlar" singari hikoyalari G'arb adabiyotidagi novella janri uslubida yozilgan ajoyib asarlar sifatida tarixda qoldi. Bu qisqa va mazmunli hikoyalarda turkman xalqining hayoti badiiy lavhalarda ishonarli qilib tasvirlab berilgan. O.Durdievning "Balli mullo" hikoyasi hajviy asar bo'lib, u bizga o'zbek adabiyotidagi A.Qodiriyning "Kalvak Maxzum"ini eslatadi.

Yozuvchi N.Sarixanov esa o'z ijodida buyuk rus yozuvchilari A.P.CHexov va M.Gorkiy asarlaridan ijodiy foydalandi. Yozuvchining "Orzu". "Oq uy", «Shirin», "Kuyov" va "Boyning g'azabi" hikoyalari ham yuksak badiiy saviyada yozilgan asarlardir. Bu hikoyalar hajmi jihatidan qisqa va ammo badiiy tomondan pishiq ishlangan, ularda ishtirok etgan ikki uch obraz kichik bir badiiy lavha orqali chuqur ma'noni ifodalaydi. N.Sarixanov "SHukur baxshi" povestida tarixiy

mavzuga murojaat qilib, turkman xalqining boshidan o'tgan og'ir tarixiy davrlari aks ettirilgan.

Yozuvchi kichik-kichik novellalari bilan adabiyotda bu janrning rivojiga, qaror topishiga o'z hissasini qo'shdi. Yozuvchining «Kitob» nomli hikoyasida turkman xalqini o'tmishi qalamga olingan. Xalqning ma'rifatga intilishi, og'ir turmush tufayli ularning ko'pchiligi savodsiz bo'lganligi hamda bularning asosiy sabablari ta'sirchan qilib ko'rsatilgan. Hikoyada bir savodsiz cho'pon bozorga boradi. U erda bir kishi baland ovoz bilan Mahtumqulining she'rlarini o'qib turganligini ko'radi. Bu she'rlar unga qattiq ta'sir qilib guyoki uning o'zi haqida yozilganday tuyuladi. Keyin kitobni qanday bo'lmasin sotib olishga harakat qiladi. Nihoyat bozorga minib kelgan tuyasiga almashtiradi. Uyga kelganda xotini unga kitobni o'qiy olmaysan nega olding? –deb janjal ko'taradi. Ana shu cho'pon Mahtumqulining qo'l yozma kitobini 40 yil avaylab saqlaydi. Keyin uning nabirasi bu kitobni unga o'qib beradi. CHol kitobda yozilgan xikmat she'rlarning barchasini yodlab oladi. Bu hikoyada oddiy turkman xalqining ma'rifatga intilishi ko'rsatilgan.

Yozuvchi “Shukur baxshi» qissasida ham tarixiy mavzuga murojaat qilgan. XIX asrda yashab ijod etgan SHukur baxshi xalq o'rtasida juda mashhur bo'lgan. Uning ukasini xon zindonband qiladi. Shoir ukasini ozod qilishini xondan juda yalinib so'raydi. Lekin xon unga saroyning chechan baxshisini aytishuvda engsang, ukangni ozod qilaman deb shart qo'yadi. Bu musobaqada Shukur baxshi g'olib chiqadi va ukasini zindondan ozod qiladi.

Nurmurod Sarixonov zamonoviy mavzularda ham .Shirin», «Orzu», «So'nggi o'tov» kabi ajoyib hikoyalar yozgan. Afsuski, yozuvchi urushda vafot etib, uning ko'pgina ijodiy rejalari amalga oshmay qoldi.

XX asrning 30-yillarida yangi turkman adabiyotining shakllanish davri bo'ldi. Bu davrda turkman klassik adabiyotida bo'lmagan badiiy janrlar – dramaturgiya, realistik proza va boshqa ko'plab badiiy janrlar shakllanib, takomillashib bordi. Bu davrda turkman adabiyotining taraqqiyotiga Hoji Ismoilov, Shali Kekilov, O'roz Toshnazarov singari yozuvchilarning ham hissasi katta bo'ldi.

30-yillarda turkman adabiyotida realistik prozaning shakllanish davri bo'ldi. Tarixiy va zamonaviy mavzuda ko'plab qissa va romanlar yaratildi. Turkman adabiyotining faxri bo'lgan B.Kerboboevning “Dadil qadam” romani ham shu davrda yaratildi. Shu yillarda Turkman adabiyotida dramaturgiya janri ham shakllandi. Bu davr dramaturgiyasida agitatsion xarakterga ega bo'lgan mavzular ko'proq yoritildi. A.Karlievning “Oyna”, O.Kavshutovning “Juma”, T.Esanovanning «Shemshat» kabi pesalarida ijtimoiy hayotdagi turli voqealarning badiiy tasviri ifodalandi.

30-yillar turkman adabiyotida qishlolq xo'jaligi, xotin qizlar huquqi, madaniy inqilob, ishlab chiqarish mavzulari etakchilik qildi. Bir qancha turkman ijodkorlari, ziyolilari 1937 yilgi reprissiya qurboni bo'ldi. Ularning nomlari va yozgan asarlari faqat Turkmaniston mustaqillikni qo'lga kiritgandan keyingina oqlandi.

YAngi turkman adabiyotining asoschilaridan yana biri Xo'janapas Chorievdir. Bu ijodkor hammasi bo'lib 31 yil umr ko'rdi. Yoshligida vabo kasali tufayli onasi o'lib etim qolgach, hayotning og'ir damlarini boshidan kechirgan X. Choriev Toshkentda o'qidi, keyinchalik «Turkmaniston» gazetasining bo'lim boshlig'i, 1934 yilda esa Turkmaniston yozuvchilar uyushmasining raisi vazifalarida ishladi. U xalqaro mavzularda ham ko'plab asarlar yozdi. Adibning «Qoraqum saxrolarida» nomli dramasi o'sha davrning dolzarb masalalariga bag'ishlangan edi. U albatta bolsheviklar siyosatini yoqlab chiqdi. Lekin o'z asarlarida hayot haqiqatini to'g'ri yoritishga intildi. X.Choriev «Zuxra va Toxir» dostoni asosida turkman adabiyoti tarixida birinchi marta muzikali drama yozdi. Bundan keyingi yaratilgan muzikali dramalarda ana shu asarning an'analari davom etdi.

Urush yillarida turkman adabiyotida publitsistik poeziya janrida ko'proq asarlar yaratildi. Ijodkorlar asosiy e'tiborni front va front ortida bo'layotgan voqealarga qaratdi. B.Kerboboevning «Aylar», YA.Nasrlining «Leytenantning o'g'li», Sh.Kekilovning «Ivan tog'a» kabi dostonlari ham bevosita urush mavzusiga bag'ishlandi.

Ikkinchi jahon urushi davrida ko'plab turkman ijodkorlari frontga ketdi. Bulardan Shali Kekilov, N.Sarixanov, Ata Niyazov kabidar urushda halok bo'lishdi. Bu davr turkman adabiyotida publitsistik ruh, jangovar poeziya etakchilik qildi, O'sha davrda sobiq Ittifoq yagona vatan hisoblanardi. Ana shu vatanga hujum qilgan fashistlarga nafrat uyg'otish, ularga qarshi kurashga chorlash butunittifoq adabiyotining eng dolzarb vazifasi qilib qo'yildi. Qora Seytaliyevning «Frontdan maktublar», «Pogonli qizlar», «Hamshiralar» kabi she'rlarida front va front orqasidagi kishilarning ruhiy dunyosi aks ettirilgan. Raxmat Saidovning «Yigitlar qo'shig'i», «Kuzatish», «Samo ovchisi» kabi she'rlarida ham g'alaba uchun kurash, xalqlar do'stligi kabi mavzular kuylangan. Uning «Vatanparvarlar», «Azatgul» kabi dostonlari ham shu davrda e'lon qilindi. «Vatanparvarlar» dostonining qahramoni turkman yigiti uchuvchi Qurbon fashistlar ustiga bomba yog'dirib ularning ko'pchiligini qirib tashlaydi, lekin o'zining samoliyotiga o'q tegadi. U yonayotgan samolyotdan parashut bilan sakrab dushman territoriyasiga tushadi. U erda ham ko'plab nemislarni qirib tashlaydi. Nemislarning aerodromiga borib 23 ta fashist razvedkachilarini asirga olib, ularning samolyoti bilan o'z polkiga qaytib keladi. Albatta voqealarning bu tarzda tasviri bizga qandaydir boevik-fantastik filmlar syujetini eslatadi. Bu esa o'quvchini unchalik ishontirmasligi aniq. Chunki, asar qahramoni bu jasoratlarni hech qiynalmasdan asoyishta bajaradi. Go'Yoki, nemislar agar Qurbon kelsa, asirga tushamiz deb uni kutib turganday.

Ma'lumki, Omon Kekilov ham turkman adabiyotining yirik vakili bo'lib, ijodini urushdan oldingi yillarda boshlagan. Uning urush davri ijodida «O'lim changalida» nomli poemasi juda mashhur bo'ldi. Bunda turli millat vakillari bir bo'lib dushmanga qarshi kurashgani ko'rsatilgan.

Front orqasidagi hayot tasviri Ata Kovshutovning «Ovchi Qandimning oilasi» nomli hikoyasida va urush yillari eʼlon qilingan «Mehri va Vafo» romanida tipik xarakterlar orqali mahorat bilan berilgan.

Urushdan keyingi davrda turkman adabiyotida proza janri etakchi oʻringa koʻtarildi. Bu davrda B.Kerboboevning “Dadil qadam” romanining ikkinchi qismi, “Nebitdog”, O.Kavshutovning “Kopetdog’ yon bag’irlarida” romanlari; B.Seytakovning “O’g’ilning sovg’asi”, “Zamondoshlar”, X.Ismoilovning “Ikki otaning o’g’li” povestlari yozildi.

Urushdan keyingi davr turkman adabiyotida asosan tinch qurilish davri voqealari tasvirlandi. Qoraqum sahrosini oʻzlashtirish, Amu-kanalini qurib bitirish kabi mavzular adabiyotda etakchilik qildi. Shu bilan birga, bu davr turkman adabiyotida «Konfliktsizlik nazariyasi» hukmron boʻldi. Hayotdagi voqealarni buyab, boʻrttirib, faqat uning yaxshi tomonlarini koʻrsatish, butun dunyoga sotsialistik tuzumning afzal ekanligini targʻib qilish badiiy adabiyotning asosiy maqsadi qilib qoʻyilgan edi. Albatta, bunday siyosat maʼlum darajada adabiyotning sifatiga, rivojlanishiga salbiy taʼsir qildi. Qariyb barcha ijodkorlar partiya va hukumatning chiqargan qarorlarining targʻibotchisiga aylanib qoldi. Lekin shunga qaramasdan, bu davr turkman adabiyotida hayotni toʻgʻri, haqqoniy tasvirlashga intilish ham koʻzga tashlanadi. Oddiy mehnatkashning uy-xayollarini, orzu-maqsadlarini tasvirlashda ijodkorlar katta yutuqlarni qoʻlga kiritdi.

Masalan, ota Kovshutovning «Kopetdog’ yonbag’irlarida» nomli kitobi 1952 yilda alohida kitob holida nashr etildi. Bunda urushdan keyingi turkman qishloqlarida xoʻjalikni tiklash asosiy mavzu qilib qoʻyilgan. Roman bosh qahramoni Xushgeldi aqlli, tadbirkor yigit. U urush qatnashchisi, oliy maʼlumotli agranom, ilm-fan bilan qurollangan yigit. U kolxozda ekinlarga yangi texnologiyani joriy qilmoqchi boʻladi, lekin kolxoz raisi tomonidan qattiq qarshilikka uchraydi. U asta – sekin tushintirish yoʻli bilan raisni qayta tarbiyalaydi. Lekin romanda bosh qahramonning ichki kechinmalari, ruhiy holatlari yuzaki chiqqan joylar ham bor. Masalan, Xushgeldi bilan Boqar oʻrtasidagi muhabbat tasvirida yuzakilik va sxematizmga yoʻl qoʻyilgan. Bu asar koʻp jihatdan oʻzbek yozuvchisi Oybekning «Oltin vodiidan shabadalar» romaniga oʻxshab ketadi.

Ota Kovshutovning «Eski maktab» nomli hikoyasida qadimda el – yurtning koʻpchiligi nima uchun savodsiz boʻlgan degan savolga javob izlanadi. Adibning «Soʻngi oqsoqol» nomli kitobi ham oʻtmish mavzusida yozilgan.

50-60 yillar turkman poeziyasining rivojlanishida Omon Kekilovning ham hissasi katta boʻldi. Uning «Muhabbat» nomli dostonida mumtoz adabiyot anʼanalarining yangi zamondagi davomini koʻramiz. Dostonda Oqmurod nomli yigit Moskva davlat universitetini va aspiranturani tugatgan. Urushdan yarador boʻlib qaytadi. Oqmurod qishlogʻiga kelib, yosh oʻqituvchi ayol Oʻgʻilnabatni yaxshi koʻrib qoladi. Lekin Oʻgʻilnabatning eri frontda jang qilayotir. Bu ayol hech qachon oʻz eriga xiyonat qilmasligini Oqmurodga aytadi, uni intizor boʻlib kutayotganligini bildiradi. Eri Beginch urushdan yarador boʻlib qaytib keladi.

O'g'ilnabat baxtli yashaydi, farzandli ham bo'ladi. Lekin urushda olgan jarohatlarning zo'rayishi tufayli uning eri Beginch vafot etadi. Beginchning hayotini o'g'li davom ettiradi. O'g'ilnabat albatta o'z baxtini yana topadi, degan falsafiy g'oya asar yakunida ta'kidlangan. Ana shunday voqia Ch.Aytmatovning «Jamila» qissasida ham berilgan. Lekin bu qissada asar qahramonlari taqdiri boshqacharoq hal qilingan.

Ma'lumki, Omon Kekilov (1912-1974) Turkmanistonning katta jamoat arbobi, mashhur olim, serqirra ijodkori edi. U Turkmaniston madhiyasining muallifi, o'nlab she'riy to'plamlar e'lon qilgan hassos shoir edi. Omon Kekilov turkman adabiyotshunosligining yirik vakili, filologiya fanlari doktori edi. U «Adabiyot nazariyasi» nomli darslikning muallifi edi. U bolalar uchun ham ko'plab ertak-poemalar yozgan talantli shoir edi. Uning bolalar uchun atab yozgan «Cho'pon va podshoh» nomli poemasi juda ko'p chet tillarga tarjima qilingan. O.Kekilov Turkmaniston xalq yozuvchisi unvoniga, Maxtumquli nomidagi mukofotlarga sazovor bo'lgan edi.

XX asrning ikkinchi yarmida turkman adabiyoti sifat jihatidan o'sdi, turli janrlarda ijod qilindi. Avval turkman adabiyotida poeziya etakchilik qilgan bo'lsa, bu davrga kelib birinchi marta proza oldingi o'ringa chiqib oldi. Adabiyotda tajribali, keksa ijodkorlar bilan birgalikda, yosh talantlar ham qalam tebratdi. Bu davr turkman adabiyotida B.Karbobaev, Beki Seytakov, Xidir Deryaev, Qilich Quliev, Ota Otajonov, Rahim Esonov, Chori Ashurov singari ko'plab ijodkorlar yashab ijod etdi.

60-70-yillar turkman adabiyotida turli janrlarda ko'plab asarlar yaratildi. Lekin bu asarlarning ko'pchiligi kommunistik mafkura ruhida yozilgan edi. Shunga qaramasdan, bir qancha asarlarda turkman xalqi hayoti obektiv, to'g'ri yoritildi. B.Korbobaevning «Tomchida quyosh aksi», «Davr o'g'loni», X.Deryaevning «Qismat», «Bo'ron», B.Seytakovning «Shoir», «Badirkent», Q.Qulievning «Qora karvon», «Amir elchisi» asarlari o'z davrida katta shuhrat qozondi.

Berdi Qarbobaev (1894-1974) Turkmanistonning Tejen tumanida tug'ilgan. Eski maktab va Buxoro madrasalarida o'qigan, 1927-1928 yillarda Leningrad Sharqshunoslik institutida tahsil oldi. Uning ijodi 20-yillarning o'rtasidan boshlandi. Birinchi asari «Yana ich» nomi bilan bosilib chiqqan hajviy feleton edi. Keyin u «Inglizlar yotib otadi» nomli hajviy she'rini yozdi. Bunda ingliz imperialistlarining Turkmanistonda olib borgan siyosati tanqid qilingan. 1925 yili u «To'qmoq» nomli satirik jurnalga muharrir etib tayinlandi. Uning ijodi davr voqealari bilan hamohang tarzda rivojlandi. Xotin-qizlar ozodligiga bag'ishlab «Qizlar dunyosi», «Odatning qurboni» nomli dostonlar yozdi. Turkman dehqonlari hayoti haqida yozilgan «Amudaryo» nomli dostoni ham katta shuxrat qozondi. Bunda saxroda suvsizlikdan vafot etgan va Amudaryoda suvga cho'kib o'lgan ikki kishi obrazi keltiriladi. Shoir ana shu ikki voqeadan xulosa chiqarib, Amudaryoni sahroga burib xalqning turmushini yaxshilash kerak degan g'oyani ko'tarib chiqdi.

U 1926 yilda «Giyohvand va tabib», «Yuksalishda» singari dramalar yozdi. Bu dramalarda adib giyohvandchlikning insoniyat uchun juda xavfli ekanligini o'sha davridayoq aytgan edi. Ma'lumki, bu mavzu bugungi kunda ham eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Uning Ikkinchi jahon urushi yillari yozilgan «Maxtumquli» dramasi o'zining badiiy etukligi bilan nihoyatda mashhur bo'ldi. Bu drama hozirgacha turkman teatri repertuarlarining oldingi safida turadi. Ana shu yillari adib «Qurbon Durdi» nomli povest yozib, unda urushda mardlik va jasorat ko'rsatib qahramon bo'lgan turkman yigitining hayot yo'li haqida yozadi. Bu davrda uning «Aylar» nomli poemasi ham nashr etildi. Bunda turkman ayollarining urush davridagi hayoti aks ettirilgan.

Berdi Qarboboevning nomini dunyoga mashhur qilgan asari «Dadil qadam» romanidir. Adib bu asar ustida qariyb 20 yil ishladi. Bu asar dastlab 1936 yilda «Oyna va Ortiq» nomi bilan matbuotda ayrim parchalari bosilib chiqqan edi. 1940 yil romanning birinchi qismi alohida kitob shaklida nashr etilgan.

Asar bosh qahramonlari oddiy turkman yigiti Boboli Ortiq va uning sevgilisi Oynadir. Turkmanistonda XX asrning birinchi choragida yuz bergan tarixiy voqealar romanga asosiy material qilib olingan.

Ma'lumki, bu davr turkman xalqi hayotida katta burilishlar va o'zgarishlar davri bo'ldi. Birinchi jahon urushi, Oktyabr inqilobi, fuqoralar urushi, ingliz intervensiyasi, bolsheviklar hukmronligi-ana shularning barchasi romanda o'ta mahorat bilan tasvirlangan. Bolsheviklar siyosati tufayli bitta xalqning, millatning boy va yo'qsilga, ya'ni ikkiga ajralib o'zaro urush olib borishlari tasvirlangan. Asarda Xolnazarboy boshchiligidagi yuqori tabaqa vakillari va Ortiq, Amirlar boshchiligidagi mehnatkash xalq vakillari o'rtasida kurash ketadi. Adolat uchun, ozodlik va erk uchun kurashganlar roman finalida engib chiqadi. Mamadvali xo'ja, Mered, Azizxon, Ivan Cherneshiev singari turli toifa vakilari romanning asosiy obrazlarini tashkil etadi.

Adibning «Oysulton» 1249 povestida qishloq temasi qalamga olinib, unda paxtakorlar hayoti Oysulton nomli mehnatkash ayol obrazi orqali ko'rsatilgan. Paxta etishtirishdagi qiyinchiliklar, Turkmanistonning murakkab obi-havo sharoitida mehnatda ibrat ko'rsatgan dehqonlar obrazlari boshqalarga o'rnak qilib ko'rsatiladi. Bu asarda Begich va Chori kabi obrazlar ham yaxshi chiqqanligi tanqidchilikda ta'kidlab o'tilgan.

Berdi Kerboboevning «Nebitdag» nomli asari esa turkman ishchilar sinfining shakllanishiga bag'ishlangan. 30-yillarda Turkman tuprog'ida neft qazib chiqarishga kirishildi. U paytlari sonoat qurilishida, neft qazib chiqarishda mahalliy millat vakillaridan ishchilar juda kam bo'lgan. 50-yillarga kelib esa turkman millati vakillari ham neft qazib olish ishlariga faol ishtirok eta boshladi. Burg'ulash uchastkasining masteri Atabay va uning xotini Mamish orqali muallif turkman oilasi, urf-odatlarini aks ettirdi. Annatuvoq CHovdurov, Onul Sulaymonov, Safronovlar turli tabaqa vakillaridan bo'lgan neftchi mehnatkashlardir. Bularning har biri o'ziga xos xarakterga ega bo'lib, yozuvchi bu qahramonlarning ichki dunyosini berishda ma'lum yutuqlarga erishgan.

Xullas, Berdi Karboboev turkman adabiyotining XX asrdagi yirik vakillaridan bo'lib, uning asarlari dovrug'i boshqa yurtlarga ham etib borgan.

Turkman adabiyotining XX asrdagi yirik vakillaridan yana biri Beki Seytakov (1914-1979) hisoblanadi. U internat maktab va pedtexnikumda o'qidi. 1938 yilda «YOshlik» nomi bilan birinchi she'riy to'plami e'lon qilindi. Uning 1940 yilda nashr etilgan «Baxtli avlod» hikoyalar to'plami yozuvchiga katta shuxrat keltirdi. 1948 yilda «Qishloq hikoyalari» nomi bilan ikkinchi to'plami e'lon qilindi. Bunda yozuvchi turkman qishloqlaridagi ayrim yutuq va kamchiliklar haqida yozdi. Yaramas urf-odatlar va jaxolat tanqid qilindi. Uning hikoyalari oddiy mehnatkashlarga nisbatan qandaydir mehr tovlanib, sezilib turadi. B.Seytakovning «Qoraqumli bola», «Sevgi», «Bahs», «Diplom» kabi hikoyalari qisqa hajmli bo'lsa-da, ularda katta hayotiy voqealar ixcham tarzda bayon etilgan. Yozuvchining «Charm xalta» nomli hikoyasi satirik ruhda yozilgan bo'lib, unda umr bo'yi davlat yig'ib, pul to'plab kelgan, lekin pullarini ming joydan to'kkan xasis odamlarning fojiasi Ernapas obrazi orqali ko'rsatiladi.

Uning «Ayazxon» va «O't ichida» singari dostonlari ham e'lon qilingan. Beki Seytakov «Aka-ukalar» nomli roman-trilogiyasi bilan turkman romanchiligini rivojlantirishga katta ulush qo'shdi. Romanda Turkmanistonda XX asrning birinchi choragida yuz bergan tarixiy voqealar material qilib olingan. Junaydxon – tarixiy shaxs, asar qahramonlaridan biri. U Xiva xonligini olish uchun katta qirg'in urushlar olib boradi. Qanchadan-qancha begunoh kishilarning qonini to'kadi. Ingliz razvedkasiga sotilgan bu kimsa o'z yurti odamlariga urush ochadi. Asarda Saparmurod, Qosim kabi xalq vakillari Xonga qarshi kurash olib borib, uni engadi. Kitobda mehnatkash xalqning taqdiri va adolat uchun olib borgan kurashi davr voqealari bilan bog'lab berilgan.

Xidir Deryaev (1905-1988) XX asr turkman nasrining taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan adiblardandir. U Marida tug'ilib, ota-onasidan yoshligida etim qolgan, odamlarning uyida turli yumushlar qilib kun kechirgan. Mari shahridagi maktab-internatda ta'lim oldi. Keyin Toshkentda o'qituvchilar tayyorlaydigan bilim yurtida ta'lim oldi. Shu bilim yurtida o'qituvchilik qildi va O'rta Osiyo Davlat universitetining Sharqshunoslik fakultetida ham o'qidi. U tilshunos olim sifatida ham ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlarini bajargan. Toshkentda o'qib yurgan paytlari ijod bilan shug'ullana boshlagan. Uning dastlabki asarlari «Kuyla dutorim», «Amudaryo», «O'kinchmi yo maslahat» kabi she'r va poemalardan tashkil topgan edi. X.Deryaev A.Qodiriyning «O'tgan kunlar» romanidan ta'sirlanib «Qismat» romanini yozadi. Bu romanda turkman xalqining XX asr boshlaridagi o'tmishidan olingan lavhalar hikoya qilingan. «Qismat» romanida Uzuk bilan Berdi o'rtasidagi muhabbat o'sha davr voqealari bilan chambar-chas bog'liqda beriladi. Romanda Uzuk, Berdi, Murodog'a, O'rozsulton, Turdi, Qilichali kabi mehnatkash xalq vakillari obrazlari ishtirok etadi. Bekmurodboy, Subxonboy, Omonmurod, Saydaxmad Eshon, Argin Mamad kabi salbiy obrazlar ham juda ishonarli qilib berilgan. Bu asar o'zbek tiliga P.Qodirov tomonidan tarjima qilingan. U o'zbek televedeniyasi uchun ko'p seriyali film qilib ham

ishlangan. Adibning ikkinchi romani «Bo'ron» deb nomlanib, 30-yillardagi qishloq hayotiga bag'ishlangan.

X.Deryaev «Mehri», «Xo'janapas» kabi dramalar yozgan. Uning «Orzu» nomli poemasida turli xalq vakillari o'rtasidagi do'stlik kuylangan. X.Deryaev ikki tomlik turkman tili grammatikasining bosh avtorlaridan biridir. U ko'plab darsliklar ham yozgan talantli olim ham hisoblanadi.

Qilich Quliev (1913-1990) dastlab Mari shahridagi internat maktabda, keyin Bokuda ishchilar universiteti va Sovet huquqi institutida o'qigan. U ko'p yillar diplomatik vazifalarda faoliyat ko'rsatdi. U turkmanlardan chiqqan birinchi diplomat hisoblanadi. «Qora karvon», «Amirning elchisi», «Guljamolxon» kabi romanlar «Eh, siz erkaklar» kabi dramatik asarlar yozgan. Uning «Maxtumquli», «Engilmas Gezayirli» kabi hikoyalari ham mashhurdir. Adibning «Qora karvon» va «Amir elchisi» kitoblari o'zbek tiliga tarjima qilingan. Bu kitoblarda ingliz va rus davlatlarining turkman erini egallash uchun qanday yashirin kurash olib borganliklari tarixiy faktlar asosida isbotlab berilgan. Bu ikki kitob nafaqat turkman, balki butun turkiy xalqlar adabiyotida siyosiy romanlarning go'zal namunasi sifatida e'tiborga loyiqdir.

Ma'lumki, O'rta Osiyoda chet el harbiy intervensiyasi va grajdanlar urushi haqida ko'plab kitoblar yozilgan. Yozuvchi Qilich Qulievning «Qora Karvon» romani ham bu mavzuni yoritishda munosib hissa bo'lib qo'shildi. Bu asarlar o'ziga xos shaklda, uslubda yaratilgan. U birinchi shaxs-ingliz razvedkachisi Charlz Forsten tilidan bayon etilgan. Bu shaxs ingliz armiyasining polkovnigi bo'lib, u O'rta Osiyoda Angliya mavqeini tiklash uchun yuborilgan edi. U Buxoro amirligi va oq gvardiyachilar bilan ittifoq tuzish uchun ko'p harakatlar qiladi. Voqealar rivojlanib borgan sari Forster va uning sheriklarining haqiqiy qiyofasi ochila boradi. Biroq ingliz missiyasining O'rta Osiyo bo'yicha tuzilgan planlari barbod bo'ladi. Kitobda ana shu voqealar tarixiy faktlar vositasida qiziqarli hikoya qilinadi. Roman keng planda yozilgan. Unda turli mavzular mahorat bilan yoritilgan va umumiy syujet yo'nalishiga birlashib ketgan. Muhabbat mavzusi ham, xalqning urf-odatlar ham bu kitobda mahorat bilan tasvirlangan.

Keyingi yillarda turkman adabiyotida Turkmaniston prezidenti Safarmurod Niyozovni madh etgan asarlar ko'payib bormoqda. Unga bag'ishlangan she'riy to'plamlar, qasidalar va hatto romanlar ham yozilmoqda. Safarmurod Niyozov turkmanboshi degan unvonga sazovor bo'lgan. I.Burxonovning «Ta'zim» degan asari ana shu turkmanboshiga bag'ishlangan she'rlardan tashkil topgan. Bundan tashqari repressiyaga uchragan va sovet davrida qoralangan yozuvchilarning kitoblari ham nashr etilmoqda. Turkmaniston mustaqilligi bilan birga, uning adabiyoti ham rivojlanib bormoqda. Yaqinda nashrdan chiqqan N.Nurmamedovning «Dunyoni suv bosgan kun» va D. Hojimurodovning «Mullo To'ra oxun» nomli tarixiy mavzudagi romanlari tanqidchilik tomonidan yaxshi asarlar sifatida baholandi.

Ma'lumki, Nurmuhammad Andalib, Mahtumquli Firog'i kabi shoirlar o'zbek va turkman xalqlariga birday xizmat qilgan. Bular Xorazm adabiy muhitida

voyaga etgan shoirlar bo'lib, ularning ijodi ikki xalqqa ham tegishlidir. 1996 yilda Xivada Mahtumquliga haykal o'rnatilganda Turkmaniston prezidenti S.Niyozov "Mahtumquli o'zbek va turkmanlarga birday bo'lgan mutafakkir shoiridir. U bizning faxrimiz va vatandoshimizdir. Mahtumqulini bilmagan bironta o'zbek ham, turkman ham yo'q", degan gaplarni aytdi.

O'zbekiston prezidenti I.Karimov o'z dokladida Mahtumqulining ijodi o'zbek xalqi uchun juda qadrli ekanligi, uning she'rlarida adolat va ezgulik kuylanganligini aytdi. Shoir ijodini o'zbek va turkman maktablarida keng o'rganish kerak ekanligini ham ta'kidlab o'tdi.

Turkman adabiyotining ko'plab namunalari o'zbek tiliga tarjima qilingan. O'z navbatida o'zbek adabiyotining ham ko'plab kitoblarini turkman kitobxonlari o'z ona tillarida o'qishmoqda. B.Korboboev turkman romanchiligining shakllanishida bevosita A.Qodiriyning romanlarining ta'siri nihoyatda katta ekanligini ta'kidlab yozgan edi.

Xullas, XX asr turkman adabiyoti rang-barang mavzularda yozilgan. Unda proza va dramaturgiya janrlari shakllandi va kamol topdi. Turkman adabiyotining ko'pgina namunalari chet tillarga tarjima qilingan.

Adabiyotlar

1. Turkmenistan turk edebiyati. Ankara. Kultur bakanligi. 1998.
2. Кор-оглы. Туркменская литература. Москва. 1972.
3. Тоҳиров Қ. Ўзбек туркман адабий алоқалари. Т. 1979.
4. Маҳтумқули. Танланган асарлар. Т. 1976.
5. Камина. Танланган асарлар. Т. 1957.
6. Кор-Оглы. Туркменская литература. М., 1972.
7. Қуронбоев К. "Хидир Деряев", Т., 1977.
8. Қ.Қулиев. Қора карвон. Т., 1975.
9. Б.Карбобоев «Дадил қадам». Т., 1960.
10. Х.Деряев. «Қисмат». Т., 1970.

12-mavzu. Qoraqalpoq adabiyoti

Reja:

1. Qoraqalpoq xalq adabiyoti
2. Xalq og'zaki ijodi
3. YOzma adabiyotning shakllanishi
4. Hozirgi qoraqalpoq adabiyoti
5. Qoraqalpoq adabiyoti vakillari

Tayanch iboralar: "Qirq qiz" dostoni, "Mast podsho", «Shahriyor» kabi asarlar haqida. Jiyan Jirov "Darbadar el". Berdaq ijodi. "SHajara", "Axmoq podsho", "XX asr adabiyoti", proza, T. Kaipberganov, J.Oymirzaev, I.Yusupov.

Qoraqalpoq xalqi tarixda juda murakkab jarayonni bosib o'tgan. Asosan, chorvachilik bilan shug'ullangan qoraqalpoqlar uzoq asrlar ko'chmanchilik hayotini boshidan kechirdi. Ular goh Buxoro, goh Xiva xonliklari tarkibiga kirgan territoriyalarda yashadi. O'zlarining milliy davlatlari faqat XX asrdagina vujudga keldi.

Qoraqalpoq xalqi yozuvga asosan XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab ega bo'ldi. Shuning uchun ularning adabiyoti tarixi asosan xalq og'zaki ijodi janrlari bo'lgan ertak, qo'shiq va dostonlardan iboratdir.

Qoraqalpoq xalqining "Qirq qiz", "Alpomish", "Er qo'shay", "Mast podsho", «Shahriyor» singari dostonlari xalq orasida juda mashhurdir. Bundan tashqari, O'rta Osiyo xalqlari og'zaki ijodida mashhur bo'lgan "Oshiq G'arib", "Yusuf va Zulayxo", "Oshiq Xamro", "Toxir va Zuxro", "Yusuf Axmad" kabi dostonlar ham qoraqalpoq xalqi orasida keng tarqalgan. Bu dostonlarning deyarli barchasida vatanparvarlik, xalqparvarlik motivlari etakchi o'rinni egallaydi. Bu g'oya ayniqsa "Qirq qiz" dostonida ko'zga yaqqol tashlanadi. Dostonda hikoya qilinishicha, sarkarda Guloyim qirq qiz va xalq bilan birgalikda eron shohi Nodirshoxga hamda qalmoq xoni Surtayga qarshi jang qilib, mardlik va qahramonlik namunasini ko'rsatadilar.

Qoraqalpoq xalq og'zaki ijodida turli mavzudagi qo'shiqlar ko'p uchraydi. Shulardan eng ko'p tarqalgani «jaydari qo'shiq» deb ataladigan turidir. Bu qo'shiqlar xalq hayotining turli tomonlarini qamrab olgan bo'lib, sodda, tushunarli qilib aytilgan. Ayniqsa yoshlar orasida ko'proq tarqalgan bo'lib, unda sevgi – muhabbat mavzusi etakchilik qiladi.

Anov turgan olmami, anormikan,
Soyasida turgan sevgan yormikan.
Soyasida turgan sevar yor bo'lsa
Ikkimizni qo'shar kunlar bormikan?

Qizil gulni ekdim qizlar ko'rsin deb
Har shoxasi yuz ming alvon bo'lsin deb
O'tganida, ketganda yorim ko'rsin deb
SHul yorning ishqida yurgan kunlarim.

Qoraqalpoq folklorini tekshirgan birinchi tadqiqotchi CH.Valixonov, Markaziy Osiyo xalqlari ichida eng qo'shiqchi xalq qoraqalpoqlardir. Ulardan keyin turkmanlar turadi, degan edi. Rus folklorshunos olimi A.Belyaev esa qoraqalpoqlarni "Sahro bulbullari" deb atagandi.

Haqiqatan ham, turli janrlarda yaratilgan qo'shiqlarda badiiy yuksaklik bilan birga falsafiy teranlik hamoxang bo'lib keladi. Ko'pgina xalq maqollarining mazmuni qo'shiq qilib kuylanadi. Bu qo'shiqlar ma'lum darajada, xalqni to'g'ri va halol yashashda, mehr-muruvatli, diyonatli bo'lishda tarbiya vositasi bo'lib xizmat qilgan.

Xalq og'zaki ijodida keng tarqalgan qo'shiq turlaridan «aytishuv»da qo'shiqchilar bir-biri bilan musobaqa qilgan. Bunda katta va teran ma'noli

fikrlarni qisqa, obrazli va qofiyalangan holda savolu javoblarda bayon etish kerak. Ana shunday musobaqalar ishtirokchilarni xalq orasida mashhur qilgan.

Qoraqalpoq xalq folklorida juda ko'plab ertaklar mavjud. Ulardan «YUz og'iz yolg'on aytgan cho'pon», «Qushlar podshosi», «Keksa tuzoqchi», «Qo'rqqoq chol», «Yo'lbars mingan qiz» kabilar o'zlarining originalligi, ta'sirchanligi bilan ajralib turadi.

Qoraqalpoq xalq folklorida epik dostonlar ham anchagina uchraydi. Bularning ichida «Alpomish», «Koblon» kabilarning boshqa turkiy xalqlar folklorida ham variantlari uchrasa, «Mast podsho», «Qirq qiz» kabi dostonlar faqat qoraqalpoq xalq og'zaki ijodiga mansubdir.

Ayniqsa «Qirq qiz» dostoni har tomonlama puxta ishlangan bo'lib, u 25000 misradan iboratdir. Dostonda hikoya qilinishicha, Sarko'p degan shaharda Ollayor nomli boy yashaydi. Uning olti o'g'li va bir Guloyim ismli qizi bor edi. Ana shu qiz 15 yoshga etganda otasidan o'ziga Miyali degan orolchani so'rab oladi. Unda katta qal'a qurdiradi. Bu qal'aning devorlarini misdan, darvozasini temirdan yasaydi. Guloyim o'ziga 40 qiz tanlab olib, ularni harbiy mashqlarga o'rgata boshlaydi. Chunki qalmoqlar xoni Surtaysha bu erlarga hujum qilishni rejalashtirib yurgan edi.

Guloyimga sovchilar turli tomondan keladi. U hammaga rad javobini berib, faqat tushida ko'rgan Arslon botirni kutadi. Unga Jurin nomli cho'pon ham oshiq bo'ladi. U ayyorlik bilan qal'aga tushib o'zini Arslon botir deb tanishtiradi. Lekin siri fosh bo'ladi va Guloyim tomonidan jazolanib qal'adan chiqarib yuboriladi. Bu vaqtda Jurinning 100 ta qo'yini bo'ri eb ketgan bo'ladi. U qarg'aning maslahati bilan Ollayor boy uyiga payg'ambar kiyimida borib, 100 ta qo'yni sadaqaga so'raydi. Shu bilan bo'ri egan qo'ylarning o'rnini to'ldiradi. Ollayor boy kasal bo'lib otasining qabriga borganida, cho'pon Jurin buni oldindan sezib, qabr ichiga kirib oladi va qizingni Juringa bersang, tuzalib ketasan deydi. Tuy kechasi Jurinni Guloyim sovchi qo'ydirib yurgan yigitlardan biri Sayake o'ldirib ketadi.

Shu paytda eronlik Nodirshox Xorazmga hujum qiladi. Botir Arslon va uning singlisi Oltinoy Xorazmning bir chekka viloyatida yashar edi.

Nodirshox Oltinoyga uylanmoqchi bo'ladi, lekin rad javobini oladi. Shox Arslon bilan yakka olishuvdan qo'rqib hiylaga o'tadi. Oltinoyni yomon otliq qilmoqchi bo'lib, maston kampirlar orqali turli jodular o'qitib, Oltinoy behush qiladi va akasining chodiriga kechasi yalong'och qilib olib borib qo'yadi. Ertalab Arslon uyg'onib yonida singlisini ko'radi va uni o'ldirmoqchi bo'ladi. Lekin bu hiyla ekanligini sezib, singlisini o'ldirmaydi. Ammo o'zi boshqa tomonlarga bosh olib ketib qoladi. Oltinoy el-yurtini to'plab Nodirshoxga qarshi jang qiladi. Kuchlar teng bo'lmaganligi sababli Nodirshoh g'olib keladi. Yarador bo'lgan Oltinoy asirga tushadi. Shox uni quriqko'l degan joyga yuborib qo'y boqtiradi va shu bilan o'chini olmoqchi bo'ladi.

Bu vaqtda qalmoq xoni Surtaysha CHirchiq daryosidan o'tib qoraqalpoqlarga xujum qiladi. Guloyim 40 qizi bilan boshqa tomonlarga sayoxatga ketgan bo'ladi. Qalmoqlar juda ko'p odamlarni o'ldiradi. Ollayorboy

ham shu jangda Surtaysha bilan yakka olishuvda halok bo'ladi. Uning olti o'g'li sotqinlik qilib, Surtaysha tomonga o'tib ketadi. Qalmoqlar o'z eliga sotqinlik qilgan bu yigitlarga ishonmaydi va oltovini ham boshini olib tashlaydi. Surtaysha g'olib kelib, ko'p kishilarni qul qilish uchun yurtiga olib ketadi.

Sayoxatdan qaytgan Guloyim o'z elini talangan, yondirilgan holda ko'rib, o'ch olishga ahd qiladi. Shu payt daryo yoqasida kelayotgan Arslon bilan uchrashadi. Bular bir-birini tushida ko'rganligi uchun darrov tanishadi. Avval dushmanni engib, keyin to'y qilishga kelishib oladi. Qalmoq yurtiga borib, vatandoshlarini tutqunlikdan ozod qiladi. Qalmoq xoni Surtaysha Guloyim bilan yakkama-yakka olishuvda halok bo'ladi. Bu jangda Sarvinoz, O'tbosgan kabi botirlar ham katta qahramonliklar ko'rsatadi. Bular vataniga qaytib kelib, Oltinoyni Nodirshoxning qo'lidan qutqarish uchun jang qiladi. Eroni askarlar butunlay tor-mor qilinadi. Nodirshoh Qoraqum orqali eronga qochib ketayotganda, Arslon tomonidan asirga olinadi.

Shunday qilib, mamlakatda osoyishtalik o'rnatiladi. Qoraqalpoqlar, o'zbeklar, qozoqlar, turkmanlardan tashkil topgan yangi davlat tuziladi. Arslon va Guloyimning to'ylari tantanali nishonlanadi.

Ko'rinib turibdiki, bu dostonda yurtning jasur farzandlari o'z elining, xalqining ozodligi uchun jonlarini ham fido qiladi. Asarda bosqinchilar qanchalik darajada dahshatli bo'lmasin, birlashgan turk xalqlari har qanday dushmanni engish mumkin degan g'oya ilgari surilgan. Doston finalida shu joyda yashovchi turkiy qabilalarning yagona birlashgan davlatining tashkil topishi ham bunga misol bo'la oladi. Dostonda turk xalqlarining ayollari ham jasur, qahramon qilib ko'rsatilgan. Ular na faqat o'zlarini, kerak bo'lsa o'z el-yurtini ham himoya qilish qudratiga ega ekanligi ko'rsatilgan.

XX asr qoraqalpoq adabiyoti haqida gap ketganda Jiyan Tog'ay o'g'li nomli baxshini hurmat bilan tilga oladilar. U haqda ayrim ma'lumotlar etib kelgan, xalos. Chunki bu davrdagi adabiyot asosan og'zaki shaklda bo'lganligi tufayli, yozma asarlar qa'rib yo'q hisobi. Ayrim rivoyatlarda Jiyan shoir haqida ma'lumotlar mavjud. U qo'biz jo'rligida katta-katta dostonlarni qo'shiq qilib aytgan. Bir rivoyatda Jiyan shoir cho'lda ketayotgan paytda, osmondan qo'biz kelib uning oldiga tushadi. Go'Yoki bu cholg'u asbobini shoirga tangrining o'zi yuborgan, degan fikrlar aytilgan. Jiyan shoir Qoraqalpoqlarning Mo'ytan degan urug'idan bo'lgan. U «Alpomish», «Qirqqiz», «Mastpodsho» kabi dostonlarni qiyomiga etkazib aytgan. Uning o'zi yozgan «Toptalgan el» nomli dostoni ham etib kelgan. Bunda Qoraqalpoqlarning XUSH asrda qozoq xoni Abulxayrxonning hujumidan keyin turli tomonlarga tarqab ketishi, uning azob-uqubatlari hikoya qilingan. Asosiy voqealar Jiyan shoirning o'z boshidan o'tadi. Shoir Munaim ismli etim qizni o'z qaramog'iga olib tarbiyalaydi, lekin Erkaboy bu qizni shoirdan tortib olib qo'yadi. Keyin Jiyan shoir ikki ukasi bilan borib Erkaboydan o'ch oladi va qizni qaytarib olib keladi.

Xullas, bu shoir qoraqalpoq adabiyoti tarixida birinchi bo'lib mustaqil doston ijod qilgan san'atkordir.

XIX asr boshida Qoraqalpoqlar Qozoq xoni Abdulxayrxonga qarshi isyon ko'taradi. Bu kurashda mag'lub bo'lgan qoraqalpoqlarni Sirdaryo bo'ylaridan turli joylarga ko'chirib yuboradilar. Ularning bir qismi Orol bo'yiga, bir qanchasi Farg'ona va Samarqand atroflariga borib joylashadilar. Ana shu azob-uqubatlarni boshidan o'tkazgan shoir Jiyan Jirov o'zining "Darbadar el" nomli dostonini yozgan. Keyinchalik, ya'ni XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib Qoraqalpoqlarda Kunxo'ja, Berdaq, Qulmurod, Xojiniyoz kabi shoirlar etishdi. Bular o'z asarlari bilan yozma adabiyotning rivojlanishiga katta hissa qo'shdi. Qoraqalpoq yozma adabiyotining rivojlanishida o'zbek klassik adabiyotining ta'siri ham katta bo'ldi. Ular Navoiy, Mashrab, Ogohiy kabi shoirlardan ijodiy o'rganib asarlar yozgan edi.

XIX asrda qoraqalpoqlar Xiva xonligi ixtiyorida bo'ldilar. Bu esa ularning adabiyotida ham o'z aksini topdi. Ko'pgina qoraqalpoq ziyolilari bu davrda Xiva va Buxoro madrasalarida ta'lim oldi. Ular esa asta-sekin arab alifbosida asarlar yoza boshladi. Shuning uchun qoraqalpoq yozma adabiyoti shu paytgacha aytilganidek XX asrda emas, balki XIX asrda shakllangan edi. Bunga misol qilib Kunxo'ja, Ajiniyoz, Berdaq singari shoirlarning ko'rsatishimiz mumkin.

Kunxo'ja shoirning taxallusi bo'lib, uning asl ismi Jiyanmuroddir. 1799 yilda tug'ilib, 1880 yilgacha yashagan. Uning turmushi og'ir kechgan. She'rlarida ota-onadan erta etim qolgani, yo'qchilik tufayli madrasada bir yil o'qib ketib qolgani haqida ma'lumot beradi. Halq orasida mashhur shoir bo'lib etishdi. Xiva xoni uni saroyga chaqiradi. Lekin u xonni maqtab emas, xalqning og'ir ahvolini tasvirlab she'r yozgan. Unga xon qarri tuya sovg'a qiladi. Bu tuyani tashlab Kunxo'ja Xivadan chiqib ketadi.

Shoirning «Kim bo'ldim», «Yolchimadim», «Cho'ponlar», «Kun qayda», «Mening bolam» kabi she'rlarida xalqning og'ir turmushi yoritilgan. Shoir o'zini doimo xalq bilan birga hisobladi. Uning «El bilan» she'rida shunday misralar bor.

Osmonga ucharsan bo'lsa qanoting,
SHod bo'larsan, baxtli bo'lsa elating,
Xalqing bilan bo'lsa, maqsad, niyating
Umr sursang doim shunday xalq bilan.

SHoirning «Yoronlar», «Armonda» kabi she'rlarida bu mavzu yanada kengroq tasvirlangan.

Kunxo'janing lirik va yumoristik she'rlari ham anchagina. «Oq qamish», «Arava», «Qizil qum», «Qoratosh» kabi she'rlarida xalq turmushining turli tomonlari aks ettirilgan. Masalan, uning «Arava» she'rida eski aravalarning noqulayligi, taraq-turuq qilib kishini bezovta qilishi, moylab quysa muloyim bo'lib qolishi yozilgan. Bu o'zbek shoiri Muqimiyning «Arava qursin» she'riga o'xshab ketadi, Ikki shoir ham bir davrda yashagan. Ular ijodida bir-biriga o'xshashlik anchagiga topiladi.

Xullas, shoir ijodi qoraqalpoq adabiyotining rivojlanishiga katta hissa bo'lib qo'shiladi.

Ajiniyoz Qo'shboy o'g'li (1824-1878) o'ziga to'q oilada dunyoga keldi, eski maktabda o'qib savodini chiqargach, Xivadagi SHerg'ozixon madrasasida ta'lim oldi. Shoir arab, fors tillarini mukammal o'rgangan. O'zbek va turkman mumtoz adabiyoti vakillarining asarlarini chuqur o'zlashtirgan. U o'zbek tilida «Chiqdi jon», «Bu sahar», «Ey, Alip» singari mashhur asarlarini yozgan. Uning eng sevimli shoirlaridan biri turkman adabiyotining asoschisi Maxtumlul bo'lgan. Shoir Maxtumlulning ko'plab she'rlarini qoraqalpoq tiliga mahorat bilan tarjima qilgan, Maxtumlulning «Bo'lmasa» radifli she'ridan ta'sirlanib Ajiniyoz quyidagi satrlarni yozgan edi.

Taxt ustida turgan odil sultonlar
Er bilan teng bo'lur xalqi bo'lmasa,
YUraklari ot boshiday botirlar
Bolacha yo'q ot, yorog'i bo'lmasa.

SHoirning biografiyasi ham sarguzashtlarga boy bo'lib o'tgan. U juda ko'p o'lkalarni kezman, sayohat qilgan. Rossiya imperiyasi qaramog'idagi Orenburg guberniyasida ham ancha vaqt yashagan, degan ma'lumotlar bor.

Ajiniyozni yoshligida bir qizga unashtirib qo'yadi. Lekin u katta bo'lganida unga uylanmay, uning dugonasini yaxshi ko'radi. Shundan keyin unashtirilgan qiz kechasi o'zini daryoga tashlab halok qiladi. Qizning qarindoshlari bu fojiga aybdor deb Ajiniyozdan katta xun talab qiladi. Qizning o'ligi topilmaydi. Shoir qiz tirik, men uni topaman deb qozoq cho'llariga izlab ketadi. Ikki-uch yil qozoqlar orasida yurib dostonlar aytadi, qo'shiqlar to'qiydi, Ajiniyozning «Bo'z o'tov» dostoni Qoraqalpoq xalqining tarixini kuylovchi asardir. Asarda 1850 yilda Qoraqalpoq xalqining Xiva xonligiga qarshi ko'tarilgan isyoni va bu isyonning shafqatsiz ravishda bostirilishi hikoya qilinadi. Shoir qanchadan_qancha xalqlarning qul qilib sotilganini o'z ko'zi bilan ko'rib, ularning qismatiga kuyunadi.

Ajiniyoz «Kerak» nomli she'rida, «Boyga qul kerak, bekka pul kerak, xonga urush kerak, oddiy odamga yaxshi turmush kerak», degan fikrlarni aytadi.

Xullas, Ajiniyoz qoraqalpoq xalqining talantli yozuvchisi sifatida tarixda qoldi.

Berdimurod Qarg'aboy o'g'li Berdaqning qoraqalpoq adabiyoti taraqqiyotidagi roli nihoyatda kattadir. U 1827 yili Muynoq shahrida tug'ilgan. Yoshligida etim qolib, og'ir kunlarni boshidan kechirgan. Eski maktab va boshlang'ich madrasa ta'limini olgan. Yoshligidan she'riyatga qiziqadi, do'mbira chertib, she'r to'qidi, ashula aytdi. U 25 yoshlarida xalq orasida iste'dodli shoir sifatida tanilgan edi. Shoir she'rlarida xalq hayotini haqqoniy aks ettirgan edi. Uning «Xalq uchun», «Soliq», «Yoz kelurmi», «Bo'lgan emas» kabi she'rlarida mehnatkash xalq ommasining hayotidan olingan lavhalar mahorat bilan tasvirlangan. Bunda xalq boshiga tushgan musibatlarning ko'pchiligiga asosiy sababchi amaldorlar ekanligi aytilib, ularning kirdikorlari ayovsiz fosh etilgan. SHoirning «Shajara», «Xorazm», «Omongeldi», «Oydosbiy» va «Axmoq podsho» kabi dostonlari xalq orasida juda mashhur bo'lgan.

Berdaq "Axmoq podsho" nomli dostonida zolim xonlarni qattiq tanqid qildi. Asarda Ahmoq podsho uzoq vaqt farzand ko'rmaydi. Keyin uning Gulim ismli xotini qizli bo'ladi. Podsho esa bundan g'azablanib, xotini va qizini yo'q qilishni buyuradi. Dono cho'ri ayol Zoraning tadbirkorligi tufayli bular omon qoladi. Qizi Gulzor ulg'aygach, otasini borib ko'radi. Axmoq podsho esa o'z qiziga oshiq bo'lib qoladi. Qizi podsho taklifini rad etgach, uni itlarga talatib o'ldirishni buyuradi. Eng vahshiy itlar ham qizga yaqinlashmaydi. Aksincha, ular tilga kirib, podshoni qarg'aydi. Gulzor uzoq vaqt podsho ko'zidan yashirinib, o'rmonda yuradi. Keyin esa kelib Axmoq podshoni o'ldiradi.

Asarning mazmunidan ham ko'rinib turibdiki, xalq boshiga kelayotgan kulfatlarga Axmoq podsholarga o'xshash zolim va benomus hukmdorlar sababchidir.

Xullas, qoraqalpoq xalq klassik adabiyoti nisbatan kechroq yozma adabiyotga ega bo'lgan bo'lsa-da, unda xalq hayotini haqqoniy aks ettiruvchi bir qancha asarlar yaratildi. Bu adabiyotning paydo bo'lishi va shakllanishida xalq og'zaki ijodining roli katta bo'ldi. Ko'pgina qo'shiqlar, latifalar, masallar, ertaklar, dostonlar qoraqalpoq xalqi shoirlari tomonidan kuyga solinib ijro etildi. Xalq shoirlari ham san'atkor, ham yozuvchi sifatida mashhur bo'lgan. Ikkinchidan, qoraqalpoq yozma adabiyotining shakllanishida bevosita o'zbek adabiyotining roli katta bo'ldi. O'zbek xalqi bilan yonma-yon yashagan qoraqalpoq xalqi madaniyatining vakillari Buxoro va Xiva madrasalarida o'qigan edi.

XX asr boshlaridagi qoraqalpoq adabiyotining rivoji ham ancha murakkab yo'ldan bordi. Bu paytda Rossiyada ro'y berayotgan katta ijtimoiy-tarixiy voqealar qoraqalpoq xalqi hayotiga ham ta'sir qildi. Qoraqalpoq ziyolilari Oktyabr inqilobiga ham turlicha munosabatda bo'ldilar. Ayrimlari Oktyabr inqilobiga umid ko'zi bilan qaradi. Unga bag'ishlab asarlar yozdi. Abbos Dabilov, Hidir Niyoz, Sodiq Nurimbetov singari yozuvchilar esa aksincha xalqning bolsheviklarga qarshi harakatini yoqlab chiqdilar. Qoraqalpoqlar 1930 yilda avtonom respublika bo'lib RSFSR tarkibiga kiritildi. 1936 yilda esa O'zbekiston SSR tarkibiga kiritildi.

Ayapbergan Musaev (1880-1936) yangi qoraqalpoq adabiyotining asoschilaridan biri sanaladi. Uning asarlari ham og'zaki, ham yozma shaklda tarqalgan. U Xorazm dostonchiligining yirik vakillaridan bo'lib, repertuarida «Oshiq G'arib», «Yusuf va Zulayxo», «Shohnoma» kabi dostonlar ham bo'lgan. Kambag'al xalqning og'ir turmushi haqida «Suvchi bola», «Salom», «Qozoqboy» singari she'rlar yozdi. Uning hajviy lirikasida ochko'z eshonlar, poraxo'r amaldorlar, turli tovlamachilar fosh qilingan. Xotin-qizlar ozodligi mavzusi «O'rtoqlar» nomli she'rida yoritilib berilgan. Bu she'rda ko'p xotinlilik kabi illatlar qattiq tanqid qilinadi. U Qoraqalpoq adabiyotida birinchi bo'lib nasriy hikoyalar ham yozgan ijodkordir. A.Musaev bolsheviklarning yolg'on va'dalariga ishonib, ularni ko'plab she'rlarida madh etgan edi.

SHoirning «Xudoybergan» nomli dostonida kambag'al yigit Xudoybergan Xonzoda ismli qizni yaxshi ko'radi. Lekin uning puli yo'q, shuning uchun Xonzodani boshqa bir puldor odam olib ketadi. U sevgilisining orqasidan izlab

juda ko'p joylarga boradi. Ana shu voqealar dostonida butun qoraqalpoq xalqi hayotini tasvirlashga vosita bo'lib xizmat qilgan.

20-30 yillardagi tarixiy voqealarga atab «O'razboy», «Toshqin», «Mo'ynoq» kabi she'rlar yozgan. Shoir ijodi yangi qoraqalpoq adabiyotining shakllanishida muhim rol o'ynadi.

20-30 yillar qoraqalpoq adabiyotida poeziyada yozilgan asarlar ko'pchilikni tashkil etgan. Bu yillarda adabiyotga J.Oymirzaev, X.Axmetov, A.Matyoqubov, A.Begimov singari yoshlar kirib keldi. Bular o'sha davrda ham jurnalist, ham yozuvchi sifatida faoliyat ko'rsatdi. Bu davr qoraqalpoq adabiyotining asosiy mavzusi mehnatkash xalqning baxtli hayotini ko'rsatish bo'ldi. Eskilik va yangilik o'rtasidagi kurash, qishloq xo'jaligini kollektivlashtirish kabi temalarda ko'plab asarlar yaratildi. 20-30 yillarda qoraqalpoq adabiyotida ko'plab kichik hajmli she'rlar va nasriy parchalar yaratilishi bilan birga, katta hajmdagi dostonlar ham yozildi. J.Oymirzaevning «Jumagul», «Kurash», M.Doriboevning «Xoljon», «Oyimjamol», A.Begimovning «Kurash farzandi» dostonlari yozildi.

Qoraqalpoq jadid adabiyotining vakillaridan biri Sayfulg'abit Majitov (1969-1938) Qozon guberniyasida tug'ilib, keyinchalik Mo'ynoqqa kelib yashagan. Savodli, ziyoli kishi bo'lganligidan bo'lisga mirzolik qilgan. Qoraqalpoq folklori bilan qiziqib, ko'p qo'shiqlarini, dostonlarni birinchilardan bo'lib yozib olgan. U Ajiniyozning «Bo'z o'tov» nomli dostonini yozib olib, darsliklarga kiritgan. 1928 yili «Qoraqalpoq adabiyoti namunalari» nomli kitob chiqardi. Bunga ko'plab xalq maqollari, yozma adabiyotidan namunalar kiritilgan edi. S.Majitov Qo'ng'iro't shahriga ko'chib kelib, yangi jadid tipidagi maktab ochdi. Shu maktabda o'zi o'qituvchilik qildi, darsliklar yozdi. O'zbek ma'rifatparvar shoiri So'fizoda bilan yaqin munosabatda va hamkorlikda bo'lgan. S.Majitov qoraqalpoq jadid adabiyotining yirik vakillaridan bo'lib etishdi. U Oktyabr o'zgarishidan keyin ham maorif ishlarida jonbozlik ko'rsatgan. S.Majidov, K.Avazov bilan birgalikda birinchi qoraqalpoq «Alifbo» kitobini yozgan kishi. U «O'qish kitobi», «Kattalar uchun o'qish kitobi» kabi darsliklar ham yozgan. «Erkin qoraqalpoq» gazetasida mas'ul kotib bo'lgan ishlagan.

Uning ijodi ijtimoiy hayot voqialari bilan chambar-chas bog'liq. Dastlab SHuro hukumatini maqtab she'rlar yozgan. Masalan, «Ozodlik tongi» she'rida bolsheviklarning qoraqalpoq xalqiga erk va ozodlik bergani kuylangan. Shoir er islohati, xotin-qizlar ozodligi mavzularida ham ko'plab she'rlar yozgan. «Amudaryo», «Salom, dehqon bobo», «Ikkinchi qurultoyga», «Ayollarga» kabi she'rlari bunga misol bo'ladi. U yoshlarni bilim olishga undab «YOshlarga», «Qizlarga», «Kel o'qishga», «Hunar» kabi she'rlarini yozgan. Bu she'rlar ko'proq nasixat tarzda yozilgani bilan ajralib turadi.

S.Majitov qoraqalpoq bolalar adabiyotining asoschisi sifatida «Alima nimaga xursand», «Assalom», «Shodligimning sababi» kabi ko'plab she'rlar yozdi. U birinchi tarjimonlar qatorida I.Kirilovning 20 ga yaqin masallarini, A.Koltsov, A.Izmaylov she'rlarini qoraqalpoq tiliga tarjima qilgan. Ayniqsa Firdavsiy «Shohnoma»sidagi «Suxrob» dostonini qoraqalpoqchaga o'g'irgani unga

katta shuhrat keltirdi. L.Tolstoyning «Ikki savdogar», «Bo'ri va turna», «Burgut va xo'roz», «YOlg'onchi», «Bilimdon bola» singari hikoyalarini ham mahorat bilan tarjima qilgan.

S.Majitovning o'zi ham «Ota va o'g'il», «Kambag'al Do'snazar», «Shodlik», «Mulla va yosh qiz», «Meros» kabi hikoyalar ijod qilgan. Uning «Suyun va Sara», «Qulmurat», «O'n to'qqizlar» singari romanlari ham bor.

U Qoraqalpoq dramaturgiyasining asoschisi sifatida «Dars», «Ernazar Olako'z», «Bog'dagul», «Bibigul», «Gulim va Tayman» kabi pessalar yozgan. «Gulim va Tayman» dramasida gulim nomli qizning Jiylibek ismli boyga berilishi, lekin u sevgan yigiti Tayman bilan nikoh kechasi qochib ketishi, Jiylibek Gulimning o'rniga uning singlisi Oyimni olib ketishi, keyin esa Gulimning o'zi boyga kelishi kabi voqialar hikoya qilinadi. Asar oxirida bosh qahramonlar vafot etadi.

Xullas, S.Majitov qoraqalpoq adabiyotining eng katta vakillaridan biri sanaladi.

Urush yillari qoraqalpoq adabiyotida ham boshqa xalqlar adabiyoti singari jangovor mavzularda ko'proq asarlar yaratildi. J.Oymirzaev «Erboy Botir», «Mening do'stlarim», D.Nazirbekovning «Ikki qahramon» kabi dostonlarida urushda jasorat ko'rsatgan jangchilar obrazi tasvirlangan.

Naim Davqaraev (1905 - 1953) qoraqalpoq adabiyotining yirik vakili bo'lib, uning ijodi 20- yillarning oxirlarida hikoyalar yozish bilan boshlangan. U Olmota va Orenburgdagi oliy o'quv yurtlarida ta'lim oldi. Qoraqalpoqiston hukumatida mas'ul vazifalarda ham ancha vaqt ishladi. Olim sifatida uning katta ilmiy merosi bor. XIX asr qoraqalpoq adabiyoti mavzuida doktorlik dissertatsiyasini yoqladi.

30-yillarda N.Davqaraev o'z davridagi o'zgarishlarga bag'ishlab bir qancha she'rlar ham yozdi. Lekin uning sevimli janri hikoya bo'lganligi uchun nasrda ko'proq ijod qildi. «Partizanlar», «Internatda» kabi hikoyalari urushga qadar bo'lgan qoraqalpoq adabiyotining eng yaxshi asarlaridan edi.

40-yillar adib ijodida front mavzuida yozilgan «O'limlarni engib» hikoyasi xarakterlidir. Bunda Brudkov nomli uchuvchining qahramonliklari ko'rsatilgan. «Jasorat» nomli hikoyasida esa urushda qahramonlik ko'rsatgan qoraqalpoq yigiti Sobirboyning boshidan o'tganlari aks ettirilgan.

N.Davqaraev qoraqalpoq adabiyotidagi birinchi muzikali dramaning, ya'ni «Alpomish»ning ham muallifidir. U qoraqalpoq mumtoz adabiyotining ham yirik bilimdoni sifatida Berdaq, Ajiniyoz, Kunxo'ja kabilar ijodini chuqur tahlil qilgan. Darsliklar, monografiyalar yozgan. «Alpomish», «Qirq qiz», «Qoblon» kabi dostonlar haqida ham mukammal ilmiy ishlarni amalga oshirgan.

Dramaturgiya janri qoraqalpoq adabiyotida asosan urushdan oldingi davrlarda shakllandi. Ayniqsa bu janrning taraqqiy etishida A.O'tepovning roli katta bo'ldi. Birinchi qoraqalpoq dramasi ham A.O'tepovning «O'z tengini topgan qiz» nomli dramasi bo'lib hisoblanadi. Keyinchalik A.Begimov «Xotira» nomli dramasida qoraqalpoq xalqining ayanchli o'tmishini aks ettirib berdi. A.O'tepov «Ko'zbo'yamachi vakil», «900 gramm», «Saidmurod dangasa» singari

hajviy dramalar yozdi. Urush yillari J.Oymirzaev “Leytenant Elmurodov”, “O’g’il”, S.Xo’janiyozov “Bizning qahramon” singari dramatik asarlarini yaratdi. M.Doriboev, N.Davqoraevlarning tarixiy mavzudagi dramalari ham ancha mashhur bo’ldi. Urushdan so’nggi davrda J.Oymirzaevaning “Amudaryo qirg’oqlarida” nomli dramatik asari yaxshi baholandi.

Jo’lmirza Oymirzaev To’rtko’l pedtexnikumida o’qib yurgan paytlari she’r mashq qila boshladi. Uning dastlabki she’rlari targ’ibot xarakteridagi she’rlar bo’lib, o’z davridagi o’zgarishlarga bag’ishlangan edi. Bunga misol qilib Mayakovskiy an’analari ruhida yozilgan «Poezd» nomli she’rini ko’rsatish mumkin. Shoir juda ko’plab dostonlar yozgan. Uning 30-yillarda yozgan «Bizning kuchimiz», «O’n besh yil ichida», «Jumagul» kabi poemalarida o’ziga xos tipik qahramonlar obrazi berilgan. «Muxbirning jasorati» poemasida Satibek ismli muxbir Yigitning xarakteri ko’rsatilgan. «Misr» nomli dostonida esa chet el mavzusi yoritilgan. Urush yillarida J.Oymirzaev bir qancha she’rlar («G’alaba marshi», «Ajodlar nomi bilan», «Leytinantning qasami»), «Mening o’rtoqlarim» nomli poema, «Orol qizi» (A.SHomuratov bilan hamkorlikda) «Oygul Obad», «Kolya», «Leytenant Elmuratov» kabi dramatik asarlar ham yozdi.

Urushdan keyin «Mening botirlarim», «Erboy» «Sarvinoz va Qahramon» singari dostonlar shoirga katta shuhrat keltirdi. Uning «Etim yuragi» nomli qissasi avtobiografik xarakterga ega. J.Oymirzaev «Amudaryo qirg’oqlarida», «Odamlarga muhabbatim» kabi romanlar ham yozdi. «Oygul–Obod», «Berdaq», «Ravshan», «Jonginam doktor», «Hayot bulog’i» singari pesalar yozib qoldirgan.

Umuman olganda, J.Oymirzaev qoraqalpoq adabiyotining ko’pgina janrlarida asarlar yozib, o’zidan o’chmas iz qoldirdi.

Qoraqalpoq adabiyotining yirik vakili To’lepbergan Kaipberganov serqirra ijodkor bo’lib, u turli adabiy janrlarda muvaffaqiyat bilan ijod qilib kelmoqda.

Yozuvchi dastlab poeziya bilan shug’ullandi. Keyin esa hikoyalar yozishga havas qo’ydi. Uning «Bloknot so’zlaydi» nomli birinchi hikoyalar to’plami 1961 yilda e’lon qilindi. Keyin u «Sekretar», «Muallimga raxmat» kabi qissalarini yozdi. Bu Ch.Aytmatovning «Birinchi muallim» qissasiga o’xshatib yozilgan bo’lib, qoraqalpoq ovullarida ma’rifat tarqatgan birinchi o’qituvchilarning hayotiga bag’ishlangan edi. Keyinchalik esa uning «So’nggi hujum» nomli birinchi romani e’lon qilindi. Bunda 20-30-yillardagi tarixiy voqialarga munosabat bildirilgan edi. Lekin yozuvchiga shuxrat keltirgan uning tarixiy romanlari bo’ldi.

To’lepbergan Kaipberganov qaroqalpoq xalqi tarixi aks etgan «Qaroqalpoq qizi» nomli ikki kitobdan iborat romanida XIX asr va XX asrning birinchi yarmidagi xalq hayotini ko’rsatishga harakat qilgan. Romanda Jumagul Zaripova obrazi orqali butun qoraqalpoq ayollarining ayanchli qismati ko’rsatilgan.

60-yillarda yozuvchining «Uyqusiz tunlar», «Sovuq tomchi» kabi qissalari yozildi. Bu asarlar ikkinchi jahon urushi davridagi qoraqalpoq xalqi hayotiga bag’ishlangan.

To'lepbergan Kaipberganovning «Qoraqalpoq dostoni» nomli trilogiyasi qoraqalpoq xalqining badiiy tarixi bo'lib hisoblanadi. Yozuvchi bunda hali hech kim badiiy tadqiq qilmagan XVIII asr tarixiy voqealarini tasvirlashga harakat qildi. Birinchi kitob «Mamanbiy afsonasi» deb nomlangan. Qoraqalpoq xalqi qabilalari ichidagi nizolar, qozoq xoni Abulxairning hukmi, xalqning Rossiyaga qo'shilish uchun qilgan harakatlari bu romanda o'z aksini topgan. Roman qahramoni Mamanbiy tarixiy shaxs, u xalqni birlashtirish, uni turli bosqinchilardan himoya qilish uchun bor kuchi va iste'dodini sarf qildi. Romanda Murod-shayx, Irisqul-biy, Esankeldi, Olmagul, Omonliq kabi turli xarakterdagi qahramonlar obrazi ham muvaffaqiyatli chiqqan. Romanning «Baxtsizlar», «Gumrohlar» nomli kitoblari ham katta mahorat bilan yozilgan.

YOzuvchi keyingi yillarda «Sahro bulbuli» nomli dramatik asar yozdi. Bu asar qoraqalpoq adabiyotining asoschisi, mashhur ma'rifatparvar shoir Berdaq hayotiga bag'ishlangan.

To'lepbergan Kayipberganov ijodi Qoraqalpoq adabiyotining cho'qqisi hisoblanadi, desak xato bo'lmaydi. Uning asarlari ko'plab chet tillarga tarjima qilingan. U Muxtor Avezov, Oybek, B. Karboboev singari ijodkorlar bilan bir safda turadi. Unga keyingi yillarda adabiyotda ko'rsatgan xizmatlari uchun «O'zbekiston qahramoni» unvoni berildi.

50-60 yillar qoraqalpoq adabiyotida bir qancha baquvat prozaik asarlar yaratildi. A.Begimovning «Baliqchining qizi», J.Oymirzaevning «Kamekboyning qilmishlari», X.Seitovning «Mashaqqatli baxt» romanlari bunga misol bo'la oladi.

Qoraqalpoq adabiyotining buyuk namoyandasi Ibrohim Yusupov 1929 yilda Chimboy tumanida tug'ilgan. U Nukus pedagogika institutini tamomlab, o'sha erda adabiyotdan dars berdi. Keyin «Amudaryo» jurnalida muxarrir bo'lib ishladi, ilmiy ishlar bilan shug'ullandi. Uning dastlabki she'ri 1946 yilda matbuotda e'lon qilingan edi. Shoirning «O'ylar», «Etti davon», «Ilhom» kabi she'riy to'plamlari; «O'rtoq Muallim», «San'atkor qismati», «Akatsiya gullagan joyda», «To'maris», «Qoraqalpoq haqida rivoyat» singari dostonlari va ko'plab dramatik janrdagi asarlari XX asr qoraqalpoq adabiyoti rivojiga katta hissa bo'lib qo'shildi.

I.Yusupov «Qiziqchi Umirbek» nomli komediya yozib, unda xalq latifalaridagi Umirbek obrazi orqali jamiyatda uchrab turadigan turli illatlarni tanqid qildi.

«To'maris» dostonida shoir qadimgi afsonaning syujetini kengaytirib, unga bugungi kunning ham muhim muammolarini qo'shib ajoyib asar yaratgan. Ma'lumki, qoraqalpoq folklorida ayollar obrazi ko'tarinki ruxda kuylangan. Bunga misol qilib «Qirq qiz» dostonini ko'rsatish mumkin. Shoir «To'maris» dostonida ana shu an'anani mahorat bilan davom ettirgan.

Keyingi yillar qoraqalpoq adabiyoti bir qancha yosh talantlar bilan boyidi. Ular turli adabiy janrlarda ko'plab asarlar e'lon qildi. Bularga T.Kaipberganovning «Qoraqalpoq qizi» dialogiyasini, «Qoraqalpoq dostoni» trilogiyasini, T.Najimovning «Qizilqum og'ushida», A.Bekimbetovning

“Nomus”, “Hayot yo’lida”, Q.Sultonovning “Ajiniyoz” kabi roman va povestlarini ko’rsatish mumkin.

Poeziya sohasida xalq yozuvchisi I.Yusupovning ijodi katta ahamiyat kasb etadi. Uning “Etti davon”, “Yurak qo’rini yurak oladi”, U.Xo’janazarovning “Yillarim”, T.Saidjonovning “Muhabbatnoma” kabi she’riy asarlari ham tanqidchilikda yuqori baholandi.

Keyingi yillar qoraqalpoq adabiyotida dramatik janrning rivojlanishi ko’zga tashlanadi. Zamonaviy va tarixiy mavzuda ko’pgina asarlar yaratildi. I.Yusupovning “San’atkor taqdiri”, “Xushchaqchaq Umirbek”, U.Xo’janiyozovning “Nozanin qiz”, T.Sayitjonovning “Qora ko’zli go’zal”, “Abu rayhon Beruniy”, J.Oymirzaevaning “Ravshan” nomli dramalari yaratildi.

O’zbek va qoraqalpoq xalqlari azaldan bir-biri bilan qondosh xalq sifatida yaqin bo’lib kelgan. Bu do’stlik ularning adabiyotida ham o’z aksini topgan. Xalq og’zaki ijodida ham har ikki xalqqa tegishli asarlar anchagina uchraydi. Keyingi yillarda ko’pgina badiiy adabiyot namunalari o’zbek tiliga tarjima qilindi. Mustaqillik davriga kelgach, bu adabiy aloqalar yanada kengayib va takomillashib bormoqda.

Adabiyotlar

1. Давкараев Н. Очерки по истории дореволюционной каракалпакской литературы. Т., 1959.
2. Нурмухаммедов М. Қорақалпоқ адабиёти тарихи. Т. 1978.
3. Тожибоев А. Сир қўшиқлари. Т. 1970.
4. Бердақ. Танланган асарлар. Т. 1978.
5. Каипбергенов Т. Гумрохлар. Роман. Т., 1978.